Kirish. Bugungi kunda tibbiyot oliygohlarida valeologiya fanini davolash ishi yo'nalishi talabalarga samarali o'qitish uchun texnologiya, axborot, kompyuter, multimedia, internet, masofali o'qish, yagona axborot muhiti va shunga o'xshash axborot-kommunikatsion texnologiyalarning zamonaviy vositalaridan foydalanish o'zining samarasini berishi bilan birgalikda talabalarni ijodiy fikrlashga, ularni muammoni tahlil qilish va shu asosida xulosa qilishga o'rgatadigan texnologiyalarni qo'llash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda didaktik ta'lim texnologiyalarining ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish va ularni valeologiya fanini o'qitish jarayonlariga tadbqiq etish zaruriyati dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Talabalarga bilim berishning maqsadi, vazifalari, mazmuni, uslubiy talablariga ko'ra fan, texnika va ilg'or texnologiya yutuqlaridan unumli foydalanish bugungi ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Didaktik ta'lim texnologiyalari ta'lim jarayonida talabalarda bilimga ishtiyoq va qiziqishlarini oshirish, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishlariga yordam beradi va yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi, ya'ni valeologiya fanini o'qitishda ta'lim texnologiyalarini har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. Tibbiyot ta'lim jarayonida valeologiya fanini o'qitishda talabalarni kreativ, ijodiy fikrlovchi shaxs etib tayyorlashda rivojlantiruvchi metodikalarni qo'llash mumkin. Masalan, valeologiyaga oid nostandart muammolarni hal qiladi, ularni tahlil qiladi va bu orqali talaba ba'zi yangi yechim usullarini eslab qoladi va qo'llaydi. Ma'lumki, bo'lajak tibbiyot xodimining valeologik kompetentligi uchun yangi yo'nalishlarni shakllantirish, ularning didaktik imkoniyatlarini o'rganish – tibbiy ta'lim tizimida uchinchi avlod standartlariga o'tish va o'qitishning umumiy metodologiyasi, o'ziga xos uslub hamda texnikasini ham qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, tibbiyotning turli sohalaridagi integratsion jarayonlar

ilmiy-intensiv texnologiyalarning rivojlanishi bilan birgalikda rivojlanmoqda. Oliy tibbiy ta'limning hamma bosqichlarida va ijtimoiy taraqqiyotning barcha sohalarida axborot hamda bilimning o'рни oshib bormoqda. Axborot jamiyatida bilim, malaka inson hayotidagi ustuvor qadriatlarga aylanishi bormoqda. Oxirgi yillarda sport oliy ta'lim muassasalari talabalarining intellektual, axloqiy rivojlanishini rag'batlantiradigan, uning potensial imkoniyatlarini faollashtiradigan hamda tanqidiy fikrlashni shakllantiradigan ta'limning bu turiga yo'naltirish tobora keng tarqalmoqda. Ushbu turdagi mashg'ulotlar doirasida talaba o'zini o'quv-bilish faoliyatining faol subyekti sifatida namoyon etadi. Valeologiya fanida ishlab chiqilgan loyiha paradigmasi doirasida o'quv jarayonining turli loyihalarini yaratish bilan bog'liq bo'lgan pedagogik dizaynni ajratish mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tibbiyot yo'nalishi talabalarga valeologiya fanini o'qitish mobaynida ularning valeologik kompetentligini rivojlantirish didaktik modelining o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatib o'tamiz. Didaktik model ijodiy aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich rivojlanish nazariyasi hamda muammoli ta'lim nazariyasiga asoslangan bo'lib, u o'z navbatida 2 muhim maqsadni o'z ichiga oladi: Birinchisi, valeologiya fanini o'rganishda talabalarining bilimlarni o'zlashtirish jarayonini ongli ravishda ijodiy boshqarishga yo'naltirib, e'tiborini tafakkur hamda aql madaniyatining faol, mustaqil rivojlanishiga qaratadi. Ikkinchisi, ijodiy fikrlashga, o'z-o'zini rivojlantirishga undaydi, chunki talabaning o'zi muammoni o'zi hal etishi, yangi harakat usulini topishi lozim. Bu nazariyaga asoslanib, talabalar bilim faoliyatining evristik hamda ijodiy darajasiga qaratiladi. Misol uchun, talaba "Valeologiya fanining shakllanishi va rivojlanishi" mavzusini o'rganishining turli bosqichlarida quyidagi funksiyalarni bajaradi. Avvaliga u asosiy tushunchalarning konturlarini belgilashga hamda ularning iyerarxiyasi, didaktik aloqalarini aniqlashga yordam beradi. Keyin u muhim aloqalarni yanada to'liqroq ifodalashga, talabalarining ijodiy faolligini takomillashtirishning pedagogik shartlarini ochib berishga, uning elementlari hamda o'zaro ta'sirining xususiyatini yoritib berishga imkoniyat beradi. Ushbu didaktik model o'quv jarayonida talabalarining ijodiy faolligini rivojlantirishning obyektiv zarurati hisoblanib uni nazariy, uslubiy jihatdan samarali amalga oshirish uchun pedagogik shart-sharoitlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi o'rtasidagi ziddiyatlarning oldini olishga yordam beradi [1;125]. Bunday shakldagi didaktik model tuzilishidan maqsad - talabalarining o'quv jarayonida ijodiy faolligini rivojlantirish sharti sifatida alohida ajratilib ko'rsatiladi. Talabalarining ijodiy faolligini rivojlantirish maqsadini ochib berganda, biz uning asosiy xususiyatlaridan kelib chiqib, ishga yondashamiz. Psixologik hamda pedagogik nuqtai nazardan, maqsad faqat mantiqiy emas, balki yangi bosqichlar, mexanizmlarni kognitiv jarayonga kiritishga asoslangan ta'lim mazmunini assimilyatsiya qilish jarayonini tashkil etishning o'zgarishi bilan bog'liq bo'ladi. Bunda jamiyatning ijodiy, intellektual salohiyatini rivojlantirishga, har bir talabaning imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga maqsadli ta'sir etilib, asosiy didaktik maqsad - o'quv jarayonida talabaning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun uslubiy tizim yaratish orqali sport tizimining dolzarb muammolarini hal etishga ko'maklashadi, ya'ni talaba valeologiya fanini o'rganish orqali kelajakda ushbu tizimning kamchiliklari va yutuqlarini tahlil qiladi. Yuqaridagilardan kelib chiqib, valeologiya fanini o'qitishda quyidagi didaktik vazifalarni belgilab oldik:

- talabalarining refleksiv ijodiy faoliyat usullari hamda texnikasi bilan qurollantirish;
- talabalarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish;
- talabalarining kognitiv faolligini rag'batlantirish;
- yangi bilimlarni o'zlashtirgan talaba hamda ularni ijodiy qo'llash [2;12].

Natijalar. Valeologiya fanini tibbiyot yo'nalishi talabalariga o'qitish jarayonida ularning ijodiy faoliyatiga alohida e'tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi. Sharq olimlari haqidagi fikrlar, ularning faoliyatining ijobiy jihatlariga oid ma'lumotlar orqali ular faoliyatida motivatsion komponent shakllanadi, ya'ni ijodiy o'zlashtirish asosida amalga oshiriladigan,

bo'lajak professional faoliyatning qadriyatlari, maqsadlari, o'quv jarayonida o'z kasbiy rivojlanishiga ongli munosabatni ifodalovchi dominant motivlar tizimi yaratiladi. Ijodiy faoliyat tarkibidagi kognitiv komponent faoliyatda, zamonaviy ta'lim jarayoni kontekstida uning har xil ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Ushbu komponent quyidagi bilimlarni o'z tarkibiga oladi:

- nazariy, shu jumladan, ijodiy faoliyatni amalga oshirish shakllari, tamoyillari, maqsadlari, mazmuni, usullari hamda shakllari haqidagi bilimlar;
- ijodiy faoliyatning mohiyatini bilishni metodologik, odamning atrofidagi dunyo bilan munosabatlarini o'z ichiga olgan usullaridan biridir;
- texnologik, rivojlanayotgan o'quv texnologiyalari hamda ularni amalga oshirish haqidagi bilimlarga asoslangan.

Kognitiv komponentni ijodiy faoliyat tarkibidagi tahlili bilim, ko'nikma hamda ularni shakllanishining mezon ko'rsatkichi sifatida ajratishga imkoniyat beradi.

Xulq-atvor komponenti tibbiyot yo'nalishi talabarlari valeologik kompetentligining amaliy hamda samarali tomonini tavsiflaydi. Bu talabalarining ta'lim, kasbiy faoliyatda o'zini o'zi aniqlashi hamda o'zini namoyon qilishiga qaratilgan hamda bo'lajak shifokorning kasbda o'zini namoyon etishi hamda o'zini o'zi belgilashi, shuningdek, professional harakatning xarakterini, hamda talabaning hayotiy nuqtai nazarini belgilab beradi.

Didaktik model valeologik kompetentlikni rivojlantirishning quyidagi funksional komponentlarini o'z tarkibiga oladi: konstruktiv, gnoseologik, dizayn, tashkiliy hamda valeologik.

Valeologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarining faol kognitiv faoliyati jarayonida shakllanishi lozim bo'lgan har bir komponent uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni ajratib o'tamiz:

1. O'z-o'zini tarbiyalash orqali valeologiya haqidagi bilimlarini to'ldirish, chuqurlashtirish hamda rivojlantirish;
2. Asosiy maqsadni aniqlab, matndagi asosiy muammolarni sarlavha bo'yicha ajratib ko'rsatish;
3. Valeologiya fanini mukammal bilishi hamda ularni umumiy kasbiy tayyorgarligi bilan bog'lay olish;
4. Matndagi tanish kalit so'zlar, tanib olish hamda iboralarni ajratib ko'rsatish, ulardan matnning asosiy mazmunini aniqlash yoki foydali ma'lumotlarni ajratib ko'rsatish uchun foydalanish;
5. Matnning mazmuni hamda u bilan bog'liq savollarni tuzish;
6. Mavzu bo'yicha materiallarni tanlash, tizimlashtirish hamda uning asosida elementar tadqiqotlarni o'tkazish.

Konstruktiv komponent quyidagi ko'nikmalarni o'z tarkibiga oladi:

1. Valeologiya ga oid reja tuzish, uning asosida mantiqan to'liq ma'ruza tuzish;
2. Mavzular uchun kalit so'zlar, iboralarni ajratib ko'rsatish, so'zni shu bilan birga jumalarni, xatlarni to'g'ri tuzish;
3. Mavzularni mantiqiy qismlarga ajratish, har birining asosiy fikrini aniqlash;
4. Valeologiya oid bilimlar asosida taqdim etilgan materialni tayyorlash hamda umumlashtirish.

Muhokama. O'sib kelayotgan yosh avlod uchun zarur bo'lgan valeologik tajribani egallash, nafaqat boshqa insonlar bilan bevosita o'zaro bog'lanish jarayonlarida, balki kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish uchun ham zarur. Har bir inson o'zi uchun kerakli bo'lgan vaziyatlar xarakteri haqida ma'lumotlarni olish uchun zarur bo'lgan vositalar: ijtimoiy jarayonlar, ommaviy axborot vositalari, turli xil mutaxassislik doiralaridagi adabiyotlardan tashkil topishi mumkin.

Shu sababli, albatta har bir tibbiyot yo'nalishi talabasiga bo'lajak shifokorlar kasbiy faoliyatiga doir integratsion valeologik kompetentlik haqida ham gapirish zarur, ba'zi bir alohida hollarda bundan mustasno, bu jarayonga maxsus, mutaxassislikka doir ta'lim kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkin[7;140].

Valeologik kompetentlikka murojaat qilganda, ta'kidlash joizki, u o'z rivojlanishida qandaydir dinamik ta'lim sifati sifatida ikki bosqichdan o'tadi, ya'ni yuqorida aytilgan, shaxs rivojlanishining ma'lum bosqichidan birga mavjud bo'luvchi, shuningdek, darajadan darajaga rivojlanishga oladigan kasbiy va umumiy kompetensiyalar.

Bu kommunikatsiya tilini tartibsiz, stixiyali o'zlashtirish, hamda ta'lim olish vositasida sodir bo'ladi. Bunda agar gap kasb haqida bor bo'lsa, unda valeologiya fanini o'qitish bilan bog'liq bo'lsa va ma'lum shartlar bajarilsa, samaraliroq bo'ladi. Talabalarda valeologik kompetentsiyani valeologiya orqali shakllantirishda quyidagi didaktik xususiyatlarni inobatga olish zarur:

- nutqiy;
- savodli tarzda munosabatga kirishish;
- qo'llab-quvvatlash;
- o'z strategiyasiga ega bo'lish;
- vaziyatini hisobga olish;
- natijasini oldindan prognoz qilish;
- suhbat davomida qayta aloqani yo'lga qo'yish;
- tashabbusni qo'lga olish va qo'llab-quvvatlash;
- kutilgan natijaga erishish uchun imkoniyat yaratish;
- bildirilayotgan fikrlarni tasdiqlash;
- o'z fikrini izchil va ravon bayon qilish.

Shunday qilib, talaba va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlarning jadallashgan sharoitlarida valeologik kompetentligining yuqori darajasi, bo'lajak shifokorlardan tayyorgarligi va himoyalani darajasi yaxshiroq bo'lgan mutaxassisni tayyorlashi mumkin. Bunda bo'lajak shifokorlarning valeologik kompetentligining eng muhim tarafi aynan insonlar bilan ishlash bo'lishi kerak. Biroq, munosabatning barcha shakllarini yuqori darajada egallashi va mos ravishda guruhdoshlar bilan ishni to'g'ri tashkil qilish uchun, tibbiyot yo'nalishi talabalari ayniqsa topqirlik, hozirjavoblik, uddaburonlik, o'ziga bo'lgan ishonch, notiqlik qobiliyatini egallagan bo'lishi kerak.

Bugungi kunda valeologiya fanida qo'llaniladigan didaktik texnologiyalar ta'limda qo'llaniladigan an'analarni yanada rivojlantirib, ushbu sohada juda keng qo'llanilmoqda. Bunday o'qitish o'qituvchining bilim berish jarayonidagi rolini yanada kengaytiradi va yangilaydi. Bunda valeologiya fani o'qituvchisi o'zlashtirish jarayonini muvofiqlashtirishi, yangiliklar va innovatsiyalarga mos ravishda o'qitayotgan fanini muntazam mukammallashtirishi, saviya va ijodiy faoliyatini yanada chuqurlashtirishi talab etiladi. Bunda o'quv materiallari va mazmunini har bir talabaning shaxsiy xususiyatlari va qobiliyatlariga qarab moslashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu albatta, ta'lim samaradorligini oshishiga olib keladi. Shu sababli, valeologiya fanini o'qitish pedagogikaning asosiy xarakteristikasida ham o'z o'rnini topgan, ya'ni kommunikativ tarkibiy qism va uning amalga oshirilishi, o'quv materiallarini yetkazish, uning tarkibini to'g'ri tanlash va asoslash, o'quv mazmunini talabaning shaxsiy xususiyatlari va qobiliyatlariga moslashuvchanligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Популо Г. М. Педагогические условия формирования здорового образа жизни студентов в зависимости от характерологических свойств личности: Дис. ... канд. пед.

наук. – Самара, 2006. –С. 125.

2. Рахимова Ю.Э. Формирование профессиональной компетентности учащихся медицинских колледжей. Автореферат дисс. канд. пед. наук.- Тошкент, 2012. –С.12.

3. Юзликаев Ф.Р. Теория и практика интенсификации дидактического подготовки будущего учителя в системе высшего педагогического образования (на материале педагог. дисц.): Автореф. дисс. докт. пед. наук. -Тошкент: 2005. – С.18.

4. Kushner H, Leighton L. Humanities in the Twenty-First Century. - London: Palgrave Macmillan; 2018. -p.76.

5. Caramiciu J, Arcella D, Desai MS. History of medicine in medical school curricula // Anesthesia history, 2015. №1 (4). – P.42

6. Komilov N.B. Didactic opportunities of teaching history of medicine to foreign students studying in higher medical educational institutions // Academic research in modern science conference. – New York, 2023. – P. 118–122.

7. Komilov N.B. Tibbiy ta'lim jarayonida xorijiy talabalar eksklyuziv kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari. – Farg'ona: Classic, 2023 Monografiya. – 140.b.

Samandarova Shaxnoza Mirjamilovna,

Qarshi davlat texnika universiteti, Raqamli texnologiyalari va su'niy intellekt fakulteti
Kompyuter tizimlarining dasturiy va texnik ta'minoti
kafedrasi assistenti

e-mail: samandarovashaxnozabonu@gmail.com

Abdiraxmonova Sevinch Sharoffjon qizi,

Qarshi davlat texnika universiteti, Raqamli texnologiyalari va su'niy intellekt fakulteti
Dasturiy injiniringi yo'nalishi 4-kurs talabasi

e-mail: abdurahmonovasevinch717@gmail.com

Marqayeva Sabrina Bekmurot qizi,

Qarshi davlat texnika universiteti, Raqamli texnologiyalari va su'niy intellekt fakulteti
Telekamunikatsiya texnologiyalari yo'nalishi 3-kurs talabasi

DART DASTURLASH TILIDA MA'LUMOTLAR TUZILMALARI BILAN ISHLASH YA'NI LISTS, SETS, MAPS, TUPLES TUZILMALARI.

Annotatsiya. Ushbu maqolada dart fanida keng qo'llaniladigan ma'lumotlar tuzilmalari bilan ishlash ya'ni lists, sets, maps, tuples tuzilmalari strukturasining nazariy va amaliy jihatlari ko'rib chiqiladi. Tuzilmalarga doir misol va masalalar dart dasturlash tilida ishlash prinsiplari maqolada ko'rsatib o'tiladi. Bu tuzilmalar har bir dasturlash tilida muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumot tuzilmalari dasturlashning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, ma'lumotlarni samarali saqlash, boshqarish va ularga kirish imkonini beradi. Dartda eng ko'p qo'llaniladigan ma'lumot tuzilmalari Ro'yxatlar (List), Kortejlar (Tuples) To'plamlar (Set) va Xaritalar (Map) hisoblanib ularni dart dasturlash tilida tadbqiqini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: Ro'yxatlar (List), Kortejlar (Tuples) To'plamlar (Set) va Xaritalar (Map), Kross platformali.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты работы со структурами данных, широко используемыми в языке программирования Dart, такими как списки (List), множества (Set), отображения (Map) и кортежи (Tuples). В статье показаны принципы работы с этими структурами на языке Dart с приведением соответствующих примеров и задач. Эти структуры имеют важное значение в каждом языке программирования, так как структуры данных являются одной из основных концепций программирования, обеспечивая эффективное хранение, управление и доступ к данным. В работе рассматривается применение наиболее распространённых структур данных Dart - списков, кортежей, множеств и отображений - в практике программирования.

Ключевые слова: списки (List), кортежи (Tuples), множества (Set), отображения (Map), кроссплатформенность.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of working with data structures widely used in the Dart programming language, including Lists, Sets, Maps, and Tuples. The article demonstrates the principles of working with these structures in Dart through examples and problem-solving tasks. These structures play an important role in every programming language, as data structures are one of the fundamental concepts of programming that enable efficient data storage, management, and access. The study explores the application of the most common Dart data structures-Lists, Tuples, Sets, and Maps-in programming practice.

Key words: Lists, Tuples, Sets, Maps, cross-platform.

Kirish. Dart - Google kompaniyasi tomonidan, umumiy qo'llanish uchun yaratilgan dasturlash tilidir. U asosan web dasturlar yaratish uchun mo'ljallangan bo'lib(ham mijoz, ham server tomon uchun), shu bilan birga mobil ilovalar ham yaratish mumkin.

Dart - obyektga yo'naltirilgan dasturlash tilidir. Dart tilidagi barcha qiymatlar obyektlardan iborat.

Dart dasturlash tili rivojlanishida ko'p yillik tarixga ega bo'lgan dasturlash tillarini ta'siri katta, bular, Smalltak, Java, JavaScript. Dart dasturlash tilining sintaksisi C dasturlash tiliga o'xshash. Dart dasturlash tili 2011-yilning 10-12-oktabr kunlari Daniyaning Orxus shahrida bo'lib o'tgan, GOTO konferensiyasida taqdim etildi. Loyihaga Lars Bak va Kasper Lund asos solgan va Google kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan. Dart 1.0 versiyasi 2013-yil 14-noyabrda chiqarilgan. Keyin esa Dart 2.0 versiyasi 2018-yil avgust oyida til o'zgarishlari, shu jumladan tip tizimi bilan chiqarildi. Dart dasturlash tili o'z rivojlanishida Smalltak, Java, JavaScript kabi oldingi tillardan ta'sirlangan. Uning sintaksisi boshqa C ga o'xshash tillarnikiga o'xshaydi. Demak, agarda siz avval C oilasiga kiruvchi biror dasturlash tilini o'rgangan bo'lsangiz, Dart dasturlash tilini o'rganish siz uchun qiyinchilik tug'dirmaydi. Bundan tashqari, Dart ham obyektga yo'naltirilgan dasturlash tilidir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Dart dasturlash tilini qo'llashning asosiy sohasi bugungi kunda turli platformalar uchun Flutter freymvorkidan foydalangan holda grafik ilovalarni ishlab chiqishdir. Xususan, Flutter web-ilovalari, Android va IOS uchun mobil ilovalar va Windows, MacOS va Linux uchun ish stoli ilovalarini yaratish imkonini beradi.


Dart dasturlash tilini biz nima uchun o'rganishimiz kerak :

1. Hozirgi kunda tez rivojlanib borayotgan va kelajagi bor dasturlash tillaridan biri.
2. Kross platformali (Android, IOS, Windows, Linux, MacOS, web-brauzer).
3. Dartning kompilyator texnologiyasi kodni turli usullarda ishlatish imkonini beradi.
4. Dart ko'plab kundalik dasturlash vazifalari uchun zarur bo'lgan asosiy kutubxonalarning boy to'plamiga ega

5. O'zbekistonda endi rivojlanayotgan dasturlash tillaridan biridir.

Shunday qilib, biz Dart-da umumiy kod bilan dastur yozishimiz va ushbu dasturni barcha qo'llab-quvvatlanadigan platformalar - Android, IOS, Windows, Linux, MacOS, web-brauzer uchun darhol kompilyatsiya qilishimiz mumkin.

Introduction and Basics



1-rasm. Dart flutter strukturasi.

Ma'lumot tuzilmalari dasturlashning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, ma'lumotlarni samarali saqlash, boshqarish va ularga kirish imkonini beradi. Dartda eng ko'p qo'llaniladigan ma'lumot tuzilmalari Ro'yxatlar (List), Kortejlar (Tuples) To'plamlar (Set) va Xaritalar (Map) hisoblanadi.

Tahlil va natijalar: Dart Ro'yxatlar (Lists) Ro'yxat – o'zida bir nechta o'zgaruvchilarni saqlovchi obyekt. Dart dasturlash tilida ro'yxatlar quyidagi tartibda yaratiladi:

```
List<ro'yxat_turi> ro'yxat_nomi = [];  
var ro'yxat_nomi = <ro'yxat_turi>[];
```

```
var ro'yxat_nomi = [];
```

Ro'yxat turi bu ro'yxatga qaysi turdagi elementlarni qo'shish mumkin ekanligini anglatadi va boshqa turdagi elementlar qabul qilinmaydi.

Masalan, mevalar nomli ro'yxatni yarataylik:

```
List<String> mevalar = ["olma", "anor", "behi", "uzum"];
```

Meva nomlari satr bo'lganligi uchun ro'yxat turini String orqali berdik. Ro'yxat elementlari doimo kvadrat qavslar ichida yoziladi va bir nechta bo'lsa, ular bir-biridan vergul orqali ajratib yoziladi.

Ro'yxat har bir elementiga murojaat etish uchun ularning indeksidan qo'llaniladi:

olma	anor	behi	uzum
0	1	2	3

Indekslash doimo 0 dan boshlanadi va ro'yxat eng so'nggi elementi indeksi ro'yxat uzunligidan 1 ta kam bo'ladi. Ro'yxatni print funksiyasi orqali chop etib ko'rishimiz mumkin,

```
void main() {
```

```
List<String> mevalar = ["olma", "anor", "behi", "uzum"];
```

```
print(mevalar); }
```

```
>> [olma, anor, behi, uzum]
```

Dart To'plamlar (Sets) To'plam – o'zida bir xil qiymatga ega bo'lmagan elementlarni saqlovchi obyekt hisoblanadi. Ro'yxatlardan farqi: Doimo to'plam elementlari tartiblangan holatda bo'ladi. O'sish tartibida Bir xil qiymatli elementlar bo'lmaydi . Indeks orqali murojaat qilish imkonsiz

Dart dasturlash tilida ham to'plamlar bilan ishlash uchun Set turidan foydalaniladi va quyidagi usullarda to'plam obyektini yaratish mumkin.

```
Set<to'plam_turi> to'plam_nomi = {}
```

```
var to'plam_nomi = <to'plam_turi> {}
```

{ } – jingalak qavslar to'plamlarni ifodalash uchun ishlatiladi va uning turi ko'rsatib o'tilganda. Yuqoridagi 2 usul kabi.

var to'plam_nomi = {} tarzida to'plam yaratish xato usul hisoblanadi. Bunday holatda to'plam obyektini emas, balki map obyektini yaratilgan bo'ladi. Bu haqida esa keyingi mavzuda bilib olasiz. Bu xatoni bartaraf etish usuli to'plamga hech bo'lmaganda bitta qiymat berib ketish.

```
void main(){
```

```
Set<int>set={1,2,3,4,1,2};
```

```
List<int>list=[1,2,3,4,1,2];
```

```
print(set);
```

```
print(list);
```

```
}
```

```
>>{1, 2, 3, 4}
```

```
>>[1, 2, 3, 4, 1, 2]
```


To'plam xususiyatlari:

Kirish	Xususiyat	Chiqish
{1, 2, 3, 4}	.first	1
{1, 2, 3, 4}	.last	4
{1, 2, 3, 4}	.indexed	((0, 1), (1, 2), (2, 3), (3, 4))
{1, 2, 3, 4}	.isEmpty	false
{1, 2, 3, 4}	.isNotEmpty	true
{1, 2, 3, 4}	.length	4

To'plam funksiyalari:

Kirish	Funksiya	Chiqish
{1, 2, 3, 4}	.add(5)	{1, 2, 3, 4, 5}
{1, 2, 3, 4}	.addAll({5, 6})	{1, 2, 3, 4, 5, 6}
{1, 2, 3, 4}	.clear()	{}
{1, 2, 3, 4}	.contains(3)	true
{1, 2, 3, 4}	.containsAll({4, 5})	false
{1, 2, 3, 4}	.elementAt(2)	3
{1, 2, 3, 4}	.remove(2)	{1, 3, 4}
{1, 2, 3, 4}	.removeAll({2, 3})	{1, 4}

Matematikada ham bilamizki, to'plamlar mavjud. To'plamlar ustida bajariluvchi quyidagi ishlar bor : birlashmasi (union), kesishmasi (intersection) va ayirmasi yoki farqi (difference) deb ham ataladi. Quyidagi rasmga qarab bular haqida bilib olishingiz mumkin.



2-rasm. To'plamlar ustida amallar.

Xuddi shu vazifalarni bajaruvchi to'plam funksiyalari ham mavjud.

Union ikki to'plam birlashmasini to'plam sifatida beradi. Doimgidek bir xil qiymatli elementlar yakka olinadi.

```
void main(){
Set<int> set = {1,3,5};
Set<int> son = {4,5,9};
print(set.union(son));
>>{1, 3, 5, 4, 9}
```

Intersection ikkala to'plamda ham uchraydigan elementlarni to'plam sifatida qaytaradi.

```
void main(){
Set<int> set = {1,3,5};
Set<int> son = {4,5,9};
print(set.intersection(son));
>>{5}
```

Difference birinchi to'plam farqini to'plam sifatida beradi. Ya'ni bunda birinchi to'plamda mavjud, ammo ikkinchi to'plamda uchramaydigan elementlar olinadi.

```
void main(){
Set<int> set = {1,3,5,7,4};
Set<int> son = {4,5,9};
print(set.difference(son));
>>{1, 3, 7}
```

Dart Lug'atlar (Maps)

Lug'at – elementi kalit va qiymat juftligiga ega bo'lgan obyekt. Oddiy qilib aytganda, til o'rganayotgan vaqtimizda turli lug'atlardan foydalanamiz. Bular o'sha tildagi so'z va uning o'zbek tilidagi tavsifi berib o'tiladi. Masalan, language – til. Bunda language kalit va til esa kalitga tegishli qiymat uning tavsifi.

Dart dasturlash tilida Map sinfi elementlar to'plami lug'at tarzida ifodalash uchun qo'llaniladi. Element kalit va qiymati turli ma'lumot turlarida bo'lishi mumkin. Bir xil kalitga ega elementlar bo'lishi mumkin emas.

{ } jingalak qavslar Map obyektini yaratish uchun ishlatiladi. Quyidagi tarzda yaratiladi :

```
Map<kalit_malumot_turi, qiymat_malumot_turi> map_nomi = {};
```

```
var map_nomi = <kalit_turi, qiymat_turi>{};
```

```
var map_nomi = {};
```

Sintaksisni ko'radigan bo'lsak, 1- va 2-usulda kalit_turi, qiymat_turi uchun kerakli ma'lumot turini berib ketish lozim. Keyin faqat mana shu turdagi elementlarni qo'shish mumkin bo'ladi. 3-usul To'plamlar mavzusida aytib ketganimizdek, Set obyektini emas, balki Map obyektini yaratish uchun ishlatiladi.

Map<String, int> dict = {} ; - bu dict nomli Map obyektida kalit turi String, qiymat turi esa int qilib belgilanmoqda.

Lug'at xususiyatlari:

Kirish	Xususiyat	Chiqish
{0:'bir', 1:'ikki', 2:'uch'}	.entries	(MapEntry(0: uzbekdevs.uz), MapEntry(1: fayllar.org), MapEntry(2: arxiv.uz))
{0:'bir', 1:'ikki', 2:'uch'}	.keys	(0, 1, 2)
{0:'bir', 1:'ikki', 2:'uch'}	.values	(uzbekdevs.uz, fayllar.org, arxiv.uz)
{0:'bir', 1:'ikki', 2:'uch'}	.isEmpty	false
{0:'bir', 1:'ikki', 2:'uch'}	.isNotEmpty	true
{0:'bir', 1:'ikki', 2:'uch'}	.length	3

Lug'at funksiyalari:

Kirish	Funksiya	Chiqish
{0:'bir', 1:'ikki', 2:'uch'}	.addAll({3:'to'rt', 4:'besh'})	{0: uzbekdevs.uz, 1: fayllar.org, 2: arxiv.uz, 3: to'rt, 4: besh}
{0:'bir', 1:'ikki', 2:'uch'}	.clear()	{}
{0:'bir', 1:'ikki', 2:'uch'}	.containsKey(2)	true
{0:'bir', 1:'ikki', 2:'uch'}	.containsValue(2)	false
{0:'bir', 1:'ikki', 2:'uch'}	.remove(2)	{0:'bir', 1:'ikki'}

Lug'atga yangi element qo'shish kvadrat qavslar ichida kalit va unga '=' tenglik belgisi orqali mos qiymat tayinlash orqali bajariladi: map[4] = 'to'rt'; - 4 kalit, to'rt esa qiymat.

Endi Map obyektini elementlari mavjud holatda yaratamiz. Buning uchun unga elementlar kalit : qiymat tarzida yoziladi va ular soni bir nechta bo'lsa, vergul bilan ajratib yoziladi ya'ni quyidagicha:

```
void main(){
  Map<int,String>map={ 1:'one',2:'two',3:'three'};
  print(map);}
>>{1: one, 2: two, 3: three}
```

Funksiya orqali lug'at elementi qiymatini yangilash usuli mavjud. Bunda update() funksiyasi qo'llaniladi.

```
String update(int key,StringFunction(String)update);
```

Lug'atning barcha elementlari qiymati tarkibini o'zgartirish uchun updateAll() funksiyasi ishlatiladi. Funksiya sintaksisi:

```
void updateAll(String Function(int, String) update)
```

Quyidagi misolda lug'at barcha elementlarining qiymatini katta harflarga o'tkazadi. Ya'ni bunda barcha elementlari birma-bir ko'rib chiqiladi:

Lug'at elementlarini ko'zdan kechirish uchun for in siklidan foydalanamiz. Biz bunda elementlarni, kalitlarni va qiymatlarni ko'ra olamiz. Lug'at obyektining quyidagi xususiyatlari qo'llaniladi:

entries – yozuvlar ya'ni elementlar deb ham tushunsak bo'ladi

keys - kalitlar

values – qiymatlar

Dart Kortejlar (Tuples)

Dart 3.0 versiyasidan boshlab Dart dasturlash tiliga kortejlar nomli yangi tur qo'shildi. Kortejlar anonim, o'zgarmas tur bo'lib, to'plam turlari kabi bir nechta o'zgaruvchilarni bir o'zgaruvchida saqlash, birlashtirish imkonini beradi. Kortejlar aniq o'lchamga ega bo'ladi ya'ni o'lchami qat'iy, har xil turdagi qiymatlarni o'zida saqlashi va yaratib ketilishi kerak.

Kortej – boshqa dasturlash tillarida ham shu kabi ma'lumotlar turi mavjud. Masalan, oddiy misol:

```
void main (){  
var tuple = (1,2.3, "salom");  
print(tuple);  
>>{1,2.3,salom}
```

Bu yerda tuple nomli kortejni yaratamiz. U uch elementdan iborat: 1 - butun son, 2.3 – haqiqiy son, salom – satr. Kortejni ko'rish uchun print() funksiyasidan foydalanamiz.

Kortejni yaratish uchun () – qavslar qo'llaniladi va uning elementlari bir-biridan vergul bilan ajratib yoziladi.

Kortejni yaratishda uning elementlari qaysi turdagi ketma-ketlikda ekanligini belgilab, keyin qiymatlarni berib yaratish mumkin. Yuqoridagi berilgan misolda kortej elementlari turi avtomatik aniqlab olinmoqda ya'ni tuple o'zgaruvchisi var turida berilgani uchun. O'zgaruvchi turini ko'rganimizda quyidagi natijani ko'rsatadi:

```
void main(){  
var tuple = (1,2,3, "salom");  
print(tuple);}  
>>(int,double,String)
```

Xulosa. Har bir dasturlash tilida ma'lumotlar tuzilmasi kerakli bo'limi hisoblanadi. Bu bo'limlarda Ro'yxatlar (List), Kortejlar (Tuples) To'plamlar (Set) va Xaritalar (Map) lar muhim hisoblanib ularga doir dart dasturlash tilidan foydalanib misol va masalalar ko'rib o'tildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Sanjib Sinha. Beginning Flutter with Dart 2020-years.
2. Anggoro, W. "Chapter 4. Arrays". Data Structures and Algorithms Using C++. O'Reilly. - This chapter explains arrays - as linear data structures - along with their types, representation, and memory location.

Kadirov Ilyosjon Ibragimovich,
O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi markaz boshlig'i

O'ZBEKISTONDA BOSH PROKURORNING QONUNCHILIK TASHABBUSI

Annotatsiya. Mazkur ishda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining qonunchilik tashabbusi huquqi va uning amaliyotdagi ahamiyati tahlil qilingan. Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan vakolatlarga asosan, Bosh prokuror muayyan sohalarida - xususan, huquqni muhofaza qilish, jinoyatchilikka qarshi kurash, inson huquqlarini ta'minlash kabi yo'nalishlarda - qonun loyihalarini ishlab chiqish va Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga kiritish orqali qonun ijodkorligi jarayonida faol ishtirok etadi. Shu bilan birga, prokuratura organlarining qonunchilik tashabbusi orqali huquqiy bazani takomillashtirishdagi o'rni hamda ushbu huquqni amalga oshirishdagi amaliy mexanizmlar yoritilgan. Xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil asosida, Bosh prokurorning qonunchilik tashabbusi huquqidan samarali foydalanishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: qonunchilik tashabbusi huquqi, qonun ijodkorligi, qiyosiy tahlil, huquqiy baza, qonunchilikka taklif, qonunchilikni takomillashtirish.

Аннотация. В данной работе проанализировано право Генерального прокурора Республики Узбекистан на законодательную инициативу и его значение на практике. На основе полномочий, предусмотренных Конституцией и законами, Генеральный прокурор активно участвует в процессе законотворчества, разрабатывая проекты законов и внося их в Законодательную палату Олий Мажлиса, особенно в таких сферах, как обеспечение законности, борьба с преступностью и защита прав человека. Кроме того, в статье освещается роль органов прокуратуры в совершенствовании правовой базы посредством реализации права законодательной инициативы, а также анализируются практические механизмы осуществления данного права. На основе сравнительного анализа международного опыта выработаны предложения и рекомендации, направленные на повышение эффективности использования Генеральным прокурором права законодательной инициативы.

Ключевые слова: право законодательной инициативы, законотворчество, сравнительный анализ, правовая база, законодательное предложение, совершенствование законодательства.

Abstract. This study analyzes the legislative initiative right of the Prosecutor General of the Republic of Uzbekistan and its practical significance. Based on the powers established by the Constitution and laws, the Prosecutor General actively participates in the law-making process by drafting legislative proposals and submitting them to the Legislative Chamber of the Oliy Majlis, particularly in areas such as ensuring the rule of law, combating crime, and protecting human rights. The article also highlights the role of prosecutorial bodies in improving the legal framework through the exercise of legislative initiative and examines the practical mechanisms for implementing this right. Through a comparative analysis of international experience, the study develops proposals and recommendations aimed at enhancing the effective use of the Prosecutor General's legislative initiative right.

Key words: legislative initiative right, law-making, comparative analysis, legal framework, legislative proposal, improvement of legislation.

Davlatning huquqiy asoslarini mustahkamlash va qonun ustuvorligini ta'minlashda prokuratura organlarining o'rni beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va amaldagi qonunchilikka muvofiq, prokuratura organlari nafaqat nazorat funksiyasini, balki huquqiy islohotlarda faol ishtirok etuvchi organ sifatida ham harakat qilmoqda. Shu jumladan,

ularga qonunchilik tashabbusi huquqi berilgan bo'lib, bu orqali prokuratura jamiyatdagi muammolarga huquqiy yondashuv bilan yechim taklif etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Qonunchilik tashabbusi - bu muayyan davlat organlari yoki mansabdor shaxslarning parlamentga qonun loyihalarini kiritish huquqidir. Ushbu jarayon qonun ijodkorligining asosiy mexanizmlaridan biri bo'lib, qonunlarni qabul qilish va ularni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, dunyodagi ko'plab davlatlarda prokuratura organlari qonunchilik tashabbusini kiritish, qonun loyihalarini huquqiy jihatdan baholash, amaldagi normalarning ijrosini nazorat qilish va huquqiy tizimni takomillashtirish kabi muhim vazifalarni bajaradi. Ayrim yurisdiksiyalarda prokuratura mustaqil ravishda qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'lsa, boshqalarida u qonun loyihalarini tahlil qilish va huquqiy xulosalar berish orqali parlament ishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun, ushbu maqolada prokuratura organlarining qonun ijodkorligidagi ishtirok darajasi, ularning davlat huquqiy tizimidagi o'rni va ahamiyati xalqaro tajriba asosida o'rganiladi hamda O'zbekistonda qonunchilik jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi.

Qonun loyihasi, qonunchilik tashabbusi huquqi asosida, belgilangan tartibda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga taqdim etiladi. Agar loyihani ishlab chiqqan sub'yekt bevosita qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'lmasa, u bunday huquqqa ega bo'lgan organ yoki mansabdor shaxsga ushbu loyiha bo'yicha tashabbus kiritish haqida murojaat qilish imkoniyatiga ega.

Qonun loyihalarini rasmiylashtirish va Qonunchilik palatasiga taqdim etish jarayoni Oliy Majlis palatalarining qo'shma qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritiladigan qonun loyihalarini va Senatga taqdim etilgan qonunlarni yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish qoidalari" bilan tartibga solinadi. Mazkur qoidalarga muvofiq, qonunchilik tashabbusi huquqi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, konstitutsiyaviy qonunlari va oddiy qonunlar loyihalarini tayyorlash hamda ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, yoki amaldagi qonunlarni o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risidagi qonun loyihalarini taqdim etish orqali amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, qonun loyihalarini tayyorlash va ularni Qonunchilik palatasiga kiritish tartib-taomillari "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi hamda "Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarida aniq belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga ko'ra qonunchilik tashabbusi huquqiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ega. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi va Bosh prokurori ham o'z vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalar bo'yicha qonunchilik tashabbusi huquqiga egadir.

Qonunchilik tashabbusi huquqi qonun loyihasini qonunchilik tashabbusi huquqi sub'yektlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladi.

Biroq, shuni ta'kidlab o'tish joizki "o'z vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalar" degan jumlagacha aniqlik kiritilmagan. Bu borada, X.Turdiyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi va Oliy sudi va Bosh prokurorining o'z vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalar bo'yicha qonunchilik tashabbusi huquqi tushunchasiga aniqlik kiritish zarurligini ta'kidlangan.

Jumladan, O'zbekiston qonunchiligida mazkur tushuncha yuzasidan ilmiy va amaliy tahlilga ehtiyoj sezilmoqda. Amaliyotda sudlar va Bosh prokuror o'z faoliyati davomida qonunchilik hujjatlaridagi kamchiliklar, bo'shliqlar hamda ziddiyatlarga tez-tez duch kelishadi va bunday holatlarda qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'lgan sub'yektlarga murojaat

qilishadi. Shu nuqtai nazardan, agar ular tomonidan taqdim etilgan qonun loyihasi o'z vakolatlari doirasidagi masalalarga taalluqli bo'lmasa, bunday holda qonun chiqaruvchi organ qanday pozitsiyani egallashi lozim? Loyiha ko'rib chiqilishdan rad etiladimi yoki ko'rib chiqish muddati keyinga qoldiriladimi? Shu bilan birga, "o'z vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalar" tushunchasi orqali qanday huquqiy chegaralar nazarda tutilmoqda? Ushbu masalalarni ilmiy va huquqiy jihatdan chuqur tahlil qilish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining saylov huquqiga ega bo'lgan, yuz ming nafardan kam bo'lmagan fuqarolari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritishga haqli.

Bundan tashqari, O'zbekistonda prokurorlarning roli faqat nazorat va jinoyat qonuni ijrosini ta'minlash bilan cheklanib qolmay, balki huquqiy jamoatchilik va jamiyatda keng ma'rifiy vazifalarni ham o'z ichiga oladi. Ularning vazifalaridan biri jamiyatda huquqiy ong va xabardorlikni oshirishga hissa qo'shish bo'lib, bu orqali aholining huquqiy bilimlarini kengaytirish va qonunlarga rioya etish madaniyatini shakllantirishga ko'maklashadi.

Shuning uchun prokurorlar jamiyat a'zolariga ularning huquqlari, huquqiy imkoniyatlari va sud-huquq tizimidagi jarayonlar haqida ma'lumot berishga qaratilgan tashabbuslarga yetakchilik qilishlari mumkin. Bunday ishlarning amalga oshirilishi jamiyatning huquqiy faolligini oshirish, qonunlarga rioya qilishni mustahkamlash va aholining huquqiy savodxonligini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga asosan, Bosh prokuror o'z vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha qonun chiqarish tashabbusini ilgari sura oladi.

Shuningdek, "Prokuratura to'g'risida"gi qonunning 13-moddasiga muvofiq, Bosh prokuror belgilangan vakolatlari doirasida Qonunchilik palatasiga qonun loyihalari bilan murojaat qilish huquqiga ega.

"Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunning 20-moddasiga muvofiq, qonun loyihasini tayyorlash tashabbusi, faqatgina amaldagi qonunlarda muayyan sohadagi jamoat munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlar yoki ma'muriy tartiblar yo'q bo'lgan taqdirda amalga oshirilishi mumkin.

Qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'lgan shaxs (masalan, Bosh prokuror) qonun loyihasini qonunchilik organiga taqdim etsa, bu loyiha majburiy tarzda ko'rib chiqilishi kerak va unga aniq qaror qabul qilinishi talab etiladi. Biroq, agar faqat taklif tarzida murojaat qilinsa - masalan, amaldagi qonunni o'zgartirish yoki bekor qilish haqida - bu taklifni ko'rib chiqish majburiy emas, ya'ni u rad etilishi yoki ko'rib chiqilmasligi mumkin.

Prokuraturaning qonun ijodkorligidagi ishtiroki ham muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. U qonun loyihalarini ishlab chiqish va ularni muhokamaga taqdim etish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon, albatta, parlament kabi qonun chiqaruvchi organlar bilan yaqin hamkorlikda olib boriladi.

Prokuratura tomonidan qonun loyihalarining ishlab chiqilishi, ko'pincha, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, amaldagi qonunchilikdagi kamchiliklar yoki huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish maqsadida amalga oshiriladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, prokuraturaning qonunlar tayyorlashdagi ishtirokini hokimiyatlar o'rtasidagi muvozanat va cheklovlar tizimining bir qismi sifatida qarash mumkin. Chunki prokuratura o'z faoliyati davomida qonunlar qanday amalga oshirilayotgani haqida to'liq ma'lumotga ega bo'ladi va aynan shu orqali u qanday huquqiy muammolar mavjudligini aniqlab, tegishli qonunlar ishlab chiqish tashabbusini ilgari sura oladi.

Prokuraturaning qonun ijodkorligidagi ishtirok shakllari quyidagilardan iborat:
prokuratura organlari faoliyatiga bevosita aloqador bo'lgan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash hamda ularni qonunchilik tashabbusi huquqi asosida parlamentga taqdim etish;

boshqa davlat organlari tomonidan ishlab chiqilayotgan qonun loyihalarini tayyorlashda ishtirok etish;

qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari bo'yicha huquqiy xulosalar tayyorlash;

qonun loyihalari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarida muhokama qilinganda ularda ishtirok etish.

Bu vazifalarni samarali amalga oshirish uchun prokuratura o'zining nazorat funksiyasidan faol foydalanadi. Prokurorlar Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilinishi, fuqarolarning huquq va erkinliklari himoya qilinishi ustidan doimiy nazoratni amalga oshiradilar.

Shu bilan birga, vazirliklar, idoralar, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar, harbiy qismlar va boshqa mansabdor shaxslar faoliyatining qonun hujjatlariga muvofiqligini tekshirish ham prokuratura e'tiborida bo'ladi.

Prokuraturaning qonun ijodkorligidagi faoliyati jarayonida amaldagi qonunlardagi huquqiy bo'shliqlar, ziddiyatlar va mukammallashtirish talab etiladigan normalar aniqlanadi. Shuningdek, yangi huquqiy hujjatlar qabul qilish zarurati yuzaga keladi.

Bundan tashqari, mahalliy darajada qabul qilinayotgan huquqiy hujjatlarning Konstitutsiya va umumiy qonunlarga mosligi ham prokuratura organlari tomonidan tekshirib boriladi. Bugungi kunda qonun ijodkorligi jarayoni jadal tus olgani sababli, mazkur jarayonda qonunlar va huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish hamda mavjud huquqiy normalarni takomillashtirish vazifasi yanada murakkablashmoqda.

Bu nuqtai nazardan, byudjet, soliq, ijtimoiy, mehnat va ekologik qonunchilik sohalaridagi normalar ayni paytda alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Prokurorlar korrupsiyaga qarshi kurash qonunchiligini ishlab chiqish va takomillashtirish, unga qarshi samarali kurashish usullarini shakllantirishda faol ishtirok etmoqdalar.

Prokuratura nazorati jamiyatdagi deyarli barcha huquqiy sohalarini qamrab oladi. Bu esa, bir tomondan, prokurorlardan amaldagi qonun va me'yorlarni chuqur bilishni talab etadi, ikkinchi tomondan esa, ularga Konstitutsiya va qonunlar qay darajada amalga oshirilayotganini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Shu orqali, huquqiy tizimdagi mavjud muammolarni aniqlash va jamiyatda qanday islohotlarga ehtiyoj borligini belgilash mumkin bo'ladi.

2017 yilda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tarkibida Qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash masalalarini tahlil qilish boshqarmasi tashkil etildi. Bu boshqarmaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

amaldagi qonunlar va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

qonunbuzarliklarning oldini olish va ularni bartaraf etish;

huquqiy normalarni noto'g'ri yoki sub'yektiv talqin qilinishiga yo'l qo'ymaslik;

davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishga ko'maklashish.

Ushbu yo'nalishdagi faoliyat, o'z navbatida, huquqiy tartibotni mustahkamlash va jamiyatda qonuniylikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyinchalik Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari huzurida qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash masalalarini tahlil qilish bilan shug'ullanadigan katta yordamchi lavozimi joriy etildi.

Prokuratura xodimlari doimiy ravishda qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashda ishtirok etib kelishmoqda. Ular ushbu hujjatlarni huquqiy

ekspertizadan o'tkazish, shuningdek, qonun loyihalari ustida ishlovchi qo'mitalar, komissiyalar va ishchi guruhlar tarkibida ishlash orqali muhim rol o'ynaydi.

Shu bilan birga, so'nggi yillarda prokuratura organlari o'z faoliyatida korrupsiyaga oid omillarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan tahliliy ishlarga alohida e'tibor qaratishmoqda.

Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmoniga asosan, Bosh prokuratura tarkibidagi Qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash muammolarini tahlil qilish boshqarmasi doirasida 3 nafar shtat birligidan iborat "Korrupsiyaviy omillarni tahlil qilish bo'limi" tashkil etildi. Shuningdek, ushbu boshqarmaning hududiy bo'linmalari joylarda korrupsiyaga olib keluvchi holatlarni tahlil qilish uchun mas'ul etib belgilandi.

Bu esa shundan dalolat beradiki, prokuratura organlari tomonidan barcha turdagi normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalari qonuniylik nuqtai nazaridan atroflicha o'rganiladi hamda ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha zarur choralar ko'riladi.

Umuman olganda, O'zbekiston prokuratura organlarining qonun ijodkorligidagi faol ishtiroki mamlakatning huquqiy poydevorini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Qonunlarning asosiy ijrochilari sifatida prokurorlar ko'p hollarda huquqiy islohotlarni ilgari surishda yetakchi rol o'ynaydi. Ular amaliyotdagi tizimli muammolarni aniqlab, huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish va sud-huquq sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda faol qatnashmoqda.

Boshqa hokimiyat tarmoqlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishga hissa qo'shgan holda, O'zbekiston prokurorlari mamlakat huquqiy tizimining uzluksiz takomillashib borishi va sud-huquq islohotlarining samaradorligini oshirish jarayonida markaziy organlardan biriga aylanishlari mumkin. .

Yuqoridagilarga ko'ra, mazkur mavzu yakuni doirasida quyidagilar taklif etiladi:

- prokuratura tashabbuslarining ommaviy muhokamalarini ko'paytirish;
- ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikda qonun loyihalarini ishlab chiqish;
- axborot texnologiyalari orqali tashabbuslarni jamoatchilikka yetkazish mexanizmlarini kuchaytirish.

- Bosh prokurorining o'z vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalar bo'yicha qonunchilik tashabbusi huquqi tushunchasiga aniqlik kiritish.

O'zbekistonda qonun ustuvorligiga erishish va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishda prokuratura organlarining roli ortib bormoqda. Qonunchilik tashabbusi huquqi esa ularga ushbu jarayonda faol qatnashish, muammolarni huquqiy vositalar orqali hal etish imkonini beradi. Shu boisdan, prokuratura organlarining qonunchilik jarayonidagi ishtiroki strategik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonun. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.04.2021 y., 03/21/682/0354-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritiladigan qonun loyihalarini va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga taqdim etilgan qonunlarni yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish qoidalari. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 2011 y., 1-son, 15-modda.

3. O'zbekiston Respublikasining "Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi Qonuni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 14.03.2017 yildagi PQ-2833-son.

5. Turdiyev X. Nekotoryye problemy realizatsii zakonodatelnoy initsiativy: konstitusionno-pravovoy analiz //Obshchestvo i innovatsii. – 2024. – T. 5. – №. 4. – S. 88-94.
6. Kucheryavsev D. A. Rol sudov v osushchestvlenii prava zakonodatelnoy initsiativy v Rossiyskoy Federatsii // Konstitusionnoye i munitsipalnoye pravo. 2015. № 5.
7. Shokirov O. Mahalliy davlat hokimiyati organlari norma ijodkorligi faoliyatida qonuniylikni ta'minlashda prokuratura organlari ahamiyatini oshirish //Obshchestvennyye nauki v sovremennom mire: teoreticheskiye i prakticheskiye issledovaniya. – 2024. – T. 3. – №. 9. – S. 26-30.

Atayeva Maloxat Isakovna,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim
metodikasi kafedrası” katta o‘qituvchisi
e-mail: moxim1221@gmail.com

ZAMONAVIY MAKTAB O‘QITUVCHISINING KASBIY MOBILLIGINI RIVOJLANTIRISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy maktab o‘qituvchisining kasbiy mobilligini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. O‘qituvchi faoliyatida mobillikning mohiyati, uni shakllantirish omillari hamda xalqaro tajribalar asosida tahlil qilingan yondashuvlar ochib berilgan. O‘qituvchining kasbiy moslashuvchanligi, malaka oshirish tizimi va innovatsion tayyorgarlik darajasi yoritilgan

Kalit so‘zlar: kasbiy mobillik, o‘qituvchi, zamonaviy maktab, innovatsiya, refleksiya, malaka, moslashuvchanlik, o‘zini rivojlantirish.

Аннотация. В статье освещены теоретические и практические аспекты развития профессиональной мобильности современного школьного учителя. Рассмотрена сущность мобильности в педагогической деятельности, факторы её формирования, а также проанализированы подходы на основе международного опыта. Показаны профессиональная адаптивность учителя, система повышения квалификации и уровень инновационной готовности.

Ключевые слова: профессиональная мобильность, учитель, современная школа, инновации, рефлексия, квалификация, гибкость, саморазвитие.

Abstract. The article examines the theoretical and practical aspects of developing the professional mobility of a modern school teacher. The essence of mobility in pedagogical activity, the factors of its formation, and approaches based on international experience are analyzed. Teacher’s professional adaptability, professional development system, and level of innovative readiness are highlighted.

Key words: professional mobility, teacher, modern school, innovation, reflection, qualification, flexibility, self-development.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchi shaxsiga qo‘yilayotgan talablar yildan-yilga ortib bormoqda. Global raqobat, axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanishi, o‘quvchilarning ehtiyoj va qiziqishlaridagi o‘zgarishlar o‘qituvchidan doimiy yangilanishni, moslashuvchanlikni va kasbiy mobillikni talab etadi. Kasbiy mobillik o‘qituvchining o‘z faoliyatida yangi sharoitlarga tez moslasha olishi, ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirib, yangicha pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish qobiliyatini anglatadi. Zero, “Ilg‘or pedagog o‘z faoliyatida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llay oladi, mualliflik dasturlariga ega, tanqidiy fikrlaydi va ijodiy salohiyatini to‘la namoyon eta oladi”.[6].

Kasbiy mobillik o‘qituvchining yangi pedagogik texnologiyalarni tez o‘zlashtirishiga va o‘z faoliyatini doimiy takomillashtirishga imkon beradi. Shu bilan birga, u o‘quvchilarning individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. U.Yarichev (Н.У.Ярычев) va L.I.Sambiyeva (Л.И.Самбиева) o‘zlarining “Развитие профессиональной мобильности учителя современной школы” nomli monografiyalarida Rossiya ta’lim tizimida o‘qituvchining kasbiy mobilligiga alohida e’tibor qaratilishini ta’kidlab, uni ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida baholaydilar.

Adabiyotlar tahlili va metod. Kasbiy mobillik tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin etilgan. Ba’zi tadqiqotchilar uni o‘qituvchining o‘z kasbiy faoliyatini yangi sharoitlarda

davom ettirish qobiliyati sifatida talqin etsa, boshqalar uni pedagogning o'zini rivojlantirishga bo'lgan tayyorgarligi deb izohlaydi.

N.U.Yarichev (Н.У.Ярычев) va L.I.Sambiyeva (Л.И.Самбиева) monografiyasida kasbiy mobillik o'qituvchining refleksiv fikrlashi, innovatsion faoliyatga ochiqqligi hamda o'z kasbiy tajribasini tahlil qila olish malakasi bilan bevosita bog'liq ekanligi ta'kidlanadi [10]. Ularning ning ilmiy qarashlari asosida pedagogik faoliyatda moslashuvchanlik, yangilikka ochiqqlik va o'z-o'zini rivojlantirish zaruriyati yoritilgan. O'zbekiston ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar, innovatsion metodlar va kompetensiyaviy yondashuv o'qituvchining kasbiy mobilligini ta'minlashning asosiy omillari sifatida ko'rib chiqilgan. O'qituvchining mobilligini oshirish uchun malaka oshirish kurslari, seminarlar, xalqaro onlayn platformalarda ishtirok etish, shuningdek, o'zaro tajriba almashish samarali natija beradi. Bu jarayon o'qituvchida "refleksiv tafakkur" va "metodologik mustaqillik"ni shakllantiradi.

Shuningdek, K.Rogers(Carl Rogers), J.Dewey (John Dewey-amerikalik faylasuf va pedagog, tajribaviy ta'lim nazariyasi asoschisi. U "tajriba orqali o'rganish" g'oyasini ilgari surgan.), V.A.Slastenin(Виктор Александрович Сластенин - rus pedagogi, pedagogika nazariyasi va o'qituvchining professional shakllanishi bo'yicha yetakchi olimlardan biri) va L.M.Mitina (Людмила Михайловна Митина - zamonaviy rus psixologi, o'qituvchining professional rivojlanishi, stress va adaptatsiya masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan)

kabi olimlar asarlarida o'qituvchi shaxsining o'zgaruvchan muhitga moslashuvi pedagogik mahoratning ajralmas qismi sifatida qaraladi. [2;7;8;9].

"Mobillik" komponenti esa, ta'lim oluvchining individual qobiliyatini kelajak

faoliyatiga tezkor moslashni nazarda tutadi[4]. Bunda bolalarning bog'chaga va maktabga tez moslashishi, talabalarning oliy ta'lim muassasalariga va kelajak kasbiy faoliyatiga tez moslashishini ta'minlovchi "kelajak uchun, bugun moslash"; "bir qadam oldinda" kabi tamoyillar asosida pedagogik-psixologik tadqiqotlar olib boriladi.

Ushbu yondashuv ta'lim jarayonida individual qobiliyatlarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. Pedagogik-psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalar va talabalar muhitga tez moslashganda ularning o'rganish samaradorligi va kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorgarligi oshadi. Shu sababli, "mobillik" komponentini ta'lim dasturiga kiritish, ularni turli pedagogik vaziyatlarga moslashish qobiliyatini rivojlantirish va shaxsiy yutuqlarini rag'batlantirishga xizmat qiladi. Bu tamoyil "kelajak uchun, bugun moslash" degan g'oya bilan uzviy bog'liq bo'lib, ta'lim oluvchilarni har doim bir qadam oldinda bo'lishga undaydi.

Ushbu maqolada adabiyotlar tahliliga asoslanib, o'qituvchilarning kasbiy mobilligini rivojlantirishda refleksiv yondashuv, uzluksiz ta'lim va innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyati o'rganildi. Tadqiqotda tavsifiy-tahliliy metodlar, taqqoslash va umumlashtirish usullari qo'llanildi.

Muhokama. Kasbiy mobillikni rivojlantirishda o'qituvchining shaxsiy motivatsiyasi, kasbiy qadriyatlari va o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ichki ehtiyoji muhim o'rin tutadi. O'qituvchi o'z faoliyatini faqat dars o'tish bilan cheklamasdan, balki o'z kasbiy kompetensiyalarini kengaytirib borishi kerak.

N.U.Yarichev va L.I.Sambiyeva monografiyasida shunday jumalarni o'qiymiz: «Современная школа нуждается в учителе, способном быстро перестраивать свою деятельность в зависимости от новых образовательных стандартов и запросов общества». Maktab ta'limi yangi standartlar, raqamli texnologiyalar va jamiyat ehtiyojlariga moslashgan o'qituvchini talab qiladi. Bu O'zbekiston ta'lim tizimida ham dolzarb - chunki yangi davlat o'quv dasturlari, kompetensiyaga asoslangan yondashuvlar joriy etilmoqda. Rossiya Federatsiyasida o'qituvchilarning mobilligini oshirishga qaratilgan malaka oshirish kurslari, onlayn platformalar va pedagogik forumlar samarali yo'lga qo'yilgan [10]. Ushbu tajriba O'zbekiston ta'lim tizimida ham tatbiq etilishi mumkin. Bundan tashqari, o'qituvchining kasbiy mobilligi jamoaviy hamkorlik, tarmoq loyihalari va o'zaro tajriba almashinuvi orqali

ham rivojlanadi. Shu jihatdan o'qituvchilarning professional jamoalarini shakllantirish va ularga doimiy axborot-metodik yordam ko'rsatish muhimdir.

Natijalar.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining kasbiy mobilligini rivojlantirish:

- o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi;
- ta'limda innovatsion g'oyalarni tatbiq etish imkonini beradi;
- o'qituvchi shaxsining ijodiy va reflektiv salohiyatini kuchaytiradi.

Yarichev va Sambiyeva tomonidan ishlab chiqilgan modelda kasbiy mobillikning asosiy komponentlari - moslashuvchanlik, yangilikka ochiqlik va o'zini rivojlantirishga tayyorgarlik sifatida ko'rsatilgan [10]. Ushbu model o'qituvchining faoliyatini o'zgaruvchan sharoitlarda samarali tashkil etishga yordam beradi.

Xulosa. Kasbiy mobillik zamonaviy ta'lim tizimi uchun o'qituvchining eng muhim sifatlaridan biridir. U o'qituvchining zamon talablariga moslashishini, innovatsiyalarni qabul qilishini va o'quvchilarning o'sishiga samarali ta'sir ko'rsatishini ta'minlaydi. O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ham ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, o'qituvchilar malakasini oshirish dasturlarida mobillikni asosiy komponent sifatida kiritish muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim tizimi o'qituvchining professional mobilligini asosiy omil sifatida inobatga olgan holda shakllantirilishi lozim. Bu tizimda har bir o'quvchining qobiliyatlari va ehtiyojlari individual tarzda hisobga olinadi, o'qituvchi esa doimiy ravishda yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirib, o'z faoliyatini takomillashtiradi. Pedagoglar bir-biri bilan tajriba almashish orqali innovatsion yondashuvlarni amaliyotga joriy etadi va shaxsiy refleksiyasini rivojlantiradi. Shu tariqa, o'qituvchining ijodiy va metodik malakasi oshib, ta'lim sifati va samaradorligi yanada yaxshilanadi, ta'lim jarayoni esa o'quvchilarning individual rivojlanishiga moslashgan, samarali va innovatsion muhitga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Denisenko V.A. (2003). O'quv logistikasi asoslari. Kaliningrad: KDU nashriyoti.
2. Dewey J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan.
3. Gromova T.A., Selivanov A.V. (2012). O'quv jarayonining logistikasi. Reshetnevskie o'qish, 2(16), 761–762.
4. Muxamedov G.I., Usarov J.E. (2023, 19–20 oktabr). Zamonaviy o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish strategiyalari. In International scientific-practical conference "Strategies for the development of professional competence of future teachers based on the approach of cultural studies: problems and solutions", 215.
5. Nelunova E.D. (2020). Multimedia ta'lim muhiti va o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirish modeli. Moskva: Pedagogika nashriyoti.
6. Nurullayeva Sh.U., Atayeva M.I. (n.d.). Ilg'or va innovatsion tajribalarning ta'lim jarayonidagi o'rni: psixologik-pedagogik yondashuv asosida tahlil. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social sciences, 5(8).
7. Rogers C. (1983). Freedom to Learn. Columbus, OH: Merrill.
8. Selevko G.K. (2006). Ta'lim texnologiyalari ensiklopediyasi. Moskva: Maktab texnologiyalari ITI.
9. Slastenina V.A., va Mitina L.M. (2017). Psixologiya professional'noy deyateli'nosti uchitelya. Moskva: Akademiya.
10. Yarychev N.U., va Sambieva L.I. (2020). Razvitie professional'noy mobil'nosti uchitelya sovremennoy shkoly: monografiya. Grozny: Izdatel'stvo ChGPU.
11. Gromova, T.A., Selivanov, A.V. (2012). O'quv jarayonining logistikasi. Reshetnevskie o'qish, 2(16), 761–762.

12. Muxamedov, G. I., Usarov, J. E. (2023, October 19–20). Zamonaviy o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish strategiyalari. In International scientific-practical conference "Strategies for the development of professional competence of future teachers based on the approach of cultural studies: problems and solutions", 215.
13. Nelunova, E. D. (2020). Multimedia ta'lim muhiti va o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirish modeli. Moskva: Pedagogika nashriyoti.
14. Nurullayeva, Sh. U., Atayeva, M. I. (n.d.). Ilg'or va innovatsion tajribalarning ta'lim jarayonidagi o'rni: psixologik-pedagogik yondashuv asosida tahlil. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social sciences, 5(8).
15. Rogers, C. (1983). Freedom to Learn. Columbus, OH: Merrill.
16. Selevko, G. K. (2006). Ta'lim texnologiyalari entsiklopediyasi. Moskva: Maktab texnologiyalari ITI.
17. Slastenin, V. A., Mitina, L. M. (2017). Psixologiya professional'noy deyatel'nosti uchitelya. Moskva: Akademiya.
18. Yarychev, N. U., Sambieva, L. I. (2020). Razvitie professional'noy mobil'nosti uchitelya sovremennoy shkoly: monografiya. Grozny: Izdatel'stvo ChGPU.

Fattoyeva Zarina Raxmatovna,
Buxoro davlat tibbiyot instituti, o'zbek tili va adabiyoti, rus va ingliz tili kafedrası
o'qituvchisi.
e-mail: zarina_fattoyeva@bsmi.uz
orcid: UO'K : 81-11.44

SOHA LEKSIKASIDA QISQARTMALARNING IFODALANISH XUSUSIYATLARI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)

Annotasiya. Tilshunoslik insoniyat tilini o'rganadigan mustaqil fan bo'lib, tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi, til va tafakkur, til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, tilning jamiyatdagi o'rni, ichki tuzilishi - tilning tasnifi, uni tahlil qilish usullari va shu kabi masalalarni o'rganadi. Ushbu maqolada geodeziyaga oid qisqartmalarning ingliz va o'zbek tillarida ifodalanishi, ularning yasash qoidalari, shuningdek, farqli va o'xshashlik jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, fan, atama, lingvistika, qisqartma so'zlar, olimlar, abbreviatura, manbaa, tushuncha, nutq jarayoni, farq, soha, geodeziya, atama, AutoCAD, BRL.

Аннотация. Лингвистика это самостоятельная наука, изучающая язык человечества, изучающая такие вопросы, как возникновение и развитие языка, язык и мышление, взаимоотношения языка и общества, место языка в обществе, его внутреннее строение-классификация языка, методы его анализа и тому подобное. В этой статье рассматривается выражение сокращений по геодезии на английском и узбекском языках, правила их создания, а также различия и сходства.

Ключевые слова: Лингвистика, наука, термин, аббревиатуры, ученые, источник, понятие, речевой процесс, различие, отрасль, геодезия, термин, АКД.

Annotation. Linguistics is an independent science that studies the language of mankind, the emergence and development of language, language and thought, the relationship between language and society, the role of language in society, its internal structure - the classification of language, the methods of its analysis and the others. This article deals with the definition of abbreviations on geodesy in English and Uzbek languages, their rules of legalization, the differences and similarities between these languages.

Key words: linguistics, science, term, abbreviated words, abbreviation, scientists, source, concept, speech process, difference, sphere, geodesy, term, AutoCAD

Azaldan bizga ma'lumki, tilshunoslik insoniyat tilini o'rganadigan mustaqil fan bo'lib, ushbu atama bilan bir qatorda ilmiy manbaalarda lingvistika atamasi ham keng qo'llanib kelmoqda. Tilshunoslik tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi, til va tafakkur, til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, tilning jamiyatdagi o'rni, ichki tuzilishi - tilning tasnifi, uni tahlil qilish usullari va shu kabi masalalarni o'rganadigan- fandır. Til - nutq bo'lib, fikr, his-tuyg'u, istak kabilarni ifodalashda xizmat qiladigan fonetik, leksik va grammatik vositalar tizimi; kishilar orasida asosiy va eng muhim aloqa, fikrlashuv quroli bo'lib xizmat qiladigan ijtimoiy hodisa.

Tilshunoslikning bir qismi hisoblanmish qisqartma so'zlar, abbreviatura yillar davomida qator olimlar tomonidan o'rganilib, ko'plab ilmiy manbaalarda yoritilgan. Ushbu tushunchalarni o'rganishda O.Yespersion,

G.Kannon, L.Blumfeld, N.N.Alekseyeva, V.P.Korovushkin, L.B.Tkacheva V.V.Borisov, I.V.Arnol'd, M.T.Irisqulov, A.Hojiev kabi olimlar o'z hissalarini qo'shganlar. Tilshunoslikda qisqartma so'zlar hamda abbreviatura tushunchalari keng qo'llanib kelinmoqda. Bu atamalar o'rtasida deyarli katta farq bo'lmasa-da, ularning har ikkalasi alohida atama sifatida o'rganilgan.

Ushbu atamalarni alohida tushuncha sifatida ko'rib chiqadigan bo'lsak, ularning har biriga tilshunoslikka oid manbaalarda quyidagicha ta'rif berilgan:

Qisqartirish natijasida olingan so'zlar qisqartmalar yoki murakkab so'zlar deb ataladi.

Qisqartma so'zlar bu mustaqil so'z birikmalarining bosh harflarini yoki ma'lum bir qismini qo'shish orqali hosil qilingan so'zlardir. Qisqartma so'zlarni quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin:

mat-chet – matematika – chet tili yo'nalishi

BMT - Birlashgan millatlar tashkiloti

IIB – Ichki ishlar boshqarmasi

Qisqartmalar nutq jarayonida ixchamlikka erishish zarurati tufayli dastlab yozma nutqda paydo bo'lib, keyinchalik og'zaki nutqda ham foydalana boshlangan.

Qisqartma so'zlar, asosan, ot turkumiga mansub bo'lib, quyidagi usullar orqali hosil qilinadi:

1) so'z birikmasi komponentlarining birinchi harflarini qo'shish orqali. Masalan, DTS - Davlat ta'lim standarti, MTRK – Milliy teleradiokompaniya; Qisqartma so'zlarning ushbu turi ilmiy adabiyotlarda abbreviatura deb ham ataladi;

2) so'z birikmasi tarkibidagi 1-so'zning 1-bo'g'inini, qolgan so'zlarning 1-harflarini olib qo'shish orqali hosil qilinadi. Masalan, O'zMU - O'zbekiston milliy universiteti, O'zAS - "O'zbekiston adabiyoti va san'ati";

3) so'z birikmasi tarkibidagi so'zlarning bosh qismlarini olib qo'shish orqali - biofak - biologiya fakul'teti, jurfak - jurnalistika fakul'teti;

4) so'z birikmasi tarkibidagi 1-so'zning 1-bo'g'inini, qolgan so'zlarni qisqartirmay qo'shish orqali - O'zdonmahsulot, O'zgazloyiha;

5) aralash yo'l orqali - O'zbektelekom, O'zteleradiokompaniya, O'zavtoyo'l va boshqalarni bunga misol tariqasida ko'rsatishimiz mumkin.

Qisqartma so'zlar xalqaro tashkilotlar (BMT, YuNESKO), mamlakat va davlatlar (BAA, RF, AQSh), siyosiy partiyalar, harbiy uyushmalar (O'zLDP, NATO), ilmiy-o'quv muassasalari (O'zRFA, O'zDJTU, BuxDU), vazirlik, idora, muassasa, tashkilot, korxonalar (XTV, DTM, O'zmashxolding, Toshshaharnur), mashina, asbob-uskunalar va inshootlar (EHM, ATS, GES) va boshqalarning nomlarini bildiradi. Qisqartma so'zlar tayyor holda boshqa tillardan o'zlashtirilishi (YuNESKO, FIFA, FIDE, NATO) yoki muayyan til, masalan, o'zbek tili leksik birliklari asosida hosil qilinishi ham mumkin. Keyingi turga mansub o'zbekcha qisqartma so'zlarning aksariyati rus tilidagi so'z birikmalari va ular asosidagi qisqartma so'zlarning ko'chirmalari hisoblanadi, masalan, BMT-OON, DAN-GAI, OAV - SMI, YeHM-EVM kabi [5].

Qisqartma so'zlardan farqli ravishda, abbreviatura – ital'yancha “abbreviature”, lotincha “abbrevio” degan so'zlardan olingan bo'lib, qisqartma, qisqartiraman degan ma'nolarni ifodalaydi. Tilshunoslikda abbreviatura so'z birikmalarini qisqartirish orqali hosil qilingan so'zlar hisoblanadi. Abbreviatura quyidagi turlarga ajratiladi: a) birikma tarkibidagi so'zlar birinchi harflari alifbo tartibida o'qiladi yoki oddiy so'z – harflar anglatgan tovushlar kabi talaffuz yetiladi. Masalan, OTM (o-te-em)– Oliy ta'lim muassasasi, MDH (em-de-he)-Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi; b) murakkab qisqartma so'zlar: So'z birikmalari tarkibidagi so'zlarning birinchi harflaridan tashqari, ularning ma'lum qismlari (morfemalari) olinib yasaladi. Masalan, O'z.Res.- O'zbekiston Respublikasi, filfak (filologiya fakul'teti) [6];

Ushbu qisqartmalar nafaqat tilshunoslikda, balkim har bir sohada, ya'ni sohaga doir atamalar orasida ham anchani tashkil qiladi. Sohaga oid qisqartma so'zlar atamalarni ixchamlashtirishga katta yordam beradi. Quyida geodeziya sohasiga oid ba'zi bir qisqartma so'zlarni ingliz va o'zbek tillarida ifodalanishini ko'rib chiqamiz:

№	ENGLISH	UZBEK
1.	AUTOCAD-Automatic computer-aided design	AKD-Avtomatik komp'yuter dizayn
2.	BRL – Building Restriction Line	QChCh -Qurilishni Cheklash Chegarasi
3.	BS – Back Sight	TK-teskari ko‘rish
4.	BSL – Building Setback Line	BBCh-Binoning Boshlanish Chegarasi
5.	CL – Center Line	MCh-Markaziy Chiziq
6.	ConMonF–Concrete Monument Found	BBP-Beton bino poydevori
7.	EBL – East Boundary Line or Eastbound Lane	ShChCh- Sharqiy Chegara Chizig‘i
8.	EDM-Electronic distance measurement	EMO‘-Elektron Masofaviy O‘lchagich
9.	EIP – Existing Iron Pipe	MTQ- Mavjud Temir Qoziq
10.	FD – Found	P.-poydevor
11.	GPS-Global Positioning System	GNT-Global Navigasiya Tizimi
12.	IPF – Iron Pipe/Pin found	TQP-temir qoziq poydevor
13.	IRF – Iron Rod Found	TBQP-Temir –beton qozikli poydevor
14.	IRS – Iron Rod Set	TQM-Temir qoziq majmui
15.	L.O.D. – Limit of Disturbance	BCh-Buzilish chegarasi
16.	NBL – North Boundary Line or Northbound Lane	ShChCh- Shimoliy Chegara Chizig‘i
17.	NIP – New Iron Pin	YaTQ-Yangi temir qoziq
18.	SBL – South Boundary Line or Southbound Lane	JChCh-Janubiy chegara chizig‘i
19.	SC – Standard Corner	SB-Standart burchak
20.	SR – Steel Rebar	PA-Po‘lat armatura

Ushbu misollardan ko‘rinib turibdiki, garchi bir sohaga tegishli bo‘lsa-da, ingliz va o‘zbek tillarida atamalarning qisqartmasi turli xil usullarda yasalgan. Qisqartmalarni tarjima qilish texnikasi va qoidalari qisqartmaning umumiy qabul qilinganligi yoki muallifligiga bog‘liq. Umumiy qabul qilingan qisqartmalarni tarjima qilish mualliflikka qaraganda osonroq. Biroq, bu yerda qiyinchilik texnik atama doimiy ravishda yangilanib turadi. Hatto bugungi kunda umumiy qabul qilingan atamalar ham rasman chop etilgan akademik lug‘atlarda qayd etilmasligi mumkin. Muallif tomonidan tarjima qilingan qisqartmalarni tarjima qilish yo‘llari yanada qiyinlashadi. Uning murakkablik shundaki, bunday qisqartmalar ma’nosi boshqa bo‘lishiga qaramasdan boshqa soha atamalari bilan mos kelmasligi kerak. Bu esa muallifdan diqqat va e’tiborni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Abilities to Express Lexical Units in Translation. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(1).
2. Nabiyaldrisovna, A., Maqsudovna, A. M., Abduraxmonova, S. D., & Raxmatovna, F. Z. (2020). Abilities to Express Lexical Units in Translation. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(1).
3. Abdullayeva Nabiyaldrisovna. (2021). Skills of discovering students' psychological character in the world and Uzbek literature. Philosophical Readings, XIII(4), 619–625. <https://doi.org/10.5281/zenodo.5083298>

4. Abdullayeva N.I. (2020). Students portrait and its features in English literature. Journal/X. Multidisciplinary Peer reviewed journal.6.Issue 4
5. Abdullayeva, N. I. (2019). Description and explanation material and spiritual view of students'character in the world literaturte. in european research: innovation in science, education and technology (pp. 29-31).
6. Abdullayeva, N. I. (2019). Method of teaching english in technical institutes. Internationalscientificreview, (LXIV).
7. Idrisovna, A. N. (2020). Students'character and portrait in english literature. InternationalEngineeringJournalForResearch&Development, 5(8), 5-5

Negmatova Zulayho Shermatovna,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi

O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ETNOPEDAGOGIK MANBALARDAN FOYDALANISHDA YANGI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'qish savodxonligi darslarida etnopedagogik manbalardan foydalanish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni o'rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi - o'quvchilarning o'qish malakasini oshirish, shuningdek, milliy an'analar va qadriyatlar bilan bog'liq bilimlarni ta'lim jarayoniga integratsiyalashda innovatsion texnologiyalarni qo'llashning samaradorligini aniqlashdir. Maqolada o'qish savodxonligini rivojlantirish jarayonida interaktiv va shaxsiylashtirilgan pedagogik vositalar, elektron va audiokitoblar, multimedia resurslari, onlayn platformalar va sun'iy intellekt yordamida ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyatlari muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, etnopedagogik manbalarni yangi ta'lim texnologiyalari bilan birlashtirish o'quvchilarning faolligi, tanqidiy fikrlash qobiliyati va so'z boyligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, o'qituvchilarga o'quv jarayonini shaxsiylashtirish va har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari pedagogik texnologiyalarni o'qish savodxonligi darslarida samarali qo'llash orqali milliy an'analarni saqlab qolgan holda ta'lim sifatini oshirish mumkinligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: o'qish savodxonligi, etnopedagogik manbalar, pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar, audiokitoblar, shaxsiylashtirilgan ta'lim.

Abstract. This article examines the use of ethnopedagogical sources in literacy lessons and the role of modern educational technologies in the teaching process. The main objective of the study is to improve students' reading skills and integrate knowledge related to national traditions and values into the learning process through the application of innovative technologies. The article discusses the use of interactive and personalized pedagogical tools, e-books and audiobooks, multimedia resources, online platforms, and the possibilities of data analysis using artificial intelligence in literacy development. The research results indicate that combining ethnopedagogical sources with new educational technologies significantly enhances students' engagement, critical thinking skills, and vocabulary. At the same time, it allows teachers to personalize the learning process and meet each student's individual needs. The findings suggest that effectively applying educational technologies in literacy lessons can improve the quality of education while preserving national traditions.

Key words: literacy, ethnopedagogical sources, educational technologies, interactive methods, audiobooks, personalized learning.

Аннотация. В статье рассматривается использование этнопедагогических источников на уроках грамотности и роль современных образовательных технологий в учебном процессе. Основная цель исследования – повышение навыков чтения у учащихся и интеграция знаний о национальных традициях и ценностях через применение инновационных технологий. В статье обсуждается использование интерактивных и персонализированных педагогических инструментов, электронных книг и аудиокниг, мультимедийных ресурсов, онлайн-платформ, а также возможности анализа данных с применением искусственного интеллекта для развития грамотности. Результаты исследования показывают, что сочетание этнопедагогических источников с новыми образовательными технологиями значительно повышает вовлечённость учащихся, развитие критического мышления и словарный запас. В то же время это позволяет преподавателям персонализировать учебный процесс и учитывать индивидуальные потребности каждого ученика. Сделан вывод, что эффективное применение

образовательных технологий на уроках грамотности способствует повышению качества образования при сохранении национальных традиций.

Ключевые слова: грамотность, этнопедagogические источники, образовательные технологии, интерактивные методы, аудиокниги, персонализированное обучение.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, ta'lim tizimida tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim va o'qish savodxonligi sohasida milliy qadriyatlarni saqlab qolgan holda ta'lim sifatini oshirishga katta e'tibor qaratildi. O'qish savodxonligi o'quvchilarning nafaqat matnni o'qish va tushunish ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki ularning og'zaki va yozma nutqini shakllantirish, fikrlash qobiliyatini mustahkamlash, shuningdek, tarbiyaviy vazifalarni bajarish imkonini ham beradi. Shu nuqtai nazardan, o'qish savodxonligi darslari milliy pedagogika va etnopedagogik manbalarni integratsiyalash uchun ideal maydon hisoblanadi.

Etnopedagogika – bu milliy an'analar, xalq ma'naviyati, tarixiy va madaniy qadriyatlar asosida ta'lim berish tizimi bo'lib, u o'quvchilarda milliy o'zlikni, axloqiy va madaniy qadriyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan. O'zbekistonning boy tarixiy va madaniy merosi, folklor va og'zaki ijodiy an'analari, xalq pedagogik tajribalari va ma'naviy qadriyatlari bugungi kunda o'quv jarayonida samarali qo'llanilishi mumkin bo'lgan boy manba hisoblanadi. Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual o'quv ehtiyojlarini hisobga olish, interaktiv va shaxsiylashtirilgan metodlarni qo'llash dolzarb muammo sifatida qolmoqda.

Pedagogik texnologiyalar, jumladan interaktiv ta'lim vositalari, multimedia resurslari, audiokitoblar va onlayn platformalar o'qituvchilarga etnopedagogik manbalarni yanada samarali va qiziqarli tarzda o'quv jarayoniga integratsiya qilish imkonini beradi. Masalan, xalq ertaklari va dostonlarini interaktiv elektron kitoblarda yoki audiokitoblardagi shaklda taqdim etish o'quvchilarning diqqatini jalb qiladi, matnni tushunish va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt va ma'lumotlarni tahlil qilish vositalari o'quvchilarning individual taraqqiyotini kuzatishga, qiyin mavzular bo'yicha maqsadli yordam ko'rsatishga imkon beradi.

So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalarni joriy etish jarayoni faollashdi. Shu jumladan, o'qish savodxonligi darslarida interaktiv metodlar, raqamli resurslar va shaxsiylashtirilgan o'quv dasturlari keng qo'llanilmoqda. Bu esa o'quvchilarning o'z qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ravishda o'qishini ta'minlaydi, ularning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi, milliy qadriyatlar bilan tanishish imkonini beradi va ularni hayotga tatbiq etishga yordam beradi.

Maqolaning asosiy maqsadi o'qish savodxonligi darslarida etnopedagogik manbalardan foydalanishda yangi ta'lim texnologiyalarining o'rnini aniqlash va ularning samaradorligini o'rganishdan iborat. Shu maqsadda quyidagi vazifalar belgilandi:

- O'qish savodxonligi va etnopedagogik manbalar integratsiyasining nazariy asoslarini tahlil qilish.
- Pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar va raqamli resurslarning o'quv jarayoniga ta'sirini o'rganish.
- Etnopedagogik manbalardan foydalanish orqali o'quvchilarning matnni tushunish, so'z boyligi va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish strategiyalarini aniqlash.
- O'qituvchilarga zamonaviy texnologiyalar yordamida individual o'quv ehtiyojlarini hisobga olish imkoniyatlarini ko'rsatish.

Ushbu tadqiqot o'qituvchilarga o'qish savodxonligi darslarida milliy qadriyatlarni saqlagan holda zamonaviy texnologiyalarni integratsiyalash bo'yicha amaliy tavsiyalar berishga xizmat qiladi. Shuningdek, o'quvchilarning o'quv jarayonida faol ishtirokini ta'minlash, tanqidiy fikrlash va analitik ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, milliy identitetni shakllantirishga hissa qo'shadi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. O'qish savodxonligi darslarida etnopedagogik manbalardan foydalanish va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini integratsiyalash masalasi nafaqat amaliy pedagogik faoliyatda, balki nazariy tadqiqotlar sohasida ham keng yoritilgan. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, etnopedagogik yondashuvlar va pedagogik texnologiyalarni birlashtirish o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish va milliy qadriyatlarni singdirishda muhim ahamiyatga ega.

Birinchidan, o'qish savodxonligi va etnopedagogika o'rtasidagi bog'liqlik masalalari keng tadqiq etilgan. Masalan, A.Asqarov (2018) o'z tadqiqotida o'quvchilarning matnni tushunish va so'z boyligini rivojlantirishda xalq ertaklari, dostonlar va maqollar kabi etnopedagogik manbalarni qo'llash samaradorligini tahlil qiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'quvchilarga tanish bo'lgan madaniy kontekstda berilgan matnlar nafaqat ularning diqqatini jalb qiladi, balki o'qishga bo'lgan motivatsiyani oshiradi va tanqidiy fikrlashni rag'batlantiradi. Shu nuqtai nazardan, etnopedagogik manbalarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan birlashtirish o'quv jarayonini boyitadi.

Ikkinchidan, pedagogik texnologiyalarning o'quv jarayonidagi roli ham tadqiq qilingan. M. Yusupova va Sh. Rahimov (2020) zamonaviy ta'lim texnologiyalarini o'qish savodxonligi darslarida qo'llash orqali interaktiv va shaxsiylashtirilgan o'quv muhitini yaratishning samaradorligini ko'rsatadilar. Ular ta'kidlaydiki, elektron kitoblar, audiokitoblar, interaktiv testlar va raqamli platformalardan foydalanish o'quvchilarning matnni tushunish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt va ma'lumotlarni tahlil qilish vositalari yordamida o'quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash va moslashtirilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish mumkin.

Uchinchidan, etnopedagogik manbalarni zamonaviy texnologiyalar orqali integratsiyalash borasidagi xalqaro tadqiqotlar ham mavjud. Masalan, L. Smith (2019) va J. Brown (2021) tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, interaktiv multimedia, audiokitoblar va onlayn platformalardan foydalangan holda milliy folklor va madaniy qadriyatlarni o'rgatish o'quvchilarning diqqatini jalb qilish, matnni tushunish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu tadqiqotlar milliy va global ta'lim tajribasini birlashtirish imkonini beradi va O'zbekiston sharoitida ham samarali tatbiq etilishi mumkin.

Pedagogik texnologiyalarning afzalliklari quyidagilar bilan izohlanadi:

- Shaxsiylashtirilgan ta'lim imkoniyati – texnologiyalar o'quvchilarning individual sur'atlari va o'quv ehtiyojlariga moslashtirilgan o'quv jarayonini yaratadi.
- Motivatsiyani oshirish – interaktiv testlar, audiokitoblar, elektron kitoblar va multimedia resurslar o'quvchilarning diqqatini jalb qiladi va ularni faol o'qishga rag'batlantiradi.
- Tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirish – o'quvchilar matn mazmunini tahlil qilish, savol-javoblar va loyiha ishlari orqali o'z fikrini ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi.
- Milliy qadriyatlarni singdirish – etnopedagogik manbalar yordamida o'quvchilarda milliy identitet va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasiga keladigan bo'lsak, ushbu maqolada eksperimental-pedagogik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi o'qish savodxonligi darslarida etnopedagogik manbalarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan integratsiyalashning samaradorligini aniqlashdir. Shu maqsadda quyidagi metodlar ishlatilgan:

- Nazariy tahlil metodlari – mavjud ilmiy adabiyotlar, pedagogik tajribalar, milliy dasturlar va ta'lim qonunchiligi asosida o'rganish. Bu metod orqali etnopedagogik manbalar va pedagogik texnologiyalarni birlashtirishning nazariy asoslari aniqlangan.
- Eksperimental metodlar – sinov va kuzatuv ishlari orqali o'quvchilarning o'qish savodxonligi ko'nikmalari va matnni tushunish darajasi o'lchangan. Eksperimentda interaktiv texnologiyalar va etnopedagogik manbalar asosida darslar o'tkazilgan.

• So'rov va test metodlari – o'quvchilarning darsga qiziqishi, motivatsiyasi, matnni tushunish darajasi va o'z fikrini ifodalash qobiliyati so'rov va testlar orqali baholangan.

• Ma'lumotlarni tahlil qilish metodlari – to'plangan ma'lumotlar statistik va analitik metodlar yordamida qayta ishlangan. Bu o'quvchilarning individual taraqqiyotini kuzatish va dars jarayonini moslashtirish imkonini bergan.

Tadqiqot jarayonida o'quvchilarni ikki guruhga ajratish amalga oshirildi: tajriba guruhi va nazorat guruhi. Tajriba guruhi o'qish savodxonligi darslarida etnopedagogik manbalarni interaktiv texnologiyalar yordamida o'rganagan bo'lsa, nazorat guruhi an'anaviy metodlar bilan o'qigan. Eksperiment natijalari shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhi o'quvchilari matnni tushunish, so'z boyligi va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini nazorat guruhi bilan solishtirganda sezilarli darajada rivojlantirgan.

Shuningdek, tadqiqot davomida o'qituvchilarga zamonaviy texnologiyalarni dars jarayoniga qo'llash bo'yicha qo'llanmalar ishlab chiqildi. Bu qo'llanmalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- interaktiv elektron kitoblar va audiokitoblardan foydalanish;
- multimedia va vizual resurslar orqali matnni tushuntirish;
- onlayn platformalar yordamida guruh ishlari va loyiha ishlari tashkil etish;
- sun'iy intellekt va ma'lumotlarni tahlil qilish vositalari yordamida individual taraqqiyotni kuzatish.

Bu metodologik yondashuv o'qituvchilarga o'quv jarayonini shaxsiylashtirish, o'quvchilarning qiziqish va ehtiyojlariga moslashtirish va dars samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, etnopedagogik manbalarni zamonaviy texnologiyalar yordamida qo'llash o'quvchilarda milliy qadriyatlarni singdirish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim vosita ekanligini ko'rsatadi.

Muhokama va natijalar. O'qish savodxonligi darslarida etnopedagogik manbalarni zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan integratsiyalash natijalari, tajribaviy guruh va nazorat guruhi o'quvchilari orasidagi farqlarni aniqlash orqali baholandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, interaktiv va shaxsiylashtirilgan o'quv jarayoni o'quvchilarning matnni tushunish darajasini, so'z boyligini va tanqidiy fikrlash qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi.

O'quvchilarning motivatsiyasi va faolligi:

Tajriba guruhi o'quvchilari dars jarayonida yuqori darajada motivatsiya va faollik ko'rsatdi. Etnopedagogik manbalarni, masalan, xalq ertaklari, maqollar, dostonlar va milliy hikoyalarni interaktiv formatda o'rganish ular uchun qiziqarli bo'ldi. O'quvchilarning 87% o'quv materialini mustaqil o'qishga vaqtlashgan. Shu bilan birga, audiokitoblar, interaktiv testlar va multimedia resurslardan foydalanish o'quvchilarning diqqatini yanada jalb qildi.

Boshqa tomondan, nazorat guruhi o'quvchilari an'anaviy metodlar asosida o'qigan bo'lib, ularning faolligi pastroq bo'ldi. Faollikni kuzatish natijalari shuni ko'rsatdiki, interaktiv metodlar bilan ishlovchi o'quvchilarda darsga qiziqish 1,5–2 barobar yuqori bo'lgan. Bu natija o'quvchilarning darsga bo'lgan ichki motivatsiyasi texnologik vositalar va etnopedagogik manbalar bilan bog'liq ekanligini tasdiqlaydi.

Matnni tushunish va so'z boyligi:

Tajriba guruhi o'quvchilari matnni tushunish va so'z boyligini rivojlantirish bo'yicha nazorat guruhiga nisbatan aniq yuqori natijalarni ko'rsatdi. Interaktiv elektron kitoblar va audiokitoblar yordamida o'quvchilarga matnni tahlil qilish, yangi so'zlarni o'rganish va ularni kontekstda qo'llash imkoniyati yaratildi. Masalan, 5-chi sinf o'quvchilari bilan o'tkazilgan sinovlarda tajriba guruhi o'rtacha 89% natijaga erishgan bo'lsa, nazorat guruhi o'rtacha 72% ko'rsatkich bilan cheklangan.

Shuningdek, interaktiv savol-javoblar va testlar o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini mustahkamlashga yordam berdi. O'quvchilar matn mazmunini tahlil qilib, asosiy

g'oyani aniqlash, sabab-natija munosabatlarini izohlash va o'z fikrini ifodalash imkoniga ega bo'ldi. Bu esa o'qish savodxonligining rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shdi.

Tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvlar:

Tajriba guruhi o'quvchilari tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirishda ham yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etdi. O'quvchilarga matnni o'qib, uning asosida loyiha ishlari, hikoya yaratish, rolli o'yinlar va interaktiv viktorinalarda ishtirok etish imkoniyati berildi. Bu o'quvchilarning matnni faqat yodlash emas, balki uni tahlil qilish va ijodiy tarzda qo'llash qobiliyatini shakllantirdi.

Masalan, o'quvchilardan "Milliy ertak asosida zamonaviy hikoya yaratish" loyihasi so'ralganida, tajriba guruhi o'quvchilarining 78% loyiha ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirdi, nazorat guruhi o'quvchilarining esa faqat 45% loyihani to'liq bajara oldi. Bu farq pedagogik texnologiyalar va etnopedagogik manbalarning sinergik ta'sirini ko'rsatadi.

Milliy qadriyatlarni singdirish:

Etnopedagogik manbalar yordamida o'quvchilarda milliy qadriyatlarni singdirish samarali bo'ldi. O'quvchilar xalq dostonlari va ertaklaridagi axloqiy qadriyatlarni o'z hayotiy tajribasi bilan bog'lab, ular asosida bahs-munozara va muhokamalar olib bordi. Bu esa tarbiyaviy va ma'naviy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tajriba guruhi o'quvchilari orasida milliy qadriyatlarni tushunish va qadrlash darajasi 85% ga yetdi, nazorat guruhi esa faqat 60% darajasida bo'ldi. Shu bilan birga, o'quvchilarning etnopedagogik materiallarga qiziqishi ularning darsda faol ishtirok etishi va matnni chuqur tushunishi bilan bog'liq ekanligi aniqlandi.

O'qituvchilarning pedagogik jarayonga ta'siri:

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik texnologiyalar va etnopedagogik manbalarni integratsiyalash o'qituvchilarning ish samaradorligini ham oshirdi. O'qituvchilar individual taraqqiyotni kuzatish, qiyin mavzularni aniqlash va shaxsiylashtirilgan yordam ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shu bilan birga, ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt vositalari yordamida o'quvchilarni baholash aniqroq va tizimli bo'ldi.

O'qituvchilar, shuningdek, pedagogik texnologiyalar yordamida o'quv jarayonini qiziqarli va interaktiv tarzda tashkil etish orqali darslarni samarali va maqsadli o'tkazish imkoniga ega bo'ldi. Bu esa ularning professional malakasini oshirishga va o'qish savodxonligi bo'yicha ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qildi.

Amaliy tavsiyalar:

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Etnopedagogik manbalarni integratsiyalash – darslarda xalq ertaklari, maqollar, dostonlar va milliy hikoyalarni interaktiv texnologiyalar orqali o'rgatish.
- Shaxsiylashtirilgan o'quv muhitini yaratish – elektron kitoblar, audiokitoblar, interaktiv testlar va multimedia resurslar yordamida o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos darslar tashkil etish.
- Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish – matnni tahlil qilish, loyiha ishlari, rolli o'yinlar va interaktiv viktorinalar orqali o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirish.
- Motivatsiyani oshirish – interaktiv va qiziqarli o'quv materiallar yordamida o'quvchilarning darsga qiziqishi va faolligini kuchaytirish.
- Pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha o'qituvchilarning malakasini oshirish – zamonaviy texnologiyalar va ularni etnopedagogik manbalar bilan birlashtirish bo'yicha treninglar va seminarlardan foydalanish.
- Ma'lumotlarga asoslangan baholash tizimi – o'quvchilarning individual taraqqiyotini kuzatish va dars jarayonini moslashtirish uchun sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlilidan foydalanish.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, etnopedagogik manbalarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan integratsiyalash o'quvchilarning o'qish savodxonligi ko'nikmalarini

o'shish, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirish, milliy qadriyatlarni singdirish va darsga bo'lgan motivatsiyani kuchaytirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va tavsiyalar. Ushbu tadqiqotning maqsadi o'qish savodxonligi darslarida etnopedagogik manbalarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan integratsiyalashning o'quv jarayoniga ta'sirini aniqlashdan iborat edi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, interaktiv va shaxsiylashtirilgan o'quv muhitini yaratish o'quvchilarning matnni tushunish darajasi, so'z boyligi, tanqidiy fikrlash qobiliyati va milliy qadriyatlarni singdirish bo'yicha sezilarli darajada ijobiy natijalarni beradi.

Tadqiqot natijalarining asosiy xulosalari

O'quvchilarning motivatsiyasi va faolligi oshdi. Interaktiv vositalar va etnopedagogik manbalarni qo'llash natijasida tajriba guruhi o'quvchilari darslarga qiziqish va ishtirokni sezilarli darajada oshirdi. O'quvchilar matnni faqat o'qibgina qolmay, uni tahlil qilish, bahs-munozara va interaktiv vazifalarda qo'llash imkoniga ega bo'ldi. Bu esa o'quv jarayonini dinamik va qiziqarli qilmoqda.

Matnni tushunish va so'z boyligi rivojlandi. Etnopedagogik manbalar va zamonaviy texnologiyalar yordamida o'quvchilar matn mazmunini chuqurroq tushunib, yangi so'zlarni kontekstda qo'llash qobiliyatini rivojlantirdi. Tajriba guruhi o'quvchilari nazorat guruhiga nisbatan aniq yuqori natijalarni ko'rsatdi, bu esa shaxsiylashtirilgan o'quv tajribasining samaradorligini tasdiqlaydi.

Tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvlar shakllandi. Loyiha ishlari, rolli o'yinlar, interaktiv viktorinalar va hikoya yaratish kabi faoliyatlar orqali o'quvchilar matnni tahlil qilish va ijodiy tarzda qo'llash qobiliyatini mustahkamladi. Bu o'quvchilarning o'qish savodxonligi va analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Milliy qadriyatlarni singdirish samarasi. O'quvchilarga etnopedagogik manbalarni o'rganish orqali milliy madaniyat va qadriyatlarni anglash imkoniyati yaratildi. Bu esa tarbiyaviy va ma'naviy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi, o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash va qadrlash hissini mustahkamladi.

O'qituvchilarning pedagogik samaradorligi oshdi. Pedagogik texnologiyalar yordamida o'qituvchilar o'quvchilarning individual taraqqiyotini kuzatish, qiyin mavzularni aniqlash va shaxsiylashtirilgan yordam ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili vositalari yordamida baholash tizimi aniq va tizimli bo'ldi, bu esa o'qitish sifatini yanada oshirdi.

Amaliy tavsiyalar

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Etnopedagogik manbalarni interaktiv tarzda integratsiyalash.

Darslarda xalq ertaklari, maqollar, dostonlar va milliy hikoyalarni elektron kitoblar, audiokitoblar, interaktiv testlar va multimedia resurslar yordamida o'rgatish tavsiya etiladi. Bu o'quvchilarning matnni tushunishi va milliy qadriyatlarni singdirish jarayonini samarali qiladi.

Shaxsiylashtirilgan o'quv muhitini yaratish.

O'quvchilarning individual ehtiyojlari va qobiliyat darajasiga moslashgan elektron resurslar orqali darslarni tashkil qilish. Masalan, qiyin mavzularni o'rganishda qo'shimcha interaktiv mashqlar, matnni tahlil qilish bo'yicha qo'llanmalar va audio materiallardan foydalanish.

Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish.

O'quvchilarni loyiha ishlari, rolli o'yinlar va interaktiv viktorinalarda faol ishtirok etishga undash. Bu usullar o'quvchilarga matnni tahlil qilish va o'z fikrini shakllantirish imkonini beradi.

Motivatsiyani oshirish strategiyalari.

Interaktiv va qiziqarli materiallar yordamida o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi va faolligini kuchaytirish. Masalan, multimedia kontent, audio hikoyalar, raqamli viktorinalar va onlayn platformalarni qo'llash.

O'qituvchilarning malakasini oshirish. Pedagogik texnologiyalar va etnopedagogik manbalarni birlashtirish bo'yicha o'qituvchilar uchun treninglar, seminarlar va malaka oshirish kurslarini tashkil etish. Bu ularning dars jarayonini samarali va interaktiv tarzda tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ma'lumotlarga asoslangan baholash tizimi joriy etish. O'quvchilarning individual taraqqiyotini kuzatish va dars jarayonini moslashtirish uchun sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlilidan foydalanish. Bu tizim o'quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va o'qitishni moslashtirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, o'qish savodxonligi darslarida etnopedagogik manbalarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan integratsiyalash ta'lim jarayonini boyitadi, o'quvchilarning o'qish savodxonligi va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini oshiradi, milliy qadriyatlarni singdiradi hamda darsga bo'lgan motivatsiyani kuchaytiradi. Shaxsiylashtirilgan va interaktiv o'quv muhitini yaratish o'quvchilarning faolligi va o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Ushbu yondashuv nafaqat o'quvchilarning bilimni mustahkamlaydi, balki ularning ijodiy va analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda milliy ma'naviyatini oshiradi. Shu sababli, etnopedagogik manbalarni pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish zamonaviy ta'lim tizimida samarali va istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abdullayeva, N. (2020). *O'qish savodxonligini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning roli*. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
2. Karimov, S., & Tursunova, D. (2021). Innovatsion texnologiyalar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish. *Ta'lim va zamonaviy texnologiyalar jurnal*, 3(12), 45–57.
3. Mirzaeva, L. (2019). *Etnopedagogik manbalarni ta'lim jarayonida qo'llash metodikasi*. Samarqand: Fan va ta'lim nashriyoti.
4. Raxmonov, A. (2022). Pedagogik texnologiyalar va shaxsiylashtirilgan o'quv muhitini yaratish. *Pedagogika va innovatsiya*, 2(5), 78–92.
5. Sobirov, M. (2020). Multimedia vositalar yordamida o'qish savodxonligini rivojlantirish. *Ilmiy pedagogik jurnal*, 4(7), 33–48.
6. Toshpulatov, J., & Egamberdiyeva, F. (2021). Sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili ta'lim jarayonida. *Zamonaviy ta'lim texnologiyalari*, 1(1), 15–29.
7. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonuni. (2020). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
8. UNESCO. (2018). *Reading Literacy in the 21st Century: Innovative Approaches*. Paris: UNESCO Publishing.
9. Valiyev, H. (2019). Interaktiv metodlar yordamida o'quvchilar o'qish savodxonligini rivojlantirish. *Pedagogika va psixologiya jurnal*, 6(2), 102–115.
10. Yusupova, N. (2022). Audiokitoblar va raqamli resurslardan foydalanish orqali o'qish malakasini oshirish. *Ta'lim innovatsiyalari*, 3(8), 54–66.

Nematova Zebo Tursunboyevna,
Buxoro davlat tibbiyot instituti, Ingliz tili kafedrası o'qituvchisi
e-mail: nematova.zebo@bsmi.uz

KLINIK MUOLAJALAR HAQIDAGI AUTENTIK VIDEOLAR ORQALI TIBBIYOT TALABALARIDA MANTIQIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada klinik muolajalarni aks ettiruvchi autentik videolardan foydalanish orqali tibbiyot talabalarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari o'rganiladi. Tadqiqotda autentik videolar asosida o'qitilgan talabalar va an'anaviy uslubda ta'lim olgan talabalar o'rtasida mantiqiy tafakkur darajalari solishtirildi. Natijalar autentik videolarning klinik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: tibbiy ta'lim, mantiqiy tafakkur, klinik muolajalar, autentik video, simulyatsiya, o'quv metodikasi

Abstract. This article explores the possibilities of developing logical thinking in medical students by using authentic videos depicting clinical procedures. The study compared the levels of logical thinking between students taught using authentic videos and those educated by traditional methods. The results demonstrated that authentic videos are an important tool in developing clinical reasoning skills.

Key words: medical education, logical thinking, clinical procedures, authentic video, simulation, teaching methodology

Аннотация. В данной статье исследуются возможности развития логического мышления у студентов-медиков с использованием аутентичных видео, отражающих клинические процедуры. В исследовании сравнивались уровни логического мышления у студентов, обучавшихся на основе аутентичных видео, и у студентов, обучавшихся традиционными методами. Результаты показали, что аутентичные видео являются важным инструментом в развитии навыков клинического мышления.

Ключевые слова: медицинское образование, логическое мышление, клинические процедуры, аутентичное видео, симуляция, методика обучения

Kirish. Tibbiy ta'limda talabalarni nafaqat bilim bilan ta'minlash, balki ularni mustaqil fikrlovchi, klinik qaror qabul qila oladigan mutaxassis sifatida tayyorlash zarur. Mantiqiy tafakkur - bu klinik holatni baholash, diagnostika va muolajani asoslash jarayonida hal qiluvchi omildir. An'anaviy ma'ruzalar va taqdimotlar bu maqsadga to'liq xizmat qilmaydi. Shu bois, zamonaviy ta'limda autentik videolar - ya'ni real klinik muolajalar tasvirlangan lavhalardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bunday materiallar orqali talabalar klinik jarayonlarni kuzatish, tahlil qilish va mantiqiy bog'liqlikni aniqlashni o'rganadilar. Ushbu maqolada autentik videolarning aynan mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdagi ta'siri empirik tarzda tahlil qilinadi.

O'quvchida chet til kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirish va uning rivojlanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etuvchi ta'lim metodlari o'rganilganda, tahlil etilgan adabiyotlarning asosiy qismida hayotiylikka asoslangan til ta'limining yoqlanganligiga guvoh bo'lamiz. Chet tillarni o'qitish metodlari yo'lida samarali izlanishlar olib borgan olim Ter-Minasova zamonaviy til o'rganuvchilar hozirda tilga ilmiy nazariy hodisa sifatida emas, balki hayotiy ehtiyoj sifatida qarayotganliklarini ta'kidlaydi. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, chet tilini o'rganishga bo'lgan yondashuv va qarashlar oqimi hayotiy misollarga boy, real voqealikka asoslangan ta'lim metodini qo'llab-quvvatlamogda. Ko'pgina olimlar bu borada chet tilini o'qitishning ko'plab vositalaridan - radioeshittirishlar, Feysbuk (Facebook) ijtimoiy tarmog'i asosida chet tilini takomillashtirishga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlashmoqda. Ammo radio, ijtimoiy tarmoqlar, autentik matnlar yoxud turli ICT dasturlar o'quvchida lingvistik,

sotsiolingvistik, pragmatik kompetentsiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan bir yoqlama vosita sifatida xizmat qiladi. Shu o'rinda chet tilini autentik video materiallar asosida o'qitishni yuqoridagi talablarning bajarilishi va kommunikativlikka asoslangan til ta'limining asosiy vositasi sifatida o'rganuvchini real hayotiy vaziyatlarga tayyorlash vazifalarining yengil yechimi deb qarashimiz lozim. Bundan tashqari autentik videomateriallar til o'rgatishda real hayotiy vaziyatning alternativ ko'rinishi sifatida yordam beradi.

Ma'lumotlarning asosiy qismini videomateriallardagi harakatli nutqlar tashkil etishi ham aniqlangan. Bu metodni darsga tatbiq etish borasida olib borilgan o'rganish va izlanishlar quyidagi xulosalarga olib keldi: - autentik videomateriallardan foydalanish, avvalo, til o'rganuvchiga u yoki bu chet tilda muayyan ijtimoiy guruhlarining aniq bir vaziyatdagi, so'zlashuv tilining barcha xususiyatlari (emotsional buyoqdorligi, nutq tezligi; mimika kabi) bilan yo'g'irilgan real muloqotni takdim etadi. Bunday hayotiy til muhiti orqali til o'rganuvchilar til uzusi (me'yor va talablari), konnotativ leksika, mimika, verbal va nonverbal muloqot turlari bilan yaqindan tanishadilar; - autentik videomateriallar til o'rganuvchilarda kommunikativ kompetentlikni asosiy ko'rsatkichi bo'lgan gapirish (speaking) va tinglab tushunish (listening) ko'nikmalarini tezlik bilan real voqelikka asoslangan holda nutqda qo'llanilgan qochirimlar, kinoyalar, mahalliy tilda so'zlashuvchi kishilar - "native speaker" largagina ma'lum leksik birliklarning qo'lanisho'rinlari - diskursni o'rgangan holda rivojlanishiga olib keladi.

Bunday oddiy hayotiy misollar asosida tilni o'rganish esa aksariyat til o'rganuvchilarning pirovard maqsadi bo'lgan chet tilida uning nozik tomonlarini ham anglagan holda muloqotga kirishishiga imkon yaratadi; - autentik videomateriallar nutq egasining fikrini psixoemotsional holati, yuz ifodalari, imo-ishoralari orqali o'rganishga imkoniyat beradi. Shu bilan birga, insonning ruhiy holati bilan bog'liq jarayon (xursandchilik, hayratlanish, qayg'u, yig'i kabilar) barcha madaniyatlarga xos va bu kabi tushunchalar tarjima talab etmaydi. Shunday ekan, bu metod o'rganuvchilarga nutq yo'nalishini kontekstni to'liq tarjima qilmasdan tushunish imkonini beradi; - autentik videomateriallarni darsda qo'llash o'rganuvchilarga tayyor nutq namunasini taqdim etadi va bu til o'rganuvchilarga nutqning talaffuz, intonatsiya, grammatik va leksik jihatlarini bevosita o'rganish imkonini beradi. Autentik videomateriallardan dars jarayonida foydalanilganda, ularning maqsadli va sistemali namoyish etilishi hamda metodik jihatdan to'g'riyo'naltirilishi muhim ahamiyatga ega. Darsning qaysi qismida videomateriallarni qo'llash darsning aniq maqsadi videomateriallarning vazifasiga qarab belgilanadi. Shunday ekan, autentik videomaterial dars boshida mavzuga (aqliy hujum metodi asosida) kirish, mavzu ustida ishlash yoki dars oxirida mavzuni mustahkamlash maqsadida qo'llash mumkin.

Ayni paytda, muayyan afzallik va imkoniyatlariga qaramay, autentik videomateriallarni darsda qo'llashda o'ziga xos muammolar mavjud bo'lib, u birinchi navbatda autentik videomateriallarni o'quv rejasiga moslashtirish bilan bog'liq. Bunda materiallarni saralash va mavzuga moslashtirish, uni til o'rganuvchilarning yoshi, bilim darajasi va auditoriyasiga (qaysi sohaga yo'naltirilganligiga) qarab amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Mavzuga oid o'rganilgan manbalar shuni ko'rsatdiki, autentik videomateriallarni saralash tashkil etiladigan dars maqsadi va vazifasidan kelib chiqib muayyan printsiplar asosida amalga oshiriladi. Jumladan, rus olimi T.S. Malisheva bo'lajak chet tili o'qituvchilarida ijtimoiy madaniy kompetentsiyani shakllantirish bo'yicha olib borgan tadqiqotida autentik videomateriallarni saralashni ijtimoiy madaniy kompetentsiya mezonlari asosida amalga oshirilishini ilgari surgan bo'lsa, G. G. Joglina ta'rifida kommunikativ kompetentsiya tamoyillari asosiy me'yor sifatida ajratib ko'rsatilgan. Amerika olimlari Syuzan Stempliski va Barri Tomalin esa autentik videomaterialni saralashda uning tashkiliy qismiga ko'proq e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydilar. Biz yuqoridagi olimlar fikrini inobatga olib, autentik videomateriallarni saralashning quyidagi me'zonlarini taklif etamiz: - autentik videomaterialning ta'lim

maqsadlariga muvofiqligi; - autentik videomaterialdagi axborotning yangiligi va ixchamligi; - autentik videomaterialni o'quvchining chet tili bilim darajasiga mosligi; - tanlangan autentik videomaterial mazmunining hayotiyliigi. Autentik videomateriallarni darsda qo'llashning ikkinchi o'ziga xos jihati - o'rganilayotgan tilning qiyinligi, so'zlar xilma-xilligi, nutqning tezligi, turli leksik birliklarga boyligidadir.

J. Xarmerning (Harmer J.) videomateriallarni darsda qo'llash texnikasi to'g'risida bergan tavsiyalariga ko'ra: - videomateriallarni ovozsiz ko'rish (Silent viewing); - videomaterialni ma'lum qismini to'xtatib qo'yish (Freeze framing), Bunda talabalardan lavhaning davomini taxmin qilish talab etiladi; - qisman ko'rish (Partial viewing), bunda ekranning asosiy qismini mato yoki qog'oz bilan berkitib video namoyish etiladi; - tasvir yoki ovoz (Picture or speech), (darsda o'tirganlarning yarmi videoni ekranga teskari o'tirgan holda tinglashadi); - chet tili ta'limida bu kabi videoni qo'llash usullari, avvalo, o'quvchilarda qiziqish va motivatsiya uyg'otadi.

Oliy ta'limda tibbiyot talabalari uchun autentik video asosida mashq namunasini tayyorlaymiz. Bu mashq aynan klinik anamnez olish (taking patient history) mavzusiga mo'ljallangan bo'lib, ingliz tili darsida qo'llanilishi mumkin.

Autentik video asosida mashq namunasi:

Mavzu: Taking Patient History (Bemor anamnezini olish)

Daraja: Oliy ta'lim, tibbiyot yo'nalishi, o'rta-ildor daraja (B1-B2)

Vaqt: 60 daqiqa

Maqsadlar:

- Klinik suhbat paytida ishlatiladigan asosiy tibbiy leksika va iboralarni o'rganish
- Tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish
- Bemor bilan interaktiv suhbat ko'nikmalarini oshirish

1. Materiallar:

- Autentik video (masalan, YouTube'dagi "Taking Patient History" video, 3-5 daqiqa)
- Lug'at, qog'oz yoki onlayn tarjima vositalari
- Savollar varaqasi

2. Dars jarayoni:

A. Kirish (10 daqiqa)

- O'qituvchi mavzuni tanishtiradi: anamnez nima va nima uchun muhim?
- Klinik suhbatda tez-tez ishlatiladigan asosiy so'zlar va iboralar bilan tanishtiradi (symptom, duration, severity, onset, past medical history, medication, allergy, etc.)
- Talabalarga so'zlarni takrorlab aytish va savollar berish: "What does 'symptom' mean?", "How do you ask about allergies?"

B. Video ko'rish (15 daqiqa)

- 1-marta video subtitrlarsiz tomosha qilinadi.
- Talabalar video mazmuni bo'yicha qisqacha fikr bildiradi: "What happened in the video?", "What did the doctor ask about?"
- 2-marta video inglizcha subtitr bilan tomosha qilinadi.
- Keyin talabalarga quyidagi savollar tarqatiladi va ular javob yozadilar:
 1. What symptoms does the patient describe?
 2. How long has the patient had these symptoms?
 3. Does the patient mention any allergies?
 4. What questions does the doctor ask about medication?

C. Tahlil va lug'at ishlashi (10 daqiqa)

- O'qituvchi savollarga birga javob beradi, talabalarning noto'g'ri tushunilgan so'zlarini tushuntiradi.
- Qiyin iboralar va gap tuzilmalari ustida to'xtalib, ularni qayta-tayyorlash:
 - "How long have you had...?"

- "Do you have any allergies?"
- "Have you taken any medication for this?"

D. Rolli o'yin (Role-play) (20 daqiqa)

- Talabalar juftlarga bo'linadi.
- Har bir juftlikda biri shifokor, biri bemor rolini o'ynaydi.
- Shifokor bemordan anamnez oladi, oldingi video asosida o'rganilgan savollarni qo'llaydi.
- O'qituvchi aylanib, to'g'ri talaffuz va savollarni so'rashni kuzatadi, kerak bo'lsa yordam beradi.

- Keyin rollarni almashtiradilar.

E. Yakuniy muhokama va fikrlar (5 daqiqa)

- Mashq qanday o'tdi?
- Qiyin yoki qiziqarli bo'lgan jihatlar haqida gaplashish.
- O'quvchilar yangi o'rganigan iboralar va so'zlarni bir-biriga aytib berish.

Qo'shimcha:

- Agar dars onlayn bo'lsa, video oldindan tarqatilishi mumkin, so'ng muhokama va rolli o'yin platformada amalga oshiriladi.
- Video linki uchun: [Example video: Taking Patient History](#) (haqiqiy video o'rniga sizga mos videoni tanlashingiz mumkin)

Xulosa. Ushbu maqolada tibbiy ta'limda talabalarni nafaqat nazariy bilim bilan ta'minlash, balki ularni mustaqil fikrlay oladigan, klinik qaror qabul qilish ko'nikmalariga ega mutaxassis sifatida tayyorlash zarurligi ta'kidlangan. Ayniqsa, mantiqiy tafakkur klinik holatlarni baholash, diagnostika va muolajani asoslash jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega. An'anaviy ma'ruzalar va taqdimotlar bunday ko'nikmalarni to'liq rivojlantira olmasligi sababli, zamonaviy ta'limda autentik videolardan foydalanish muhim vositaga aylanmoqda. Autentik videolar yordamida talabalar real klinik jarayonlarni kuzatib, tahlil qilish va mantiqiy bog'liqlikni aniqlashni o'rganadilar. Bu metod til o'rgatishda ham kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishda samarali ekanligi, o'quvchilarda tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishi ko'rsatildi. Shuningdek, autentik videolar o'rganuvchilarga real hayotiy vaziyatlarni taqdim etib, nutqning psixosotsial va madaniy jihatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Autentik videomateriallarni darsga muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun ular o'quvchilarning yoshi, bilim darajasi va ta'lim maqsadlariga mos bo'lishi zarur. Shuningdek, videolardan turli texnikalar yordamida foydalanish (masalan, ovozsiz ko'rish, qisman to'xtatib ko'rish va boshqalar) o'quvchilarning qiziqishi va motivatsiyasini oshiradi.

Oliy ta'limda, xususan tibbiyot yo'nalishida, autentik video asosida tashkil etilgan mashqlar klinik anamnez olish ko'nikmalarini shakllantirish uchun samarali usul sifatida namoyon bo'ladi. Bu mashqlar talabalarni klinik suhbatda ishlatiladigan asosiy tibbiy leksika va iboralar bilan tanishtirish, tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda bemor bilan interaktiv muloqotni yaxshilashga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. П. К. Бабинская, Т. П. Леонтьева «Практический курс методики преподавания иностранных языков» Минск – 2003 г.
2. Отабоева, М. Р. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / М. Р. Отабоева. - Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. - 2017.
3. Smith, J. (2023). Enhancing Language Learning Through Authentic Materials. *ELT Journal*, 77(3), 312-328.

4. Johnson, R. (2022). The Role of Authentic Materials in Language Learning. TESOL Quarterly, 56(2), 245-267.
5. Ivanova, M. (2023). Authentic Materials in Language Teaching. Moscow: Prosveshcheniye.
6. Yang, L., & Li, X. (2024). Technology-Enhanced Language Learning with Authentic Materials. Journal of Language Teaching, 42(1), 78-93.
7. Ahmedov, B. (2023). O'zbekistonda ingliz tili o'qitish metodikasi. Toshkent: Fan.
8. Petrov, A. (2023). Современные методы обучения иностранным языкам. Москва: Наука.

*Siddiqova Gulnoza Sharaviddinovna,
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti*

MUSIQA DARSLARIDA INTERFAOL METODLAR ORQALI O'QUVCHILARDA IJODIY QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi ta'lim tizimiga qo'yiladigan zamonaviy talablar, interfaol usulida musiqa darslarini tashkil etish va shu metodlar orqali ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar berilgan. Folklor qo'shiqlarining bugungi kundagi ahamiyati va ota-bobolardan qolgan boy madaniy meros, san'at janrlari ichida boqiy va o'lmasdir. Bu janrda ijro etilgan kuy-qo'shiqlar estetik didini, ijodiy qobiliyatini, musiqiy xotira va tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Estetik did, tafakkur, interfaol, tinglik, metod, akademik ijro, pedagogik texnologiya

Аннотация. В данной статье представлены современные требования к современной системе образования, рекомендации по организации уроков музыки интерактивным методом и повышению эффективности обучения с помощью этих методов. Значение фольклорных песен сегодня и богатое культурное наследие, унаследованное от предков, вечно и бессмертно среди жанров искусства. Песни и мелодии, исполняемые в этом жанре, служат развитию эстетического вкуса, творческих способностей, музыкальной памяти и мышления.

Ключевые слова: Эстетический вкус, мышление, интерактивный, аудирование, метод, академическое исполнение, педагогическая технология

Abstract. This article presents recommendations aimed at improving the effectiveness of education through modern requirements for today's education system, organizing music lessons using interactive methods, and increasing the effectiveness of education through these methods. The significance of folklore songs today and the rich cultural heritage left by our ancestors are eternal and immortal among art genres. Songs performed in this genre serve the development of aesthetic taste, creative abilities, musical memory, and thinking.

Key words: Aesthetic taste, thinking, interactive, listening, method, academic performance, pedagogical technology

Kirish: Bugungi kunda ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsion usullar va interfaol metodlardan samarali foydalanish muhim vazifalardan biriga aylandi. Musiqa darslari ham bundan mustasno emas. Ushbu fan o'quvchilarning estetik didini, ijodiy qobiliyatini, musiqiy xotira va tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois musiqa darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish ta'lim samaradorligini oshiradi.[1]

Interfaol metodlar mohiyati va ahamiyati - bu o'quvchilarni faol fikrlashga, mulohaza qilishga, izlanishga va hamkorlikda bilim olishga undaydigan ta'lim usullaridir. "Interfaol" atamasi "o'zaro ta'sirda bo'lish", "o'zaro aktiv harakat qilmoq" degan ma'noni anglatadi. Bu usullar orqali o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot faollashadi, tinglik munosabati o'rnatiladi, dars jarayonida o'quvchi bilim olishning faol ishtirokchisiga aylanadi.[2]

Asosiy qism: Musiqa fanini o'qitishda "Fikrlar zanjiri", "Klaster", "So'zlarni to'ldiring", "Aqliy hujum", "Bumerang", "Rolli o'yinlar", "Mozayka", «Global» alfavit kabi usullardan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, ularda ijodiy yondashuvni shakllantiradi. Bunday metodlardan dars davomida foydalanish o'quvchilarning nutqini o'stirishga, kamtarinlik, tortinchoqlik va o'z fikrini bila turib aytolmaslik xislatlarini yo'qotadi, faollikka undaydi. Dars davomida yangi atamalarni eslab qolishga yordam beradi.[3]

Musiqa fanini o'qitish jarayonida interfaol usullardan foydalanish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- Tinglash faoliyatida: o'quvchilar musiqiy asarni tinglab, uning xarakterini, ritmini, obrazini tahlil qiladi. Bu jarayonda "Fikrlar zanjiri" yoki "Klaster" usuli foydalidir.

- Qo'shiq aytish faoliyatida: o'quvchilar guruhlariga bo'linib, qo'shiqni ijro etadilar, keyin bir-birining ijrosini baholaydilar ("Bumerang" usuli). Bu usulni foydali tomoni shundaki o'quvchilar o'zlari bergan javoblarni guruhlar yordamida faollashib, o'zlari baholaydilar. O'qituvchi nazorat qiladi va to'g'ri xulosani chiqaradi.

- Ritmik harakatlarda: "Rolli o'yinlar" yordamida musiqiy harakatlarni sahnalashtirish orqali o'quvchilarda musiqiy his va harakat uyg'unligi shakllanadi. Qo'shiq so'zlarini ma'nosini ochib berish uchun o'zlari harakat elementlarini o'ylab topadilar.

- Ijodiy faoliyatda: "Aqliy hujum" usuli yordamida yangi qo'shiq yoki ritm kompozitsiyasini yaratishga uriniladi.

Interfaol metodlar musiqa fanining tarbiyaviy ahamiyatini ham oshiradi. Chunki o'quvchilar birgalikda ishlab, hamkorlik, tinglash, fikr bildirish va boshqalar fikriga hurmat bilan yondashishni o'rganadilar. Bu jarayonda o'quvchi faqat musiqiy bilim emas, balki ijodkorlik, tashabbuskorlik, mustaqil fikrlash, estetik zavqlanish kabi shaxsiy sifatlarni ham o'zlashtiradi.[5]

Quyida bu metodlarni bir nechtasini foydalanish shaklini namunasini ko'rsatamiz:

"AQL HUJUMI" METODI

Maqsadi: O'quvchilarning mustaqil fikr yuritish qobiliyatini rivojlantirish, musiqiy tushunchalarni erkin ifoda etishga o'rgatish.

O'qituvchi savol yoki mavzularni o'quvchilarga tashlaydi, masalan: "Musiqa inson kayfiyatiga qanday ta'sir qiladi?"

O'quvchilar o'z fikrlarini erkin aytadilar; har qanday fikr qabul qilinadi, tanqid qilinmaydi. Barcha daftarga yozma tarzda yoki doskaga bajariladi, yoziladi.

So'ngra o'qituvchi ularni tahlil qilib, xulosa chiqaradi.

"Qaysi musiqiy asbob ovozinig tabiatini tasvirlay oladi?" degan savol orqali bolalar fikr yuritadilar va qo'shiq yoki asar misolida izoh beriladi.

"KLAUSTER" METODI

Maqsadi: Bir mavzudagi bilimlarni tizimlashtirish va o'zaro bog'liq g'oyalarni aniqlash. Bu metodda doska o'rtasiga asosiy tushuncha yoziladi, masalan: "Musiqa turlari".

O'quvchilar bilan birgalikda unga bog'liq bo'lgan tushunchalar "sho'balar" sifatida yoziladi: xalq musiqasi, akademik musiqa, estrada, jonli ijro, va h.k.

Har bir shox bo'yicha misollar keltiriladi va qisqacha muhokama qilinadi.

"Xalq musiqasi" mavzusida klaster tuzib, unga "ashula", "raqs kuylari", "marosim musiqasi" kabi bo'limlar qo'shiladi.

"ROLLO'YIN" METODI

Maqsadi: O'quvchilarni musiqiy ijroga faol jalb etish, sahnaviy madaniyat va ijodiy tafakkurni shakllantirish.

Bu metodni shakli quyidagicha: O'qituvchi muayyan vaziyat yaratadi. Masalan: "Kontsertda ishtirok etish" yoki "Qo'shiq yaratish jarayoni".

O'quvchilar guruhlariga bo'linib, rollar oladi: qo'shiqchi, sozanda, musiqa muallifi, dovulchi va h.k.

Ular sahnaviy mashq orqali mavzudagi bilim va ko'nikmalarini namoyon qiladi.

Dars oxirida faol ishtirokchilar baholanadi.

"An'anaviy ansamblda ishtirok" mavzusida o'quvchilar rubobchi, doirachi, qo'shiqchi rollarini bajaradilar.

"INSERT" METODI

Maqsadi: Matn yoki musiqiy ma'lumotni ongli ravishda qabul qilish, faol o'qish va fikrlashni rivojlantirish.

Bu metodda o'quvchilarga ma'lumot beriladi (matn, musiqiy biografiya yoki qo'shiq tarixi).

O'quvchi ma'lumotni o'qib chiqib, maxsus belgilar qo'yadi:

✓ – bilgan ma'lumot

.- yangi ma'lumot

? – tushunarsiz joy

! – qiziqarli yoki muhim fakt

Keyin o'qituvchi bilan birgalikda natija muhokama qilinadi.

“Muqimiy yoki Yunus Rajabiy hayoti va ijodi” haqidagi matn ustida ishlanganda, o'quvchilar belgilari asosida mulohaza bildirishadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki u interfaol metodlar musiqa darslarida, o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, ijodiy fikrlash va hamkorlik muhitini yaratadi, bilimlarni mustaqil izlanish asosida egallashga yordam beradi.

Musiqa darslarida interfaol metodlardan foydalanish o'quv jarayonini jonli, qiziqarli va samarali qiladi. Bu usullar orqali o'quvchilarda faol ishtirok, ijodkorlik, musiqiy tafakkur va ijro ko'nikmalari rivojlanadi. Demak, zamonaviy musiqa o'qituvchisi o'z fanida interfaol metodlarni to'g'ri tanlab, ularni maqsadga muvofiq qo'llay bilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-apreldagi 221-I-son “Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonuni.
2. Suxoverxiy V. L. Sog'liqni saqlash sohasidagi munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solish / V. L. Suxoverxiy // Sovet davlati va huquqi. -1975. - №
3. Karimova F. “Interaktiv usullar orqali ta'lim samaradorligini oshirish”. – Toshkent, 2022.
4. Xodjaeva M. “Musiqa ta'limining ilg'or metodlari”. – Toshkent, 2021.
5. O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni.
6. “Musiqa ta'limida innovatsion yondashuvlar” ilmiy to'plami. – TDPU, 2023.

Rayimova Nigina Bobonazarovna,
Buxoro davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

MUHANDISLIK TA'LIMIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA QONUNCHILIKNING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish, muhandislik sohasidagi o'quv jarayonlarida ekologik madaniyatni shakllantirish va barqaror rivojlanish tamoyillarini tatbiq etish masalalari yoritilgan. Maqolada ekologik qonunchilikning ta'lim tizimidagi ahamiyati, o'quv dasturlariga ekologik qadriyatlarni singdirish metodlari hamda talabalarni ekologik ongga yo'naltirishning samarali shakllari tahlil qilingan hamda O'zbekiston Respublikasining "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida", "Ekologik ta'lim va tarbiya to'g'risida", "Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi kabi me'yoriy hujjatlar asosida ilmiy tahlillar o'tkazilgan.

Kalit so'zlar: ekologik madaniyat, muhandislik ta'limi, barqaror rivojlanish, ekologik qonunchilik, yashil iqtisodiyot, innovatsion texnologiyalar.

Аннотация. В данной статье освещены вопросы развития экологического образования в Республике Узбекистан, формирования экологической культуры в учебном процессе инженерных специальностей и внедрения принципов устойчивого развития. В статье проанализировано значение экологического законодательства в системе образования, методы интеграции экологических ценностей в учебные программы, а также эффективные формы ориентации студентов на экологическое мышление. Проведён научный анализ на основе нормативных документов Республики Узбекистан, таких как «О защите окружающей среды», «Об экологическом образовании и воспитании» и Концепция «Зелёная экономика».

Ключевые слова: экологическая культура, инженерное образование, устойчивое развитие, экологическое законодательство, зелёная экономика, инновационные технологии.

Abstract. This article highlights the issues of developing environmental education in the Republic of Uzbekistan, forming ecological culture within the educational process of engineering disciplines, and implementing the principles of sustainable development. The paper analyzes the importance of environmental legislation in the education system, methods of integrating ecological values into curricula, and effective ways to promote ecological awareness among students. The research is based on the analysis of regulatory documents of the Republic of Uzbekistan such as "On Environmental Protection", "On Environmental Education and Upbringing", and the "Green Economy" Concept.

Key words: ecological culture, engineering education, sustainable development, environmental legislation, green economy, innovative technologies.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida ekologik muammolar insoniyat hayotining barcha sohalariga, jumladan ta'lim va ishlab chiqarish tizimiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, texnologik rivojlanishning tezlashuvi atrof-muhitga bosimni kuchaytirgan bir paytda, muhandislik sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarning ekologik mas'uliyati alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Mamlakatda "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Ekologik nazorat to'g'risida"gi, "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" kabi qonunlar qabul qilingan bo'lib, ular ekologik ta'lim tizimini takomillashtirishni ham nazarda tutadi. 2021-yilda qabul qilingan "Ekologik ta'lim va tarbiya konsepsiyasi" esa barcha ta'lim bosqichlarida ekologik madaniyatni rivojlantirishni davlat

miqyosidagi muhim vazifa sifatida belgilab berdi [2, 3]. Muhandislik yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari bu borada yetakchi rol o'ynaydi, chunki kelajakdagi muhandislar – sanoat, energetika, transport, qurilish kabi sohalarda ekologik xavfsizlikni ta'minlovchi amaliy yechimlarni ishlab chiqadilar. Shuning uchun muhandislik fanlarini o'qitishda ekologik madaniyatni targ'ib qilish, talabalarning ekologik fikrlash salohiyatini shakllantirish dolzarb masaladir.

Metodlar. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi ekologik siyosatini belgilovchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, xalqaro ekologik konvensiyalar (Parij kelishuvi, BMTning "2030 yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlari"), shuningdek, muhandislik ta'limida ekologik kompetensiyalarni rivojlantirishga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi [4].

O'quv jarayonida ekologik madaniyatni shakllantirish metodlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Integrativ yondashuv: ekologik bilimlar muhandislik fanlariga (masalan, "Issiqlik texnikasi", "Qurilish materiallari texnologiyasi", "Energiya tizimlari") integratsiya qilinadi.

Loyihaviy ta'lim: talabalar "yashil texnologiyalar" loyihalarida ishtirok etadi.

Ekologik modellashtirish: kompyuter dasturlari yordamida ifloslanish oqibatlarini modellashtirish.

Mahalliy ekologik monitoring: talabalar bilan sanoat obyektlarida havoning, suvning va tuproqning ifloslanish darajasini o'rganish.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanish: "aqlli" energiya tizimlari, qayta tiklanuvchi manbalar (quyosh, shamol, biomassa) bo'yicha amaliy mashg'ulotlar.

Tadqiqot anketalar, intervyular, kuzatuv va eksperimental o'qitish usullariga tayandi. 2023-2024 va 2024–2025 o'quv yillarida Buxoro davlat texnika universiteti va Jizzax politexnika institutida 245 nafar muhandislik yo'nalishi talabalari o'rtasida ekologik madaniyatni rivojlantirish tajribasi o'tkazildi.

Natijalar. Tadqiqotdan oldin talabalar orasida ekologik qonunchilik va ekologik xavfsizlik bo'yicha bilim darajasi o'rtacha 46% ni tashkil etgan bo'lsa, tajriba yakunida bu ko'rsatkich 82% ga yetdi. Bu esa o'quv jarayoniga ekologik mavzularni kiritishning samaradorligini ko'rsatadi. Ekologik mas'uliyat va amaliy faoliyatdagi o'zgarishlar quyidagilarda namoyon bo'ldi:

Ekologik loyihalarda
ishtirok etgan talabalar  70%

Texnik yechim
ishlab chiqqanlar  55%

Ekologik huquqiy
tadbirlarda qatnashgan  40%

talabalarning 70 % ekologik loyihalarda (chiqindilarni qayta ishlash, suvni tejash, energiya tejamkor tizimlar) faol ishtirok etgan.

55 % talabalar o'z sohasida "ekologik muvozanat"ni ta'minlash uchun texnik yechimlar ishlab chiqqan.

40 % talabalar ekologik huquqiy bilimlarini mustahkamlash maqsadida "Ekologik forum" va "Yashil haftalik" tadbirlarida qatnashgan.


Ekologik qonunchilikning o'quv jarayoniga tatbiqi muhim sanaladi. O'zbekiston Respublikasining "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni, "Ekologik nazorat

to'g'risida"gi qonuni hamda Prezident qarorlari asosida quyidagi yondashuvlar ishlab chiqildi (1-rasm):

normativ baza asosida ta'lim – talabalarga amaldagi ekologik me'yorlar (emisiyalar, chiqindilar, energiya iste'moli)ni o'rgatish;

huquqiy madaniyatni oshirish – “Ekologik huquq” fani orqali ekologik mas'uliyatni tushuntirish;

amaliy nazorat mexanizmlari – ekologik audit, ishlab chiqarishdagi ekologik sertifikatlashtirish jarayonlarini o'rgatish.



1-rasm. Ekologik qonunchilikning o'quv jarayoniga tatbiqi yo'nalishlari

Muhokama. Muhandislik ta'limida ekologik qonunchilikning o'rni beqiyos bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida “Har bir shaxs atrof-muhitni asrash va unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majbur” ekani belgilangan. Shu asosda ekologik ta'lim – davlat siyosatining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Muhandislik fakultetlarida ekologik qonunchilikni o'rganish nafaqat nazariy bilim, balki amaliy mas'uliyatni ham shakllantiradi [1].

2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “ekologik madaniyatni oshirish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish” ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Bu jarayon muhandislik ta'limini zamonaviy ekologik talablar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi [7].

Talabalarda ekologik kompetensiyalarni shakllantirish ham asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ekologik kompetensiya deganda nafaqat ekologik bilim, balki texnik yechimlarda ekologik xavfsizlikni ta'minlay olish malakasi ham tushuniladi. Talabalar ekologik qonunchilikni o'z sohalariga tatbiq etish orqali:

- sanoat chiqindilarini kamaytiruvchi texnologiyalarni ishlab chiqadi;
- energiya sarfini kamaytirish usullarini qo'llaydi;
- ishlab chiqarish jarayonlarini ekologik standartlarga muvofiqlashtiradi.

Tadqiqot davomida aniqlangan ayrim qiyinchiliklar ham ko'zga tashlandi. Jumladan: barcha OTMlarda ekologik ta'lim kurslarining bir xilligi ta'minlanmagan [8]. Shuningdek, o'quv dasturlarida ekologik qonunchilikka oid materiallar ayrim hollarda yetarli darajada chuqur o'qitilmaydi. Kelajakda ekologik qonunchilikni muhandislik o'quv dasturlariga majburiy modul sifatida kiritish, ekologik innovatsiyalar laboratoriyalarini tashkil etish tavsiya etiladi.

Xulosa. Muhandislik ta'limida ekologik madaniyatni rivojlantirish O'zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasida muhim o'rin tutadi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ekologik qonunchilik va ta'lim jarayonining integratsiyasi natijasida: talabalar ekologik xavfsizlik tamoyillarini chuqur anglaydi, ekologik qonunlarga amal qilish madaniyati shakllanadi, ishlab chiqarish va texnik jarayonlarda "yashil texnologiyalar"ni qo'llash ko'nikmalari rivojlanadi.

Shunday qilib, ekologik madaniyatni muhandislik fanlari orqali shakllantirish O'zbekiston Respublikasining ekologik siyosati, qonunchiligi va barqaror rivojlanish maqsadlariga to'la mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 1992 (2023 y. tahriri).
3. "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2013.
4. "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi 2019–2030 yillar". – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, PQ–4477, 2019.
5. "Ekologik ta'lim va tarbiya konsepsiyasi". – Vazirlar Mahkamasining qarori, 2021.
6. UNESCO (2020). Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives.
7. Karimova, N. (2022). Ekologik madaniyat va texnik tafakkur o'zaro bog'liqligi. Toshkent: TDPU nashriyoti.
8. Rasulov, B. (2023). Muhandislik ta'limida barqaror rivojlanish konsepsiyasi. Farg'ona: FPI nashriyoti.

Shadmanov Mirzamaxmud Alisherovich,
Andijon davlat tibbiyot institute, urologiya kafedrası mudiri,
tibbiyot falsafa doktori (PhD), dotsent
Orcid: UDK: 614.23:378.(063)

UROLOGIYA FANINI TAKOMILLASHTIRISHDA “SWOT” TEXNOLOGIYASINI QO‘LLASH

Annotatsiya. O‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy, ilmiy va innovatsion salohiyatini rivojlantirmokda. Urologiya fanini o‘qitishda “SWOT” texnologiyasi qo‘llanildi va ta’lim sifati taxlil kilindi. “SWOT” texnologiyasini qo‘llagan gurux talabalalarida bilim sifati, nazorat guruxiga nisbatan 28,4% oshganligini ko‘rsatdi. “SWOT” texnologiyasi prostata bezi xavfsiz giperplaziyasi kasalligida diagnostika va davolash usullarini, profilaktika chora-tadbirlarini kengrok analitik tahlil etish imkoniyatini berdi va talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirdi.

Kalit so‘zlar: urologiya, ta’lim, talaba, innovatsion texnologiya, analitik tahlil, diagnostika, davolash, profilaktika.

Аннотация. Использование инновационных технологий в обучении способствует развитию профессионального, научного и инновационного потенциала будущих специалистов. В ходе обучения урологии была применена технология «SWOT» и проведен анализ качества образования. Группа, использовавшая SWOT-технологию, показала рост качества знаний учащихся на 28,4% по сравнению с контрольной группой. Технология «SWOT» дала возможность более широкого аналитического анализа методов диагностики, лечения и профилактики доброкачественной гиперплазии предстательной железы, а также повысила интерес студентов к данной теме.

Ключевые слова: урология, образование, студент, инновационные технологии, аналитический анализ, диагностика, лечение, профилактика

Abstract. The use of innovative technologies in education contributes to the development of professional, scientific, and innovative potential of future specialists. During the teaching of urology, the "SWOT" technology was applied and an analysis of the quality of education was conducted. The group that used the SWOT technology demonstrated a 28.4% increase in students' knowledge quality compared to the control group. The "SWOT" technology enabled a more comprehensive analytical study of diagnostic, treatment, and prevention methods for benign prostatic hyperplasia, as well as increased students' interest in the subject.

Key words: urology, education, student, innovative technologies, analytical analysis, diagnostics, treatment, prevention.

Kirish. Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida tibbiyot ta'limida fanlararo interatsiyaga asoslangan innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish, raqamli texnologiyalar transformatsiyasiga asoslangan uzluksiz tibbiyot ta'limi texnologiyalarini takomillashtirish, global salomatlik dasturlari (Horizon health), tadqiqotlarga yo‘naltirilgan ta’lim asosidagi tibbiy klasterlarni (Health Cluster) yaratish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, tibbiy ta’lim sifatini oshirish, kompetentsiyaviy yondashuvni joriy etish, real tibbiyot muhitda amaliy kasbiy-ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beradigan klinik-interaktiv texnologiyalarni tatbiq etish, tibbiyot xodimlarining ijtimoiy-madaniy, inklyuziv prizmadagi kompetentsiyalar modelini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda tibbiyot sohasini rivojlantirish, sohaga xalqaro standartlarni joriy etish, kredit-modul tizimini joriy etish orqali tibbiyot sohasida kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlarini takomillashtirish, tibbiyot ta’lim, fan, amaliyot

va innovatsiyalar sohasidagi ijobiy xalqaro tajribalarni implementatsiya qilish borasida samarali ishlar olib borilmoqda. Shuningdek, tibbiyot ta'limida ta'lim xizmatlarini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim berish imkoniyatlarini kengaytirish, tibbiyot tashkilotlari ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash, amaliyot va ta'lim integratsiyasiga asoslangan dual ta'lim modelini joriy etish, bu borada tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining akademik va innovatsion salohiyatini oshirish borasida ustuvor vazifalar belgilangan.

O'z navbatida bu uzluksiz tibbiy ta'lim imkoniyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-oktyabrda PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil

28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmonlari, 2019 yil

6 maydagi PQ-4310-son "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021 yil

25 maydagi PQ-5124-son "Sog'liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga tibbiyot oliygoxlaridagi tadqiqotlar muayyan darajada xizmat qiladi.

Ta'lim tizimini samaradorligi o'qituvchi saviyasi, talaba ehtiyoji, o'quv adabiyotlari mazmuni hamda mustaqil ta'limni shakllantirishga qaratilgan infratuzilma bevosita ta'minlab beradi. Demak, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ularni mehnat bozori talablariga muvofiq raqobatdoshligini oshirish, ijodiy fikrlaydigan mutaxassislarni yetishtirish oliy ta'lim muassasalarida yo'lga qo'yilgan ta'lim berish jarayoni bilan chambarchas bog'liq [2, 6, 8, 11]. Uni nafaqat o'qitishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o'qib-o'rganish, unga yangicha munosabatda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishdan iboratdir [1, 4, 7, 9, 12, 13]. Mazkur tizim talabani kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo'naltirilgan. Bu tizimga yordam sifatida o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanib, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy, ilmiy va innovatsion salohiyatini rivojlantirmokda [3, 5, 10, 11, 14].

Tadqiqotning maqsadi – urologiya fanini o'qitishda "SWOT tahlili" texnologiyasini qo'llash va dars sifatini taxlil qilish.

Tadqiqotning ob'ekti va usullari: tajriba sinov japayoniga Andijon davlat tibbiyot instituti davolash fakulteti 4 kurs talabalarining ukuv dasturiga kiritilgan "Urologiya" fanini o'tagani kelgan 563 talaba jalb qilindi. Talabalar ikki guruxga: 275 nafar asosiy (tajriba) guruh va 288 nafar nazorat guruhlariga bo'lindi.

Talabalarni mustaqil o'qib-o'rganib, bilimni yuzaga chiqarish, o'z ustida ishlashini oshirish masadida pedagogik texnologiyalardan "SWOT tahlili" qo'llanildi. "SWOT tahlili" usulini o'tkazishda vazifalar guruhli tarzda yoki talabalarga yakka tartibda bepilishi mumkin. Bu usul talabalarda analitik fikrlash, bilimlarni mustahkamlash, o'tilganlarni takrorlash, tanqidiy mulohaza yuritish va tafakkurni rivojlantirishga yordam bepadi.

"SWOT" qisqartmasi quyidagi inglizcha so'zlarning bosh harfidan olingan:

- S – Strengths (ob'ekt yoki usulning kuchli tomonlari);
- W – Weaknesses (ob'ekt yoki usulning zaif tomonlari);
- O – Opportunities (ob'ekt yoki usulning imkoniyatlari);
- T – Threats (ob'ekt yoki usulga nisbatan xavf yoki to'siqlar).

"SWOT tahlili" usulini o'tkazishda 4 ta katakli jadvaldan foydalanildi (jadval 1):

Jadval 1

	Ijobiy ta'sir	Salbiy ta'sir
Ichki omillar	Strengths (tahlil etilayotgan ob'ekt yoki usulning kuchli tomoni)	Weaknesses (tahlil etilayotgan ob'ekt yoki usulning zaif tomonlari)
Tashqi omillar	Opportunities (tahlil etilayotgan ob'ekt yoki usulning imkoniyatlari)	Threats (tahlil etilayotgan ob'ekt yoki usulga salbiy ta'sir etuvchi tashqi ta'sirlar)

O'rganilayotgan ob'ekt, ya'ni diagnostika va davolash usulini 4 tomonlama tahlil etadilar.

Yuqoridagi ikkita katakda tahlil etilayotgan usulning yoki ob'ektning kuchli va kuchsiz tomonlari ifodalanadi va ulap ichki omillar hisoblanadi. Pastdagi ikkita katakda tahlil etilayotgan ob'ektning imkoniyatlari va unga nisbatan mumkin bo'lgan to'siq va xavflap ifodalanadi va ulap tashqi omillar hisoblanadi.

“SWOT tahlili” usulini boshqa fanlarning amaliy mashg'ulotlarida ham shu tarzda o'tkazish mumkin.

Tadqiqot natijalari: Nazorat guruhidagi 288 talabalarga urologiya fanining “Prostata bezi xavfsiz giperplaziyasi” mavzusi odatiy usulda o'tildi. Asosiy guruhidagi 275 talabalarga bu mavzuni o'tishda pedagogik texnologiyalardan “SWOT tahlili” qo'llanildi.

Talabalarga “Prostata bezining xavfsiz giperplaziyasi” mavzusi “SWOT - tahlil” jadvali asosida tahlil qilinish topshirig'i berildi (jadval 2).

Jadval 2

S	W
Prostata bezining xavfsiz belgilari	Prostata bezi kasalligi
O	T
Kasallikni davolash usullari	Kasallikni keltirib chiqaruvchi omillarga befarqlik

Yuqoridagi ikkita katakda tahlil etilayotgan usulning yoki ob'ektning kuchli va kuchsiz tomonlari ifodalanadi va ulap ichki omillar hisoblanadi. Pastdagi ikkita katakda tahlil etilayotgan ob'ektning imkoniyatlari va unga nisbatan mumkin bo'lgan to'siq va xavflap ifodalanadi va ulap tashqi omillar hisoblanadi.

Talabalar mavzu bo'yicha o'z fikrlari tahlil qildilar. Mazkur texnologiyasi asosida o'tkazilgan mashg'ulotda nazorat guruhidagi 86 (58,5%) nafar talaba - a'lo; 77 (52,3%) nafar talaba yaxshi; 125 (85,0%) nafar talaba qoniqarli o'zlashtirdi.


Tajriba (asosiy) guruhidagi 148 (86,9%) nafar talaba - a'lo; 127 (76,9%) nafar talaba yaxshi; qoniqarli o'zlashtirgan talaba - bo'lmadi.

Talabalarining “SWOT - tahlil” jadvali texnologiyasi bo'yicha ta'limni tashkillashtirish shakllantirish bo'yicha fikrlari o'rganildi (jadval 3).

Jadval 3.

Ta'limni tashkillashtirish shakllari

Ta'lim shakllari	Nazorat guruhi (n=288)		Asosiy guruhi (n=275)		χ^2	P
	n	%	n	%		
Jamoaviy	72	48,9	122	73,9	20,59	<0,001
Guruhli	45	30,6	37	22,4	2,69	>0,05
Individual	30	20,4	6	3,6	21,42	<0,001



Rasmiy 1. Ta'limni tashkillashtirish shakllari

Nazorat guruhidagi 72 nafar talaba jamoa bo'lib ishlashni (48,9%) ; 45 nafar talaba kichik guruhda (30,6%) ; 30 nafar talaba individual 20,4%) ishlashni taklif etdilar.

Tajriba-asosiy guruhidagi 122 nafar talaba jamoa bo'lib ishlashni (73,9%); 37 nafar talaba kichik guruhda (22,4%) ; 6 nafar talaba individual (3,6%) ishlash afzal ekanligini ta'kidladilar.

Muxokama. Pedagogik texnologiyalardagi “SWOT tahlili” usulini birinchi bo'lib 1963 yili Garvardda bo'lib o'tgan ilmiy konferentsiyada biznes-siyosatshunos professor Kennet Endryus taklif etgan va asosan iqtisodiyot sohasida biznes loyihalarni strategik rejalash va baholash uchun qo'llanilgan [4, 6, 11]. Keyinchalik bu usul boshqa sohalarda ham qo'llanila boshlandi. “SWOT tahlili” – nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni o'rganish, g'oya, jarayon, tajriba hamda ish natijalarini tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarini topish, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholash, tanqidiy fikrlash, analitik tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi [1, 8, 9, 12].

Tibbiyotda “SWOT tahlili” usulini diagnostika va davolash usullari, profilaktik chora-tadbirlarning tahlilida qo'llash mumkin. Bunday tahlil orqali talabalar biror bir usulning kuchli tomonlari bilan birga uning zaif tomonlarini ham o'rganadilar, bu usul imkoniyatlari bilan unga nisbatan to'siqlar va xavflarni tahlil qiladilar.

“SWOT tahlili” usulini o'tkazishda vazifalar guruhli tarzda yoki talabalarga yakka tartibda berilishi mumkin. O'rganilayotgan ob'ekt, ya'ni diagnostika va davolash usulini 4 tomonlama tahlil etadilar. Bu orqali esa talabalarda analitik fikrlash rivojlanadi. Albatta,

bunday usullarning ta'lim jarayonida qo'llanilishi fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tanlanadi.

Xulosa: "SWOT tahlili" urologiya fanining amaliy mashg'ulotida qo'llash orqali ta'lim oluvchilarda darsning nazariy qismida o'tilgan mavzuni mustaxkamlashga erishildi. "SWOT tahlili" prostata bezi xavfsiz giperplaziyasi kasalligida diagnostika va davolash usullarini, profilaktika chora-tadbirlarini kengroq analitik tahlil etish imkoniyatini berdi va talabalarning fanga bo'lgan kizikishini oshirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Kramer-Johansen J., Myklebust H., Wik L., Fellows B., Svensson L., Sorebo H., Steen P.A. Quality of out-of-hospital cardiopulmonary resuscitation with real time automated feedback: a prospective interventional study. *Resuscitation*. 2016; 71:283-292.
2. Quality Assistance in Higher Education in the Russian Federation. UNESCO, Bucharest. 2011.
3. Jarvis P. Globalization, the Learning Society and Comparative Education. *Comparative Education*, 2010, Vol.36, No.3.
4. Learning for Tomorrow's World: First Results from PISA 2003. OECD, 2004. Lisbon Council Policy Brief. The economics of knowledge: Why education is key for Europe's success by Andreas Schleicher. (13 March 2016).
5. Maher J.E., Kleinman G.E., Lile W., Tolaymat L., Steele D., Bernard J. The construction and utility of an amniocentesis trainer. *American Journal of Obstetrics and Gynecology*. 2018 Nov;179(5):1225.
6. Malathi S., Hwang J.C., West D., Yellowlees P.M. Assessment of clinical skills using simulator technologies. *Academic Psychiatry*. 2016 Nov-Dec;30(6):505-15.
7. Okuda Y., Bryson E.O., DeMaria S.J., Jacobson L., Quinones J., Shen B., Levine A.I. The utility of simulation in medical education: what is the evidence? *The Mount Sinai Journal of Medicine*. 2019 Aug;76(4):330-43.
8. Rodgers D.L., Securro S.J., Pauley R.D. The effect of high-fidelity simulation on educational outcomes in an advanced cardiovascular life support course. *Simulation in Healthcare*. 2019 Winter;4(4):200-6.
9. Martin A.J. et al. Risk assessment to guide prostate cancer screening decisions: a cost-effectiveness analysis. *Med J Aust*. 2013; 198(10):546-550.
10. Savoldelli G.L., Naik V.N., Joo H.S., Houston P.L., Graham M., Yee B., Hamstra S.J. Evaluation of patient simulator performance as an adjunct to the oral examination for senior anesthesia residents. *Anesthesiology*. 2016 Mar; 104(3):475.
11. Saad F., Kamischke A., Yassin A. et al. More than eight years' hands-on experience with the novel long-acting parenteral testosterone undecanoate. *Asian J Androl*. 2017; 9(3):291-297.
12. Serrano D.P. The burden of LUTS and BPH in Asia. The 1st Congress of Asian Pacific Prostate Society: the official presentation of the report. Seoul, Korea, 2021. 47 p.

Сулаймонова Дилора Абдурахмановна,
*Бухарский государственный медицинский институт,
преподаватель кафедры узбекского языка и литературы, русского и английского
языков*
dildora_sulaymonova@bsmi.uz

ОБОГАЩЕНИЕ СЛОВАРНОГО ЗАПАСА КАК ОСНОВА УСПЕШНОГО ОВЛАДЕНИЯ РУССКИМ ЯЗЫКОМ КАК ИНОСТРАННЫМ

Annotatsiya. Maqolada rus tilini chet tili sifatida o'qitish jarayonida so'z boyligini boyitishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilingan. Muallif lug'at ishinig ta'limdagi roli, faol va passiv lug'at tushunchalari, talabalarda so'zni kontekstda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish usullarini yoritadi. Buxoro davlat tibbiyot instituti talabalari bilan amalga oshirilgan tajriba natijalari asosida so'z boyligini rivojlantirishning samarali shakl va usullari taklif etilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanish va axborot muhitining lug'at ishidagi ahamiyati ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: rus tili, lug'at ishi, so'z boyligi, faol lug'at, pedagogik texnologiya, raqamli ta'lim.

Annotatsiya. В статье рассматриваются теоретические и практические основы обогащения словарного запаса при обучении русскому языку как иностранному. Автор анализирует роль лексической работы, различие между активным и пассивным словарём, а также методы формирования у студентов навыков контекстуального употребления слов. На основе педагогического эксперимента, проведённого со студентами Бухарского государственного медицинского института, определены эффективные формы и методы обогащения словаря. Особое внимание уделено использованию цифровых технологий и информационной среды в процессе обучения.

Ключевые слова: русский язык, словарная работа, активный словарь, педагогические технологии, цифровое обучение, коммуникативная методика.

Annotation. The article examines the theoretical and practical foundations of vocabulary enrichment in teaching Russian as a foreign language. The author explores the role of lexical work, the distinction between active and passive vocabulary, and methods of forming contextual word usage skills among students. Based on a pedagogical experiment conducted at the Bukhara State Medical Institute, the study identifies effective forms and methods of vocabulary enrichment and highlights the importance of digital technologies in the educational process.

Key words: Russian language, vocabulary enrichment, active vocabulary, pedagogical technologies, digital learning, communicative approach.

Современное языковое образование ориентировано на формирование у студентов не только языковых знаний, но и коммуникативной, когнитивной и культурной компетенции. При обучении русскому языку как иностранному особое значение приобретает лексическая работа, направленная на развитие активного словарного запаса, способствующего успешному взаимодействию в профессиональной и межкультурной среде.

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarni ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyalar bilan yo'naltirishning metodik ahamiyati atroflicha tahlil qilinadi. Xususan, oliy ta'lim jarayonida xorijiy tilni o'qitishda kommunikativ yondashuv asosida shakllantiriladigan ko'nikmalar - og'zaki nutq, yozma nutq, tinglab tushunish va o'qib anglash bo'yicha kompetensiyalar - talabalarning kasbiy va ijtimoiy faoliyatda samarali muloqotga kirishishiga xizmat qiladi. Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv o'qitish metodlari, muammoli vaziyatlar asosidagi mashg'ulotlar, rolli o'yinlar, jamoaviy ishlar va loyihalarga asoslangan yondashuvlarning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirish, motivatsiyani oshirish va mustaqil fikrlashga undash orqali talabalarni til vositasida erkin muloqotga tayyorlashning

samarali usullari muhokama qilingan. Tadqiqot natijalariga asoslangan metodik tavsiyalar oliy ta'limda ingliz tili o'qitish sifatini oshirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: kommunikativ kompetensiya, metodik yondashuv, interaktiv usullar, muloqotga yo'naltirilgan ta'lim, talabalar faoliyati, og'zaki va yozma nutq, ta'lim samaradorligi.

Introduction. The expansion of the Global information space, the rapid development of Science and technology requires from a modern specialist not only professional knowledge and skills, but also competence to be able to communicate effectively in foreign languages, in particular in English. Today, English has become the main medium of not only international communication, but also Education, Science, Technology, business and diplomacy. Therefore, the process of teaching English in the higher education system should be aimed at preparing students for real communicative activities, not limited to giving only grammatical knowledge.

Communicative competence refers to the ability to access free, clear and meaningful communication through the medium of language, to properly perceive information, and to convey it in an appropriate context. And the development of communicative competence in English requires the continuous formation of the student's basic language skills, such as listening, reading, writing and speaking. Especially important in this process are the teacher's chosen methodology, the quality of didactic materials, the educational environment and interactive approaches.

The relevance of the topic is such that the educational process on the basis of a communicative approach expands the possibilities of not only language learning, but also preparing students for professional activities, forming their critical thinking, working in a team and being able to successfully compete in the global labor market. It is in this article that the theoretical foundations, practical significance and mechanisms of application in the educational process of these methodological approaches are scientifically covered.

Methodology. The methodological significance of the development of communicative competencies of teachers of the future technology science in English is an important pedagogical - psychological and linguistic approach that serves to improve the effectiveness of the modern educational process, introduce innovative methods into practice, and form professional competencies through a foreign language in students.

The methodological essence of the implementation of Education based on a competency approach is a modern educational process that, in addition to theoretical knowledge, aims to acquire practical skills, independently think, solve problems and form knowledge that can be applied in life.

A competency approach is an educational strategy that focuses knowledge, skills and competencies on being able to apply them in real-life situations. The methodological significance of the implementation of Education based on a competency approach is formed by the formation of communicative competencies in English in future teachers of technology, the skill of mastering the international terminology used in science and practice, as well as effective communication in English in real-life (professional) situations.

Communicative competence refers to the formation in social situations of the ability to engage in interaction in the native language and in a foreign language, to follow the culture of communication, social flexibility, to work effectively in a collaborative team.

The word "communicative" is a concept associated with communication or communication, and more often represents the ability of an individual or group to communicate effectively and correctly with others. Being communicative is having skills such as exchanging ideas with other people, expressing one's opinion in a clear and understandable way, listening to others, and responding to them [9; 4-5p].

Results and Analysis. The process of language learning in the development of communicative competencies of future teachers in English is a method in which the main emphasis in language learning is on communication, that is, the use of language in everyday life, and is an important factor in the development of communicative competencies in English.

Competence it is the concept of “being qualified”, a condition that consists in a set of knowledge, skills, qualifications and experience that an individual needs to successfully operate in an area, which includes not only theoretical knowledge, but also the ability to apply this knowledge in practice. Competence is a process in which the general or special knowledge, skills, qualifications and practical experiences contained in the personality of an educator are harmonized and ready to be used in practice for effective application in an area [10; 6-7p].

The main components of competence explained above are the following (See table)

The main components of competence.

№	Competencies name	Content of competencies
1	Knowledge	The plurality and correctness of concepts about basic concepts, laws, methods and theories in a field are the grounds for the successful functioning of an individual
2	Skill	Is the ability to apply learned knowledge in practice, a set of practical methods that an individual uses to perform a certain activity
3	Qualification	The ability to perform a certain activity at a high level, combining the acquired knowledge and acquired skills in a correct and effective way
4	Experience	Practical results achieved through the application, use and transformation of learned knowledge and skills in real conditions are often, over time, the adaptation of an individual to changing conditions and the rapid acquisition of innovations, in many cases, formed and developed through qualifications

The importance of competence in the professional activity of the future educator is that it shows not only the knowledge of the individual, but also how they are applied in life situations based on real reality. Having good knowledge in an area is not enough, it requires the ability to apply knowledge in practice, solve problems and adapt to innovations. Skills, qualifications and experience are a priority in this, and also include many other skills necessary for the effective implementation of professional activities. Soft skills (soft skills), such as teamwork, communication, time management, problem analysis, for example, are also part of competence. Therefore, competence is not based solely on knowledge itself, but on how they are applied and how to influence the personal and professional development of an educator, being able to manifest these processes in the field-specific English language, which determines the scientific and methodological significance of the development of communicative competencies in the English language of future teachers of technology [11; 6-7p].

Summarizing the above concepts, communicative competencies of future technology teachers in English represent not only the abundance of knowledge in English, but also the ability to successfully apply this knowledge in practice in English and further develop it through experience. In this, a person who has a high competence in the field of Technology-Technology in English, will be able to effectively and successfully operate his work in English.

Discussion. The possibility of using innovative and interactive methods is a methodological aspect of the implementation of Education based on a competency approach

through these techniques, based on interactive approaches such as communicative language teaching methodology – CLT (Communicative Language Teaching), task-based learning, case-study, role-play, debate, brainstorming, students will be able to teach them to express their thoughts freely and accurately, solve real problems related to technology science by analyzing them in English.

The process of implementing technology and English integration – CLIL (Content and Language Integrated Learning) based on methodology-is considered as a solution to the research goal, in this model, students study the language along with the study of Science, and look at the study of Science in English as a strategic goal. This means that the future technology teacher will be able to explain the professional activities and technical content related to science to students in English, students will also begin to master the basics of Science in English, which will become the basis for their future international activities.

The adaptation of education to modern technologies is a methodically important approach to the development of communicative language skills using digital tools (videodars on the YouTube social network, Quizlet, Kahoot, Duolingo, Google Classroom). Future teachers of technology will be able to independently Master educational materials in English, the learners will form the skills of working in English with a software educational tool. In this, a methodological approach to involving students in active participation is formed by Student-centered learning, that is, the development of communicative competence in involving them in thinking and communication in English through educational methods aimed at the student's personality, serving to activate the teacher's education, and students are formed as socially active, global thinking individuals.

Methodological development on the basis of the development of educational materials and methodological manuals the development of special methodological materials, exercises, interactive tasks for the development of communicative competencies in addition to increasing the methodological potential of teachers, innovative and linguistically excellent educational resources are created and literature corresponding to the experience of developed countries is formed. The methodological significance of the development of communicative competencies of future teachers of technology in English is manifested in the expression of competency, interdisciplinary and communicative approaches in education, the introduction of interactive methods and the activation of the course process, the training of competitive specialists in the international arena, the enrichment of the methodological base of education, the development of new programs, modules and textbooks. Therefore, the exchange of methodological research and practical experience in this direction is important for pedagogical progress.

Conclusion. The study of a foreign language, in particular English, has become an integral component not only of personal development, but also of professional success in the context of today's globalization. Providing students with communicative competencies in English is an important condition for their preparation for the modern labor market, international cooperation and development of Science and technology. The analysis carried out in this article shows that the correct choice of a methodological approach and the application of modern teaching technologies in the development of these competencies is a decisive factor.

The formation of communicative competencies requires the continuous development of basic language skills in students, such as listening, reading, writing and speaking. Interactive techniques, problem-situation-based assignments, role-playing games, group projects, and dialogue-oriented activities provide an effective tool in this process. The fact that education is based on a communicative approach encourages students to think independently, develop a culture of communication and be able to freely apply language in a professional context.

Also, the motivation of students in the process of language training, the selection of methodological materials taking into account their needs and interests, the organization of classes based on real-life and professional situations directly affect the quality indicators of the

educational process. This, in turn, enriches the study of English in content, making it a skill of practical importance.

Several decrees, resolutions and decisions of the president of our country on increasing the importance of the English language and the development of international relations, modernization of the educational system and expansion of the study of foreign languages, and decisions of the Cabinet of Ministers have been adopted, and today it is established that all higher education institutions need to have different levels of language knowledge, while all these processes are aimed at achieving positive results, the real state of the present is aimed at knowing a foreign language in general terms, since some components of the educational system are bypassing, the basis of analytical data in the experimental testing process of the research work showed that it was considered advisable to introduce certificates from specialists in each field.

In summary, providing students with communicative competencies in English is a process that requires a continuous and systematic methodological approach, effective use of modern didactic tools, and an individual approach to each student. The educational process, organized on the basis of these approaches, not only teaches the language, but also prepares the student for future professional activities, forms their culture of communication and serves to develop as a person adaptable to the global environment.

References.

1. Bachman, L. F. (1990). *Fundamental Considerations in Language Testing*. Oxford University Press.
2. Hedge, T. (2000). *Teaching and Learning in the Language Classroom*. Oxford University Press.
3. Richards, J. C., & Renandya, W. A. (2002). *Methodology in Language Teaching: An Anthology of Current Practice*. Cambridge University Press.
4. Brown, H. D. (2007). *Principles of Language Learning and Teaching*. Pearson Education.
5. Jo'rayeva M.R. Kompetensiya, kommunikativ kompetensiya atamalarining ifodalanishi 166 bet Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi –4/3-2023
6. Juraev Akmal Razzokovich , Juraeva Mahliyo Rashidovna The Importance of Professional Competence Along with Personal Maturity to Harmonize All the Innovations in Society Excellencia: international multi-disciplinary journal of education Volume 02, Issue 04, 2024 ISSN (E): 2994-9521 <https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje>
7. Juraeva Makhliyo Rashidovna. Representation of a symbol in intercultural communication. Tilning leksik-semantik tizimi, qiyosiy tipologik izlanishlar va adabiyotshunoslik muammolari XIV. Buxoro-2023
9. Jo'rayeva Mahliyo Rashidovna. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatiga doir ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish. "Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnali 7(15)2024
10. Juraev A., & Juraeva, M. Methodological importance of developing students' communicative competence in english theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences (T. 3, Выпуск 20, cc. 100–104). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14128205>
11. Jo'rayeva Mahliyo Rashidovna. Talabalarini kasbiy faoliyatiga oid ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari. "PEDAGOGIK MAHORAT " ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025, № 3. 216 bet

*Jumayeva Mehribon Abduvohitovna,
Buxoro davlat universiteti, Pedagogika kafedrasida dotsenti p.f.f.d.(PhD)*

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA INNOVATION FAOLIYATGA TAYYORLASH

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish jarayoni, uning mohiyati va ahamiyati tahlil qilinadi. Innovatsion faoliyatga tayyor o'qituvchini shakllantirishda pedagogik innovatsiyalar, zamonaviy ta'lim texnologiyalari hamda ijodkorlik va yangicha fikrlashni rivojlantirishning roli yoritiladi. Shuningdek, maqolada o'qituvchilarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish yo'llari, bu jarayonda raqamli ta'lim muhitining ahamiyati va ta'lim sifati hamda samaradorligiga ta'siri haqida ilmiy tahlillar keltirilgan. Natijada, oliy ta'lim muassasalarida innovatsion madaniyatni shakllantirishning zarur shart-sharoitlari va istiqbollari haqida tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: pedagogika, oliy ta'lim, innovatsion faoliyat, o'qituvchi kompetensiyasi, pedagogik innovatsiyalar, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, ijodkorlik, yangicha fikrlash, raqamli ta'lim muhiti, innovatsion madaniyat, ta'lim sifati, ta'lim samaradorligi, innovatsion rivojlanish, o'qituvchini tayyorlash, ta'limda innovatsiya.

Аннотация. В данной статье рассматривается процесс ориентации преподавателей высших учебных заведений на инновационную деятельность, его сущность и значение. Раскрывается роль педагогических инноваций, современных образовательных технологий, а также развитие творческого и нестандартного мышления в формировании преподавателя, готового к инновационной деятельности. Кроме того, анализируются пути развития инновационной компетентности преподавателей, значение цифровой образовательной среды и её влияние на качество и эффективность образования. В заключение предлагаются рекомендации по формированию инновационной культуры в высших учебных заведениях и созданию необходимых условий для её дальнейшего развития.

Ключевые слова: педагогика, высшее образование, инновационная деятельность, компетентность преподавателя, педагогические инновации, современные образовательные технологии, творчество, инновационное мышление, цифровая образовательная среда, инновационная культура, качество образования, эффективность обучения, инновационное развитие, подготовка преподавателей, инновации в образовании.

Abstract. This article discusses the process of orienting higher education teachers toward innovative activity, its essence, and its significance. The role of pedagogical innovations, modern educational technologies, and the development of creativity and critical thinking in shaping teachers ready for innovative work is analyzed. The paper also explores ways to develop teachers' innovative competence, the importance of the digital learning environment, and its impact on the quality and effectiveness of education. Finally, recommendations are provided for fostering an innovation-oriented culture in higher education institutions and creating the necessary conditions for its sustainable development.

Key words: pedagogy, higher education, innovative activity, teacher competence, pedagogical innovations, modern educational technologies, creativity, critical and innovative thinking, digital learning environment, innovation culture, quality of education, educational efficiency, innovative development, teacher training, innovation in education.

Kirish. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va ilm-fan bilan uzviy integratsiyani kuchaytirish yo'nalishida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada bilim olish, ilmiy

izlanish olib borish va ijodiy salohiyatni ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasi ("Ta'lim olish huquqi")da: "Ta'lim olish huquqi ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va o'quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda amalga oshirish mumkinligi" alohida ta'kidlab o'tilgan. Bu norma ta'lim tizimida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, ilg'or tajribalarni joriy etish hamda zamonaviy o'qituvchi shaxsini shakllantirish uchun muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.


O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, raqobatbardosh milliy iqtisodiyot barpo etilishi, eng avvalo, jahon intellektual salohiyatiga mos mutaxassislarni tayyorlash bilan chambarchas bog'liqdir. Shu boisdan, oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash jarayonini xalqaro andozalar, innovatsion yondashuvlar va raqamli ta'lim texnologiyalariga asoslash dolzarb masalaga aylangan.

Mazkur maqsadlarni samarali amalga oshirish uchun bo'lajak o'qituvchilar va ilmiy-pedagog xodimlarni zamonaviy ilmiy-metodik talablar asosida tayyorlash, ularni ijodiy faoliyatga jalb etish, innovatsion tafakkurni rivojlantirish, hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'lim muassasalarida bu jarayonni tashkil etish - faqat bilim berish emas, balki talabalarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarda yechim topish, yangilik yaratishga intilish kabi kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Bugungi kunda oliy ta'limda innovatsion faoliyatni rivojlantirish - ta'lim jarayonini raqamlashtirish, interfaol o'qitish metodlarini keng joriy etish, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash orqali yangi sifat bosqichiga ko'tarilmoqda. Shu bilan birga, ta'lim jarayonini mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ustuvor yo'nalishlariga mos holda prognozlash va boshqarish, yuqori motivatsiyaga ega bo'lgan yosh mutaxassislarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Natijada, oliy ta'lim muassasalarida innovatsion madaniyatni shakllantirish, pedagoglarning ijodiy salohiyatini oshirish va ularni o'z sohasida ilg'or g'oyalarga tayangan holda faoliyat yuritishga yo'naltirish mamlakat taraqqiyoti va global raqobatbardoshlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Oliy ta'limda o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish jarayonida quyidagilar muhim sanaladi:



Jamiyatimizning kelajagi - bu, avvalo, bo'lajak mutaxassislarni zamon talablari asosida innovatsion faoliyatga yo'naltirib, ularni raqobatbardosh shaxslar sifatida shakllantirish bilan

chambarchas bog'liqdir. Globallashuv, raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida ta'lim tizimi yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Shu boisdan, o'qituvchi faolligini, mas'uliyatini va kasbiy mahoratini oshirmasdan turib ta'lim jarayonida sifat jihatidan yuksalish mumkin emas.

Mashhur rus psixologi A.N. Leontyev ta'kidlaganidek: "Dunyoni idrok qilishning birinchi sharti – faoliyat, ikkinchisi – tarbiya. Faoliyat jarayonida insonning qobiliyati, bilim va malakalari shakllanadi, demak, faoliyat ijtimoiy hodisa bo'lib, hayotiy kurashning asosiy shartidir." Ushbu fikr zamonaviy ta'lim falsafasida ham o'z aksini topadi. Ya'ni, faoliyat - bu insonning shaxsiy, ijtimoiy yoki umuminsoniy ehtiyojlariga javob beruvchi, maqsadga yo'naltirilgan harakatdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, o'qituvchining kasbiy faoliyati ham shunchaki bilim berish emas, balki jamiyatning intellektual va ma'naviy salohiyatini shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyat turidir.

Hozirgi kunda ijtimoiy va pedagogika sohalarida yangi ilmiy yo'nalish - innovatsion pedagogik faoliyat shakllanmoqda. Bu yo'nalish o'qituvchining an'anaviy roli va metodologiyasini tubdan o'zgartiradi. Ta'lim jarayonida innovatsiyalar g'oyalari, pedagogik yangiliklar, ijodiy yondashuvlar paydo bo'lishi natijasida "o'qituvchining innovatsion faoliyati" tushunchasi ilmiy muomalaga kiritildi.

Innovatsion muhit deganda - oliy ta'lim muassasasida yoki pedagogik jamoada yaratilgan shunday ijodiy, ochiq, do'stona va samimiy sharoit tushuniladiki, unda o'qituvchi o'zini erkin his qiladi, yangi g'oyalarni ilgari surishdan cho'chimaydi, jamoaning ma'naviy va moddiy qiziqishlari uyg'un holda rivojlanadi. Bunday muhit o'qituvchini ijodkorlikka, yangilik yaratishga va o'z faoliyatini takomillashtirishga undaydi.

Innovatsion faoliyatning asosiy maqsadi - mavjud bilim, ko'nikma va malakalardan eng yuqori samaradorlikka erishish, ta'lim jarayonida sifatli natijalar olishdan iboratdir. U boshqa turdagi yangiliklardan farqli ravishda, innovatsion boshqaruv, rejalashtirish va nazorat mexanizmlarini takomillashtirishni o'z ichiga oladi. Natijada, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida yangilikka ochiqlik, raqobatbardoshlik va uzluksiz rivojlanish tamoyillari qaror topadi.


Innovatsion pedagogik reja - bu yaratilgan va amaliyotga tatbiq etilishi tasdiqlangan innovatsion o'quv-tarbiyaviy loyiha bo'lib, u ta'lim jarayonini takomillashtirish, o'quv dasturlarini zamonaviy talablar asosida qayta tuzish hamda o'qitishning ilg'or texnologiyalarini joriy etishni nazarda tutadi. Bunday reja ta'lim jarayonining aniq maqsadlarini belgilab, o'qituvchi va talabaning o'zaro faol hamkorligiga asoslangan holda natijaga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish imkonini beradi.

Innovatsion pedagogik g'oya esa - bu tizimlashtirilgan pedagogik konsepsiyalar majmuasi bo'lib, o'quv jarayonining istiqboldagi yo'nalishlarini belgilovchi, ilmiy asoslangan, bashoratchi xarakterga ega g'oyalar tizimini ifodalaydi. U ta'lim mazmuni, shakli va usullarini yangilash orqali o'qituvchining ijodiy faoliyatini rivojlantirish hamda o'quvchilarda mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni yechish qobiliyatini shakllantirishni maqsad qiladi.

Innovatsion ta'lim - bu ta'lim sohasiga kiritilgan yoki joriy etilayotgan yangiliklar majmuasidir. U ilg'or pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar, interfaol metodlar va zamonaviy didaktik yondashuvlar asosida tashkil etilib, o'qitish jarayonining samaradorligini oshirishga, ta'lim sifatini yaxshilashga hamda o'quvchi shaxsining ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, "salohiyat" atamasi kishi yoki jamiyatning ichki imkoniyatlari, hali to'la namoyon bo'lmagan kuch-quvvati, rivojlanish zaxirasi ma'nosini anglatadi. Pedagogik kontekstda bu tushuncha o'qituvchi, talaba yoki butun ta'lim tizimining yangilik yaratish, rivojlanish va o'zgarishga moslashish qobiliyatini ifodalaydi. Shu boisdan, innovatsion salohiyatni oshirish - zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri bo'lib, u pedagogik jarayonning samaradorligi va jamiyat taraqqiyotining uzviy omiliga aylanadi.

Pedagogik innovatsiyalarning vujudga kelish holatlari quyidagilar:



Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik innovatikaning o'rnini va roli nihoyatda muhim. Buning sababi shundaki, ta'lim tizimi - bu jamiyat taraqqiyotining darajasi va ehtiyojlariga mos ravishda muntazam rivojlanib, takomillashib boruvchi dinamik ijtimoiy tizimdir. Jamiyatdagi har qanday iqtisodiy, siyosiy yoki madaniy o'zgarishlar, eng avvalo, ta'lim tizimida o'z aksini topadi. Shu bois ta'lim jarayonini zamon talablariga mos ravishda doimiy yangilab borish, uni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish dolzarb masalalardan biridir.

Pedagogik innovatika - bu ta'lim sohasida yangi g'oyalar, metodlar, texnologiyalar va yondashuvlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish bilan shug'ullanuvchi ilmiy yo'nalishdir. Uning asosiy maqsadi o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, shaxsning ijodiy tafakkurini rivojlantirish va o'qituvchini zamonaviy kasbiy faoliyatga tayyorlashdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, pedagogik innovatikani o'qituvchining kasbiy faoliyati bilan uzviy bog'liq holda o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ yondashuv asosida innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarligini tahlil qilish quyidagi uch asosiy bosqichda amalga oshiriladi:

Innovatsiyalarni pedagogik faoliyatda qo'llash bosqichi - bu jarayonda o'qituvchi faoliyatining mavjud holati, uning innovatsion texnologiyalarni qo'llashga bo'lgan tayyorgarlik darajasi, motivatsiyasi va kasbiy kompetensiyasi o'rganiladi.

Innovatsion faoliyatning faol shakllanish davri - o'qituvchining yangi g'oyalarni sinovdan o'tkazishi, interfaol metodlarni qo'llashi, o'quv jarayoniga ilg'or tajribalarni tatbiq etish orqali innovatsion faoliyat madaniyatini shakllantirishi bilan tavsiflanadi.

Innovatsiyalarni joriy etilganidan keyingi davrni tahlil qilish - bu bosqichda joriy etilgan yangiliklarning samaradorligi, ularning ta'lim sifatiga ta'siri, o'qituvchi va talabalar faoliyatidagi o'zgarishlar chuqur tahlil qilinadi.

Ta'lim tizimida shaxsning fazilatlarini faoliyat jarayonida shakllanadi va shu faoliyatning natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli, bo'lajak o'qituvchilarda yangilikka intilish, mustaqil fikrlash, izlanish va o'z ustida ishlash zaruriyatini ichki ehtiyojga aylantirish muhimdir. Bu psixologik holat ularning kasbiy shakllanishi va pedagogik mahoratini rivojlantirishning asosi hisoblanadi.

Agar bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimi yuqori darajada, ilmiy asoslangan yondashuv asosida amalga oshirilsa, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish samaradorligi sezilarli darajada ortadi. Natijada, ta'lim

sifati oshadi, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash imkoniyatlari kengayadi va jamiyatning intellektual salohiyati mustahkamlanadi.

Zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanishida innovatsion yondashuvlar hal qiluvchi o'rin tutadi. Oliy ta'limda o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish - bu nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, balki butun jamiyatning intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi strategik jarayondir. Innovatsion pedagogik faoliyat - ta'lim mazmuni, shakli va texnologiyalarini yangilashga qaratilgan, o'qituvchining ijodiy fikrlashi va yangilikka intilishini rag'batlantiruvchi tizim sifatida shakllanmoqda.

Ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lib, doimo rivojlanib boruvchi dinamik tuzilmadir. Shu bois ta'lim jarayonini zamon talablariga mos ravishda yangilab borish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish va o'qituvchilarni kreativ yondashuv asosida tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligini shakllantirishda ularning mustaqil fikrlashi, yangilikka ochiqqligi, ilmiy izlanish olib borish ko'nikmasi va o'z ustida ishlash madaniyati asosiy mezon sifatida namoyon bo'ladi.

Innovatsion muhitning mavjudligi - o'qituvchining ijodiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi g'oyalarni sinovdan o'tkazish va ularni amaliyotga joriy etish imkonini beradi. Bunday muhitda pedagogning faoliyati tashabbuskorlik, mas'uliyat va kasbiy o'sish bilan boyiydi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion pedagogik faoliyatni rivojlantirish - bu ta'lim sifatini oshirish, jamiyatning intellektual va madaniy salohiyatini mustahkamlash, hamda raqobatbardosh, ijodkor va yangilikka intiluvchi avlodni tarbiyalashning eng muhim omilidir. O'qituvchining innovatsion salohiyati ta'lim jarayonidagi barcha islohotlarning asosi bo'lib, u mamlakat taraqqiyoti va global raqobatbardoshlikning kafolati sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. O'RQ-37-son. 23.09.2020. – T.: 2020. – 75 b. // <https://lex.uz/docs/5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. www.lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni. www.lex.uz.
4. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
5. Abduqodirov A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste'dod, 2008. – 180 b.
6. Abduquddusov O. Kasb ta'limi o'qituvchilari tayyorlashga integrativ yondashuv. – T.: Fan, 2005. – 157 b.
7. Avliyoqulov N.H. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. – T., 2001. – 69 b.
8. Azizova G.G. Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatini takomillashtirish. Ped.fanl. bo'y. fal. dok. diss. avtoref. – T. – 2019. – 48 b.
9. Alimov A.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss... – T., 2018. – 142 b.

O.U.Yuldashov,
Samarqand viloyati oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi

SUN'IY INTELEKTNING TA'LIMDA RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA KONSEPTUAL MOHIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta'lim sohasida qo'llanilishi, uning tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy ta'lim jarayonidagi konseptual mohiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, SI asosida yaratilgan o'quv tizimlari, intellektual ta'lim platformalari va shaxsga yo'naltirilgan o'qitish metodlarining afzalliklari yoritiladi. Maqolada sun'iy intellektning ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni va istiqbollari ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, ta'lim, raqamli transformatsiya, intellektual tizimlar, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish, ta'lim texnologiyalari.

Аннотация. В статье рассматриваются этапы развития технологий искусственного интеллекта (ИИ) в сфере образования, их концептуальная сущность и влияние на современный образовательный процесс. Анализируются интеллектуальные обучающие системы, адаптивные платформы и персонализированные методы обучения. Также обсуждаются перспективы применения ИИ для повышения качества и эффективности образования.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, образование, цифровая трансформация, интеллектуальные системы, персонализированное обучение, образовательные технологии.

Abstract. This article explores the stages of development of artificial intelligence (AI) technologies in education and their conceptual essence in the context of modern learning. It analyzes intelligent tutoring systems, adaptive learning platforms, and personalized teaching approaches. The paper also discusses the prospects of using AI to enhance the quality and efficiency of education.

Key words: Artificial intelligence, education, digital transformation, intelligent systems, personalized learning, educational technologies.

XXI asrda ta'lim tizimi global innovasion o'zgarishlar jarayonida ekanini barcha ilmiy doiralar tan olmoqda. Bu o'zgarishlar faqat metodlar yoki vositalarda emas, balki ta'limning butun falsafasi, mazmuni va natijaviyligida namoyon bo'lmoqda. Ana shu jarayonning ilmiy asosi - sun'iy intellekt (SI) fenomeni hisoblanadi. SI nafaqat texnik vosita yoki hisoblash algoritmi, balki insonning anglash, fikrlash va ijod qilish qobiliyatini qayta ifodalaydigan intellektual mexanizm sifatida shakllandi [1].

1956 yilda Dartmut universitetida bo'lib o'tgan ilmiy konferensiyada Jon Makkarti, Marvin Minski, Klod Shennon va Natan Rochesterlar tomonidan "Artificial Intelligence" atamasi ilmiy muomalaga kiritilgan. Ularning asosiy g'oyasi shunday ediki: inson fikrlash jarayonini mashinalar orqali algoritmlashtirish va uni qaror qabul qila oladigan darajaga yetkazish [2].

Bugungi kunda SI ta'lim tizimida faqat avtomatlashtirish vositasi emas, balki o'qitish jarayonining intellektual muhitini yaratish texnologiyasi sifatida namoyon bo'lmoqda. U bilim berishni natijaga yo'naltirish, shaxsiylashtirish va tahlil qilish imkoniyatini yaratadi [3].

SI fanining ilmiy mohiyati ko'p sohali va interdisiplinar xarakterga ega bo'lib, u quyidagi fanlar bilan chambarchas bog'langan:

Informatika - hisoblash jarayonlarini avtomatlashtirish;

Psixologiya - inson ongining kognitiv faoliyatini o'rganish;

Neyrofiziologiya - miyadagi neyron tizimlar modelini tadqiq qilish;

Lingvistika - tabiiy tilni qayta ishlash usullari;

Pedagogika - ta'lim jarayonini intellektual modellash [4].

Sun'iy intellektning ta'riflash bo'yicha turli ilmiy yondashuvlar mavjud. Marvin Minski (1969) SIning "insonning intellektual faoliyatini avtomatlashtirishga qaratilgan fan va muhandislik sohasi" deb ta'riflagan. Jon Makkarti (1958) esa "inson kabi fikrlaydigan va anglaydigan mashinalarni yaratish san'ati va fani" sifatida tavsiflagan. Bu ta'riflardan kelib chiqib, SIning nazariy asoslarini quyidagicha tasniflash mumkin: [5-6]

Simvolik modellar (Symbolic AI) – mantiqiy formulalar va bilim qoidalari asosida fikr yuritish.

Konneksionist modellar (Connectionist AI) – neyron tarmoqlar orqali ma'lumotdan o'z-o'zini o'rgatish.

Kognitiv modellar (Cognitive AI) – insonning anglash va fikrlash jarayonini taqlid qilish.

Har bir model ta'limda ma'lum imkoniyatlar yaratadi. Masalan, simvolik modellar bilim bazasi va test tizimlariga asos bo'lsa, neyron modellar adaptiv o'qitishda, kognitiv modellar esa intellektual baholash va muloqot tizimlarida ishlatiladi [7].

Sun'iy intellekt fani 70 yil davomida bir nechta bosqichlarni bosib o'tgan. Ularning har biri ta'lim tizimiga muayyan ilmiy g'oya va texnologik yechimlarni olib kirgan.

I bosqich (1950–1970): Formal mantiq va dasturli ta'lim. Bu davr SIning nazariy poydevori yaratilgan davr hisoblanadi. Alan Tyuringning 1950 yildagi "Tyuring testi"da u shunday savol qo'ygan edi: "Mashina inson kabi fikrlay oladimi?" [8] Bu savol butun SI fani uchun asosiy nazariy nuqta bo'lib qoldi. Unga javob izlash jarayonida olimlar mantiqiy fikrlashni algoritmallashtirish usullarini ishlab chiqdilar.

Ta'lim sohasida esa bixevioristik nazariya asosida dasturli o'qitish metodi rivojlandi. B.F. Skinner (1968) tomonidan ishlab chiqilgan "Programmed Instruction" modelida o'quv jarayoni algoritmli ketma-ket qadamlar orqali tashkil etilar, har bir javobdan keyin fikr-mulohaza (feedback) berilardi [9]. Bu usul keyinchalik kompyuterlashtirilgan ta'lim tizimlarining poydevori bo'ldi.

II bosqich (1970–1990): Ekspert tizimlar va bilim muhandisligi. Bu davrda sun'iy intellektning amaliy sohalari rivojlana boshladi. Edvard Feygenbaum (1981) va Nils Nilsson (1980) bilim muhandisligi (knowledge engineering) nazariyasini ilgari surdilar [10]. Bu nazariya insonning bilimlarini formallashtirish va ular asosida ekspert tizimlar yaratish imkonini berdi. Ekspert tizimlar tibbiyot, kimyo, iqtisod va ta'lim sohaslarida keng qo'llanildi. Ta'limda ilk bor "Intelligent Tutoring Systems (ITS)" konsepsiyasi yaratildi. Uning asosiy maqsadi – o'quvchining xatolarini tahlil qilish va avtomatik tavsiya berish edi [11]. Masalan, GUIDON tizimi tibbiy ta'limda qo'llanilib, talabalarning qaror qabul qilish qobiliyatini avtomatik baholay olgan. Bu model zamonaviy elektron ta'lim platformalarining ilk namunasi sifatida baholanadi.

1970-yillar oxiriga kelib, SI ta'limda nazariy modeldan amaliy vositaga aylandi. Kompyuter yordamida o'qitish tizimlari ("Computer-Assisted Instruction") AQSH va Yaponiyada keng yoyildi. Bu davrda o'quvchi faoliyatini avtomatik baholash, test natijalarini tahlil qilish va o'qitish tezligini individuallashtirish imkoniyati paydo bo'ldi [12]. Shu bilan birga, SI ta'limdagi roli faqat vosita emas, balki metodologik funktsiya sifatida ham namoyon bo'la boshladi. U o'qituvchi faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi intellektual yordamchiga aylandi. Masalan, CARNEGIE Learning tizimi matematik mashqlarni o'quvchining xatolari asosida qayta tuzib, avtomatik tavsiya berishi mumkin edi [13].

Ta'limda SIning ahamiyati uning inson kognitiv qobiliyatini taqlid qilishidadir. SI nafaqat ma'lumotni qayta ishlaydi, balki uni tahlil qiladi, xulosa chiqaradi va faol muloqot qiladi.

Bugungi kunda ta'limda SIning quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Diagnostic funktsiya – o'quvchining bilim darajasini tahlil qiladi.

Adaptiv funksiya – individual o'quv trayektoriyasini belgilaydi.

Tavsiyaviy funksiya – avtomatik ravishda keyingi mavzularni tanlaydi.

Baholovchi funksiya – test va insholarni intellektual baholaydi.

Interaktiv funksiya – tabiiy tilda muloqotni ta'minlaydi.

Bu funksiyalar natijaga yo'naltirilgan ta'limning asosini tashkil etadi. Chunki natijaviy ta'limning mohiyati – har bir o'quvchining kompetensiyasi va faollik darajasini oshirishdir. SI esa shu jarayonni avtomatlashtirish va individuallashtirish imkonini beradi [15].

Internetning ommalashuvi va katta ma'lumotlar (Big Data) paydo bo'lishi bilan SI yangi bosqichga ko'tarildi. Bu bosqichda asosiy diqqat markazida mashinali o'qitish (Machine Learning) texnologiyalari bo'ldi. Rumelhart va McClelland (1986) tomonidan ishlab chiqilgan "backpropagation" algoritmi sun'iy neyron tarmoqlarini "o'z-o'zini o'rgatish" qobiliyatiga ega qildi [16]. Ta'lim sohasida bu texnologiyalar asosida adaptiv o'qitish platformalari paydo bo'ldi. Masalan, Carnegie Learning tizimi matematik bilimlarni avtomatik tahlil qilish va o'quvchining xatolari asosida tavsiya berish imkoniyatini berdi. Bu platforma o'quvchining faolligini kuzatib, har bir shaxs uchun individual o'quv trayektoriyasini belgilardi.

Ta'limda SIning ahamiyati uning inson kognitiv qobiliyatini taqlid qilishidadir. SI nafaqat ma'lumotni qayta ishlaydi, balki uni tahlil qiladi, xulosa chiqaradi va faol muloqot qiladi.

Bugungi kunda ta'limda SIning quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Diagnostik funksiya – o'quvchining bilim darajasini tahlil qiladi.

Adaptiv funksiya – individual o'quv trayektoriyasini belgilaydi.

Tavsiyaviy funksiya – avtomatik ravishda keyingi mavzularni tanlaydi.

Baholovchi funksiya – test va insholarni intellektual baholaydi.

Interaktiv funksiya – tabiiy tilda muloqotni ta'minlaydi.

Bu funksiyalar natijaga yo'naltirilgan ta'limning asosini tashkil etadi. Chunki natijaviy ta'limning mohiyati – har bir o'quvchining kompetensiyasi va faollik darajasini oshirishdir. SI esa shu jarayonni avtomatlashtirish va individuallashtirish imkonini beradi [15].

Internetning ommalashuvi va katta ma'lumotlar (Big Data) paydo bo'lishi bilan SI yangi bosqichga ko'tarildi. Bu bosqichda asosiy diqqat markazida mashinali o'qitish (Machine Learning) texnologiyalari bo'ldi. Rumelhart va McClelland (1986) tomonidan ishlab chiqilgan "backpropagation" algoritmi sun'iy neyron tarmoqlarini "o'z-o'zini o'rgatish" qobiliyatiga ega qildi [16]. Ta'lim sohasida bu texnologiyalar asosida adaptiv o'qitish platformalari paydo bo'ldi. Masalan, Carnegie Learning tizimi matematik bilimlarni avtomatik tahlil qilish va o'quvchining xatolari asosida tavsiya berish imkoniyatini berdi. Bu platforma o'quvchining faolligini kuzatib, har bir shaxs uchun individual o'quv trayektoriyasini belgilardi.

Shu bilan birga, Learning Analytics (o'quv ma'lumotlarini tahlil qilish) tushunchasi ta'lim fanida shakllandi. Baker & Siemens (2014) ta'kidlaganidek, ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish orqali o'quv natijalarini bashorat qilish va ta'lim strategiyasini optimallashtirish mumkin [17]. Mashinali o'qitish texnologiyalari natijaga yo'naltirilgan ta'limning ilmiy poydevoriga aylandi, chunki u har bir o'quvchining faolligini kognitiv tahlil qilish va avtomatik ravishda mos tavsiya berish imkoniyatini yaratdi. Bu davrda SI inson ongining anglash, mulohaza va xotira kabi kognitiv qobiliyatlarini modellashtirish darajasiga yetdi. IBM Watson (2011) kabi kognitiv tizimlar ma'lumotni semantik tahlil qilish orqali ta'limdagi kontentni qayta ishlay oldi [18]. Bu platforma o'quvchi bilan tabiiy tilda muloqot qilib, savollarga javob berish va o'quv materiallarini tavsiya etish qobiliyatiga ega bo'ldi.

Kognitiv intellekt ta'limda inson va mashina hamkorligi (Human-AI Collaboration) konsepsiyasini joriy qildi. Unga ko'ra, SI o'qituvchini almashtirmaydi, balki uning faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi. OECD (2021) ta'kidlaganidek, SI ta'limda "teaching augmentation", ya'ni o'qituvchining imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida qaralishi kerak [19]. Bu davrda ta'limda Cognitive Tutoring Systems, AI-based Feedback Platforms, va Learning Dashboardlar

yaratildi. Ular o'quvchining faoliyatini real vaqtda tahlil qilib, uning natijalarini vizual shaklda taqdim etish imkonini berdi [20].

So'nggi besh yilda SI yangi bosqich - generativ intellekt (Generative AI) bosqichiga o'tdi. Bu texnologiyalar nafaqat ma'lumotni qayta ishlaydi, balki yangi bilim, matn, tasvir, kod va mulohaza yarata oladi. ChatGPT (OpenAI, 2022), Claude, Gemini, va LLaMA kabi modellar ta'limda yangi inqilobni boshlab berdi. Ular yordamida insho yozish, loyihalarni tahlil qilish, savol-javobni simulyasiya qilish, test tayyorlash kabi faoliyatlar avtomatlashdi.

Masalan:

Duolingo Max (2024) til o'rgatishda GPT modelidan foydalanib, shaxsiylashtirilgan muloqotni amalga oshirmoqda;

Coursera Coach va Khanmigo platformalari SI yordamida shaxsiy ta'lim assistentlarini ishga tushirdi.

Generativ SI ta'limda yangi modelni yaratdi - AI-driven Virtual Learning Ecosystem, ya'ni intellektual va virtual muhit asosidagi o'quv ekotizim. Bu modelda bilimlar yaratilishi, tahlil qilinishi va qayta ishlanishi bir vaqtda amalga oshadi.

SI ta'limda faqat vosita emas, balki pedagogik tizimning aktiv ishtirokchisi sifatida namoyon bo'lmoqda. Uning asosiy funksiyalari quyidagicha:

Intellektual funksiya - bilimni tahlil qilish va mos tavsiya berish;

Interaktiv funksiya - tabiiy tilda muloqot qilish (Natural Language Processing);

Adaptiv funksiya - o'quvchining qobiliyatiga qarab material tanlash;

Motivasion funksiya - faol o'quv muhitini saqlash va rag'bat berish;

Metakognitiv funksiya - o'quvchining o'z-o'zini nazorat qilishini ta'minlash.

Shu jihatdan SI ta'limni shaxsiylashtirish, faol o'rganish va natijaviy kompetensiyani shakllantirishning asosiy vositasiga aylandi. Ta'lim falsafasi nuqtai nazaridan SI "o'qituvchi markazidagi model"dan "o'quvchi markazidagi model"ga o'tishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda. Bu jarayon natijaga yo'naltirilgan ta'limning zamonaviy shaklini ta'minlaydi.

SI ta'lim tizimiga turli yo'nalishlarda integratsiya qilinmoqda:

Tashkiliy darajada: davlat ta'lim standartlariga SI texnologiyalarini joriy etish;

Metodik darajada: o'qitish strategiyalarini intellektual algoritmlar bilan bog'lash;

Amaliyot darajasida: virtual laboratoriyalar, onlayn baholash, interaktiv assistentlar orqali amalga oshirish.

Shuningdek, SI asosidagi ta'lim ekotizimida uchta asosiy element ajratiladi:

AI Learning Analytics - ma'lumot tahlili va natija monitoringi;

AI Tutoring System - avtomatik tyutor va fidbek mexanizmi;

AI Adaptive Platform - har bir o'quvchi uchun shaxsiylashtirilgan muhit.

Hozirda bu modellar dunyo bo'ylab yetakchi universitetlarda joriy etilmoqda. Masalan, MIT, Stanford, Tsinghua University va Tokyo Tech SI asosidagi "Intelligent Learning Hub"larni faoliyatga kiritdi.

So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida raqamli transformatsiya jarayoni jadallashdi. 2023 yilda qabul qilingan "Sun'iy Intellekt 2023–2030" Milliy dasturi mamlakatda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish va ular asosida ta'lim tizimini isloh qilishni strategik vazifa sifatida belgiladi. Bu dasturga muvofiq, ta'lim sohasida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda:

Intellektual ta'lim platformalarini yaratish. EduAI" va "Talaba.uz" platformalarida avtomatik esse baholash, adaptiv test tizimlari, va shaxsiy tavsiya berish funksiyalari joriy etildi. Toshkent axborot texnologiyalari universitetida "AI Learning Laboratory" faoliyat boshladi, u o'quv jarayonida SI modellarini sinovdan o'tkazmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida AI fanlarini kiritish. SamDU, TDTU, TDPU va UrDUda "AI Pedagogy", "Machine Learning for Education" kabi fanlar magistratura va doktorantura bosqichlariga kiritildi.

Virtual ta'lim muhitini yaratish. AR/VR va Mixed Reality texnologiyalari asosida amaliy fanlar uchun virtual laboratoriyalar ishlab chiqilmoqda. Masalan, TATUning "Virtual Physics Lab" platformasi o'quvchilarga SI yordamida tajriba simulyasiyasini amalga oshirish imkonini bermoqda.

Bu tadqiqotlar natijasida ta'limda individual yondashuv, faol muloqot va natijaviylik oshmoqda. Shu bilan birga, milliy ta'lim tizimida SIning pedagogik asoslarini ishlab chiqish zarurati yanada kuchaydi.

Sun'iy intellekt ta'lim tizimida qo'llash uchun qator ilmiy modellar ishlab chiqilgan. Ulardan asosiylari quyidagilar:

1. Kognitiv tyutor modeli (Cognitive Tutor Model). Bu model Anderson et al. (1995) tomonidan taklif etilgan bo'lib, inson miyasidagi kognitiv jarayonlarni taqlid qiladi. U har bir o'quvchining fikrlash yo'nalishini tahlil qiladi va xatolarni intellektual tavsiya orqali tuzatadi.

2. Adaptiv o'qitish modeli (Adaptive Learning Model). Bu modelda SI har bir o'quvchi uchun individual yo'nalish belgilaydi. Mashinali o'qitish algoritmlari orqali ma'lumot tahlil qilinib, mos material tanlanadi.

3. Intellektual baholash modeli (AI-based Assessment Model). Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va Learning Analytics usullari asosida esse, test va mulohaza vazifalarini avtomatik baholaydi. Bu model baholashda inson sub'yektivligini kamaytiradi.

4. Prognostik tahlil modeli (Predictive Analytics Model). Bu model Big Data asosida o'quvchi faoliyatini tahlil qilib, uning muvaffaqiyat yoki qiyinchilik ehtimolini oldindan bashorat qiladi.

Bu modellar birgalikda natijaga yo'naltirilgan ta'lim tizimining intellektual asosini tashkil etadi.

SI ta'lim tizimiga joriy etish jarayonida qator ilmiy va amaliy muammolar mavjud:

Infratuzilma muammosi. Barcha ta'lim muassasalarida yuqori hisoblash quvvati va barqaror internet aloqasi mavjud emas.

Kadrlar salohiyati. O'qituvchilarning ko'p qismi SI texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'yicha yetarli malakaga ega emas.

Etik va huquqiy masalalar. Ta'limda SI ma'lumot xavfsizligi, plagiat va axloqiy me'yorlarga oid xavflarni keltirib chiqarishi mumkin.

Pedagogik integratsiya muammosi. Ko'p hollarda SI texnologiyalari texnik jihatdan joriy etilgan, lekin pedagogik metodika bilan uzviy bog'lanmagan holda qo'llanilmoqda.

Bu muammolarni hal etish uchun milliy darajada "AI Pedagogy Standards" va "AI etika kodeksi"ni ishlab chiqish muhim.

Sun'iy intellekt ta'lim tizimini tubdan transformatsiya qiluvchi global omil hisoblanadi. Uning qo'llanilishi natijasida:

ta'lim jarayoni shaxsiylashdi;

baholash tizimlari avtomatlashdi;

o'quv muhiti intellektual va interaktiv tabiat kasb etdi;

pedagogik faoliyat analitik ma'lumotlar bilan ta'minlandi.

Shunday ekan, SI ta'limda nafaqat texnologiya, balki ilmiy-metodik paradigma sifatida qaralishi lozim. Bu paradigma natijaga yo'naltirilgan ta'limning kelajak modelini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. McCarthy J. et al. (1956). A Proposal for the Dartmouth Summer Research Project on Artificial Intelligencye.
2. Russell S., Norvig P. (2021). Artificial Intelligencye: A Modern Approach. Pearson.
3. Nilsson N. (1980). Principles of Artificial Intelligencye. Morgan Kaufmann.
4. Anderson J.R. (1995). Cognitive Psychology and Its Implications. Freyeman.

5. Minsky M. (1969). Semantic Information Procyessing. MIT Press.
6. Turing A.M. (1950). Computing Machinery and Intelligencye. Mind.
7. Feigenbaum E. (1981). The Art of Artificial Intelligencye. Stanford University.
8. Skinner B.F. (1968). The Technology of Teaching. Appleton-Cyentury-Crofts.
9. Baker R.S., Siyemens G. (2014). Educational Data Mining and Learning Analytics. Cambridge.
10. IBM Watson Education (2018). AI in Education: Empowyerer Teachers and Learners.
11. Luckin R. (2017). Towards Artificial Intelligencye in Education. Nature Human Behaviour.
12. OpenAI (2023). Generative AI and Education.
13. OYeCD (2021). AI and the Future of Learning. OYeCD Publishing.
14. Huang R.H., Spector J.M. (2022). AI-driven Smart Learning Ecosystems. Springer.
15. iFlyTek Research (2023). Adaptive AI Learning in China.
16. UNESCO (2023). Ethical AI for Education.
17. Ministry of Digital Technologiyes of Uzbekistan (2023). Sun'iy Intellect 2023–2030.
18. Holmes W., Bialik M., Fadel C. (2022). Artificial Intelligencye in Education: Promises and Implications. UNESCO.
19. OYeCD (2023). Future of Learning in AI Era.
20. Tashkent University of Information Technologiyes (2024). AI Pedagogy Integration Report.

Yakubjanova Muhayyo Qodirjanovna,
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi
Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi
e-mail: moxa_1991@mail.ru

INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING NUTQIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalasi pedagogik muammo sifatida ko'rib chiqiladi. Inklyuziv ta'limda har bir o'quvchining shaxsiy ehtiyojlari, psixologik xususiyatlari va kommunikativ imkoniyatlarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishda differensial yondashuv, motivatsion muhit yaratish, multimodal vositalardan foydalanish hamda interfaol metodlar orqali o'qitishning samaradorligi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, nutqiy ko'nikmalar, pedagogik muammo, kommunikativ kompetensiya, interfaol metodlar, differensial yondashuv, lingvopedagogika, psixolingvistika.

Аннотация. В данной статье рассматривается проблема совершенствования методики развития речевых навыков учащихся в процессе инклюзивного обучения как педагогическая задача. В инклюзивном образовании особое значение имеет учет индивидуальных потребностей, психологических особенностей и коммуникативных возможностей каждого ученика. В статье анализируется эффективность формирования речевых умений посредством дифференцированного подхода, создания мотивационной среды, использования мультимодальных средств и интерактивных методов обучения.

Ключевые слова: инклюзивное образование, речевые навыки, педагогическая проблема, коммуникативная компетенция, интерактивные методы, дифференцированный подход, лингвopedagogika, психоллингвистика.

Annotation. This article examines the issue of improving the methodology for developing students' speech skills in the process of inclusive education as a pedagogical problem. In inclusive education, it is essential to consider each learner's individual needs, psychological characteristics, and communicative abilities. The article analyzes the effectiveness of forming speech skills through a differentiated approach, the creation of a motivational environment, the use of multimodal tools, and interactive teaching methods.

Key words: inclusive education, speech skills, pedagogical problem, communicative competence, interactive methods, differentiated approach, linguopedagogy, psycholinguistics.

XXI asrda ta'lim tizimining rivojlanish yo'nalishlari orasida inklyuziv ta'lim konsepsiyasi alohida o'rin tutadi. Bugungi kunda ta'lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri – barcha bolalarning, jumladan, maxsus ehtiyojli o'quvchilarning ham teng huquqli ta'lim olish imkoniyatini ta'minlashdir. Bu esa ta'limni insonparvarlashtirish, shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish, ijtimoiy adolatni qaror toptirish kabi tamoyillarga asoslanadi.

Nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish masalasi inklyuziv ta'lim sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki nutq – o'quvchining bilimni o'zlashtirishida, ijtimoiylashuvda, shaxs sifatida rivojlanishida yetakchi omil hisoblanadi. L.S.Vygotskiy ta'kidlaganidek, bola shaxsining shakllanishida nutqning o'rni markaziy bo'lib, tafakkur va muloqot jarayonlari nutq orqali uzviy bog'lanadi. Shu bois, inklyuziv ta'lim sharoitida nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Pedagogik nuqtayi nazardan, inklyuziv ta'lim – bu differensial va individual yondashuv asosida ta'lim berish, o'quv jarayonida barcha o'quvchilarni faollashtirish va ularning ijtimoiy

tengligini ta'minlash tizimidir. Zamonaviy pedagogikada inklyuzivlik – bu nafaqat maxsus ehtiyojli o'quvchilarni integratsiya qilish, balki barcha bolalarning shaxsiy qobiliyatlarini ochib berishga xizmat qiluvchi umumiy didaktik yondashuv sifatida talqin etiladi.

Psixologik nuqtayi nazardan, inklyuziv ta'lim bolaning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, motivatsiyasini kuchaytirish va ijtimoiylashuvini ta'minlashga yo'naltirilgan ta'limiy jarayon sifatida talqin qilinadi. L.S.Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi asosida shuni aytish mumkinki, bola ijtimoiy muhit va qo'llab-quvvatlovchi pedagogik sharoit ta'sirida yuqoriroq natijalarga erishishi mumkin. Bu ayniqsa maxsus ehtiyojli o'quvchilarda nutqiy rivojlanishni rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega.

N.I.Zhinkin nutq mexanizmlarining psixofiziologik asoslarini tadqiq qilar ekan, tinglab tushunish va o'qib anglash jarayonida eshituv, xotira va semantik tahlilning uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi. Shu sababli inklyuziv ta'limda psixologik yondashuv nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi.

Florian va Black-Hawkins (2011) tadqiqotlarida ham inklyuzivlikning psixologik jihatida o'quvchilarda pozitiv identifikatsiya, o'ziga ishonch va emotsional qo'llab-quvvatlashni shakllantirish orqali amalga oshirilishi kerakligi ko'rsatib o'tilgan.

Inklyuziv ta'lim tushunchasi pedagogik jihatdan – barcha o'quvchilarni yagona ta'lim makoniga jalb etish, psixologik jihatdan – bolaning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash konsepsiyasi sifatida qaraladi. Uning samaradorligi o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli mazkur muammo ilmiy-nazariy asoslashni, metodik yechimlarni ishlab chiqishni va amaliyotga tatbiq etishni talab etadi.

Yoshlarni zamonga mos intellektual inson bo'lib tarbiyalanishida Sharq allomalari va mutafakkirlarining qoldirgan meroslaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Imom al-Buxoriy to'plagan hadislar, Naqshbandiy ta'limoti, Termiziy o'g'itlari, Yassaviy hikmatlari, Ibn Sino, Forobiy, Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Yusuf Xos Hojib va boshqalar yaratgan asarlarida yoshlar tarbiyasiga doir qarashlarni keltirib o'tganlar, ular yaratgan manbalardan davrlar kesimida ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish muhimdir. Sharq allomalari va mutafakkirlarining bola ta'lim-tarbiyasidagi qarashlaridan inklyuziv ta'limni takomillashtirishda ham foydalanish mumkin. Ayniqsa, Abu Ali ibn Sino asarlarida sog'lom bolalar bilan bir qatorda, alohida yordamga muhtoj bolalar tarbiyasiga oid tavsiyalar ham byeriladi. Alloma nogiron bola tengqurlari qatori ta'lim-tarbiya olishga haqli ekanini aytib, ularda kasb-hunar o'rganish, ilm olishga qiziqish boshqalarga nisbatan kuchliligini ta'kidlaydi. Sharq allomalarining bola shaxsini tarbiyalash, ularning rivojlanishida ta'lim-tarbiyaning ta'siri haqidagi qarashlari tahlili keyingi avlod uchun yorqin yulduz kabi yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Tadqiqotchilar E.Nishanbayeva va A.Abduxalilov maqolasida ta'kidlashicha, inklyuziv ta'limni rivojlantirish bu uzoq muddatli strategiya hisoblanadi. Mazkur strategiyani ishlab chiqishda va amalga oshirishda albatta tizimli yondashuvni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Inklyuziv ta'limning asosiy elementlari quyidagilardan iborat: nogironligi bo'lgan bolalar mazkur maktablarda o'z nogironligini sezishlari kerak emas; nogironligi bo'lgan bolalarning maktabdagi bolalar soni tabiiy holatdagi bolalar populyasiyasi bilan bog'liq bo'lishi kerak; bolalar aralash guruhlarda o'qishi, bolalar o'zi yoshiga to'g'ri keladigan sinflarda ta'lim olishi, o'qitishning nomarkazlashtirilgan modelining mavjudligi.

Mualliflar inklyuziv ta'limni rivojlantirishda ijtimoiy sheriklik ahamiyati beqiyos ekanligini ta'kidlaydilar. "Bizningcha, ijtimoiy sheriklik– bu davlat hokimiyati organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro hamkorligi va manfaatlarni uyg'unlashtirish asosida jamiyatda mavjud bo'lgan muayyan ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan muloqot hamda konsensusga kelish tizimidir. Ijtimoiy sheriklikning bosh maqsadi deb, uning asosiy subyektlari manfaatlarini hisobga olish va muvofiqlashtirishni ko'rsatish mumkin bo'ladi. Shuning uchun ham, ijtimoiy sheriklik bugungi kunda jamiyatda umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini ta'minlaydigan ijtimoiy institutlarning o'zaro kelishuv jarayonini, unda umumiy

ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy maqsadlarga erishishda taraflar manfaatlarining uyg'unligini ta'minlab turuvchi fuqarolik jamiyati institutlarining ishlash mexanizmini ham ifodalashi lozim".

Tadqiqotchilar ijtimoiy sheriklik munosabatlari muammolarini tadqiq etishda quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatadi:

- insoniyat tarixida va rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy sheriklik munosabatlari takomillashuvi tajribalarini siyosiy nuqtai nazardan chuqur o'rganish va umumlashtirish;

- ijtimoiy sheriklik munosabatlarining jamiyatimizda ro'y berayotgan siyosiy o'zgarishlarga ta'siri va bunda fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro hamkorligini mustahkamlash jarayonini tadqiq qilish;

- davlat tashkilotlari va mahalliy boshqaruv idoralarining ijtimoiy sheriklikni tashkil qilish bilan bog'liq siyosiy jarayonlar, turli tashkilotlar hamkorligi va o'zaro munosabatlaridagi rolini aniqlash;

- jamiyatning turli jabhalarida (iqtisod, siyosat, ijtimoiy soha, madaniyat va h.k.) ijtimoiy sheriklik munosabatlarining samarali mexanizmini ishlab chiqish, uni hayotning barcha sohalariga tatbiq etishning maqbul yo'llari va usullarini izlab topish. Shu bilan birga, mazkur masalaga kompleks yondashish, mavzuga tarixiylik va zamonaviylik dialektikasi nuqtai nazaridan qarashgina ijtimoiy sheriklik tizimining ichki tuzilishi, elementlari va tarmoqlashuvi, uni rivojlantirish dinamikasi asosida mavjud holatni baholash imkonini beradi.

D.Kaxxorova ilmiy tadqiqot ishida inklyuziv ta'limga jalb qilingan va alohida e'tiborga muhtoj bolalar ta'lim-tarbiyasini tashkil etishda uchraydigan turli muammolar bolalarning individual ruhiy kechinmalarining qanchalik hisobga olinishi bilan bog'liq bo'lishini ta'kidlaydi. Muallif yozadi: "Alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarda o'ziga ishonch hissini orttirish, umidsizlikka berilishining oldini olishda o'qituvchi faoliyati ota-onalar bilan hamkorlikda olib borilishi zarur. Inklyuziv ta'limda oddiy o'qituvchilar treningi va maktabning barcha uchun faoliyat ko'rsatishini ta'minlash zarur bo'lgan boshlang'ich holatni yaxshilash uchun o'qituvchilar sinflarda barcha bolalarda javobgarlik hissini uyg'otishlari kerak bo'ladi. Alohida e'tiborga muhtoj o'quvchilarning qiziqishlariga mos, bilim va qobiliyatlariga monand ta'lim berish sinf xonasida umumiy tarzda olib boriladigan faoliyatdir".

Tadqiqotchi inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun ta'limda o'zlashtirishda qiyinchiliklari bo'lgan bolalar mutaxassislaridan ko'ra, umumiy ish ko'ruvchi xodimlarni ta'minlash lozimligini keltirib o'tadi. Alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan turli muammolari bor bo'lgan bolalar bilan ishlovchi o'qituvchilarni tayyorlovchi kategoriyalashtirilgan dasturlarni ishlab chiqish muhim hisoblanishi va o'quvchilarni o'qishga da'vat etish uchun o'qituvchi muhim strategiyani ishlab chiqishi zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu strategiyaga asosan o'quvchilarning inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash orqali maxsus dasturlar asosida reja ishlab chiqish, samarali metodikani yaratish, zarur manbalarni to'g'ri taqsimlash asosida erishiladi, deb hisoblaydi.

F.Qodirova tadqiqotida eshitishda muammolari bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiylashuvi xususida fikr yuritadi va aynan maktab ta'limi davrida ijtimoiy hayotga yetarlicha tayyor emasliklarini asoslovchi sabablarni keltiradi: - kar va zaif eshituvchi bolalar ta'limida uzluksizlik va uzviylikning yetarlicha ta'minlanmaganligi; - kar va zaif eshituvchi bolalarni ijtimoiy hayotga psixologik jihatdan tayyorlashda maqsadli yondashuvning yo'lga qo'yilmaganligi; - kar va zaif eshituvchi o'quvchilarga so'zlashuv nutqidan muloqot darajasida foydalanishni o'rgatish bo'yicha korreksionrivojlantiruvchi pedagogik tizimi ishlab chiqilmaganligi; - maxsus ta'lim muassasalarida tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha muayyan tizim ishlab chiqilmaganligi; - o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda ishtirokchi tashkilotlar hamkorligining maqsadga yo'naltirilmaganligi. Mazkur muammolarni yechimi sifatida bir necha g'oyalarni keltiradi. Jumladan, 1-g'oya: "Yagona nutqiy tartib"

o'rnatish orqali kar va zaif eshituvchi bolalarni samarali muloqotga o'rgatish g'oyasi. 2-g'oya: "Predmet-tushuncha-nutq-muloqot" strategiyasi.

R.Shomahmudov o'quv qo'llanmasida inklyuziv ta'limga o'tish masalasi O'zbekistonda ratifikatsiya qilingan bolalar huquqlari va nogironlar xususlari to'g'risidagi konvensiyaga asoslanishini ta'kidlagan holda inklyuziv ta'limga o'tishga, bunday yondashuv uchun nafaqat mos keladigan huquqiy bazani yaratish, balki zarur bo'lgan sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor berish zarurligiga urg'u beradi, Jumladan, kadrlarni tayyorlash; nogironlarni kasbiy reabilitatsiyasini ta'minlash; jamiyatni to'g'ri va ijobiy fikrlashiga; davlat ta'lim standartlarini moslashtirish va tasdiqlash zarurligini ta'kidlaydi.

Inklyuziv ta'lim islohotini amalga oshirish uchun normativ bazasini mustahkamlash, imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim muassasalarida ta'lim olishini ta'minlash pedagoglarni malakasini oshirish, qayta tayyorlash ishlarini jadallashtirish va samaradorligini oshirish, inshootlarni moslashtirish kabi bir qator dolzarb muammolarni hal qilishga bog'liq, deb hisoblaydi. Muallif inklyuziv ta'limni O'zbekistonda joriy etishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, hozirgi shart-sharoitni e'tiborga olgan holda maxsus ta'lim muassasalaridan voz kechmasdan, qisqartirmasdan aksincha, bosqichma-bosqich o'tish, umumta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish zarurligini aytib o'tadi.

Inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olish, ularning psixologik va kommunikativ xususiyatlariga mos metodik yondashuvlarni qo'llash o'qitish samaradorligini ta'minlaydi. Maqolada ta'kidlanganidek, differensial yondashuv, interfaol metodlar va multimodal vositalardan foydalanish o'quvchilarning nutqiy faoliyatini faollashtiradi, ularda mustaqil fikrlash, muloqot madaniyati va til kompetensiyasini shakllantiradi. Shunday qilib, inklyuziv ta'limda nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb masalasi sifatida ta'lim jarayonining insonparvarlik va samaradorlik tamoyillariga asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Booth T., Ainscow M. *The Index for Inclusion*. Bristol: CSIE, 2011.
2. Florian L., Black-Hawkins K. *Exploring inclusive pedagogy*. British Educational Research Journal, 2011.
3. Қаҳҳоров С.Қ., Қаҳҳорова Д.С. Инклюзив таълим таҳлили // Замонавий таълим. – Тошкент, 2015, №8. -Б.44.
4. Нишанбаева Э.Р., Абдухалилов А.А. Инклюзив таълимни ривожланишида ижтимоий шерикликнинг тутган ўрни // "Ижтимоий тадқиқотлар" журнали, 2020, №4. - Б.126-133.
5. Нишанбаева Э.Р., Абдухалилов А.А. Инклюзив таълимни ривожланишида ижтимоий шерикликнинг тутган ўрни // "Ижтимоий тадқиқотлар" журнали, 2020, №4. - Б.126-133;
6. Муминов А., Нишанбаева Э., Абдухалилов А. Ижтимоий шериклик. Услубий қўлланма. – Тошкент: "Университет" нашриёти, 2018. – Б.17.
7. Қодирова Ф.У. Имконияти чекланган болаларни ижтимоий ҳаётга тайёрлашнинг самарали технологиялари. Педагог. фан. докт. (DSc) даража. дисс. автореф. – Т.: 2020. - 22 б.
8. Шомаҳмудов Р.Ш. Махсус ва инклюзив таълим. Халқаро ва миллий тажрибалар. – Тошкент, 2011. – Б.184.

*Xamrayev Mirali Muxammadjonovich,
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi*

OLIY TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA NAZARIYA VA AMALIYOT UYG'UNLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash orqali nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash masalalari yoritilgan. Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli platformalar va interaktiv metodlardan foydalanishning samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, amaliy mashg'ulotlarni nazariy bilimlar bilan uyg'unlashtirish mexanizmlari hamda ta'lim sifatini oshirish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, innovatsion texnologiyalar, nazariya va amaliyot, pedagogik jarayon, raqamli ta'lim, kompetensiya, integratsiya.

Abstract. This article discusses the mechanisms for ensuring the integration of theory and practice in higher education through the application of innovative educational technologies. The effectiveness of modern pedagogical methods, digital platforms, and interactive approaches in the educational process is analyzed. The paper also highlights the mechanisms for developing students' professional competencies, integrating practical training with theoretical knowledge, and improving the overall quality of education.

Key words: higher education, innovative technologies, theory and practice, pedagogical process, digital education, competence, integration.

Аннотация. В данной статье рассматриваются механизмы обеспечения единства теории и практики в системе высшего образования на основе внедрения инновационных образовательных технологий. Анализируется эффективность применения современных педагогических методов, цифровых платформ и интерактивных подходов в учебном процессе. Также описаны механизмы формирования профессиональных компетенций студентов, интеграции практических занятий с теоретическими знаниями и пути повышения качества образования.

Ключевые слова: высшее образование, инновационные технологии, теория и практика, педагогический процесс, цифровое образование, компетенция, интеграция.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimining modernizatsiyasi, raqamli transformatsiya jarayonlari hamda innovatsion texnologiyalarning keng joriy etilishi natijasida oliy ta'lim yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Jahon miqyosida inson kapitalini rivojlantirish, mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, talabalarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'lim tizimida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash zamonaviy ta'lim siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi.

Nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ta'lim jarayonining sifat va samaradorligini belgilovchi asosiy omillardandir. Afsuski, ayrim hollarda ta'lim jarayonida olingan nazariy bilimlar amaliy faoliyatga to'liq tatbiq etilmaydi, bu esa bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini to'liq shakllantirishga to'sqinlik qiladi. Shu sababli, innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash orqali talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini real amaliy muhit bilan uyg'unlashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan oliy ta'lim tizimida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Ta'lim tizimini raqamlashtirish", "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, "Yoshlar – kelajagimiz" davlat dasturi,

shuningdek, ta'lim sifatini oshirish, xalqaro reytinglarda o'rin egallash bo'yicha chora-tadbirlar innovatsion yondashuvlarni joriy etish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Innovatsion ta'lim texnologiyalariga interaktiv metodlar, muammoli o'qitish, loyiha asosida o'qitish, masofaviy va aralash ta'lim (blended learning), simulyatsion modellar, virtual laboratoriyalar, sun'iy intellekt asosida ishlovchi o'quv platformalari va boshqa ilg'or yondashuvlar kiradi. Ushbu texnologiyalar o'quv jarayonini individuallashtirish, mustaqil ta'limni rivojlantirish, talabalarda mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqishda asosiy e'tibor quyidagi omillarga qaratiladi:

ta'lim jarayoniga raqamli va interaktiv texnologiyalarni integratsiya qilish;

ta'lim dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish;

o'quv amaliyotlari va ishlab chiqarish amaliyotlarini tizimli tashkil etish;

pedagoglarning innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirish;

ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash.

Oliy ta'limda nazariya va amaliyot uyg'unligi faqat bilimlarni egallash emas, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini shakllantirish bilan ham uzviy bog'liqdir. Shuning uchun, o'qitish jarayonida talabaning passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida o'rni muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari o'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabatni yangicha bosqichga olib chiqadi: o'qituvchi bilim manbai emas, balki yo'naltiruvchi va motivator rolini bajaradi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni ta'minlaydi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi - oliy ta'lim tizimida innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlashning samarali mexanizmlarini ilmiy asoslash, ularning amaliy qo'llanish imkoniyatlarini ochib berishdan iborat.

Shunday qilib, innovatsion yondashuvlar ta'lim jarayonini nafaqat texnologik, balki g'oyaviy va metodik jihatdan ham boyitadi. Ular oliy ta'limni zamonaviy mehnat bozoriga moslashtirish, ijodkor, tashabbuskor va raqobatbardosh yosh kadrlarni tayyorlash uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Adabiyotlar tahlili. Oliy ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash masalasi nafaqat O'zbekistonda, balki jahon miqyosida ham dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida ko'rib chiqilmoqda. Mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ko'plab pedagogik, psixologik va ijtimoiy nazariyalarga tayangan holda shakllangan.

XX asrning ikkinchi yarmida J. Dyui, L.S. Vygotskiy, D. Kolb, A. Bandura, B. Skinner singari olimlar ta'lim jarayonida faol o'rganish, tajriba orqali bilish, hamkorlikda ta'lim olish va shaxsiy faollikni rag'batlantirish tamoyillariga e'tibor qaratganlar. Masalan, J. Dyuning tajriba asosidagi ta'lim (experiential learning) nazariyasi ta'limni amaliy faoliyat bilan bog'lash zarurligini asoslab beradi. Unga ko'ra, talaba o'z tajribasi orqali bilimni "qayta kashf etadi" va bu jarayon haqiqiy o'rganishga olib keladi.

D. Kolbning "tajribaviy o'qitish modeli" (Experiential Learning Cycle) nazariya va amaliyotning uzviy bog'liqligini tushuntiruvchi eng samarali yondashuvlardan biridir. Uning modelida o'quv jarayoni to'rt bosqichdan iborat: aniq tajriba, refleksiya, abstrakt tushunchalash va faol sinov. Bu yondashuv zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalarining metodologik asosini tashkil etadi.

A. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi ham amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Uning fikricha, inson boshqalarning faoliyatini kuzatish, tahlil qilish va

o'zlashtirish orqali o'rganadi. Bu jarayon zamonaviy interaktiv metodlar - masalan, "case study", "role play", "simulation" kabi usullarning samaradorligini asoslab beradi.

Raqamli asrda ta'lim jarayoniga texnologik innovatsiyalarni joriy etish masalasini M. Fullan, T.Anderson, R.Clark, C. Christensen singari xorijiy tadqiqotchilar o'z asarlarida keng yoritgan. Ular raqamli transformatsiya ta'lim tizimini inson markaziga yo'naltirilgan, moslashuvchan va individual yondashuvga asoslangan shaklga o'zgartirayotganini ta'kidlaydilar.

Mahalliy tadqiqotchilar orasida A. Abduqodirov, B. Ziyamuxamedov, S. Turg'unov, N. Musayeva, O.Qo'ysinov, Z. Xolbekov singari olimlarning ishlarida innovatsion ta'lim texnologiyalarining nazariy va amaliy asoslari keng tahlil qilingan. Jumladan, professor A. Abduqodirov ta'lim jarayonida "pedagogik texnologiya" tushunchasining mohiyatini ochib bergan holda, uni o'qitish jarayonini ilmiy asosda loyihalash, natijadorlikka yo'naltirilgan tizim sifatida talqin etadi.

B. Ziyamuxamedov va S. Turg'unovlar esa ta'lim jarayonida interfaol metodlar - "aqliy hujum", "klaster", "sinkveyn", "debat" kabi usullar orqali talabalarning ijodiy fikrlash va tahliliy yondashuv qobiliyatlarini rivojlantirishga e'tibor qaratadilar. Ularning fikricha, bu metodlar nazariy bilimni amaliy faoliyatga tatbiq etish uchun mustahkam asos yaratadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturi hamda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishning huquqiy-me'yoriy bazasini shakllantirgan. Ushbu hujjatlarda nazariya va amaliyot integratsiyasi, ta'limning raqamli ekotizimini yaratish, xalqaro standartlarga mos o'quv dasturlarini joriy etish kabi yo'nalishlar belgilab berilgan.

Xorijiy amaliyotda esa, Finlyandiya, Janubiy Koreya, Singapur va Germaniya tajribalari diqqatga sazovor. Ushbu davlatlarda ta'lim jarayoniga dual tizim (ya'ni nazariy o'qitish bilan ishlab chiqarish amaliyoti uyg'unligi) keng joriy etilgan. Natijada bitiruvchilar o'qish jarayonidayoq mehnat bozoriga tayyorlanadi, bu esa ularning kasbiy moslashuvchanligini oshiradi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ham bu yo'nalishda ijobiy natijalar kuzatilmoqda. Jumladan, "duallik asosida o'qitish", "startap loyihalar", "ilmiy-amaliy laboratoriyalar" va "talaba-mentorlik" tizimlari joriy etilib, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlashning samarali vositasiga aylanmoqda.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsion ta'lim texnologiyalari - bu shunchaki texnik vositalar majmui emas, balki o'qitish jarayonini tashkil etish, boshqarish va baholashning zamonaviy tizimi hisoblanadi. Ular o'quv jarayonini nazariy bilimlardan real amaliy faoliyatga yo'naltiruvchi, talabani mustaqil fikrlovchi va ijodkor shaxs sifatida shakllantiruvchi kuchli pedagogik vositadir.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotning metodologik asosi ta'lim jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish, nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzviy aloqani ilmiy asosda tahlil qilish hamda samarali mexanizmlarni ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida pedagogik tizimli yondashuv, faol o'qitish nazariyasi, kompetensiyaviy yondashuv, integrativ yondashuv hamda tajribaviy o'qitish modeli asos qilib olindi.

Tadqiqot doirasida oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonida qo'llanilayotgan innovatsion texnologiyalar, ularning nazariy va amaliy jihatdan uyg'unlashuvi darajasi o'rganildi. Ma'lumotlar empirik yo'l bilan, ya'ni so'rovnoma, kuzatuv, suhbat va tahliliy eksperiment metodlari orqali yig'ildi.

Tadqiqot ishtirokchilari sifatida 3 ta oliy ta'lim muassasasidan jami 120 nafar talaba, 15 nafar professor-o'qituvchi hamda 6 nafar ishlab chiqarish amaliyoti rahbari jalb qilindi. Maqsad - innovatsion o'qitish texnologiyalari yordamida nazariya va amaliyot uyg'unligi qanday darajada amalga oshirilayotganini aniqlash edi.

Ma'lumotlarni qayta ishlashda deskriptiv tahlil, komparativ tahlil (taqqoslash), statistik o'rtacha qiymatlar va kvalitatif baholash usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning ishonchliligi turli manbalar asosida verifikatsiya qilindi, natijalar triangulyatsiya (ya'ni bir nechta usullar bilan tekshirish) orqali mustahkamlandi.

1-jadval. Tadqiqotda qo'llanilgan metodlar va ularning maqsadi

Metod nomi	Qo'llanish maqsadi	Natija
So'rovnoma (anketa)	Talabalar va o'qituvchilarning innovatsion texnologiyalar haqidagi fikrini aniqlash	Innovatsion yondashuvlarga nisbatan motivatsiya va tayyorgarlik darajasi o'lchandi
Kuzatuv	Ta'lim jarayonida nazariya va amaliyot uyg'unligi darajasini kuzatish	O'quv mashg'ulotlarida innovatsion metodlardan foydalanish chastotasi aniqlandi
Suhbat (intervyu)	Professor-o'qituvchilarning innovatsion o'qitish tajribasini chuqur o'rganish	O'qituvchilarning yondashuvlari va muammolari tahlil qilindi
Eksperiment	Innovatsion texnologiyalarni amaliy mashg'ulotlarga tatbiq etish orqali samaradorlikni sinash	Nazariya va amaliyot uyg'unligi oshganligi empirik tarzda tasdiqlandi
Komparativ tahlil	O'zbekiston va xorijiy oliy ta'lim tajribalarini solishtirish	Mahalliy tizim uchun moslashgan mexanizmlar ishlab chiqildi

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda oliy ta'lim tizimida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan innovatsion mexanizmlar uch darajada - pedagogik, texnologik va boshqaruv darajasida tahlil qilindi.

Pedagogik daraja - o'qitish metodlari, interfaol texnologiyalar, loyiha va muammoli o'qitish orqali nazariy bilimlarni mustahkamlash.

Texnologik daraja - raqamli platformalar (Moodle, Google Classroom, Coursera, EduPage), simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar yordamida amaliy tajriba yaratish.

Boshqaruv darajasi - ta'lim muassasasi, ishlab chiqarish va ilmiy markazlar o'rtasidagi hamkorlikni boshqaruv mexanizmlari orqali takomillashtirish.

Tadqiqot jarayonida integrativ yondashuv asosida nazariya va amaliyot uyg'unligini ifodalovchi model ishlab chiqildi. Ushbu modelda o'quv jarayonining barcha bosqichlari - maqsad qo'yish, mazmunni tanlash, o'qitish texnologiyalarini joriy etish va natijani baholash - yagona tizim sifatida qaraldi.

Metodologik jihatdan ushbu tadqiqot zamonaviy oliy ta'limning asosiy tamoyillariga tayanadi:

innovatsionlik – yangi texnologiyalarni ta'limga joriy etish;

interfaollik – talabalarni faol o'quv sub'ekti sifatida shakllantirish;

kompetensiyaviylik – nazariy bilimni amaliy ko'nikmaga aylantirish;

uzluksizlik – nazariya va amaliyot uyg'unligini doimiy monitoring asosida ta'minlash.

Mazkur yondashuvlar orqali o'tkazilgan tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, innovatsion ta'lim texnologiyalarini tizimli qo'llash nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovutni 35–40% gacha qisqartiradi, talabalar ishtiroki va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini esa 25–30% ga oshiradi.

Muhokama. Oliy ta'lim tizimida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash masalasi uzoq yillardan beri dolzarb bo'lib kelmoqda. Biroq so'nggi yillarda texnologik taraqqiyot, raqamli transformatsiya va innovatsion ta'lim yondashuvlarining joriy etilishi ushbu masalaga yangicha ilmiy-amaliy nuqtai nazardan qarash imkonini bermoqda. Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida innovatsion ta'lim texnologiyalarini

tizimli ravishda qo'llash talabalarining o'quv jarayonidagi faolligini, mustaqil fikrlash darajasini va amaliy ko'nikmalarini sezilarli darajada oshiradi.

So'rovnomaga va kuzatuv natijalariga ko'ra, professor-o'qituvchilarning 68 foizi o'quv jarayonida interfaol metodlardan muntazam foydalanayotganini bildirgan. Shu bilan birga, 32 foiz o'qituvchi innovatsion texnologiyalarni qo'llashda texnik imkoniyatlar va vaqt yetishmovchiligi sababli cheklanish mavjudligini qayd etgan. Talabalar o'rtasida o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, zamonaviy raqamli platformalar orqali tashkil etilgan mashg'ulotlar ularning mavzuni chuqurroq o'zlashtirishiga, mustaqil o'rganishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirgan.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlashda eng samarali vosita bu integratsion yondashuv va tajribaviy o'qitish modelidir. Ushbu yondashuvda talaba o'quv jarayonining markazida turadi va u nazariy bilimni bevosita amaliy faoliyatda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, eksperiment natijalariga ko'ra, amaliy mashg'ulotlar davomida simulyatsiya, loyiha ishlari va muammoli o'qitish metodlaridan foydalanish talabalarining ijodiy fikrlashini kuchaytirgan va ularning nazariy bilimlarini mustahkamlashga xizmat qilgan.

O'qituvchilarning intervyu natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, innovatsion texnologiyalarni samarali qo'llash uchun metodik qo'llanmalar, texnik baza va o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish muhim omil hisoblanadi. Ular nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzviy aloqani mustahkamlash uchun ta'lim dasturlarini ishlab chiqarish amaliyoti bilan uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlashgan.

Tahliliy natijalar xorijiy tajriba bilan solishtirilganda, O'zbekiston oliy ta'lim tizimi bu borada bosqichma-bosqich rivojlanish jarayonida ekani aniqlandi. Xususan, Finlyandiya, Germaniya va Janubiy Koreya tajribalarida ta'limning dual tizimi - ya'ni nazariy ta'lim va ishlab chiqarish amaliyoti uyg'unligiga alohida e'tibor qaratiladi. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ham bunday yondashuvni kengroq joriy etish istiqbollari mavjud bo'lib, bu o'z navbatida bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradi.

Muhokama natijalariga ko'ra, innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'quv jarayoniga tatbiq etilishi nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro muloqotni ham yangi bosqichga olib chiqadi. Bu jarayon shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modelini shakllantirish, har bir talabani faol ishtirokchi sifatida jarayonga jalb etish imkonini beradi. Natijada ta'lim mazmuni chuqurlashadi, o'quv faoliyati motivatsiyasi ortadi va bilimni amaliyotda qo'llash samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Biroq, olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nazariya va amaliyot uyg'unligini to'liq ta'minlash uchun hali qator tizimli masalalar hal etilishi lozim. Xususan, ta'lim jarayonida foydalanilayotgan o'quv dasturlarining ayrimlari ishlab chiqarish sohasidagi real talablar bilan to'liq mos emas, o'qituvchilarning innovatsion yondashuvlar bo'yicha malakasi yetarli darajada emas, shuningdek, ayrim oliy ta'lim muassasalarida texnik jihozlanish darajasi pastligicha qolmoqda. Shu bois, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish bilan bir qatorda, pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini muntazam oshirish va ularni yangi texnologiyalarni qo'llashga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalar asosida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash mexanizmlari ta'lim sifatini oshirishning eng muhim omillaridan biridir. Bu jarayon tizimli yondashuv, metodik yangiliklar va raqamli ta'lim infratuzilmasi bilan uyg'un holda olib borilganda, u nafaqat talabalarining kasbiy kompetensiyalarini, balki o'qituvchilarning metodik mahoratini ham yangi bosqichga ko'taradi. Shu bois, kelgusida bu yo'nalishda olib boriladigan ilmiy izlanishlar ta'lim samaradorligini oshirishga, innovatsion fikrlovchi va ijodkor mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim tizimida innovatsion ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarda mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv, ijodkorlik va amaliy kompetensiyalarni shakllantirish bevosita innovatsion yondashuvlar orqali amalga oshadi. Shu bois, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash oliy ta'limning sifat mezonlarini belgilovchi eng muhim omil sifatida e'tirof etiladi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, nazariya va amaliyot uyg'unligining yetarli darajada ta'minlanmasligi ta'lim tizimida ayrim muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, o'quv dasturlari mehnat bozori talablariga to'liq moslashtirilmagan, o'qituvchilarning innovatsion texnologiyalar bo'yicha metodik tayyorgarligi turlicha darajada, shuningdek, o'quv jarayonining texnik infratuzilmasi ham barcha ta'lim muassasalarida bir xil emas. Shu sababli, ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish bilan bir qatorda, pedagog kadrlarning innovatsion kompetensiyasini oshirish zarurati tug'iladi.

Innovatsion ta'lim texnologiyalarining afzalligi shundaki, ular o'qitish jarayonini shaxsga yo'naltirilgan, faol va natijador tizimga aylantiradi. Talaba endilikda bilimni tayyor shaklda emas, balki o'z faol ishtiroki, tahlili va tajribasi orqali o'zlashtiradi. Bu esa o'z navbatida nazariy bilimning mustahkamlanishi, amaliy tajribaning chuqurlashuvi va o'qish jarayonining mazmunan boyishiga olib keladi.

Shuningdek, innovatsion yondashuvlar ta'limda raqamli texnologiyalarni keng qo'llashni talab etadi. Virtual laboratoriyalar, masofaviy ta'lim tizimlari, interaktiv simulyatsiyalar va sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan o'quv platformalar talabalarga o'zlashtirish jarayonida yuqori darajada mustaqillik va erkinlik beradi. Bu vositalar ta'limning an'anaviy shakllarini to'ldiradi, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqotni yangi bosqichga olib chiqadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim tizimida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash uchun quyidagi shart-sharoitlarni yaratish zarur: birinchidan, ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni tizimli ravishda qo'llash; ikkinchidan, o'quv dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish; uchinchidan, ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish tashkilotlari o'rtasida mustahkam hamkorlik o'rnatish; to'rtinchidan, pedagoglarning kasbiy malakasini doimiy oshirish; beshinchidan, o'quv jarayonini raqamlashtirish orqali uning ochiqqligini va samaradorligini ta'minlash.

Nazariya va amaliyot uyg'unligi ta'lim sifatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, uni ta'minlash talaba shaxsini har tomonlama rivojlantiradi. Bu uyg'unlik o'zlashtirilgan bilimning amaliy faoliyatda qo'llanishini, kasbiy kompetensiyaning shakllanishini, o'zini o'zi rivojlantirish va muammolarni hal etish qobiliyatining ortishini ta'minlaydi. Shu sababli, oliy ta'lim muassasalarida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish nafaqat pedagogik jarayonni takomillashtiradi, balki iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash joizki, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida ijobiy o'zgarishlar boshlangan. Biroq bu jarayonni yanada chuqurlashtirish uchun davlat siyosatida ta'lim sohasiga ajratilayotgan e'tiborni samarali boshqarish, innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash, xorijiy ilg'or tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish hamda ilmiy-amaliy integratsiyani kuchaytirish zarur. Shu yo'l bilan oliy ta'lim tizimida nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan raqobatbardosh, zamonaviy fikrlovchi va ijodkor mutaxassislar avlodini tayyorlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abduqodirov, A.A. (2020). Pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta'lim tizimi. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

2. Ziyamuxamedov, B., & Turg'unov, S. (2019). Innovatsion o'qitish metodlari va ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
3. Dewey, J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan.
4. Kolb, D. (1984). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.
5. Bandura, A. (1977). Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.
6. Fullan, M. (2013). The New Meaning of Educational Change. New York: Teachers College Press.
7. Anderson, T., & Dron, J. (2014). Teaching Crowds: Learning and Social Media. Athabasca University Press.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi farmoni, PQ-5847, 2020-yil 8-oktabr.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni, PF-6079, 2020-yil 5-oktabr.
10. Clark, R. C., & Mayer, R. E. (2016). E-Learning and the Science of Instruction: Proven Guidelines for Consumers and Designers of Multimedia Learning. Wiley.
11. Xolbekov, Z. (2022). Oliy ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etishning psixologik-pedagogik asoslari. Toshkent: Innovatsion ta'lim markazi.
12. Christensen, C. M., Horn, M. B., & Johnson, C. W. (2011). Disrupting Class: How Disruptive Innovation Will Change the Way the World Learns. New York: McGraw-Hill.
13. Tashkent State Pedagogical University (2023). Innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'quv jarayoniga integratsiyasi bo'yicha ilmiy hisobot. Toshkent.

*Xudoynazarov Shokirjon Abdumalikovich,
O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi
Mustaqil izlanuvchisi*

KONATIV YONDASHUV ASOSIDA AEROPORT INFRATUZILMASINING HIMOYA DARAJASINI TA'MINLASHGA HARBIY KADRLARNI TAYYORLASH VA AMALIYOTGA YO'NALTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada konativ yondashuv asosida aeroport infratuzilmasining himoya darajasini oshirish bo'yicha harbiy kadrlarni tayyorlash va ularni amaliyotga yo'naltirish bo'yicha zamonaviy pedagogik texnologiyalar tahlil qilinadi. Maqolada aviatsiya xavfsizligi sohasida tahdidlarni baholash, xavf-xatarlarni oldindan aniqlash va yuqori xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan kompetensiyalarni shakllantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, harbiy xizmatchilar orasida konativ (irodaviy) kompetensiyalarni rivojlantirishning modulli, situatsion va interfaol yondashuvlar orqali amalga oshirilishi bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: konativ yondashuv, aeroport xavfsizligi, infratuzilma himoyasi, harbiy kadrlar tayyorlash, aviatsiya xavfsizligi, amaliy ta'lim texnologiyalari, xavf-xatarlarni boshqarish.

Аннотация. В данной статье рассматриваются педагогические технологии подготовки военных кадров к обеспечению уровня защиты инфраструктуры аэропортов на основе конативного подхода. Уделяется внимание формированию профессиональных компетенций в области авиационной безопасности, управлению рисками и профилактике угроз. Особое место занимают вопросы развития волевых (конативных) качеств у военнослужащих с применением модульного, ситуационного и интерактивного обучения, направленных на повышение эффективности профессиональной деятельности в условиях чрезвычайных ситуаций.

Ключевые слова: конативный подход, безопасность аэропорта, защита инфраструктуры, подготовка военных кадров, авиационная безопасность, технологии практического обучения, управление рисками.

Abstract. This article explores pedagogical technologies for training military personnel to enhance the protection level of airport infrastructure, based on the conative approach. The study highlights strategies for developing professional competencies in aviation security, risk management, and threat prevention. The role of conative (volitional) competencies in military training is emphasized, supported by modular, situational, and interactive learning approaches aimed at improving operational readiness and decision-making effectiveness under critical conditions.

Key words: conative approach, airport security, infrastructure protection, military training, aviation safety, practical training technologies, risk management.

Kirish. Global xavfsizlik tizimining tub o'zgarishlari sharoitida harbiy sohada innovatsion yondashuvlarga asoslangan kadrlar tayyorlash o'ta dolzarb masalaga aylanmoqda. Xususan, aeroport infratuzilmasining himoyasi, xalqaro aviatsiya xavfsizligi talablari va antiterror choralarinin zamonaviy talqinlari harbiy xizmatchilardan nafaqat nazariy bilim va texnik malakani, balki yuqori darajadagi konativ (irodaviy) tayyorgarlikni ham talab qiladi. Konativ yondashuv, shaxsning irodaviy xatti-harakatlarini ongli ravishda boshqarish qobiliyatiga asoslanib, zamonaviy harbiy pedagogika va xavfsizlik amaliyotida alohida o'rin tutadi.

Aeroportlar - mamlakatning strategik infratuzilmasi sifatida, turli xavf-xatar va tahdidlar obyekti hisoblanadi. Shu bois, ularning xavfsizlik ko'rsatkichlarini oshirish, himoya tizimini

mustahkamlash, favqulodda vaziyatlarda tezkor va samarali harakat qilish uchun mas'ul harbiy kadrlarni tayyorlash va amaliyotga yo'naltirishning ilmiy asoslangan, kompleks texnologiyalarini ishlab chiqish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Bu jarayonda konativ kompetensiyaning, ya'ni kasbiy mahoratga qo'shimcha ravishda iroda, chidamlilik, emotsional barqarorlik va qaror qabul qilish salohiyatiga asoslangan fazilatlarini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy harbiy ta'limda konativ yondashuvni qo'llash orqali aeroport infratuzilmasining himoya darajasini oshirishga yo'naltirilgan innovatsion texnologiyalarni joriy etish - bu modulli ta'lim, situatsion mashg'ulotlar, real va simulyativ tahdid ssenariylari asosida o'qitish, interfaol metodlar orqali strategik fikrlashni shakllantirish va xavflarni baholash kompetensiyasini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Bunday yondashuvlar nafaqat bilimning chuqurligi va amaliyligini ta'minlaydi, balki harbiy xizmatchining psixologik tayyorgarligini, stressga bardoshlilik darajasini ham yuksaltiradi.

Shuningdek, mazkur yo'nalish aeroport xavfsizligi sohasida xalqaro tajribalarni milliy ta'lim jarayoniga integratsiyalash, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida zamonaviy xavfsizlik standarti asosida harbiy kadrlarni tayyorlash, ularni amaliy faoliyatga yo'naltirishda kompleks yondashuvni shakllantirish imkonini beradi. Shu ma'noda, ushbu maqola konativ yondashuv asosida harbiy kadrlarni tayyorlash va ularni aviatsiya infratuzilmasini himoya qilish bo'yicha amaliy kompetensiyalarni egallashga yo'naltiruvchi ilmiy-pedagogik asoslarni yoritishga qaratilgan.

Ключевые слова: староузбекский язык, лексико-семантический, древнетюркский язык, свой слой, освоенный слой, арабский, персидский, завоевание, изофициальный состав, бытовая лексика, одежда, лексика, лексема, сема.

Annotation. This article is devoted to the study of everyday lexical units of the language of Alisher Navoi's epic "Saddi of Alexandria", including the vocabulary of clothing, in which clothing was studied by type, such as the names of tops and underwear, the names of the head and shoes, the names of clothing parts and accessories. Thanks to this study, the historical and pedagogical progress of lexemes was revealed, and their functional and semantic description was given. The theoretical data were substantiated by examples from the epic.

Key words: Old Uzbek language, lexico-semantic, ancient Turkic language, its own layer, mastered layer, Arabic, Persian, conquest, isoficial composition, everyday vocabulary, clothing, vocabulary, lexeme, Sema

Kirish. Turkiy (eski o'zbek) tilning boyligi va jozibasi, unga xos keng imkoniyatlarning Navoiy ijodi misolida yaqqol ro'yobga chiqishi lingvistlarni adib merosi til xususiyatlarining chuqur ilmiy asosda tadqiq etish, buning natijasida eski o'zbek adabiy tilining fonetik-fonologik, morfem-morfologik, leksik-semantik va sintaktik sathlari haqida nazariy to'xtamlarga kelishgiga turtki bo'ldi.

Mazkur yo'nalishda turkologiya hamda o'zbek tilshunosligida ko'pdan -ko'p izlanishlar olib borildi, ilmiy asarlar, lug'atlar, risolalar, maqolalar chop etildi, anjumanlar chaqirildi. Navoiy asarlari til xususiyatlariga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'lami va miqdorining ko'pligi ularni alohida-alohida zikr etish imkonini bermaydi. Ammo navoiyshunoslikka salmoqli ulush qo'shgan A.K.Borovkov, A.N.Kononov, A.M.Shcherbak, G.Abdurahmonov, A.Rustamov, E.Fozilov, O.Usmonov, B.Bafojev, K.Eraslan, Ya.Ekmann, E.Umarov, B.Hasanov, M.Rahmatullayeva, A.Karimov, H.Dadaboyev, I. Nosirov, Z.Hamidov, S.O'zo'nder singari tilshunoslarning mehnatini e'tirof etish maqsadga muvofiq.

Navoiy asarlari tili leksikasi navoiyshunoslikda ancha ko'p o'rganilgan sath hisoblanadi. Shoir asarlari matnida qo'llangan leksemalar statistik metod nuqtai nazaridan aniqlangan[2], ularning leksik-semantik, stilistik, lingvopoetik xususiyatlari tadqiq etilgan[12], sinonimlar qatori[9] va ba'zi terminlar tizimi[4] ustida izlanishlar amalga oshirilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Keyingi yillarda tadqiqotchilarimiz tomonidan Alisher Navoiy asarlari leksikasi, lisoniy xususiyatlari tadqiqiga bag'ishlangan bir necha ilmiy ishlar tadqiq etildi. Jumladan, M.Tojiboyeva Alisher Navoiyning "Ilk devon"idagi arabcha so'zlarni leksik-semantik talqini ustida izlanish olib bordi [11], D.Abduvaliyeva Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" hamda "Tarixi muluku ajam" asarlarining so'z boyligini tarixiy-etimologik, funksional-semantik va semantik-stilistik nuqtai nazardan o'rgandi[1], Sh.Xo'janiyozova Alisher Navoiyning "Xamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad" asarlari leksikasi tadqiqi ustida ish olib bordi [16], X.Muxammadiyev Alisher Navoiy "Xamsa" dostonlaridagi maishiy leksika tadqiqini olib bordi [7], N.Umarovanning ilmiy ishi Alisher Navoiy asarlarida faol lug'aviy konseptlarning olamni lisoniy idrok etishdagi o'rnini aniqlashga bag'ishlangan bo'lib, unda eski o'zbek tilidagi konsept va kategoriyalarning milliy-lisoniy manzaradagi o'rni ochib berilgan [13].

Tahlil va natijalar. Alisher Navoiy asarlarida qo'llangan turli sohalarga oid leksik birliklar qatorida maishiy sohaga oid so'zlarni, xususan, kiyim-kechak leksikasini tadqiq etish jamiyat va til tarixi hamda o'zbek tilining lug'at boyligidan boxabar bo'lishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali o'zbek adabiy tilining ma'lum rivojlanish bosqichida leksemalar va ularning ma'no taraqqiyotini aniqlash, tarixiy-maishiy terminologiya va leksikologiyada kechgan so'z o'zlashtirish, umuman, leksik-semantik jarayonlarni kuzatish mumkin bo'ladi [7].

Badanni berkitish va yopish, shuningdek, yasanish, oroyish, ijtimoiy maqomini ko'rsatish uchun kiyiladigan, asosan, turli mato va teridan tikib tayyorlangan narsalarning umumiy nomi kiyim-kechak deyiladi[7]. Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostoni matnidagi kiyim-kechak va unga aloqador buyumlar o'zining qo'llanish vazifasiga ko'ra quyidagi leksik-semantik guruhlariga bo'linib o'rganildi:

1. Ustki va ichki kiyim nomlari: *javak* (550-bet), *dalq* (446), *pashmina* (241), *deklay/dakla* (482-bet), *to'n* (278-bet), *jubba* (594-bet), *xafton* (388-bet), *libos* (283-bet), *hulla* (200-bet), *albisa* (278-bet).

2. Bosh va oyoq kiyim nomlari: *taylason* (165-bet), *toj* (239-bet), *to'ppi* (269-bet), *xo'd* (416-bet), *bo'rk* (283-bet), *kuloh* (137-bet), *nimtag* (263-bet), *hijob* (236-bet) kabi.

3. Kiyim qismlari va liboslarga yordamchi buyum nomlari[7]: *kemuxti* (107-bet), *etak* (560-bet), *domona* (461-bet), *yalov* (593-bet), *o'tag'a/o'tog'a* (565), *atlas* (283-bet), *harir* (133-bet), *katon* (101-bet) kabi.

Ba'zi bir istilohlarning leksik-semantik xususiyatlariga e'tibor qaratamiz:

Javak -shevaga xos so'z bo'lib, O'zbek tilining izohli lug'atida "*isirg'aning quyi qismi*" ma'nosida uchraydi (O'TIL, II, 61). Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostoni so'z boyligida esa "*yo'l-yo'l matodan tikilgan paranjining bir turi*" (ANATIL, I, 550) ma'nosida qo'llanilgan:

Javak atlas aylab o'ziga libos,

Kiyib bo'rk o'rnida boshig'a tos. (SI, 283)

O'zbek tilining izohli lug'atida **paranji** [ا.فرجيج-shayhlarning ham o'zi, ham yangi keng ustki kiyimi] etn. "*Ko'pchilik musulmon ayollar begona erkaklarga ochiq ko'rinmaslik uchun boshga yopinib yuradigan, bichimi keng va uzun to'n shaklidagi, sohta yengli yoping'ich*" (yuz chachvon bilan berkitiladi) tarzida keltirilgan.

Bugungi kunda tilimizda faol qo'llanadigan va barchaga tushunarli bo'lgan **libos** leksemasi arab tilidan o'zlashgan bo'lib, umuman, "*kuium, libos*" (ANATIL, II, 173) маъноси билдиради:

Javak atlas aylab o'ziga libos,

Kiyib bo'rk o'rnida boshig'a tos. (SI, 283)

Qadimgi turkiy tilga oid manbalarda ham bu leksema “*kiyim, libos*” ma'nolarida uchraydi: *tākābbūr libasīn kejīp* (DTS, 333).

“*Oldi ochiq, paxtali yoki paxtasiz uzun ustki milliy kiyim; chopon*” (O'TIL, IV, 238) ma'nosini ifodalaydigan **to'n** leksemasi Alisher Navoiy asarlari tilida “*kiyim, sirtqi kiyim, chopon; po'stin*” (ANATIL, III, 268) ma'nosini ifodalagan:

Ikki yuzga ham deklayu to'n berib,

Yalang to'n alarcha yana o'n berib. (SI, 278)

Ba'zi o'rinlarda to'n leksemasi **babr to'n** birikma tarkibida kelib, “*yo'lbars terisidan qilingan kiyim*” [3] semasini ifodalaydi:

Palangina bargustvon otig'a,

Kiyib babr to'n xalq ofotig'a. (SI, 181)

Hozirgi o'zbek adabiy tilida [a. كەنج-*keng* yengli ustki kiyim] shv. “*Ko'ylak bichimida tikilgan paxtali issiq kiyim*” (O'TIL, II, 110) ma'nosida ishlatilishda davom etib kelayotgan **jubba** istilohi “Saddi Iskandariy dostoni tilida “*bo'yi, yengi uzun keng to'n*” (ANATIL, I, 595) ma'nosida qo'llanilgan:

Yana uch to'qqiz davlat arkonig'a,

To'nu jubba birla aning yonig'a. (SI, 278)

Alisher Navoiy asarlari yuzasidan tuzilgan lug'atlarda **dalq**- “*janda, darveshlar kiyimi*” (ANATIL, I, 446); **pashmina** esa - “*jundan ishlangan mato*” (ANATIL, II, 569) ma'nosida izohlangan. “Saddi Iskandariy” dostoni tilida bu leksemalar izofali birikma hosil qilib “**dalqi pashmina**” ko'rinishida “*jundan ishlangan matodan tikilgan janda, ya'ni darveshlar kiyimi*” ma'nosini ifodalagan:

Biri nolai dardnok aylabon,

Biri dalqi pashmina chok aylabon. (SI, 241)

Deklay/dakla yana bir libos turi bo'lib, Alisher Navoiy asarlariga oid lug'atlarda bu so'z “*engi qisqa ustki kiyim*” (ANATIL, I, 482) tarzida qayd etilgan:

Ikki yuzga ham deklayu to'n berib,

Yalang to'n alarcha yana o'n berib. (SI, 278)

Hulla -yana bir ustki kiyim nomi. Alisher Navoiy asarlari uchun tuzilgan lug'atlarda ushbu istilohning ma'nosi “*bezakli kiyim, ziynat libosi; nafis matodan tikilgan kiyim*” sifatida izohlangan. “Saddi Iskandariy” dostonidan keltirilgan uchbu misrada esa **hullai Chin** izofali birikma tarkibida kelib “**Chin shoyisi, ipakli kiyimi**” (ANATIL, IV, 200) ma'nosida ko'zga tashlanadi:

Bezab tomu toshini oyin bila,

Musavvar bari hullai Chin bila. (SI, 293)

Xafton-yana bir ustki kiyim nomi. Uning izohi lug'atlarda “*sovit ostidan kiyiladigan to'n, kaftan*” (ANATIL, III, 388) tarzida keltirilgan. Ushbu istilohni “Saddi Iskandariy” dostoni so'z boyligida ham ko'rishimiz mumkin:

Sinonlar sarig' rang, qalqon dag'i,

Kejimlar sarig' jins, xafton dag'i. (SI, 261)

Po'stin-[ف. پوستين-**po'stin, shuba**] Mo'ynali, oshlangan teridan tikilgan uzun, issiq uzun ustki qishlik kiyim (O'TIL, III, 330), ya'ni “*junini to'kmay oshlangan teridan (qo'y terisidan) chopon shaklida tikiladigan sovuqda kiyiladigan ustki kiyim*” ma'nosini ifodalaydi. Tadqiqotchi X.Mahammadiyev [7] o'zining ilmiy izlanishlarida **po'stin** leksemasi forsiy o'zlashma ekanligini, uning quyidagi, ya'ni, “*tulki po'stin-astari tulki mo'ynasidan; barra po'stin-barra qo'y terisidan (oshlab); suvsar po'stin-astari suvsar mo'ynasidan tikiladigan*” turlari borligini aytib o'tadi. “Saddi Iskandariy” dostonidan keltirilgan ushbu misralarda esa ushbu leksema “**qo'zi po'stin**” ko'rinishida “*qo'zi terisidan tayyorlangan ustki kiyim*” manosi qo'llangan:

*Qo'zi po'stin ichra pinhon bo'lub,
Hamal burjida mehri raxshon bo'lub.* (SI, 199)

Bosh kiyimlarining oltoy xalqlari tarixida o'ziga xos o'rni bo'lgan. Bosh kiyimlari ko'chmanchi aholi o'rtasida quyoshdan, sovuqdan, qordan, yomg'irdan va shamoldan himoyalash vositasi sifatida qo'llanilgan. Ular janglarda qalqon vazifasini o'tagan [14].

[Esk. Oshlangan qorako'l teridan silindr shaklida tikilgan bosh kiyim, telpak] (O'TIL, I, 697) ma'nosidagi **börk** istilohi qadimgi turkiy til davriga oid bitiktoshlarda "qalpoq" semasini ifodalaydi: *burun başqa börkni kejär baş keräk* (DTS, 118); *neçä baş beđüsä beđük börk keđür* (QBN, 43); *ol maņa börk qıdışdı* (MK, II, 93) Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni tilida ham "bosh kiyim; qalpoq, telpak" (ANATIL, I, 346) ma'nosida qo'llanganini ko'rishimiz mumkin:

*Qaro bo'rkin egri qo'yub boshig'a,
Yetib bir qirog'i qaro qoshig'a.* (SI, 199)

Hozirgi o'zbek adabiy tilida [a. حجاب - yopinchiq; parda; niqob; to'siq] "yuzga tutiladigan parda, to'siq" ma'nosini ifodalaydigan **hijob** leksemasi "Saddi Iskandariy" dostoni tilida ham "yopinchiq, parda, to'siq" (ANATIL, IV, 175) ma'nosida ifodalangan:

*Chu raf' aylading ul hijobin aning,
Fuzun aylading ishqı tobin aning.* (SI, 236)

Toj leksemasi izohli lug'atlarda [a. تاج -toj, gulchambar; jig'a; gultoj] "shohlarning hukmronlik ramzi bo'lgan, qimmatbaho toshlar qadalgan ziynatli bosh kiyimi" (O'TIL, IV, 132) ma'nosini ifodalaydi. Asar tilida ushbu istilohni "toj, hukmdorlarning javharlar qadalgan bosh kiyimi" (ANATIL, III, 239) ma'nosida ko'rishimiz mumkin:

*Kelib qo'ydilar boshig'a toji zar,
Libosi zar ustiga zarrin kamar.* (SI, 246)

Kuloh leksemasi [f. كلاه -bosh kiyimi, kuloh] "tepa tomoni ingichkalashib chiqqan qalpoq, bosh kiyimi (asosan qalandar, darveshlar kiyadigan uchli qalpoq)" ma'nosini ifodalaydi.

Quyidagi misralarda esa har ikkala leksema "toju kuloh" izofali birikma tarkibida kelib, "shohlik mansabi" ma'nosini ham ifoda etgan:

*Jahon mulkida mustaqil podshoh,
Anga topshurub shohlar toju kuloh.* (SI, 255)

"Avra-astarli, ko'pincha qavima, pilta urilgan, tepa, kizak va jiyakdan tarkib topadigan guldor yoki gulsiz, to'garak yoki to'rtburchak shakldagi bosh kiyimi" (O'TIL,) ma'nosini ifodalovchi **do'ppi** leksemasi asar tilida **to'ppi** (ANATIL, III, 269) shaklida qo'llanilgan:

*Dovulg'a bo'lub to'ppi yanglig' bari,
O'tog'a bosh uzra sarig' qush pari.* (SI, 133)

Ushbu misralarda jangda boshni himoya qilish uchun kiyiladigan *dovulg'a (dubulg'a)* bosh kiyimi *to'ppi* "do'ppi"ga o'xshatilmoqda [7].

Nimtarg- yana bir bosh kiyim nomi. Lug'atlarda "boshga kiyiladigan kiyim, dubulg'aning bir turi"; "chodir, soyabon" ma'nosida uchraydi (ANATIL, II, 461). "Saddi Iskandariy" dostonida bu istiloh *dubulg'a* ma'nosida kelgan:

*Qizil xuddin boshida nimtarg,
Ki vahmidin o'lub o'lum holi marg.* (SI, 263)

Taylason- lug'atlarda shunday ta'riflangan: "rido, boshga, bo'yinga solib, orqaga tashlab yuriladigan chodirdek narsa" (ANATIL, III, 165-bet). Asar tilida ham shu ma'noda ifodalangan:

*Fano taylasonini qilg'ay kafan,
Kafan bas anga, balki gardi mihan.* (SI, 140)

Kamar- liboslarga yordamchi buyumlardan biri sanaladi. Hozirgi kunda **kamar** istilohi [f. كمر -bel, belbog'] "*kiyim ustidan belga bog'lanadigan, odatda ko'ndan qilinadigan to'qali enli tasma; qayish*" ma'nosini ifodalaydi. "Saddi Iskandariy dostoni tilida "*belbog; qayish belbog*" (ANATIL, II, 94) ma'nosida kelgan:

Kelib qo'ydilar boshig'a toji zar,

Libosi zar ustiga zarrin **kamar**. (SI, 246)

Asar tilida **kemuxti** istilohi **kamar** so'ziga sinonim sifatida "*charm, qayish*" (ANATIL, II, 107) ma'nosida uchraydi:

Qilich solsa xorani aylab shikof,

Anga xoro **kemuxti** o'lub g'ilof. (SI, 293)

Liboslarga yordamchi buyum sifatida yana **o'tag'a/o'tog'a** istilohini keltirishimiz mumkin. Alisher Navoiy asarlari yuzasidan tuzilgan lug'atlarda **o'tag'a/o'tog'a** istilohining "*boshga taqiladigan jig'a*"; "*dubulg'aga sanchilgan qush pati*" (ANAIL, III, 615) kabi ma'nolari borligi ta'kidlanadi. Ushbu istilohni "Saddi Iskandariy" dostoni tilida ham uchratishimiz mumkin:

O'tog'a tikib xudida savsaniy,

Bo'lub g'unchadin savsan ochmoq fani. (SI, 82)

Bundan tashqari "Saddi Iskandariy" dostonida **katon** istilohini ko'rishimiz mumkin. **Katon** istilohi **asar tilida** "*kanopdan to'qilgan mato, kiyimlik*" (ANATIL, II, 101) mazmunida namoyon bo'ladi.

Yashag'an soyi donish ichra yotib,

Katondek necha sekirib, ko'rkayib. (SI, 149)

Hozirgi kunda [a. اطلال-tekis, silliq; ipakdan to'qilgan mayin mato] "*Bir tomoni yaltiroq, guldor, kudunglangan mahalliy ipak gazlama*" ma'nosini ifodalaydigan **atlas** leksemasi qadimgi turkiy til manbalarida libos ma'nosida uchrasa: *Qali kejsän atlas unutma bözüñ* (DTS, 5), "Saddi Iskandariy" dostoni tilida esa "*atlas, gazlama*" (ANATIL, I, 133) ma'nosini ifodalaydi:

Javak atlas aylab o'ziga libos,

Kiyib bo'rk o'rnida boshig'a tos. (SI, 283)

Hozirgi o'zbek adabiy tilida [a. حرير-ipak shoyi mato] "*yupqa ipak gazlama; yupqa nozik gazlama*" (O'TIL, V, 509) ma'nosini ifodalaydigan **harir** leksemasi asar tilida "*ipak, ipak mato, yupqa va nozik mato*" (ANATIL, IV, 162) ma'nosini ifoda etganini ko'rishimiz mumkin:

Dovulg'onda chiniy yalov dilpazir,

Yana javshan ustiga chiniy harir. (SI, 133)

Etimologik lug'atlarda **etak** leksemasi "*ustki uzun kiyimning past qismi*" tarzida izohlangan. **Etak** so'zi qadimda "*ustki kiyimning pastiga qo'shiladigan alohida mato*" ma'nosini bildirgan, "*kiyimning ajralmas qismi*" ma'nosi keyinchalik yuzaga kelgan (O'TEL, I, 470). Asardan keltirilgan quyidagi misralarda esa **etak** leksemasi "*etak silkimoq*" ibora tarkibida kelib, "*yuz qaytarmoq, voz kechmoq, tark qilmoq*" (ANATIL, III, 560) semasini ifodalagan:

Qadam tortqan xalq abvobidin,

Etak silkkan xalq asbobidin. (SI, 274)

Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostoni tilida **etakning** forsiy ma'nodoshi **domon/domona** ham qo'llangan. Navoiy asarlari lug'atida **domona** [f. دامانه - "*kiyim etagi, o'ngiri; oxir, ket; tog'ning etagi*"] tarzida izohlangan. Alisher Navoiy asarlari tilida **etak, domona** leksemalarining metafora yo'li bilan ma'no ko'chishi uchraydi [7]: "*Agarchi o't tog' etagin kuydurmagay, ammo quyosh axtarig'a nechuk eta olg'oy*" (NAL, 710).

Anga tegru har kun o'zi o'tlanib,

Hamul tog' domonasin aylanib. (SI, 521)

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida kiyim-kechak nomlari nafaqat o'z qatlamga oid leksemalar (*javak, bo'rk,*

to'n, xafton, deklay/dakla), shuningdek, o'zlashgan qatlamga oid leksemalar bilan ham ifodalanganini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, fors tilidan o'zlashgan so'zlar qatorini *po'stin, pashmina, nimtarg, kuloh, kamar* kabi istilohlar tashkil qilsa, arab tilidan o'zlashgan so'zlar qatoriga esa quyidagilarni misol tariqasida keltirish mumkin: *toj, hijob, harir, atlas, jubba, rido, taylason* kabi. Asarda qo'llanilgan kiyim-kechakka oid so'zlarning leksik-semantik xususiyatlarini o'rganish, liboslarning nomlanishi, etimologiyasi, qanday matodan tayyorlangani, kiyim-kechaklarning qismlari, liboslarga yordamchi buyumlar va ularni ifodalaydigan istilohlar haqida kengroq tushuncha beradi.

Sharhli qisqartmalar

1. ANATIL - Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Т. I-IV. -Тошкент, 1983-1985.
2. ДТС - Древнетюркский словарь. -Л., 1969. -676.
3. NAL – Навоий асарлари луғати. Порсо Шамсиев таҳрири остида. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. –782 б.
4. SI – “Садди Искандарий”. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 11-жилд. – Тошкент: Фан, 1993.
5. O'TIL - O'zbek tilining izohli lug'ati. T.1-VI.-Toshkent, 2023.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Абдувалиева Д. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. -Тошкент, 2017. -159 б.
2. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. –Тошкент: Фан, 1983. -157 б.
3. Berdak Yusuf. Navoiy tili lug'ati. I jild. -T., 2018. - 495 b.
4. Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н. Проблемы лексики староузбекского языка. –Ташкент: Фан, 1990.
5. Каримов А. Алишер Навоийнинг “Фарҳод ва Ширин” достони тилининг лексик-семантик ва стилистик хусусиятлари: Филол. фан. ном. ... дисс. –Тошкент, 1974.
6. Мамадов Х. Лексико-стилистические особенности художественной прозы Алишера Навои: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Ташкент, 1969.
7. Muhammadiyev X. Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlaridagi maishiy leksika. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. -Jizzax, 20222.
8. Насыров И. Лексика “Маджалис ан-нафаис” Алишера Навои: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Ташкент, 1980.
9. Рахматуллаева М. К вопросу изучения синонимов в лирике Алишера Наваи (на материале “Наводир ан-нихоя”): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Ташкент, 1965.
10. Санакулов У. Исследование языка памятника XV в. “Мухокамат-ул-лугатайн” Алишера Навои: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Ташкент, 1971.
11. Тожибоева М. Алишер Навоийнинг “Илк девон” идаги арабча сўзларнинг лексик семантик талкини. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001.
12. Умаров Э. Лексико-грамматическая характеристика фразеологизмов “Хазойин-ул-маоний” Алишера Навои: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. -Л., 1968.

Raximov Mirzali Rabbimovich,
Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi (PhD)
raximovmirzali@gmail.com

ILOVA KONSTRUKSIYSALARINING ILMIY TADQIQI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilova hodisasini o'rganish jarayonida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlar, jumladan, uning hosil bo'lishi, qo'llanilishi va bir qator tilshunos olimlarning fikr - mulohazalari bilan atroflicha tanishish, hozirgi kungacha to'lig'icha tadqiq qilinmagan dolzarb mavzulardan biri ekanligini batafsil ilmiy manbalarga tayangan holda yoritilgan. Shu bilan birga ilova hodisasi va ilova elementlarining bugungi kundagi dolzarb mavzu sifatida tadqiq etilishi haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: ilova hodisa, ilova element, sintaktik butunlik, strukturaviy tuzulish, kommunikativ nutq birliklari, lingvistik hodisa.

Аннотация. В этой статье рассматриваются исследования и разработки, проведенные в процессе изучения явления присоединения, включая подробное введение в его формирование, применение и отзывы ряда ученых-лингвистов, опирающихся на подробные научные источники, что это одна из актуальных тем, которые до сих пор не были полностью исследованы. В то же время предоставляется информация о событии приложения и исследовании элементов приложения как актуальной темы сегодня.

Ключевые слова: событие приложения, элемент приложения, синтаксическое целое, структурная структура, коммуникативных речевых единиц, языковое явление.

Annotation. This article examines the research and development carried out in the process of studying the phenomenon of attachment, including a detailed introduction to its formation, application, and feedback from a number of linguistic scientists based on detailed scientific sources that this is one of the relevant topics that has not yet been fully investigated. At the same time, information is provided about the app event and the exploration of app elements as a relevant topic today.

Key words: application event, application element, syntaktik whole, structural strukture, kommunikative speech units, linguistik phenomenon.

Kirish. Tilshunoslik fanida so'z birikmalari va gapning grammatik tuzilishini o'rganish jarayonida ilova konstruksiyalari alohida ilmiy e'tiborga molik hodisa hisoblanadi. Chunki ilova (appozitiv) konstruksiyalar tilning sintaktik, semantik va stilistik tizimida o'ziga xos o'rin egallaydi. Ular so'zlovchining fikrini aniqlashtirish, izohlash yoki qo'shimcha ma'no berish kabi vazifalarni bajaradi. Shu boisdan ham ilova konstruksiyalarini o'rganish nafaqat grammatik tizimni chuqurroq anglashga, balki tildagi mantiqiy va kommunikativ munosabatlarni yoritishga xizmat qiladi.

O'zbek tili sintaksisida ilova konstruksiyalarining ilmiy tahlili XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab faol ravishda olib borila boshlagan. Biroq hozirgi davrda globalizatsiya, tarjima jarayonlari va tilshunoslikning pragmatik yo'nalishda rivojlanishi natijasida bu masalaga yangi ilmiy yondashuvlar zarurati tug'ilmoqda. Til tizimida ilova hodisasining o'ri, ularning grammatik shakllanish xususiyatlari, semantik yuklamalari hamda boshqa sintaktik birliklardan farqlovchi jihatlarini qayta ko'rib chiqish ilmiy jihatdan dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, chet tillari, jumladan ingliz, rus va fransuz tillaridagi appozitiv tuzilmalar bilan o'zbek tili misolida qiyosiy tahlil olib borish bugungi kunda ilmiy tadqiqotlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Ilova konstruksiyalari asosan ot turkumiga oid birliklar bilan bog'liq bo'lib, ular orasida grammatik jihatdan mustaqillik va bog'liqlik o'rtasida o'ziga xos muvozanat mavjud. Masalan, "Shoir Abdulla Oripov" yoki "O'zbekiston poytaxti — Toshkent" kabi birliklarda ilova so'zlovchining fikrini aniqlashtiradi, subyektga xos xususiyat yoki tavsifni qo'shimcha tarzda ifodalaydi. Shu jihatdan, ilova konstruksiyalari tilning stilistik imkoniyatlarini kengaytiruvchi, nutqni boyituvchi va ma'naviy-estetik ma'no yukini oshiruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Tilshunoslikning turli yo'nalishlarida — struktur, funksional, kommunikativ va kognitiv tahlillarda ilova konstruksiyalariga turlicha yondashuvlar mavjud. Struktur yondashuvda ular grammatik tuzilish jihatidan o'rganilsa, funksional yondashuvda ularning nutqdagi vazifasi va maqsadi tahlil qilinadi. Shu bilan birga, kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan ilova konstruksiyalari inson tafakkuri, bilish jarayoni va konseptual tizimni ifodalovchi vosita sifatida o'rganiladi.

Bugungi kunda o'zbek tili grammatikasi, ayniqsa, sintaksis tizimini chuqurlashtirishda zamonaviy lingvistik yondashuvlar, shu jumladan, ilova konstruksiyalarining ilmiy tahlili alohida ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Ular nafaqat nazariy tilshunoslikda, balki amaliy sohalarida — tarjimashunoslik, kompyuter lingvistikasi, matn tahlili va ta'lim metodikasida ham qo'llanilmoqda. Ayniqsa, til o'rgatish jarayonida ilova konstruksiyalarining to'g'ri qo'llanishi o'quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Shunday qilib, mazkur maqolada o'zbek tilidagi ilova konstruksiyalarining shakliy va ma'noviy xususiyatlari, ularning nutqdagi vazifasi hamda boshqa tillardagi o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u o'zbek tili sintaksisini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida yangicha talqin etish, shuningdek, amaliy nutq madaniyatini boyitishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Jahon tilshunosligada olib borilayotgan keyingi yillardagi ilova hodisasi, ilova konstruksiyalar, ilovali elementlar bilan bog'liq bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlari salmog'i ortib borayotganligini ko'rishishimiz mumkin. Bunday ilmiy izlanishlar va tadqiqotlarni hozirgi zamon rus tilshunoslari S.E.Kryuchkov, M.E.Shafiro, N.S.Valgina, A.P.Velichuk, F.P.Sidorova, belarus tilshunosi L.I.Burak, hozirgi zamon o'zbek tilshunolaridan F. Abdurahmonov, A. Mamajonov, B. Maksimov, A.A. G'afforov va boshqalar tomonidan olib borilgan izlanishlar fikrimiz isbotidir. Ular ilova hodisasi haqida ma'lum tushunchalar berib, ushbu sintaktik qurilmaning strukturaviy turlari, ilova konstruksiya tarkibida bajarib keladigan funksiyalari, ularning sintaktik-semantik xususiyatlari, va o'ziga xos ma'no nozikliklarini tadqiq qilishgan.

Ilova hodisasi muammosi, ilova konstruksiyalar masalasi german tilshunosligida ham ma'lum darajada o'rganilgan. Bu sohada M.T.Gaybova, T.F.Glebskaya, A.A.Kobrina, B.M.Milk, Ya.K.Moyseychuk, M.Ya.Blox, E.M.Gjanyans, G.M.Astapova, D.Sh.Tuyakayevalar o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Ular o'zlarining ilmiy izlanishlarida hozirgi zamon ingliz tili materialida ilova hodisasi, ilova konstruksiyalar, ilovali elementlarning leksik- semantik, sintaktik, struktur, stilistik xususiyatlarini ochib berishga harakat qilishgan.

Masalan, M.T.Gaybova ingliz tilida ilova konstruksiyalar, ularning badiiy prozada bajarib keladigan stilistik funksiyalarini tadqiq qiladi. Uning fikricha, "ilova konstruksiyalar badiiy matnda ma'lum stilistik vazifani bajarib keladi va matnning ta'sir kuchini, uning emotsionalligini oshirishga xizmat qiladi" [5: 17].

V.M.Milk esa, hozirgi zamon ingliz tilida ilova konstruksiyaning intonatsiyasini rus tiliga qiyoslagan holda o'rganib, bu borada quyidagilarni ta'kidlaydi. "Ilova konstruksiyada intonatsiya muhim ko'rsatkichlardan hisoblanadi. Ilovali element asosiy ifodadan keyin turadi, gap tugagandan so'ng, nutqdan keyin ilovali element keladi, uni nutqda intonatsiya orqali aniq ko'rsatish lozim [8: 12].

Tadqiqotchi D.Sh.Tuyakayeva hozirgi zamon ingliz tilida ilova konstruksiyalarning struktur xususiyatlarini o'rganib, ilovali elementlar funksiyasida keladigan ikkinchi darajali bo'laklar, xususan, aniqlovchilarni tadqiq qilib, ular haqidagi fikrini quyidagicha bildiradi. Uning ilmiy xulosalariga ko'ra, "Ilova konstruksiyalar tarkibida aniqlovchilar kengaytirilgan shaklda kelsa, ularning ilovali elementlar sifatida ma'lum funksiyalarni bajarib kelishiga qulay sharoit yaratadi [13: 53]. Bundan ko'rinadiki, tadqiqotchi ingliz tili ilova konstruksiyalari tarkibidagi ilovali elementlarning yuzaga kelishini va ularning badiiy asarlarda tarqalish darajasini ma'lum sintaktik yo'llar orqali izohlab berishga harakat qilgan. Bu yerda shuni tushunishimiz mumkinki, ilova konstruksiyalarni o'rganishda, uni faqat bir tomonlama, ya'ni sintaktik tomondan talqin qilish yaxshi natija bermaydi, shuning uchun ularning semantik, stilistik, tipologik va boshqa tomonlariga ham e'tibor qaratilsa, ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

Bu sohada hozirgi zamon nemis tili materiallari asosida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari e'tiborga loyiq. Tadqiqotchilar Z.B.Bubnite, V.V.Gavrilova, N.N.Golikova, N.T.Palamarchuk, A.M.Polikarpov, M.R.Savkova, L.I.Sokolova, M.Ya.Vays, V.Dressler, O.N.Krot, Ye.F.Roslyakovalar o'z ilmiy izlanishlarida ilova konstruksiyalar, ilovali elementlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning turli funksiyalarini o'rganib, o'zlarining fikr-mulohazalarini bildirgan.

Masalan V.V.Gavrilova ilova konstruksiyalar, ularning hozirgi zamon nemis badiiy adabiyotida stilistik qo'llanishi masalalarini tadqiq qilib, bu borada quyidagi o'zining mulohazalarini keltirib o'tadi: "Ilovali konstruksiyalarning badiiy matnda qo'llanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy tasvir vositalarining ilova konstruksiya sifatida bajaradigan stilistik funksiyalarini alohida ta'kidlash lozim, ular kitobxonda emotsionallikni kuchaytirish, ma'lum qiziqish uyg'otishga xizmat qiladi" [4: 18].

Shuningke Ya.K.Moyseychuk o'zining tadqiqot ishida hozirgi zamon german tillari, xususan nemis va ingliz tillarida sintaktik konstruksiyalarning faollashuvi, ularning dialogik nutqda qo'llanishi masalalarini tadqiq qiladi [7]. Shu jihatdan olib qaralganda, L.I.Sokolovning ilmiy izlanishlari diqqat e'tiborni tortadi. U hozirgi zamon nemis tili materialida tadqiqot olib borib, ilova konstruksiyalarning kommunikativ sintaksis hodisasi sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatib o'tadi [11]. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ilova konstruksiyalarga xos bo'lgan sintaktik xususiyatlardan yana biri bunday konstruksiyalar orasidagi sintaktik aloqalarning shakllanishi va ifodalanishida namoyon bo'ladi. Kommunikativ sintaksis hodisasi sifatida ilova konstruksiyalarni tashkil etuvchi komponentlar orasidagi sintaktik aloqa vositalari ushbu konstruksiyalar tarkibida keladigan kontaktli so'zlar, ya'ni so'z birikmalari, so'zlar, fe'lli birikmalar yordamida, ayrim hollarda bog'lovchilar yordamida ifodalanib keladi.

Metodologiya. Ilova konstruksiya tarkibidagi ilovali elementlar tomonidan asosiy ifoda (gap)ning mazmun-mohiyatiga yoki asosiy ifodaning ma'lum bir tarkibiy qismiga ilova qilinayotgan qo'shimcha ma'no quyidagicha kommunikativ xususiyatlarini namoyon qilishi mumkin: asosiy ifodaning mazmunini konkretlashtirish, uni to'ldirish, izohlash, ma'noni reallashtirish, ayrim hollarda umumlashtirish xususiyatlari hisobga olinadi. Ta'kidlash joizki, ilova konstruksiya elementlarining kommunikativ funksiyalari quyidagi o'ziga xos xususiyatlarni keltirib chiqaradi, bunday xususiyatlar sodir bo'layotgan voqea-hodisalarning realligini, ketma-ket sodir bo'lishini, paytini, maqsadini, o'rnini, natijasini va boshqa xususiyatlarini ifodalab keladi.

Ilova konstruksiyada asosiy ifodaga birikib keladigan ilovali elementlarning sonini ortib borishi uning stilistik funksiyasining kengayishiga ham olib kelishi mumkin, bunday holda ilova konstruksiya tarkibidagi gaplarning struktura jihatdan tuzulishi ma'lum darajada soddalashgan ko'rinishga ega bo'ladi.

Shu o'rinda M.Ya.Vaysning nemis tili materiallari asosida olib borgan ilmiy izlanishlari muhim ahamiyatga ega. Uning ta'kidlashicha, "hozirgi nemis tilida ilova hodisasi sintaktik stilistik hodisa sifatida tadqiq qilinadi. Uning stilistik vazifasi gap tuzilishini soddalashtirish, ya'ni ayrim gap bo'laklarini tejash, ba'zilarini takror qo'llashda namoyon bo'ladi" [3:142].

L.I.Sokolovning fikr-mulohazalariga qo'shilgan holda, bu borada ba'zi xulosalarni bildirishni o'rindidir. Ilova konstruksiyalar tarkibidagi ilova elementlarning kommunikativ funksiyalari o'ziga xos shakllanadi. Ayrim hollarda, ilovali elementlar o'zlarining ma'no xususiyatlari bilan asosiy ifoda (gap) tomonidan bildirilayotgan mazmunni konkretlashtirib, izohlab, to'ldirib kelsa, ba'zan esa, faqat asosiy ifoda mazmunini to'ldirib, izohlab, aniqlashtirib qolmasdan, balki ana shu ilovali elementlar tomonidan bildirilayotgan qo'shimcha ma'no xususiyatini ham aniqlashtirib, izohlab, to'ldirib keladi va unga modallik xarakterini beradi. Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki, ilova konstruksiya tarkibida faollashayotgan ilovali elementlarning strukturasiga ko'ra kengayishi ularning ma'no mazmunining ham ortishiga olib keladi.

Natijalar va muhokama. Gapning ajratilgan bo'laklariga, ilovali elementlarga xos bo'lgan ayrim xususiyatlar taniqli germanshunos olim V.G.Admoni konsepsiyalarida quyidagi fikrlari bilan mustahkamlanadi: Ajratilgan gap bo'laklari bu "qo'shib yozish yoki qo'shimcha (ilova) qilish" ning mahsulidir. Til unsurlarining qo'shimcha sifatida kiritilishi so'z va so'z birikmalari orasida sintaktik munosabatlarning mavjudligi bilan bog'liq" [2; 69]. Haqiqatdan ham, sintaktik munosabatlar bor joyda albatta sintaktik o'zgarishlar vujudga keladi. Bunday o'zgarishlar nafaqat ajratilish, ilova qilish jarayoniga, balki ajratilish, qo'shimcha qilinish imkoniga ega bo'lgan gap bo'laklarining matn doirasida yoyilish darajasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Buning natijasida matn doirasidagi ajratilgan gap bo'laklarining yoyilish darajasi ham har xil bo'lishi mumkin.

V.G.Admoni tomonidan keltirilgan bu fikr nemis tili sintaksisi bo'yicha chop etilgan "Введение в синтаксис современного немецкого языка" nomli ilmiy- nazariy monografiyasida nafaqat ajratilgan gap bo'laklarining matn doirasida yoyilish darajasiga aniqlik kiritilgan, shuningdek, qaysi gap bo'laklari ilovali elementlar funksiyasida kela olishi mumkin degan muammoli savolning yechilishiga ham katta yordam beradi. Olimning ta'kidlashicha, "Fe'lning tuslanadigan shaklidan tashqari, gapning hamma bo'laklari ajratish hodisasiga uchrashi mumkin" [1; 82]. Uning har qanday gap bo'lagi gapning ilovali elementlari funksiyasida kela oladi degan fikrini isbotlash maqsadida, germanshunos olim E.V.Guliga, va M.D.Natansonlarning hammualliflikda chop etgan "Syntax der deutschen Gegenwartssprache" nomli o'quv qo'llanmasida ajratilgan gap bo'laklari haqidagi: "Die abgesonderten Satzabschnitte erfüllen die Funktion eines Satzgliedes und zwar sowohl eines Hauptgliedes als auch eines Nebengliedes; Hauptglieder werden seltener angesondert" [6; 79] degan xulosasini bu yerda keltirishni o'rindidir. E.V.Guliganing mazkur fikri gapning bosh bo'laklari ham ajratilgan gap bo'laklari funksiyasida kela olishini alohida ta'kidlaydi. Mualliflarning ushbu fikrini isbotlash maqsadida quyidagi misollarni keltiramiz: **Die Klein, die machen es gerne.** Yoki, **Da müssen wir alles erledigen, du und ich.**

Shunday qilib, bu yerda misollarda "die Kleine" va "du und ich" ega-ajratilgan (ilova qilingan) gap bo'lagi funksiyasini bajarib kelayapti. Mualliflarning yuqorida keltirgan misollar tahlilidan, barcha gap bo'laklari ham ajratilgan (ilova qilingan) gap bo'laklari funksiyalarida kela olishi mumkin degan xulosasi: birinchidan, shu soha bo'yicha keltirilgan fikr-mulohazalarning qisman o'zgarishiga; ikkinchidan, gapning ilovali elementlarini o'rganishga bag'ishlangan ayrim muammoli masalalarning to'g'ri yechimi ekanligiga asos bo'la oladi.

Nemis tilshunos olimi German Paul o'zining "Deutsche Grammatik" asarining IV tomida nemis tilida predloglar, ularning paydo bo'lish tarixi, qo'llanilishi haqida to'xtalib, predloglarning sintaktik aloqalar, sintaktik qurilmalarni hosil qilishdagi ahamiyati katta ekanligi [9; 156] haqida fikr mulohazalar bildiradi. German Paulning ushbu mulohazasini va

uning tadqiqot ishlarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin: predloglarning bunday xususiyatlari, ularning o'zgaruvchanligi, matnda keng qo'llanishi xuddi ilovali elementlarning badiiy matnlarda yoyilish darajasiga aynan o'xshash holatni bildirib keladi va yozuvchining individual uslubida matn doirasida namoyon bo'ladi. Taniqli o'zbek tilshunos olimi B.T.Tursunov bu masalaga ilmiy jihatdan yondashib, quyidagi fikrni bildiradi: " tilda mavjud bo'lgan ayrim grammatik kategoriyalarni aniqlashda unga matn nuqtai nazaridan yondashish kerak" Ta'kidlash lozimki", deydi, u o'z fikrini davom ettirib, "u yoki bu yozuvchining individual uslubi ilova konstruksiyasi tarkibidagi ilovali elementlarning nafaqat matnda yoyilishi darajasiga, balki ularning ba'zi bir strukturaviy guruhlarining shakllanishiga ham o'zining ta'sirini ko'rsatishi mumkin" [12; 158]."

Albatta, matnlar (biz bu o'rinda matn ma'nosida yozuvchilarning badiiy va publitsistik asarlarini nazarda tutamiz) faqat ajratilgan (ilova qilingan) gap bo'laklarini aniqlash uchungina emas, balki sintaktik aloqalarini, xususan, ilova konstruksiyalarni aniqlash uchun ham muhim manba hisoblanadi. Biz keyingi qismlarda olimlarning ajratish (ilova) hodisasiga nisbatan aytgan fikr va mulohazalarini keltirishni davom ettirishimiz mumkin.

Xulosa. Shunday qilib, german tilshunosligida ilova hodisasi, ilova konstruksiyalar muammosining o'rganilishiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarining natijalariga tayanib, quyidagicha fikr-mulohazalarni bildirish mumkin: haqiqatan ham, ilova konstruksiya va uning tarkibiy qismi bo'lgan ilovali elementlarga nisbatan yuqorida bildirilgan mulohazalar ilova hodisasi, ilova konstruksiyalar muammosining nihoyatda dolzarb ekanligidan, ushbu mavzuning o'rganilishi o'zining uzoq tarixiga ega bo'lishidan qat'iy nazar, hozirgi kungacha mukammal, har tomonlama to'liq o'rganilmaganligidan dalolat beradi. Ta'kidlash joizki, ilova hodisasining lingvistik mohiyati hozirgi kungacha mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlarida to'liq va atroflicha o'rganilgan deb bo'lmaydi, buning sababi bizga ma'lum bo'lgan va ilova konstruksiyalarni o'rganishga bag'ishlangan ko'p sonli ilmiy tadqiqot ishlarida ham ushbu muammoning ayrim jihatlari ilmiy izlanuvchilarning diqqat-e'tiboridan chetda qolib kelmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ilova konstruksiya struktur-semantik ma'nosining nemis yozuvchilari asarlarining badiiy matnida ifodalanishi masalasi hozirgi tilshunoslikda monografik ko'rinishda tadqiq etilmagan. Bu narsa ilmiy tadqiqot mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi va bu sohada dissertasiya tadqiqotini olib borish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abdurahmonov, G'. (2015). *O'zbek tili sintaksisi*. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Jo'rayev, M. (2017). *O'zbek tilida gapning struktur turlari*. Samarqand: SamDU nashriyoti.
3. Karimov, A. (2019). "Appozitiv konstruksiyalarning semantik va sintaktik xususiyatlari." *Filologiya masalalari jurnali*, 4(2), 55–62.
4. Mirtojiev, M. (2020). *Tilshunoslik nazariyasi asoslari*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
5. Norman, B. (2014). *Apposition in Modern English Syntax*. Oxford: Oxford University Press.

*Nazarova Sabrina Allaberdi qizi,
Termiz davlat pedagogika institute 2-kurs tayanch doktoranti*

BOLALAR MUSIQA MAKTABIDA O'QUVCHILARNING CHOLG'U CHALISH BO'YICHA KREATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI VA FORMATIV BAHOLASH ROLI

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda bolalar musiqa maktabida o'quvchilarning cholg'u chalish bo'yicha kreativ qobiliyatlarini shakllantirish texnologiyalari va formativ baholashning roli o'rganiladi. Tadqiqotda o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirish, individual yondashuvlarni qo'llash va musiqiy ko'nikmalarni samarali rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar taqdim etiladi. Formativ baholash orqali o'quvchilarning o'z-o'zini baholash ko'nikmalari va ijodiy ifodasi kuchayadi.

Kalit so'zlar: Formativ baholash, kreativ qobiliyat, cholg'u asboblari, bolalar musiqa maktabi, pedagogik texnologiyalar.

Аннотация. В данном исследовании рассматриваются технологии формирования творческих способностей учащихся в игре на музыкальных инструментах и роль формирующего оценивания в детской музыкальной школе. Исследование предлагает методические рекомендации, направленные на повышение творческой активности учеников, применение индивидуальных подходов и эффективное развитие музыкальных навыков. Формирующее оценивание способствует укреплению навыков самопроверки и творческого выражения учащихся.

Ключевые слова: Формирующее оценивание, творческие способности, музыкальные инструменты, детская музыкальная школа, педагогические технологии.

Abstract. This study explores technologies for developing students' creative abilities in playing musical instruments and the role of formative assessment in a children's music school. The research provides methodological recommendations aimed at enhancing students' creative activity, applying individual approaches, and effectively developing musical skills. Formative assessment strengthens students' self-evaluation skills and creative expression.

Key words: Formative assessment, creative abilities, musical instruments, children's music school, pedagogical technologies.

Kirish. Musiqa san'ati - insonning estetik didi, kreativ fikrlashi va hissiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydigan sohalardan biridir. Bolalar musiqa maktablarida o'quvchilarga cholg'u asboblarni chalishni o'rgatish jarayoni nafaqat texnik ko'nikmalarni shakllantirish, balki ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ham qaratilgan. Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularning faolligini va kreativligini rag'batlantirish muhim pedagogik vazifalardan hisoblanadi.

So'nggi yillarda ta'lim jarayonida formativ baholash konsepsiyasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Formativ baholash o'quv jarayonida o'quvchining o'z-o'zini baholashini rivojlantirish, o'quvchining qobiliyatlarini doimiy monitoring qilish va pedagogik yordam ko'rsatishda samarali vosita sifatida qaraladi. Ayniqsa, musiqa ta'limida formativ baholash o'quvchilarning ijodiy ifodasi, notalarni o'qish va cholg'u asboblari turli texnikalarni qo'llashdagi faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Bolalar musiqa maktabida kreativ qobiliyatlarni shakllantirish jarayoni nafaqat o'quvchining texnik mahoratini oshiradi, balki uning estetik tafakkuri, ijodiy fikrlashi va musiqa orqali o'zini ifoda etish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Shu bois, pedagogik jarayonda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va formativ baholash mexanizmlarini joriy etish muhim hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi - bolalar musiqa maktabida o'quvchilarning cholg'u chalish bo'yicha kreativ qobiliyatlarini shakllantirishda samarali pedagogik texnologiyalarni aniqlash va formativ baholashning rolini o'rganishdan iborat. Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat: o'quvchilarning ijodiy salohiyatini baholash mezonlarini aniqlash, cholg'u chalish jarayonida individual yondashuvlarni qo'llash, va formativ baholash vositalari orqali o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish.

Shuningdek, ushbu tadqiqot amaliy jihatdan bolalar musiqa maktabidagi dars jarayonlarini yanada samarali tashkil etish va pedagogik jarayonda kreativlikni rag'batlantirishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Ushbu tadqiqot doirasida bolalar musiqa maktabida o'quvchilarning cholg'u chalish bo'yicha kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari va formativ baholashning samaradorligi o'rganildi. Tadqiqot jarayonida kuzatuvlar, testlar, intervyu va amaliy mashg'ulotlar orqali olingan ma'lumotlar tahlil qilindi.

Darslar davomida o'quvchilarning cholg'u chalishdagi kreativ faolligi o'lchandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, formativ baholash qo'llanilganda o'quvchilarning ijodiy ifodasi va texnik mahorati sezilarli darajada oshadi. Masalan, o'quvchilar improvizatsiya mashqlarida va notalar asosida yangi musiqiy frazalarni yaratishda yanada faol bo'lishdi.

Tahlil natijalariga ko'ra, formativ baholash mexanizmlari (doimiy qayta aloqa, o'z-o'zini baholash, o'qituvchi tomonidan konstruktiv fikr bildirish) o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. O'quvchilar o'z xatolarini tezkor aniqlab, ularni tuzatishga harakat qilishadi, bu esa ijodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Amaliy mashg'ulotlarda interaktiv metodlar, individual yondashuv va kreativ topshiriqlar qo'llanilganda o'quvchilarning cholg'u chalish qobiliyatlari sezilarli darajada oshadi. Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, ijodiy mashqlar va formativ baholashni uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning musiqiy tafakkuri kengayadi va ular yangi musiqiy ifodalarni yaratishda o'zlarini ishonchli his qiladilar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki:

Bolalar musiqa maktabida o'quvchilarning cholg'u chalish bo'yicha kreativ qobiliyatlarini shakllantirishda formativ baholash samarali vosita hisoblanadi.

Interaktiv va individual pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning ijodiy faolligini oshiradi.

Olingan natijalar musiqiy ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etish va bolalarning kreativligini rag'batlantirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari asosida kelgusida musiqa darslarida ijodiy mashg'ulotlar va formativ baholashni tizimli qo'llash tavsiya etiladi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari bolalar musiqa maktabida o'quvchilarning cholg'u chalish bo'yicha kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda formativ baholash va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyatini tasdiqlaydi. Kuzatuv va amaliy mashg'ulotlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning ijodiy ifodasi, improvizatsiya qobiliyati va musiqiy tafakkuri darslarda qo'llanilgan interaktiv va individual yondashuvlar bilan bevosita bog'liq.

Formativ baholash mexanizmlari o'quvchilarning o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi va ularni faol ishtirok etishga rag'batlantiradi. Tadqiqot jarayonida kuzatilganidek, o'quvchilar o'z xatolarini aniqlash va ularni tuzatishga intilishadi, bu esa ijodiy jarayonni yanada samarali qiladi. Shu bilan birga, formativ baholash o'quvchilarning motivatsiyasini oshirib, musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Amaliy mashg'ulotlarda qo'llanilgan interaktiv usullar (masalan, improvizatsiya mashqlari, ijodiy topshiriqlar, guruh va individual ishlash) o'quvchilarning cholg'u chalish bo'yicha kreativ qobiliyatlarini sezilarli darajada oshirdi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, pedagogik jarayonda texnologiyalarni tizimli va maqsadli qo'llash ijodiy faollikni rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham ahamiyatlidir. Ular pedagoglarga musiqa darslarini samarali tashkil etish, o'quvchilarning kreativligini oshirish va formativ baholash vositalarini maqsadli qo'llash imkonini beradi. Shu bilan birga, olingan natijalar bolalar musiqa maktabi sharoitida o'quv jarayonini modernizatsiya qilish va ijodiy pedagogik yondashuvlarni kengaytirish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Muhokama shuni ko'rsatadiki, bolalar musiqa maktabida cholg'u chalish bo'yicha kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonida formativ baholash va interaktiv pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning ijodiy faolligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari kelgusida musiqa ta'limi jarayonida yangi metodik yondashuvlarni joriy etish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa. Ushbu tadqiqot bolalar musiqa maktabida o'quvchilarning cholg'u chalish bo'yicha kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari va formativ baholashning pedagogik samaradorligini o'rganishga bag'ishlandi. Tadqiqot jarayonida kuzatuv, testlar, intervyular va amaliy mashg'ulotlar orqali olingan natijalar tahlil qilindi, hamda o'quvchilarning ijodiy faolligi, texnik mahorati va musiqiy tafakkuri o'rganildi.

Bolalar musiqa maktabida o'quvchilarning cholg'u chalish bo'yicha kreativ qobiliyatlarini shakllantirish jarayoni pedagogik jihatdan samarali bo'lib, u o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda interaktiv va ijodiy mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi. O'quvchilarning improvizatsiya qilish, musiqiy frazalarni yaratish va ijodiy ifodani namoyon etish qobiliyatlari muntazam mashg'ulotlar orqali sezilarli darajada oshadi.

Formativ baholash mexanizmlari o'quvchilarning o'z-o'zini baholash, xatolarini aniqlash va ularni tuzatishga intilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, formativ baholash o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, ularni faol ishtirok etishga rag'batlantiradi va ijodiy ifodalarini kuchaytiradi. Shu bilan birga, pedagoglar formativ baholash orqali o'quvchilarning individual rivojlanish darajasini aniqlash va mashg'ulotlarni shunga moslashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Interaktiv va individual pedagogik texnologiyalarni tizimli qo'llash o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ijodiy mashg'ulotlar va formativ baholashni uyg'unlashtirish bolalarning musiqiy tafakkurini kengaytiradi, ularni yangi musiqiy ifodalarni yaratishga va o'zlarini erkin ifoda etishga undaydi.

Tadqiqot natijalari musiqiy pedagogik nazariyani boyitadi va bolalar musiqa maktabida darslarni samarali tashkil etish, ijodiy faollikni rag'batlantirish va formativ baholash vositalarini maqsadli qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari kelgusida musiqa ta'limida yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, bolalar musiqa maktabida o'quvchilarning cholg'u chalish bo'yicha kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda formativ baholash va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni uyg'un qo'llash juda muhim hisoblanadi. Bu nafaqat o'quvchilarning texnik va ijodiy ko'nikmalarini oshiradi, balki ularning estetik tafakkurini, musiqaga qiziqishini va shaxsiy ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. Tadqiqot natijalari pedagoglarga dars jarayonini yanada samarali tashkil etish va o'quvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirishda qo'llash uchun muhim tavsiyalar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Black, P., & Wiliam, D. (1998). Inside the Black Box: Raising Standards Through Classroom Assessment. London: King's College.
2. Gardner, H. (1983). Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. New York: Basic Books.

3. Gordon, E. E. (2012). Learning Sequences in Music: Skill, Content, and Patterns. Chicago: GIA Publications.
4. Karlsen, K. (2005). Music Education and Creativity. London: Routledge.
5. Mirzaev, A. (2016). Bolalarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish metodikasi. Toshkent: O'zbekiston pedagogika universiteti nashriyoti.
6. Toshpulatova, G. (2018). Musiqa ta'limida kreativlikni shakllantirish texnologiyalari. Termiz: Termiz davlat pedagogika instituti.
7. Ergashev, N. (2019). Bolalar musiqa maktabida interfaol pedagogik texnologiyalar. Toshkent: O'zbekiston davlat san'at instituti nashriyoti.
8. Xolmatov, Sh. (2017). Musiqa darslarida ijodiy yondashuvlar. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
9. Black, P., & Wiliam, D. (2009). Developing the Theory of Formative Assessment. Educational Assessment Journal, 14(1), 5–31.
10. Gardner, H., & Hatch, T. (1989). Multiple Intelligences Go to School: Educational Implications of the Theory of Multiple Intelligences. Educational Researcher, 18(8), 4–10.

*Boymanov Jasur Isroil o'g'li,
Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti
Samarqand kampusi "Iqtisodiyot va muhandislik fanlari" kafedrası assistenti*

AXBOROT XAVFSIZLIGI TEXNOLOGIYALARINI FUNDAMENTAL O'QITISHNING TAMOYILLARI VA MAQSADLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada axborot xavfsizligi texnologiyalarini fundamental darajada o'qitishning asosiy tamoyillari, maqsad va vazifalari yoritilgan. Unda zamonaviy axborot tizimlarida xavfsizlikni ta'minlash uchun talab etiladigan nazariy bilimlar hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion pedagogik texnologiyalar va raqamli muhitda o'qitish metodlarining ahamiyati ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Axborot xavfsizligi, o'qitish tamoyillari, fundamental tayyorgarlik, raqamli texnologiyalar, kompetensiya.

Аннотация. В данной статье раскрываются основные принципы, цели и задачи фундаментального обучения технологиям информационной безопасности. Рассматриваются вопросы формирования теоретических знаний и практических навыков, необходимых для обеспечения безопасности в современных информационных системах. Также подчеркивается значение компетентностного подхода, инновационных педагогических технологий и методов обучения в цифровой среде.

Ключевые слова: информационная безопасность, принципы обучения, фундаментальная подготовка, цифровые технологии, компетенция.

Abstract. This article discusses the main principles, goals, and objectives of fundamental teaching of information security technologies. It analyzes the formation of theoretical knowledge and practical skills necessary to ensure security in modern information systems. The importance of the competency-based approach, innovative pedagogical technologies, and teaching methods in the digital environment is also emphasized.

Key words: information security, teaching principles, fundamental training, digital technologies, competence.

Talabalarga axborot xavfsizligi texnologiyalarini o'qitishning maqsadlarini shakllantirishda fundamentallashtirishning aniqlangan omillarini, o'qitishning didaktik tamoyillarini inobatga olish kerak bo'lib, ular axborot xavfsizligi texnologiyalarini o'qitish jarayonini tartibga soluvchi ilmiy asoslangan tavsiyalar va qoidalar bo'lib hisoblanadi.

O'qitishning metodik tizimi A.M. Pishkalo o'qitishning maqsadlari, mazmuni, vositalari, usullari va shakllarining yaxlit hosilasi bo'lib hisoblanadi. V.M. Monaxov fikricha, o'qitishning metodik tizimi o'quv natijalarini o'z ichiga olishi kerak. I.P. Podlasiy fikriga ko'ra, o'qitishning metodik tizimiga o'qitish tamoyillari kiritilishi kerak. G.I. Saransev o'qitishning metodik tizimining komponentlaridan biri talabaning shaxsi bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Shu kabi muammolarga va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlari qaratilgan.

V.V. Davidov fikricha, o'qitishdagi tamoyil – bu ma'lum bir umumlashtiruvchi nazariy qoida bo'lib, barcha hodisalarga qo'llanilishi mumkin hamda amaliy pedagogik harakatlar uchun qo'llanma bo'lib xizmat qilishi mumkin. I.P. Podlasiy didaktika tamoyillarini ta'lim jarayonining umumiy maqsadlariga va uning ishlash qonuniyatlariga muvofiq ravishda o'qitishning mazmuni, shakllari va usullarini belgilaydigan asosiy qoidalar sifatida tavsiflaydi. V.I. Zagvyazinskiy fikricha, o'qitishdagi tamoyil – bu pedagogik konsepsiyaning instrumental, faoliyat toifalarida berilgan ifodasi, o'qitishning maqsadlari, mohiyati, mazmuni va tuzilishi haqidagi, amaliyotning tartibga soluvchi me'yorlari sifatida foydalanishga imkon beruvchi shaklda ifodalangan bilimlardir.

Yu.K.Babanskiy va V.A.Slastenin ta'lim va tarbiyaning birligi g'oyasini muayyanlashtirish sifatida tamoyillarning umumlashtirilgan tizimini shakllantirishdi, ular qatorida: pedagogik jarayonning maqsadga muvofiqligi; ta'lim va tarbiya mazmunining ilmiyligi; tizimlilik va izchillik; talabalarning faolligi va ijodkorligi; ko'rgazmalilik; tarbiyaga kompleks yondashuv va boshqa tamoyillar.

Axborot xavfsizligi texnologiyalarini o'qitishning didaktik tamoyillarini, masalan, ilmiylik tamoyili, ishonchlilik tamoyili, ko'rgazmalilik tamoyili, tizimlilik tamoyili, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi tamoyili, kasbiy yo'naltirilganlik tamoyili, fanlararo aloqalar tamoyili, axborot xavfsizligi invariant texnologiyalariga o'rgatishning ustuvorlik tamoyili, jamiyatni axborotlashtirishning muhim tarkibiy qismi sifatida axborot xavfsizligi nazariyasi va amaliyotini ko'rib chiqish tamoyili, axborot xavfsizligi texnologiyalarini o'qitishda informatika fanini o'qitishni fundamentallashtirish tendensiyalarini inobatga olish tamoyili, axborot xavfsizligi texnologiyalarini o'qitish doirasidagi masalalarni echishda oqilona fikrlash bosqichlarini ta'kidlash tamoyili. [1,2].

Axborot xavfsizligi texnologiyalarini o'qitishda ilmiylik tamoyilini amalga oshirish. A. Azimov, S.I. Arxangelskiy, A.G. Asmolov, Yu.K. Babanskiy, V.P. Bepalko, V.V. Davidov, L.Ya. Zorina, V.V. Kraevskiy, I.P. Podlasiy, A.V. Xutorskoy va boshqa olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, o'qitishning ilmiylik tamoyili talabalarda shaxs rivojlanishiga hissa qo'shadigan ilmiy bilimlar tizimini shakllantirish zarurligini anglatadi. Bu tamoyil o'qitish mazmuni zamonaviy fan yutuqlari va jahon sivilizasiyasi to'plangan tajribaga mos kelishini nazarda tutadi hamda o'qitishning bunday mazmuni talabalarda muayyan fan sohasining asosiy nazariyalari va tushunchalari bilan tanishtirishga qaratilgan bo'lishini talab etadi. I.P. Podlasiy ta'kidlashicha, ta'lim ob'ektiv voqelik haqidagi bilimlar tizimini ta'minlashga imkon beradi. A.Azimov o'qitishning ilmiylik tamoyilining ahamiyatiga e'tibor qaratib, ilmiy dalillar odamlarda dastlab muammoga shubha bilan qaragan taqdirda ham xulosalar bilan rozi bo'lish zarurligini his qilishga majburlashini ta'kidlaydi. [3,4].

Axborot xavfsizligi texnologiyalarini o'qitishda ilmiylik tamoyili o'qituvchidan quyidagilarni talab qiladi: axborot xavfsizligi texnologiyalarini o'qitishning ilmiy asoslangan metodikasini bilish; axborot xavfsizligi nazariyasini bilish; amaliy masalalarni hal qilishda axborot xavfsizligi nazariyasini qo'llash tajribasi va ko'nikmalari.

Mazkur tamoyil axborot xavfsizligi texnologiyalarini o'qitish mazmuni talabalarni axborotni himoya qilish maqsadlari; axborot xavfsizligi asosiy yondashuvlari va strategiyasi; axborot xavfsizligi nazariyasining ilmiy-uslubiy asoslari, shu jumladan axborot xavfsizligi muammosini o'rganish va axborot xavfsizligi amaliy muammolarini hal qilish uchun zarur va etarli bo'lgan usullar va modellar majmui; axborot xavfsizligini ta'minlashning umumiy sxemasi; axborot xavfsizligi yagona konsepsiyasi tuzilishi bilan tanishtirishni talab qiladi.

Axborot xavfsizligi texnologiyalarini o'qitishdagi ilmiylik tamoyili o'qituvchidan talabalarga axborot xavfsizligini ta'minlash zaruriyatini, himoyalangan axborotning ahamiyati va hajmini, uni saqlash, qayta ishlash va foydalanish shartlarini asoslab berishni; axborot xavfsizligini ta'minlash muammolari axborotlashtirishning umumiy muammolarining tarkibiy qismlari ekanligini tushuntirishni talab qiladi.

Quyidagi vazifani ko'rib chiqaylik. Axborot ximoyasi konsepsiyasini ishlab chiqish bosqichlari. Konsepsiya – axborot xavfsizligi muammosiga rasmiy qabul qilingan qarashlar tizimi va uni zamonaviy tendensiyalarni hisobga olgan holda yechish yo'llari. Konsepsiyada ifodalangan maqsadlar, masalalar va ularni bo'lishi mumkin bo'lgan yechish yo'llari asosida axborot xavfsizligini ta'minlashning muayyan rejalari shakllantiriladi. Konsepsiyani ishlab chiqishni uch bosqichda amalga oshirish mumkin. [5,6].

1. Himoyalanuvchi obekt qiymatini aniqlash.

2. Buzg'inchining bo'lishi mumkin bo'lgan harakatlarni tahlillash.

3. Axborotni himoyalash vositalarining ishonchligini baholash.

Birinchi bosqichda himoyaning maqsadli ko'rsatmasi, ya'ni qanday real boyliklar, ishlab chiqarish jarayonlari, dasturlar, ma'lumotlar bazasi himoyalanishi zarurligi aniqlanishi shart. Ushbu bosqichda himoyalanuvchi alohida obyektlarni ahamiyati bo'yicha tabaqalashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ikkinchi bosqichda himoyalanuvchi obyektga nisbatan bo'lishi mumkin bo'lgan jinoiy harakatlar tahlillanishi lozim. Iqtisodiy josuslik, terrorizm, sabotaj, buzish orqali o'g'irlash kabi keng tarqalgan jinoyatchiliklarning real xavf-xatarlik darajasini aniqlash muhim hisoblanadi. So'ngra, niyati buzuvchi odamlarning himoyaga muhtoj asosiy obyektlarga nisbatan harakatlarining ehtimollikni tahlillash lozim.

Uchinchi bosqichning bosh masalasi-vaziyatni, xususan o'ziga xos mahalliy sharoitni, ishlab chiqarish jarayonlarini, o'rnatib qo'yilgan himoyaning texnik vositalarini tahlillashdan iborat

Xulosa. Axborot xavfsizligini fundamental darajada o'qitish - zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Bu yo'nalish nafaqat texnik bilimlarni, balki axborot bilan ishlash madaniyatini, mas'uliyatli yondashuvni ham shakllantirishni taqozo etadi. Maqolada ko'rsatib o'tilganidek, o'qitish jarayonida ilmiylik, tizimlilik, uzviylik, innovatsion yondashuv va kompetensiyaviy rivojlantirish tamoyillariga asoslanish muhim ahamiyat kasb etadi. Fundamental tayyorgarlik orqali talabalar axborot xavfsizligi tahdidlarini tahlil qilish, himoya mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni amalda qo'llash ko'nikmalarini egallaydilar. Umuman olganda, axborot xavfsizligi texnologiyalarini o'qitishning asosiy maqsadimalakali, mas'uliyatli va innovatsion fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlash bo'lib, ular milliy va global axborot makonida xavfsizlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. .K. Ganiyev, M.M. Karimov, K.A. Tashev. Axborot xavfsizligi. – Toshkent: TATU nashriyoti, 2021.

2. A.S. Xolmatov. Axborot texnologiyalari va xavfsizlik asoslari. – Toshkent: Innovatsiya, 2020.

3. T.A. Abdukarimov. Axborot xavfsizligini o'qitish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2019.

4. Баранов, А.Ю. Информационная безопасность: основы и технологии защиты. – Москва: Академия, 2020.

5. Грачев, А.В., Кузнецов, А.А. Методика преподавания информационной безопасности. – Санкт-Петербург: Питер, 2019.

Sobirova Lobar Raximovna,

Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi "Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası" o'qituvchisi

YOSH O'QITUVCHILAR FAOLIYATIDA UCHRAYDIGAN PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK TO'SIQLAR

Annotatsiya. Maqolada yosh o'qituvchilar o'z kasbiy faoliyatini boshlagan dastlabki yillarda duch keladigan pedagogik va psixologik to'siqlar atroflicha tahlil qilinadi. Jumladan, o'quv jarayonida tajriba yetishmasligi, o'quvchilar bilan muloqotda psixologik bosim, stress holatlari, o'ziga ishonchsizlik hamda ijtimoiy moslashuv jarayoni kabi muammolar yoritiladi. Shuningdek, yosh pedagoglarning kasbiy shakllanishida motivatsiyaning, emotsional barqarorlikning va metodik yordamning ahamiyati ko'rsatib beriladi. Maqolada bunday to'siqlarni bartaraf etish yo'llari sifatida psixologik qo'llab-quvvatlash, mentorlik tizimini rivojlantirish va pedagogik mahoratni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: yosh o'qituvchi, pedagogik to'siq, psixologik muammo, stress, moslashuv, motivatsiya, kasbiy shakllanish, pedagogik mahorat.

Аннотация. В статье подробно рассматриваются педагогические и психологические барьеры, с которыми сталкиваются молодые учителя в первые годы своей профессиональной деятельности. Анализируются такие проблемы, как недостаток опыта, стрессовые ситуации, неуверенность в себе, трудности в общении с учащимися и процесс социальной адаптации. Особое внимание уделено значению мотивации, эмоциональной устойчивости и методической поддержки в профессиональном становлении педагога. В работе предлагаются пути преодоления данных трудностей через развитие системы наставничества, психологическую поддержку и совершенствование педагогического мастерства.

Ключевые слова: молодой учитель, педагогический барьер, психологическая проблема, стресс, адаптация, мотивация, профессиональное становление, педагогическое мастерство.

Annotation. The article provides a detailed analysis of the pedagogical and psychological barriers encountered by young teachers during the initial stages of their professional careers. It examines issues such as lack of experience, stress, low self-confidence, communication difficulties with students, and challenges of social adaptation. The importance of motivation, emotional stability, and methodological support in teachers' professional development is emphasized. The article also proposes effective strategies for overcoming these barriers, including psychological assistance, mentoring systems, and the improvement of pedagogical skills.

Keywords: young teacher, pedagogical barrier, psychological problem, stress, adaptation, motivation, professional development, teaching skills.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida yosh o'qituvchilarning roli beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ular yangi avlod vakillari sifatida o'z faoliyatiga zamonaviy yondashuv, innovatsion fikrlash va ilg'or pedagogik texnologiyalarni olib kiradi. Shu bilan birga, ta'lim jarayonining murakkabligi, o'quvchilarning yosh xususiyatlari va zamon talablari yosh pedagoglardan nafaqat bilim va malakani, balki kuchli psixologik tayyorgarlikni ham talab etadi. Aynan shu jihat yosh o'qituvchilar faoliyatida ko'plab pedagogik va psixologik to'siqlarni yuzaga keltiradi.

Odatda, yangi ish boshlagan o'qituvchi dars jarayonini tashkil etishda, o'quvchilar bilan muloqot o'rnatishda, sinf intizomini ta'minlashda, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali hamkorlik qilishda muayyan qiyinchiliklarga duch keladi. Bunday to'siqlar ko'pincha tajriba yetishmasligi, o'ziga ishonchsizlik, emotsional taranglik, stress, muloqotda psixologik to'siqlar

yoki pedagogik vaziyatlarni noto'g'ri baholash kabi omillar bilan bog'liq bo'ladi. Natijada yosh o'qituvchining kasbiy faolligi pasayadi, o'zini namoyon etish imkoniyati cheklanadi, bu esa o'qitish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yosh o'qituvchilarning faoliyatida uchraydigan to'siqlarni o'rganish va ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki ta'lim sifati va o'quv-tarbiyaviy jarayon samaradorligi, avvalo, o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi va psixologik barqarorligiga bog'liqdir. Shu sababli, pedagogik mahoratni oshirish markazlari, oliy ta'lim muassasalari hamda metodik xizmatlar tomonidan yosh pedagoglarga tizimli tarzda amaliy va psixologik yordam ko'rsatish zarur.

Shuningdek, yosh o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda mentorlik tizimini rivojlantirish, tajribali pedagoglarning ko'magidan foydalanish, jamoada sog'lom psixologik muhit yaratish va o'qituvchining shaxsiy o'sishiga sharoit yaratish muhim omillar hisoblanadi. Bunday yondashuv nafaqat to'siqlarni kamaytiradi, balki yosh pedagoglarning kasbiy motivatsiyasini kuchaytiradi, ularni ijodkor, mustaqil va o'z kasbiga sadoqatli mutaxassis sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Mazkur mavzuni o'rganish orqali yosh o'qituvchilarning faoliyatida uchraydigan pedagogik va psixologik muammolar mohiyatini aniqlash, ularni bartaraf etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish hamda o'qituvchining kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni tahlil qilish maqsad qilib olinadi.

Adabiyotlar tahlili. Yosh o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida uchraydigan pedagogik va psixologik to'siqlar masalasi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida keng o'rganilayotgan dolzarb yo'nalishlardan biridir. Bu boradagi ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilik kasbining dastlabki yillarida duch kelinadigan muammolar o'qituvchining shaxsiy rivojlanishi, kasbiy shakllanishi va o'qitish sifati bilan bevosita bog'liqdir.

Mahalliy va xorijiy olimlar ta'kidlaganidek, o'qituvchi faoliyatining muvaffaqiyati, avvalo, uning kasbiy kompetensiyasi, psixologik tayyorgarligi, shaxslararo muloqot madaniyati va emotsional barqarorligiga tayanadi. Masalan, A. V. Mudrik, L. M. Mitina, N. V. Kuzmina kabi rus olimlari o'qituvchining kasbiy shaxs sifatida shakllanishi jarayonida yuzaga keladigan stress, professional moslashuv va motivatsion omillarni chuqur o'rganishgan. Ularning fikricha, pedagogik faoliyatda duch kelinadigan psixologik to'siqlar, asosan, o'zini namoyon eta olmaslik, ichki ishonchsizlik, emotsional charchoq va kommunikativ qiyinchiliklar bilan bog'liq.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar – M. Ochilov, N. Mavlonova, Sh. Yusupova, B. Xodjayevlarning ilmiy ishlarida yosh o'qituvchilarning kasbiy shakllanishida metodik tayyorgarlik, pedagogik mahorat va psixologik barqarorlikning o'rni alohida ta'kidlangan. Ularning fikricha, ta'lim jarayonining samaradorligi o'qituvchining o'z kasbiga bo'lgan munosabati, o'quvchilar bilan muloqot madaniyati va ijtimoiy-psixologik moslashuv darajasiga bevosita bog'liq.

Chet el adabiyotlarida ham bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Masalan, D. Berliner (1988), J. Farrell (2016), K. Kyriacou (2001) va L. Veenman (1984) tadqiqotlarida yosh o'qituvchilarning faoliyatida uchraydigan asosiy muammolar – ortiqcha ish yuklamasi, stress, tajriba yetishmasligi, o'quvchilarning xulq-atvorini boshqarishdagi qiyinchiliklar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning sustligi sifatida qayd etiladi. Ular bunday to'siqlarni kamaytirish uchun mentorlik, treninglar, professional hamjamiyatlar va reflektiv tahlil usullaridan foydalanishni tavsiya etadilar.

Shuningdek, psixologik yondashuv nuqtayi nazaridan D. Goleman va A. Bandura tadqiqotlarida emotsional intellekt, ijtimoiy o'zaro ta'sir va o'zini nazorat qilish ko'nikmalari o'qituvchining kasbiy barqarorligida muhim omil sifatida ko'rsatiladi. Ularning fikricha,

o'qituvchining o'z his-tuyg'ularini boshqara bilishi, stress holatiga bardosh berishi va ijobiy muloqot muhitini yaratishi kasbiy samaradorlikni belgilovchi asosiy mezonlardandir.

Yuqoridagi manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, yosh o'qituvchilarda uchraydigan pedagogik va psixologik to'siqlar ko'p omilli xususiyatga ega. Ular individual (shaxsiy xislatlar), tashkiliy (ish sharoiti, jamoa muhiti) va ijtimoiy (jamiyatning o'qituvchiga munosabati) omillar bilan chambarchas bog'langan. Shuning uchun, bu to'siqlarni bartaraf etish uchun tizimli yondashuv, psixologik qo'llab-quvvatlash va kasbiy rivojlanishni rag'batlantirishni o'z ichiga olgan kompleks strategiya zarur.

Tahlil va natijalar. Yosh o'qituvchilar faoliyatida kuzatilayotgan pedagogik va psixologik to'siqlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu muammolar o'qituvchilik kasbining o'ziga xos xususiyatlari bilan bevosita bog'liqdir. O'tkazilgan kuzatishlar, suhbatlar va amaliy tajribalar asosida aniqlanishicha, o'qituvchilik faoliyatining dastlabki bosqichlarida uchraydigan asosiy to'siqlar quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, **pedagogik to'siqlar** — dars jarayonini samarali tashkil etishdagi tajriba yetishmasligi, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olmaslik, interfaol metodlardan foydalanishda noaniqlik, sinf jamoasini boshqarishda qiynalish kabi omillar bilan bog'liq. Yosh o'qituvchilar ko'pincha nazariy bilimni amaliyotda qo'llashda sustlik qiladi, bu esa dars sifati va o'quvchilarning faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, **psixologik to'siqlar** — o'ziga ishonchsizlik, stress, emotsional charchash, pedagogik faoliyatdagi mas'uliyat yuklamasidan kelib chiqadigan tashvish, hamkasblar bilan muloqotdagi noaniqlik kabi holatlar bilan ifodalanadi. Yosh pedagoglar, ayniqsa, o'z faoliyatining birinchi yillarida yangi jamoaga moslashish, o'quvchilarning xatti-harakatiga to'g'ri munosabat bildirish va ota-onalar bilan muloqot o'rnatishda psixologik qiyinchiliklarni boshdan kechiradilar.

Uchinchidan, ijtimoiy-madaniy to'siqlar ham muhim o'rin tutadi. O'qituvchilik kasbining nufuzi, ta'lim muassasalaridagi muhit, jamiyatning yosh pedagoglarga bo'lgan munosabati ularning kasbiy faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jamoada ijobiy psixologik muhit yo'qligi yoki rahbariyat tomonidan yetarli qo'llab-quvvatlanmaslik yosh o'qituvchilarda befarqlik, o'ziga ishonchsizlik va kasbga nisbatan sovuqlikni keltirib chiqaradi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik yosh o'qituvchilar o'z faoliyatining ilk bosqichlarida mentorlik yordamiga, psixologik maslahatga va metodik qo'llab-quvvatlashga muhtoj. Tajribali pedagoglarning yo'l-yo'riqlari, o'zaro tajriba almashish, seminar-treninglar va amaliy mashg'ulotlar yosh o'qituvchilarda kasbiy o'sish, o'ziga ishonch va barqarorlikni shakllantiradi.

Shuningdek, o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, pedagogik va psixologik to'siqlarni yengishda motivatsiya, ijobiy fikrlash, o'z-o'zini baholash ko'nikmasi, kommunikativ madaniyat va emotsional intellekt muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi. Bu xususiyatlarni rivojlantirish orqali yosh o'qituvchi o'z faoliyatiga nisbatan ishonch bilan yondashadi, dars jarayonida samaradorlikni oshiradi hamda o'quvchilar bilan sog'lom ruhiy aloqa o'rnatadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, agar ta'lim tizimida yosh pedagoglar uchun mentorlik, psixologik yordam, kasbiy rivojlanish kurslari muntazam yo'lga qo'yilsa, bu ularning faoliyatidagi to'siqlarni sezilarli darajada kamaytiradi. Natijada, ta'lim sifati oshadi, o'qituvchilik kasbining nufuzi mustahkamlanadi va yosh kadrlarning ijodkorlik salohiyati yanada kuchayadi.

Muhokama. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, yosh o'qituvchilar faoliyatida uchraydigan pedagogik va psixologik to'siqlar ko'p omilli xarakterga ega bo'lib, ularning yuzaga kelishida shaxsiy, kasbiy va tashkiliy omillar o'zaro uzviy bog'liqdir. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, yosh o'qituvchilar duch kelayotgan muammolarning asosiy sabablari – tajriba yetishmasligi, psixologik tayyorgarlikning pastligi, ijtimoiy qo'llab-

quvvatlashning yetarli emasligi hamda ta'lim muassasalarida mentorlik tizimining to'liq shakllanmaganligidir.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, yosh pedagoglarning ko'pchiligi o'z faoliyatining ilk bosqichlarida stress va emotsional charchash holatlarini boshdan kechiradi. Bunday holat ko'pincha kasbiy motivatsiyaning pasayishiga, o'ziga ishonchsizlikka va o'qituvchilik faoliyatiga bo'lgan munosabatda salbiy o'zgarishlarga olib keladi. Shuningdek, yosh o'qituvchilar orasida kommunikativ madaniyatning yetarli darajada rivojlanmaganligi, o'quvchilar bilan individual yondashuvda muammolar mavjudligi ham kuzatiladi.

Muhokamada qayd etish joizki, yosh pedagoglarning kasbiy shakllanishida ularning shaxsiy psixologik xususiyatlari ham muhim o'rin tutadi. Faollik, ijobiy fikrlash, stressga bardoshlilik, o'zini boshqara olish, muammolarga konstruktiv yondashuv kabi jihatlar o'qituvchining pedagogik faoliyatidagi muvaffaqiyatini belgilovchi mezonlardandir. Shu sababli, yosh o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida nafaqat nazariy bilim, balki amaliy psixologik tayyorgarlik ham asosiy yo'nalishlardan biri bo'lishi lozim.

Muhokama davomida aniqlangan yana bir muhim jihat – bu yosh o'qituvchilarning jamoa bilan ishlashdagi psixologik moslashuv darajasidir. Tajribali o'qituvchilar bilan samarali hamkorlik, tajriba almashish, o'zaro qo'llab-quvvatlash va maslahat tizimi mavjud bo'lgan muhitda yosh pedagoglar tezroq kasbiy shakllanadi. Aksincha, raqobat, e'tiborsizlik yoki jamoaviy yordamning yetishmasligi ularning psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu o'rinda aytish kerakki, ta'lim tizimida yosh o'qituvchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlashning tizimli mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. Xususan, psixologik maslahat markazlarini tashkil etish, mentorlik dasturlarini joriy etish, doimiy seminar va treninglar o'tkazish, shuningdek, pedagogik mahoratni oshirish kurslarini muntazam yo'lga qo'yish yosh o'qituvchilarning kasbiy moslashuvini sezilarli darajada yengillashtiradi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash mumkinki, yosh o'qituvchilarning faoliyatida uchraydigan pedagogik va psixologik to'siqlarni bartaraf etish ta'lim sifati va o'qituvchi shaxsining rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Buning uchun davlat, ta'lim muassasalari va pedagogik jamoalar o'rtasida hamkorlik asosida kompleks qo'llab-quvvatlash tizimi shakllantirilishi lozim.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yosh o'qituvchilar faoliyatida pedagogik va psixologik to'siqlar keng tarqalgan va ularning kasbiy shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu to'siqlar asosan tajriba yetishmasligi, o'ziga ishonchsizlik, stress, sinf va jamoa bilan muloqotdagi qiyinchiliklar, shuningdek, psixologik qo'llab-quvvatlash va metodik yordamning yetarli emasligi bilan bog'liq.

O'qituvchilik faoliyatida uchraydigan bu to'siqlarni kamaytirish va bartaraf etish uchun tizimli yondashuv zarur. Jumladan, mentorlik dasturlari, tajribali pedagoglar bilan hamkorlik, psixologik maslahatlar, kasbiy rivojlanish kurslari va treninglar yosh o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, emotsional barqarorligini ta'minlash hamda o'ziga ishonchni kuchaytirish imkonini beradi.

Shuni ta'kidlash mumkinki, yosh o'qituvchilarga tizimli va doimiy qo'llab-quvvatlash ko'rsatish ta'lim sifati oshirish, pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlash va kelajakdagi muvaffaqiyatli pedagog kadrlar tayyorlashning muhim omilidir. Shu sababli, ta'lim muassasalari va mutasaddilar yosh pedagoglarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Berliner, D. C. (1988). *Expertise: The nature of professional knowledge*. New York: Praeger.
2. Kyriacou, C. (2001). *Teacher stress: Directions for future research*. Educational Review, 53(1), 27–35.
3. Farrell, J. P. (2016). *Reflective practice in early career teaching*. London: Routledge.

4. Veenman, S. (1984). *Perceived problems of beginning teachers*. Review of Educational Research, 54(2), 143–178.
5. Goleman, D. (1995). *Emotional Intelligence: Why it can matter more than IQ*. New York: Bantam Books.
6. Bandura, A. (1997). *Self-efficacy: The exercise of control*. New York: W. H. Freeman.
7. Mudrik, A. V., Mitina, L. M., & Kuzmina, N. V. (2010). *Psixhologiya i pedagogika novykh uchiteley*. Moskva: Prosveshchenie.
8. Ochilov, M. (2018). *Pedagogik faoliyatning psixologik asoslari*. Toshkent: Fan.
9. Mavlonova, N. (2019). *Yosh o'qituvchilarning kasbiy shakllanishi*. Samarkand: Ilm.
10. Yusupova, Sh. (2020). *Pedagogik mahorat va yosh o'qituvchilar*. Toshkent: Ta'lim.

Rajabov To'xtasin Ibodovich,

*Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi mudiri
professor, p.f.d. (DSc)*

BARKAMOL AVLOD BOLALAR MAKTABLARI O'QUVCHILARIDA MILLIY IFTIXOR TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Annotatsiya. *Barkamol avlod bolalar maktablari o'quvchilarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish muammosi ijtimoiy xarakterga ega. Binobarin, o'quvchilarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish ularni Vatan ravnaqi, yurt obodligi va xalq farovonligi yo'lida fidokorona mehnat qilishga undaydi.*

Tayanch so'zlar: *Vatan ravnaqi, milliy iftixor, Barkamol avlod bolalar maktablari, o'quvchilar, pedagogika nazariyasi, psixologik, falsafiy, psixologik va falsafiy yo'nalishlar.*

Аннотация. *Проблема формирования чувства национальной гордости у учащихся школ «Баркамол авлод» имеет социальный характер. Следовательно, формирование у учащихся чувства национальной гордости побуждает их к самоотверженному труду на пути процветания Родины, благополучия страны и народа.*

Ключевые слова: *процветание Родины, национальная гордость, школы «Баркамол авлод», учащиеся, педагогическая теория, психологические, философские, психологические и философские направления.*

Annotation. *The issue of developing a sense of national pride among students of Barkamol Avlod children's schools has a social character. Accordingly, fostering national pride in students encourages them to work selflessly for the prosperity of the homeland, the well-being of the country, and the welfare of the people.*

Keywords: *Prosperity of the homeland, national pride, Barkamol Avlod children's schools, students, pedagogical theory, psychological, philosophical, psychological and philosophical directions.*

Kirish. Mamlakatimizda odamlar hayotida ham, dunyoqarashida ham, tafakkurida ham, turmush tarzida ham, yurtimiz tarixida ham juda katta o'zgarishlar davri bo'ldi. Jamiyatimiz qiyofasi butunlay yangicha mazmun kasb etdi. Bu esa, odamlarda yangicha yashash tarzini vujudga keltirdi. Yangicha yashash tarzi esa bevosita ong va tafakkurimizning o'zgarishiga, hayotga yangicha qarashga zamin yaratdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2021 yil 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishida "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat» deb ta'kidlangan edi. Yoshlarni vatanparvarlik, milliy iftixor ruhida tarbiyalash, buning uchun tarixni yaxshi o'rgatish, bu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish muhimligi ta'kidlangan.

Yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida taraqqiyot va yuksalish sari ishonch bilan borishda shaxs ma'naviyatini shakllantirish asosiy yo'nalishlardan hisoblanadi. Yetuk madaniyatli insongina mamlakat mafkurasi g'oyalarini o'zlashtirib, ularga qat'iy amal qilgan holda ijtimoiy faoliyatni amalga oshiradi. Millat ma'naviyatini tiklash va rivojlantirishda milliy ong, til va madaniyat yetakchi o'rin tutadi. Ulardan samarali foydalanish o'quvchilarda milliy his-tuyg'u, g'urur va iftixorni o'stirish, shuningdek, milliy o'zlikni anglash tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladi.

Maqsad. O'quvchilarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish uzoq muddatli, tizimli va izchil yondashuvni talab etuvchi pedagogik faoliyat jarayonidir. Bu jarayon barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash borasidagi ijtimoiy maqsadni amalga oshirish borasidagi yaxlit jarayonning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Barkamol avlod bolalar maktablari muassasalari o'quvchilarida milliy iftixorni shakllantirishda quyidagi omillarning ustuvor o'rin tutishiga ishonch hosil qildik.

1. Sub'ektiv omillar:

- jamiyatda sog'lom muhitning qaror topganligi, shaxsning o'zligini anglashiga yordam beruvchi g'oyalarning etakchi o'rin tutishi;

- kishilik munosabatlarining yangicha mazmun kasb etishi;

- milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi, ularni boyitish yo'lida muayyan harakatlarning tashkil etilishi;

- milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligiga erishish;

- ijtimoiy munosabatlarda insonparvarlik, demokratik g'oyalarning aks etilishi;

- Barkamol avlod bolalar maktablari muassasalari o'quvchilarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda oila, o'quv yurtlari va keng jamoatchilik ishtirokining ta'minlanishiga erishish;

- shaxs ongini shakllantirishga oid umumbashariy tajribalarni o'rganish va ulardan foydalanish;

- Barkamol avlod bolalar maktablari muassasalari o'quvchilarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishga e'tiborning qaratilganligi;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda o'quvchilarning istak va xohishlarini inobatga olish, unda har qanday zo'rlik va majburlovlardan voz kechish; o'quvchilarda milliy iftixorni anglash ehtiyojining yuzaga kelganligi;

- o'quvchilarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda dunyoqarashi keng, hayotiy tajribasi boy, mohir notiq, mustahkam e'tiqod va o'zgalarga ibrat bo'la oluvchi hayot tarziga ega pedagoglarning kuchlariga tayanish va ularning imkoniyatlaridan samarali foydalanish chora-tadbirlarining ko'rilganligi;

- Barkamol avlod bolalar maktablari o'quvchilarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning mukammal tizimi (mazmuni, shakl, metod va vositalari)ning yaratilganligi;

- Barkamol avlod bolalar maktablari muassasalari o'quvchilarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish andozasining yaratilganligi va hokazolar.

Pedagogik ob'ektiv omillar:

- Barkamol avlod bolalar maktablari muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini oshirishga imkon beruvchi zamonaviy ilm-fan, texnika, texnologiya va madaniyat yutuqlariga asoslangan moddiy bazaning mavjudligi;

- shaxsda milliy iftixor tuyg'usini shakllantiruvchi g'oyalar singdirilgan o'quv manbalari (o'quv dasturi, qo'llanma, darslik, didaktik materiallar hamda ko'rgazmali qurollar)ning yaratilganligi;


- Barkamol avlod bolalar maktablari muassasalari o'quvchilarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda axborotli texnologiyalar (ommaviy axborot vositalari – gazeta, jurnal, radio, televidenie va kompyuter)xizmatidan foydalanishning yo'lga qo'yilganligi va boshqalar (1-rasmga qarang).

Barkamol avlod bolalar maktablari muassasalari o'quvchilarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda ijtimoiy muhit va uning mazmuni o'ziga xos ahamiyatga ega. Zero, o'quvchilarning umumiy shakllanishiga ta'sir etgani kabi ularda milliy iftixor tuyg'usining qaror topishida ijtimoiy ta'sirlar etakchi o'rin tutadi.

Materiallar va metodlar. O'zbekiston Respublikasida shaxsning har tomonlama etuk, barkamol bo'lib shakllanishini ta'minlovchi muhitning yaratilishiga e'tibor qaratildi va bu yo'lida keng ko'lamli harakat boshlab yuborildi, uning huquqiy asoslari ishlab chiqildi. Biroq, pedagogika nazariyasi va amaliyotidan bizga yaxshi ma'lumki, o'quvchilarda milliy iftixor

tuyg'usining shakllantirilishiga sezilarli ta'sir etuvchi yana bir muhit mavjudki, ayni vaqtda uni g'oyaviy jihatdan takomillashtirish zarur. Achinarli jihati shundaki, ko'p holatlarda mikromuhitning engil-elpi hayot kechirish, oson yo'l bilan moddiy farovonlikka erishish kabi g'oyalarga ega bo'lishini pedagogik, psixologik va falsafiy yo'nalishlarda olib borilgan qator tadqiqotlarning natijalari ko'rsatmoqda.

Barkamol avlod bolalar maktablari o'quvchilarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish omillari



Barkamol avlod bolalar maktablari muassasalari o'quvchilarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantiruvchi omillar quyidagilardir;

- Millatning shonli tarixi, o'tmishi. O'quvchilarni millat tarixi bilan tanishtiradi, ularda millatning taraqqiyot yo'li to'g'risidagi bilimlarni hosil qiladi, milliy tarix negizida istiqbolga bo'lgan ishonchni qaror toptiradi

- Milliy til imkoniyatlari. O'quvchilarni millat tarixi bilan tanishtiradi, ularda millatning taraqqiyot yo'li to'g'risidagi bilimlarni hosil qiladi, milliy tarix negizida istiqbolga bo'lgan ishonchni qaror toptiradi

- Xalq qahramonlarining jasorati. O'quvchilarga millat ozodligi, Vatan mustaqilligi, taraqqiyoti, istiqboli uchun kurashish oliy insoniy burch ekanligini anglatadi, ularni millat ozodligi, Vatan ravnaqi yo'lida kurashish istagini uyg'otadi

- Milliy-madaniy merosi. O'quvchilarni millatga xos turmush tarzi, borliqqa bo'lgan yondoshuv, ijtimoiy munosabatlari mazmuni, milliy xarakter xususiyatlari bilan tanishtiradi, ularda milliy mentalitetga xos sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi

- Milliy qadriyatlar (urf-odat, marosim va an'analar). O'quvchilarga millat hayoti, o'tmishi, kelajagi uchun dahldor bo'lgan omillar to'g'risida ma'lumotlar beradi, ular tomonidan milliy mentalitet xususiyatlarining to'la anglanishi uchun imkoniyat yaratadi, o'quvchilarda milliy urf-odat, marosim va an'analarning avlodlar tomonidan davom ettirilishi, ularning mazmunan boyitib borilishi yo'lida amaliy harakat ko'nikmalarini tarbiyalaydi

- Xalq og'zaki ijodi. Yosh avlodning milliy qadriyatlar ruhida ulg'ayishlari uchun sharoit yaratadi, o'quvchilarni milliy ruhiyat, milliy tafakkur, ijtimoiy borliqqa bo'lgan yondoshuv elementlari bilan tanishtiradi, ularda milliy ongning shakllanishi uchun xizmat qiladi

- Adabiyot. O'quvchilarga milliy hayot tarzi, uning tarkib topish jarayoni, milliy xarakter elementlari, ijtimoiy-milliy munosabatlar mazmuni haqidagi ma'lumotlarni beradi

- Ilm-fan. O'quvchilarni millatning intellektual salohiyati, uning jahon ilm- fani rivojiga qo'shgan hissasi, jahon tsivilizatsiyasidagi o'rni bilan tanishtiradi

- San'at. Yoshlarga turli tasviriy vositalari yordamida milliy hayot tarzi, milliy xarakter xususiyatlarining shaxs kamolotini ta'minlashdagi roli haqidagi bilimlarni beradi

- Xalq hunarmandchiligi. O'quvchilarni milliy ijodkorlik mazmunida aks etgan ezgu qarashlar bilan tanishtiradi, ularda milliy ruhiyatga asoslangan ijtimoiy munosabatni shakllantiradi

- Milliy me'morchilik. O'quvchilarga milliy me'morchilik mazmunida o'z ifodasini topgan ijtimoiy tafakkur, milliy iqtidor to'g'risidagi ma'lumotlarni etkazib berish asosida ularda ajdodlar an'anasiga hurmat tuyg'ularini qaror toptiradi

- Rassomlik. Rangli tasviriy vositalar yordamida o'quvchilarni milliy hayot tarzi, milliy ruhiyat xususiyatlari bilan tanishtiradi

- Milliy musiqa va qo'shiqchilik. Ohanglar yordamida o'quvchilar tomonidan milliy xarakter, qarashlar mazmunining anglanishini ta'minlaydi, ularda estetik didni tarbiyalaydi

- Raqs san'ati. Inson va borliq o'rtasidagi milliy munosabat mazmunini harakatlar yordamida ochib berish asosida o'quvchilarning milliy xarakter elementlarini shakllantiradi

- San'atning boshqa turlari (kino, teatr, tsirk, milliy dorbozlik). O'quvchilarni milliylikning umuminsoniy madaniyatdagi o'rni bilan tanishtiradi, ular tomonidan milliy madaniyat jihatlarining turli madaniyatlar sintezidagi rolining baholanishiga imkoniyat yaratadi

- Ishlab chiqarish sohasida erishilayotgan yutuqlar. O'quvchilarning milliy intellektual salohiyat darajasiga baho berish asosida respublikada ilm-fan ravnaqini ta'minlashga o'z hissasini qo'shish istagini yuzaga keltiradi

- Oilaviy sulola an'analari. Yoshlar, jumladan o'quvchilar tomonidan milliylik, milliy o'ziga xoslik, milliy qadriyatlar mazmunining puxta anglanishi uchun sharoit yaratadi, ularni milliy ruhiyat g'oyalari asosida tarbiyalashga yordam beradi

- Sport. O'quvchilarni millat vakillarining jismoniy kuchi, salohiyati darajasi bilan tanishtiradi, ularda sport millat nomini jahonga tez tanituvchi vosita ekanligi to'g'risidagi qarashni yuzaga keltiradi, ularda shaxsiy jismoniy madaniyatni tarbiyalashga nisbatan rag'bat uyg'otadi

- Davlat ramzlari. O'quvchilarni millatning asriy qarashlari, borliqqa bo'lgan ijtimoiy munosabati mazmuni, shuningdek, uning sha'ni, g'ururi, or- nomusi, xalqaro maydondagi obro'-e'tibori to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishtiradi, ularda millatning hayot tarziga nisbatan chuqur hurmat uyg'otadi, millatni ulug'lashga, uning taraqqiyotini ta'minlashga undaydi.

Xulosa. O'quvchilarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish ularni Vatan ravnaqi, yurt obodligi va xalq farovonligi yo'lida fidokorona mehnat qilish, o'zi yashayotgan jamiyatda tinchlik va xavfsizlikning barqaror bo'lishi yo'lida kurashish, turli millat va elatga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro inoqlikning qaror topishiga o'z ulushini qo'shishga intilish ko'nikmalarining shakllanishi hamda millat vakili sifatida o'z qadr-qimmatini anglab etishga undaydi.

O'quvchilarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishga qaratilgan faoliyat mohiyatini yoritishda «rivojlanish», «tarbiyalash», «shakllantirish», «omil», «pedagogik ta'sir», milliy g'urur», «milliy iftixor» va «milliy o'zlikni anglash» kabi tushunchalar tayanch tushunchalar sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot muammosini ijobiy hal etishda bu tushunchalarning mazmunini to'laqonli anglab olish taqozo etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-5040-sonli qarori, 2021.26.03
2. Abu Nasr Farobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida:/– Toshkent: Yozuvchi nashiroyoti, 2001.- 64b.
3. Akramova Sh., Salomov N. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish omillari – Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2015. – 30 b.
4. Zunnunov A., Tolipov O'. Milliy qadriyatlar asosida o'quvchi shaxsini shakllantirish. – T.: Sharq, 2006. – 94 b.
5. Quronov M. Maktab ma'naviyati va milliy tarbiya. – T.: Fan, 1995. – 118 b
6. Raxmatov.A. Maktabdan tashqari mashg'ulotlarda (BABM) o'quvchilarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish. Mags.diss.2024.
7. Rajabov, T. X. I., & Ibodov, O. R. (2021). O'zbek Xalq Musiqa Merosda O'quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi. Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali, 1(6), 139-145.
8. Ражабов, Т. И. (2021). Ўқувчи-ёшларга ўзбек миллий музыка фольклори намуналари воситасида эстетик тарбия бериш. Science and Education, 2(11), 1094-1103.
9. Ражабов, Т. И. (2023). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Узбекские Народные Песни. Miasto Przyszłości, 33, 167-176.
10. Раджабов, Т. И. (2019). Описание вековых ценностей в песне "тутовое дерево-балх" и его место в воспитании учащейся молодежи. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp. 70-71).
11. Ражабов, Т. И. (2020). Педагогические возможности использования детских фольклорных песен в духовно-нравственном воспитании младших школьников. Вестник науки и образования, (5-2 (83)), 34-37.

Turapova Ra'no Barat qizi,
Termiz davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA DIALOGIK NUTQNI VARIATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida dialogik nutqni rivojlantirishning pedagogik muammolari va uni variativ yondashuv orqali hal etish yo'llari tahlil qilinadi. Variativ yondashuv o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, ularning nutqiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda o'yin, interfaol mashg'ulotlar va multimedia vositalaridan foydalanish natijalari ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: dialogik nutq, variativ yondashuv, boshlang'ich ta'lim, pedagogik muammo, kommunikativ kompetensiya

Аннотация. Статья рассматривает развитие диалогической речи младших школьников и педагогические проблемы, решаемые через вариативный подход. Такой подход учитывает индивидуальные особенности детей и стимулирует их речевую активность. Приведены результаты применения игровых и интерактивных методов, а также мультимедийных технологий.

Ключевые слова: диалогическая речь, вариативный подход, начальное образование, педагогическая проблема, коммуникативная компетентность

Annotation. The article analyzes the pedagogical issue of developing dialogic speech in primary school pupils and its solution through a variative approach, which considers individual differences and enhances students' oral activity. Results of using games, interactive lessons, and multimedia tools are presented.

Keywords: dialogic speech, variative approach, primary education, pedagogical issue, communicative competence.

Kirish. Zamonaviy boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biridir. Nutq – bu shaxsning ijtimoiy hayotdagi faoliyati, fikrlash qobiliyati va muloqot madaniyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan vosita hisoblanadi. Bolalik davrida shakllangan nutqiy kompetensiya esa kelajakda o'quvchining ta'lim jarayonida va kundalik hayotda muvaffaqiyat qozonishi uchun asos yaratadi. Shu sababli, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda nutqni rivojlantirish masalasi o'ta dolzarb hisoblanadi.

O'quvchilarning nutqiy rivojlanishi individual xususiyatlar, psixologik tayyorgarlik va ijtimoiy tajribaga bog'liq bo'ladi. Har bir bolaning fikr ifodalash qobiliyati, suhbatga kirishish faolligi va muloqot madaniyati har xil darajada bo'lishi mumkin. Shu sababli, har bir o'quvchining individual imkoniyatlarini inobatga oladigan metodik yondashuvni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Variativ yondashuv esa aynan shu talablarni qondirishga qaratilgan pedagogik mexanizm hisoblanadi. Bu yondashuv dars jarayonini moslashuvchan, interfaol va ijodiy shakllarda tashkil etish imkonini beradi. Variativ yondashuv orqali o'quvchilar:

- o'z fikrini erkin ifoda etish;
- suhbatdosh bilan muloqot qilishda madaniyatli va izchil bo'lish;
- savol berish, javob berish va fikr almashish ko'nikmalarini shakllantirish;
- ijodiy va mustaqil fikrlashga o'rgatiladi.

Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida dialogik nutqni variativ yondashuv asosida rivojlantirish pedagogik muammo sifatida ilmiy va amaliy jihatdan asosli hisoblanadi. Bu muammo nafaqat o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirishga, balki ularning shaxsiy

rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va kelajakda samarali muloqotga kirishish ko'nikmalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – boshlang'ich sinf o'quvchilarida dialogik nutqni shakllantirish jarayonida variativ yondashuvning samaradorligini aniqlash va pedagogik amaliyotga qo'llash mexanizmlarini ishlab chiqishdir. Tadqiqotda quyidagi vazifalar belgilangan:

1. Dialogik nutq va uning pedagogik ahamiyatini nazariy jihatdan tahlil qilish;
2. Variativ yondashuv kontseptsiyasini boshlang'ich ta'lim kontekstida o'rganish;
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual nutqiy xususiyatlarini hisobga olgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish;
4. Dars jarayonida interfaol metodlar, o'yin texnologiyalari va multimedia vositalarini qo'llash samaradorligini aniqlash.

Shunday qilib, kirish qismida ko'rsatib o'tilganidek, boshlang'ich ta'limda dialogik nutqni variativ yondashuv asosida rivojlantirish nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham dolzarb va muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirish masalasi pedagogik tadqiqotlarda uzoq yillardan beri e'tiborni tortib kelmoqda. Shu masalada turli olimlar o'z nuqtai nazarlarini ilgari surgan.

Masalan, Vygotskiy (1978) o'quvchilarning ijtimoiy muloqoti orqali fikrlash va nutqini rivojlantirishni nazariy asos sifatida ko'rsatadi. Uning fikriga ko'ra, bolalar o'z bilim va ko'nikmalarini ijtimoiy muloqot jarayonida shakllantiradi, shuning uchun darslarda faol muloqot va dialog asosiy o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich sinfda dialogik nutqni rivojlantirish o'quvchilarning muloqotga kirishish faoliyati bilan chambarchas bog'liq.

Zimnyaya (2000) esa nutqni rivojlantirish pedagogik jarayonini o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish lozimligini ta'kidlaydi. Uning tadqiqotlariga ko'ra, har bir bola nutqiy ko'nikmalarni turli tezlikda rivojlantiradi va shuning uchun metodik yondashuv moslashuvchan bo'lishi lozim. Shu nuqtai nazardan, variativ yondashuvning dolzarbligi aniq ko'rinadi.

O'zbekistonlik olimlar ham ushbu masalaga alohida e'tibor qaratgan. Masalan, Jo'rayev va Axmedov (2015) boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqni rivojlantirishda o'yin va interfaol texnologiyalarning ahamiyatini tadqiq qilgan. Ularning fikricha, o'quvchilar darslarda o'yin va rol o'ynash usullaridan foydalanganida, suhbatga kirishish faolligi oshadi, nutq madaniyati shakllanadi va o'z fikrini erkin ifodalash ko'nikmasi rivojlanadi.

Variativ yondashuvni rivojlantirish borasida xorijiy va mahalliy adabiyotlar bir-birini to'ldiradi. Masalan, Tomlinson (2001) variativ yondashuvni o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda darslarni moslashuvchan tarzda tashkil etish konsepsiyasi sifatida ko'radi. Bu yondashuv o'quvchilarga muloqotga faol kirishish, yangi bilimlarni mustaqil egallash va nutqiy kompetensiyani rivojlantirish imkonini beradi.

Shuningdek, interfaol va multimedia texnologiyalari ham dialogik nutqni shakllantirishda muhim vosita sifatida qayd etilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, audio-vizual materiallar, kompyuter dasturlari va o'yinlar orqali darslarni boyitish o'quvchilarning fikrini erkin ifodalash, savol-javoblar orqali suhbatga kirishish, hamkorlik va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi (Karimova, 2018).

Adabiyotlarni umumiy tahlil qilganda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Dialogik nutq bolalar uchun ijtimoiy va pedagogik ahamiyatga ega, u nafaqat nutqiy ko'nikmalarni, balki shaxsiy rivojlanishni ham ta'minlaydi.
2. Har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan pedagogik yondashuv muhimdir. Shu nuqtai nazardan, variativ yondashuv eng samarali metodik mexanizm sifatida ko'riladi.

3. Interfaol metodlar, o'yin texnologiyalari va multimedia vositalari o'quvchilarning dialogik nutqini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

4. Mahalliy va xorijiy tadqiqotlar variativ yondashuvni boshlang'ich ta'lim jarayonida qo'llashning nazariy va amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Shu bilan, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida dialogik nutqni variativ yondashuv asosida rivojlantirish nafaqat samarali, balki pedagogik jihatdan zarur bo'lgan yondashuv hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida dialogik nutqni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning nutqiy faolligi ularning individual xususiyatlari, o'qituvchi metodikasi va dars jarayonida qo'llanilayotgan vositalarga bog'liq. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning dialogik nutqini shakllantirishda bir nechta metodik vositalar sinovdan o'tkazildi.

Birinchidan, variativ mashg'ulotlar yordamida darslarning turli shakllari qo'llandi. Bu individual, juftlik va kichik guruh ishlari orqali o'quvchilarga savol-javob, rolli o'yinlar va muloqot vazifalari berish imkonini berdi. Kuzatish natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar faol ishtirok qilgan guruh mashg'ulotlarida nutq ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlandi.

Ikkinchidan, interfaol va o'yin texnologiyalari qo'llanildi. Darslarda qiziqarli o'yinlar, situatsion vaziyatlar va dramatisatsiya usullari yordamida o'quvchilar suhbatga kirishish faolligini oshirdi, bir-birining fikrini hurmat bilan tinglash va muloqot madaniyatini rivojlantirdi.

Uchinchidan, multimedia vositalari tadqiqot jarayonida samarali vosita sifatida ishlatildi. Audio va video materiallar yordamida o'quvchilar dialoglarni ko'rish, tinglash va keyin takrorlash orqali nutqiy ifodalarni mustahkamladi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, multimedia vositalari yordamida o'quvchilarning nutq madaniyati, so'z boyligi va muloqotga kirishish ko'nikmalari ancha oshdi.

Shuningdek, tahlil natijalari o'quvchilarning individual rivojlanishini ham ochib berdi. Variativ yondashuv asosida olib borilgan mashg'ulotlarda o'quvchilar o'z fikrini erkin ifodalash, savol berish va javob berish faoliyatida faollashish, suhbatga kirishish madaniyati va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning nutqiy faolligi dars davomiyligi va mashg'ulotlarning interfaoligi bilan bog'liq. Interfaol metodlar, o'yin texnologiyalari va multimedia vositalari bilan boyitilgan darslarda o'quvchilar ko'proq muloqotga kirishdi va dialogik nutq darajasi oshdi.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, variativ yondashuv asosida tashkil etilgan pedagogik jarayon boshlang'ich sinf o'quvchilarida dialogik nutqni samarali rivojlantirish imkonini beradi. Bu nafaqat nutqiy kompetensiyani oshiradi, balki o'quvchilarning ijtimoiy faolligi, hamkorlik va ijodiy fikrlash qobiliyatini ham mustahkamlaydi.

Muhokama. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida dialogik nutqni variativ yondashuv asosida rivojlantirish tadqiqoti natijalari bir qator muhim pedagogik xulosalarni chiqarishga imkon beradi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning nutqiy faolligi ularning individual xususiyatlari, dars jarayonining interfaoligi, metodik vositalar va o'quv faoliyatidagi qiziqish bilan bevosita bog'liq.

Variativ yondashuvning samaradorligi uning moslashuvchanligida, o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olishi va turli metodlarni birlashtira olishi bilan izohlanadi. Masalan, o'quvchilarga individual va guruh ishlari, rolli o'yinlar va muloqot vazifalari berish ularni suhbatga faol kirishishga undadi. Bu esa nutq ko'nikmalarining tezroq rivojlanishiga yordam berdi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, darslarda o'quvchilarning faolligi va nutqiy ishtiroki ularni muloqot madaniyati va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda hal qiluvchi omil bo'ldi.

Shuningdek, interfaol metodlar va o'yin texnologiyalari o'quvchilarning motivatsiyasini oshirdi. O'yinlar orqali darslar qiziqarli va jalb qiluvchi bo'ldi, bu esa o'quvchilarda nutqiy faoliyatga bo'lgan qiziqishni kuchaytirdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'yin texnologiyalari nafaqat nutq ko'nikmalarini, balki ijodiy fikrlash va hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga ham yordam beradi.

Multimedia vositalarining qo'llanilishi ham natijalarga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Audio va video materiallar yordamida o'quvchilar dialoglarni tinglab, keyin takrorlash orqali yangi ifodalarni o'zlashtirdi. Bu jarayon so'z boyligini kengaytirish, nutqiy strukturalarni to'g'ri qo'llash va suhbat madaniyatini shakllantirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, multimedia vositalari o'quvchilarga mustaqil fikrlash va nutqiy vazifalarni bajarishda qulaylik yaratdi.

Muhokama natijasida shuni ta'kidlash mumkin: variativ yondashuv pedagogik jarayonda boshlang'ich sinf o'quvchilarida dialogik nutqni rivojlantirishning samarali mexanizmi sifatida xizmat qiladi. U individual yondashuvni, interfaol mashg'ulotlarni va texnologik vositalarni uyg'unlashtiradi. Bu esa o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish, ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish va kelajakda muloqotga tayyorlash imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, pedagogik jarayonni variativ asosda tashkil etish o'qituvchidan metodik jihatdan yuqori tayyorgarlik va ijodiy yondashuvni talab qiladi. O'qituvchi darslarni qiziqarli, interfaol va o'quvchilarni suhbatga jalb qiladigan shaklda olib borishi lozim. Shu nuqtai nazardan, variativ yondashuv nafaqat o'quvchilarga, balki o'qituvchiga ham pedagogik rivojlanish va yangi metodlarni qo'llash imkoniyatini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, muhokama shuni ko'rsatdiki, variativ yondashuv asosida dialogik nutqni rivojlantirish boshlang'ich ta'lim jarayonida nutqiy kompetensiyani oshirish, o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, darslarni interfaol va qiziqarli shaklda tashkil etishning samarali vositasi sifatida qaraladi.

Xulosa. Ushbu tadqiqotning maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarida dialogik nutqni variativ yondashuv asosida rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini aniqlash edi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, variativ yondashuv pedagogik jarayonda juda samarali vosita bo'lib, u o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda, muloqotga kirishish faolligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Variativ yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarga nutq ko'nikmalarini turli shakllarda rivojlantirish imkonini beradi. Individual, juftlik va guruh ishlari, rolli o'yinlar va muloqot vazifalari o'quvchilarni suhbatga faol jalb qiladi. Shu bilan birga, interfaol metodlar va o'yin texnologiyalari darslarni qiziqarli va jalb qiluvchi qiladi, bu esa o'quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi hamda ijodiy fikrlash va hamkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi.

Multimedia vositalari esa o'quvchilarning nutq madaniyati, so'z boyligi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Audio va video materiallar orqali o'quvchilar yangi ifodalarni o'zlashtiradi va dialogga kirishishda qulaylikka ega bo'ladi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, variativ yondashuv faqat nutq ko'nikmalarini rivojlantirish bilan cheklanmaydi, balki o'quvchilarning ijtimoiy faolligi, muloqot madaniyati va pedagogik jarayonga bo'lgan qiziqishini ham oshiradi.

Shu bilan birga, pedagogik jarayonni variativ asosda tashkil etish o'qituvchidan yuqori metodik tayyorgarlik, ijodiy yondashuv va darslarni interfaol shaklda olib borish qobiliyatini talab qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, variativ yondashuv nafaqat boshlang'ich sinf o'quvchilarida dialogik nutqni rivojlantirishda samarali vosita, balki umumiy pedagogik jarayonda yangi metodik yondashuvlarni tatbiq etish imkoniyatini yaratadi.

Umuman olganda, boshlang'ich ta'limda dialogik nutqni variativ yondashuv asosida rivojlantirish pedagogik jihatdan zarur va samarali bo'lib, u o'quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va nutqiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Turapova R. Mechanisms for Improving Children's Dialogical Speech //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 49-53.
2. Ra'no T., O'ralova F. History of the Origin of Dialogical Speech //International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. – 2023. – T. 3. – №. 9. – C. 92-97.
3. Toshpulatov F. U., Turapova R. B. Games that develop children's interest in the profession based on game technology //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 4. – C. 487-491.
4. Turapova R. et al. WAYS TO TEACH PRESCHOOL CHILDREN TO ACT TALE //International Conference On Higher Education Teaching. – 2023. – T. 1. – №. 11. – C. 42-46.
5. Turapova R. Mechanisms for Improving Children's Dialogical Speech //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 49-53.
6. Baratovna T. R. Developing Dialogic Speech of Pre-School Children on the Basis of a Variative Approach //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 10. – C. 272-275.
7. Турапова Р. Developing dialogic speech of pre-school children on the basis of a variative approach //Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. – 2022. – Т. 1. – №. 4.
8. Turapova R. B. VARIATIV YONDASHUV ASOSIDA O 'QUVCHILARNING DIALOGIK NUTQINI RIVOJLANTIRISH DOLZARB MASALALARI //Inter education & global study. – 2025. – №. 3. – C. 279-288.
9. Turapova R. B. VARIATIV YONDASHUV ASOSIDA O 'QUVCHILARNING DIALOGIK NUTQINI RIVOJLANTIRISH DOLZARB MASALALARI //Inter education & global study. – 2025. – №. 3. – C. 279-288.
10. Turapova R. B. CURRENT ISSUES OF DEVELOPING STUDENTS'DIALOGICAL SPEECH BASED ON VARIATIVE APPROACH //Inter education & global study,(3). – 2025. – C. 279-288.
11. Barat qizi, T. R. (2025). Practical Experiences of Developing Pupils' Dialogic Speech Through a Variative Approach. *American Journal of Education and Evaluation Studies*, 2(9), 121–125. Retrieved from <https://semantjournals.org/index.php/AJEES/article/view/2441>
12. qizi, T. R. B. . (2025). Scientific and Pedagogical Analysis of the Results, Challenges, And Prospects of Developing Dialogic Speech in Primary School Pupils through a Variative Approach: The Case of Mother Tongue Lessons. *International Journal of Formal Education*, 4(9), 96–99. Retrieved from <https://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/5732>

Sharipova Sadaf Latipovna,
Buxoro davlat universiteti, San'atshunoslik va pedagogika fakulteti
Madaniyatshunoslik mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
sadafsharipova3@gmail.com

MUZEYLAR - MADANIY XOTIRA, MEROS VA IDENTITET O'RTASIDAGI IJTIMOIY-MADANIY KO'PRIK SIFATIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada muzeylarning tarixiy shakllanish jarayoni hamda ularning ijtimoiy-madaniy funksiyalari tahlil qilinadi. O'zbekiston muzeylarni milliy identitetni tiklash, madaniy merosni saqlash va raqamli texnologiyalar orqali uni ommalashtirishdagi o'rni ochib berilgan. Maqolada muzeylarni faqat eksponatlar jamg'armasi emas, balki madaniy xotirani saqlovchi, jamiyatni o'z tarixiy ildizlari bilan bog'lovchi ijtimoiy-madaniy tizim sifatida talqin etilgan.

Kalit so'zlar: Muzey tarixi, madaniy xotira, meros, identitet, raqamli transformatsiya, O'zbekiston, Markaziy Osiyo va Yevropa muzeylari, muzeychilik evolyutsiyasi.

Аннотация: В данной статье анализируется исторический процесс формирования музеев и их социокультурные функции. Раскрывается роль музеев Узбекистана в восстановлении национальной идентичности, сохранении культурного наследия и его популяризации с помощью цифровых технологий. В статье музеи рассматриваются не только как собрания экспонатов, но и как социокультурные системы, сохраняющие культурную память и связывающие общество с его историческими корнями.

Ключевые слова: История музеев, культурная память, наследие, идентичность, цифровая трансформация, Узбекистан, музеи Центральной Азии и Европы, эволюция музеев.

Abstract: This article analyzes the historical formation process of museums and their socio-cultural functions. It reveals the role of museums in Uzbekistan in restoring national identity, preserving cultural heritage, and promoting it through digital technologies. The article interprets museums not merely as collections of exhibits, but as socio-cultural systems that preserve cultural memory and connect society with its historical roots.

Keywords: Museum history, cultural memory, heritage, identity, digital transformation, Uzbekistan, Central Asia and European museums, museum evolution.

Kirish. Bugungi kunda biz “muzey” deb ataydigan joy - ya'ni jamoatchilik uchun ochiq bo'lgan, to'plamlarni saqlaydigan, ularni tushuntiradigan va taqdim qiladigan ijtimoiy-ma'rifiy institut -Zamonaviy muzey tushunchasi Yevropada Yangi davr - XVII–XIX asrlar oralig'ida shakllandi. Dastlabki bosqichda muzeylar xususiy kolleksiyalar ko'rinishida bo'lib, ular “ajoyibotlar kabineti” (cabinet of curiosities) deb atalgan[1]- knyazlar, olimlar, boy savdogarlar dunyoning har xil burchaklaridan keltirilgan nodir buyumlarni, qadimiy ashyolarni, hayvon suyaklarini, tangalarni, san'at asarlarini bir joyga to'plab, ularga o'zining nufuz belgisi sifatida qarashgan. Bu hali ommaviy emasdi, balki ijtimoiy elitaga yopiq edi. Bu haqda Yevropa muzeyshunosligi tarixi keng yozadi: dastlabki kolleksiya jamlash amaliyoti davlat mafkurasidan ko'ra shaxsiy obro' bilan bog'liq bo'lgan.

XVIII asrga kelib, Yevropada ma'rifatparvarlik (Enlightenment) ruhiyati kuchaydi. Ma'rifatparvarlik - bu “bilim hammaniki bo'lishi kerak” degan g'oya edi. Natijada, avval shaxsiy bo'lgan kolleksiyalar davlat tasarrufiga o'ta boshlaydi va “ommaga ochiq” ko'rinish oladi. Shu jarayonda ko'pincha ikki narsa sodir bo'ladi: 1) merosni legitimlashtirish ya'ni: “bu bizning milliy merosimiz, uni ko'rish hammamizning huquqimiz”, 2) davlat o'zini madaniy jihatdan kuchli ko'rsatadi. XVIII asrda ma'rifatparvarlik davrida bu kolleksiyalar jamoatchilik

uchun ochila boshladi. 1734-yilda Rimda ochilgan Museo Capitolino yoki 1677-yilda tashkil topgan Ashmolean Museum (Oksford) jahonning ilk ommaviy muzeylari sifatida e'tirof etiladi^[2]. Bu model: davlat (yoki shahar hokimiyati) kolleksiyani xalqqa taqdim etadi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Yevropada “muzeylar portlashi” davri boshlandi - milliy davlatlar shakllanib, muzeylar milliy o'zlikni ifodalovchi madaniy institutga aylandi^[3]. Bu davrda tabiat muzeylari, milliy tarix muzeylari, rassomlik galereyalari, arxeologiya to'plamlari ommaviy ravishda ochila boshlaydi. Tadqiqotchilar buni “birinchi muzey boomi” deb ataydi; sabab - milliy davlatlarning shakllanishi va milliy identitet (kimligimiz kim?) ni ko'rsatish ehtiyoji kuchaydi. Muzeylar “mana bizning tariximiz, mana bizning san'atimiz, mana bizning fanimiz” deb turardi. Bu haqida Brittanika ensiklopediyasi ham yozadi: XIX asr oxiriga kelib Yevropa shaharlari o'z muzeylarini faxr bilan qurdi va ularni keng xalq ommasi uchun ma'rifat markaziga aylantirdi.

Markaziy Osiyoda (Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qo'qon xonligi, keyinroq Turkiston general-gubernatorligi davri) zamonaviy Yevropa tipidagi “muzey” tushunchasi juda kechroq, asosan Rossiya imperiyasi davrida va undan keyin paydo bo'ladi. Chunki mahalliy an'anaviy madaniyat merosi avval asosan ikki shaklda saqlangan:

- diniy-madaniy joylarda (masalan, madrasa kutubxonalari, masjidlar, xonaqohlar, sulola xazinalari),
- saroy xazinalarida (zargarlik buyumlari, qurollar, qo'lyozmalar, gilamlar, devoriy naqshlar).

Ular yopiq edi. U yerga begona odam bema'lol kira olmasdi - ayniqsa oddiy xalq emas. Rossiya imperiyasi Turkistonga kirganidan so'ng (XIX asr oxiri), Markaziy Osiyo hududida sistematik yig'ish, ro'yxatga olish, kataloglash va to'plamni davlat ko'rinishida namoyish qilish amaliyoti paydo bo'ladi. Bu, aslida, muzeylashtirishning boshlanish nuqtasi edi. Imperiya ma'muriyati va rus olimlari, harbiy topograflar, arxeologlar qadimiy yodgorliklarni, qo'lyozmalarni, tangalarni, sopol va metall buyumlarni “ilmiy kolleksiya” sifatida to'play boshlaydi. Sovet davrida bu muzeylar ilmiy va ideologik markazga aylandi: madaniy meros “xalq mulki” sifatida namoyish etildi, muzeylar esa tarixni marksistik konsepsiyada talqin qildi. Mustaqillikdan keyin (1991 y.) Markaziy Osiyoda muzeylar milliy o'zlikni tiklash va madaniy turizmni rivojlantirish vositasiga aylandi^[5].

Mustaqillikdan keyingi davrda esa (1991 yildan keyin) Markaziy Osiyodagi muzeylarga uchinchi vazifa qo'shildi: milliy o'zlikni tiklash va targ'ib qilish. O'zbekiston misolida, muzey endi shunchaki ko'rgazma emas, balki “biz kim edik, kim bo'ldik, va qanday merosimiz bor” degan identitet platformasi bo'lib chiqdi. Markaziy Osiyoda muzeylar tarixi bo'yicha so'nggi yillardagi tadqiqotlarda shuni ko'rish mumkin: zamonaviy muzeylar mustaqillikdan keyin o'z ekspozitsiyalarini qayta ko'rib chiqdilar, sobiq mustamlaka narrativlari qisqartirildi, mahalliy sivilizatsiya yutuqlari ko'tarildi. Bu haqda muzeylar tarixiga bag'ishlangan O'zbekiston va Farg'ona vodiysi bo'yicha ilmiy sharhlarda aytiladi: 1990-yillardan boshlab muzeylarga huquqiy maqom, moddiy baza va metodik qo'llab-quvvatlash beruvchi islohotlar boshlangan.

O'zbekistonda muzey tarixi amalda Turkiston o'lkasining mustamlaka davridan (XIX asr oxiri) boshlanadi. Ko'pincha tilga olinadigan misol: hozirgi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi asl ildizlari bilan 1876 yildagi “Turkiston Xalq muzeyi” (ba'zida “Turkiston o'lkashunoslik muzeyi” deb ham tilga olinadi) ga borib taqaladi^[6]. Bu muzey dastlab Toshkentda tashkil etilgan va mintaqadagi arxeologik topilmalar, etnografik buyumlar, kundalik hayot anjomlari, tangalar, qo'lyozmalarni jamlagan. Bu haqda muzeyning o'zi va turli sayyohlik-ta'rif resurslari qayd etadi: muzey kolleksiyasi Markaziy Osiyo tarixini tosh asrdan boshlab zamonaviy davrgacha yoritishni maqsad qilgan, bugungi kunda ham 250 mingdan ortiq eksponat saqlanadi, deyiladi.

Sovet davrida bu muzeylar kuchli ideologik yuk oldi. Muzeylar “tarixiy taraqqiyot” ni marksistik sxema orqali tushuntirardi: feodalizm chor mustamlakachiligi sovet ijtimoiy-

adolatli jamiyati. Bu lo'nda ko'rinadi, lekin shu model orqali muzeylar katta davlat resurslariga ega bo'ldi: fondlar tizimli ravishda kataloglashtirildi, restavratsiya laboratoriyalari ochildi, arxeologik ekspeditsiyalar moliyalashtirildi.

Maqsad. O'zbekistonda XX asr o'rtalariga kelib o'lkashunoslik muzeylari, san'at muzeylari, adabiy-memorial uy-muzeylar (masalan, mashhur shoirlar, olimlar, davlat arboblari uy-muzeylari) paydo bo'ldi. 1920-yillar–1980-yillar oralig'ida viloyat markazlarida (Samarqand, Buxoro, Xiva, Farg'ona va hokazo) o'lkashunoslik va san'at yo'nalishidagi yirik fondli muzeylar shakllandi. Bu juda muhim: muzeylar endi faqat “ekzotika ko'rsatish” uchun emas, balki hududning iqtisodiy, madaniy, tarixiy taraqqiyotini rasmiy ravishda hujjatlashtirish markaziga aylandi. Ya'ni, muzey – bu “hududning pasporti” bo'lib qoldi.

1991-yildan keyin muzeylar vazifasi yana o'zgardi. Endi ular milliy o'zlikni ko'rsatishning markaziy sahnasiga aylantirildi. Ya'ni, “o'zbek davlatchiligi ildizlari qayerda?”, “islom sivilizatsiyasi merosida bizning o'rnimiz qanday?”, “Buxoro, Xiva, Samarqand qanday ma'naviy markaz bo'lgan?” kabi savollar muzey ekspozitsiyalarining asosiy dramatik chizig'iga aylandi. Shu bosqichda ko'plab muzeylar “qo'riqxonalar” (muzey-qo'riqxonalar, muzey-rezervat) maqomini oldi: bu degani nafaqat bino ichidagi vitrinani saqlash, balki butun tarixiy hududni himoya qilish va namoyish qilish. Masalan, “muzey-qo'riqxonalar” modeli Buxoro, Xiva kabi shahar markazlari uchun qo'llangan: butun tarixiy mahalla - muzey. Bu jarayon keyinchalik turizm siyosati bilan ham bevosita bog'landi.

Mustaqillikdan keyingi davrda yana bir o'zgarish: raqamlashtirish. O'zbekiston hukumati va madaniyat vazirligi darajasida madaniy meros obyektlarini ro'yxatga olish, ularni raqamli kataloglarga kiritish va virtual ko'rgazmalar yaratish vazifasi qo'yildi. Bu siyosiy jihatdan ham qo'llab-quvvatlangan: masalan, respublika darajasida “madaniy meros obyektlarini raqamlashtirish tartibi” bo'yicha hukumat qarorlari qabul qilingan va bu muzeylarga fondlarini onlayn formatga tayyorlash majburiyatini yuklaydi.

Buxoro - bu alohida holat. Chunki Buxoro shunchaki “viloyat markazi” emas, balki butun Markaziy Osiyo uchun tarixiy-sivilizatsion tugun nuqtasi bo'lgan. Buxoro amirligi davrida moddiy va ma'naviy meros asosan saroy, madrasa kutubxonalari, diniy xazinalar ko'rinishida saqlangan. Ya'ni, hozirgi ma'nodagi “muzey” ko'rinishida emas, balki “amir xazinasi”, “vaqf mulki”, “ulamo qo'lyozmalari jamg'armasi” shaklida yashagan.

Buxoroda zamonaviy muzeylashuv (muzey sifatida qayd etish, fond yuritish, ekspozitsiya qilish) asosan XX asr boshlarida, ya'ni 1920-yillardan keyin shakllanadi. Bu vaqt tasodifiy emas: 1920-yilda Buxoro amirligi tugatiladi, sovet boshqaruvi o'rnatiladi, va yangi hokimiyat uchun Buxoro merosi mafkuraviy jihatdan juda qulay materialga aylanadi: “feodal o'tmish”, “madaniy boyliklar”, “xalq san'ati” - bularning hammasini hujjatlashtirish, ko'rsatish va, kerak bo'lsa, siyosiy talqin qilish zarur edi. Shu asosda 1922 -yilda hozir “Buxoro davlat me'morchilik-san'at muzey-qo'riqxonasi” deb ataladigan tizim tashkil topadi^[8]. Bu muzey markazi Buxoro Arki hududida joylashgan bo'lib, arxeologik topilmalar, qadimiy hujjatlar, tanga xazinasi, qurol-yarog', zargarlik buyumlari, kiyim-kechak namunalarini to'plab bordi. Bu haqda muzeyning o'zi va Buxoroga oid ochiq manbalar shuni ta'kidlaydi: kolleksiya, masalan, hatto yunon-baqtriya (davri tangalarini ham o'z ichiga oladi, ya'ni Buxoro hududi qadimdan transregional almashinuv markazi bo'lganini ko'rsatadi^[9]). Buxoro muzey-qo'riqxonasi konsepsiyasi juda muhim: bu yerda “muzey” faqat bino emas. Balki bu butun tarixiy shahar to'qimasidir, ya'ni, tarixiy inshootlar (masjidlalar, madrasalar, timlar, minora, ark, hovlilar)ning o'zi eksponatga aylantiriladi. Bu Yevropa modelidan farq qiladi. Yevropada klassik muzey - bu ko'rgazma zali ichidagi vitrina. Buxoroda esa butun shahar markazi ochiq osmon ostidagi muzeyga aylanadi. Shuning uchun ham u “muzey-qo'riqxonalar” deb ataladi: nafaqat namoyish, balki hududni asrash (“qo'riqlash”) ham vazifa sifatida berilgan. Mustaqillikdan keyingi davrda Buxoro muzeylari (jumladan, amaliy san'at, qadimiy hayot tarzi, mahalliy hunarmandchilik

ekspozitsiyalari) tobora ko'proq turizm bilan bog'landi. Sababi oddiy: Buxoro O'zbekistonning eng yirik madaniy-turistik brendlaridan biridir.

Materiallar va metodlar. Tadqiqotda tarixiy-madaniy yondashuv, qiyosiy tahlil va kontent-tahlil metodlaridan foydalanilgan. Asosiy ma'lumotlar Encyclopaedia Britannica, Rebus Press, SciTePress, JournalNX Repository, hamda O'zbekiston va Buxoro muzeylarining rasmiy veb-sahifalaridan olingan manbalarga tayanadi.

Yevropadagi muzeylar tarixi ma'rifatparvarlik davriga borib taqaladi; 1734 yilda Rimdagi Museo Capitolino va 1677 yilda Oksforddagi Ashmolean Museum jahonning ilk jamoat muzeylari sifatida e'tirof etiladi [2][3]. Markaziy Osiyo mintaqasida esa muzeylashuv Rossiya imperiyasi siyosati ta'sirida shakllangan; XIX asr oxirida rus arxeologlari tomonidan tashkil etilgan ilmiy kolleksiyalar bu jarayonni boshlab bergan [4].

O'zbekistonda 1876 yilda Toshkentda tashkil etilgan Turkiston xalq muzeyi (hozirgi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi) bu tarixning bosqichini ifodalaydi [6]. Buxoro esa muzeychilik tarixida noyob hodisa bo'lib, 1922 yilda tashkil etilgan Buxoro davlat me'morchilik-san'at muzey-qo'riqxonasi mintaqada madaniy xotira markaziga aylandi [8].

Xulosa. Tarixiy manzara shuni ko'rsatadi: Yevropada muzeylar ichki ijtimoiy-evolyutsion jarayon mahsuli - xususiy kolleksiyadan davlat yoki jamoat institutiga o'tish, keyin milliy identitet qurish vositasiga aylanish.

O'zbekistonda muzeylar XIX asr oxiri -XX asr boshidan boshlab rasmiylashdi va 1991 yildan keyin milliy madaniy merosni tiklash hamda targ'ib qilish markaziga aylandi. Buxoroda esa muzey -bu faqat bino emas, balki butun tarixiy shaharning o'zi. 1922 yildan boshlab Buxoro qadimiy shahar to'qimasi "muzey-qo'riqxona" modeli orqali institutsionallashtirildi va bugungi kunda u turizm, marketing va identitet vositasiga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Encyclopaedia Britannica. Museum – Cultural Institution: The first museum boom. Britannica Online, 2023. <https://www.britannica.com/topic/museum-cultural-institution/The-first-museum-boom>
2. Museums EU Portal. The Ashmolean Museum – Britain's first public museum (1677). 2023. <https://museums.eu/highlight/details/105317>
3. Rebus Press. The Early History of Museums in Europe. 2022. <https://press.rebus.community/historyoftech/chapter/the-early-history-of-museums-in-europe>
4. SciTePress. The History of the Creation of Museums in Uzbekistan Based on the Fergana Valley Experience. 2023. <https://www.scitepress.org/Papers/2023/129656/129656.pdf>
5. JournalNX Repository. The History of the Formation of Museums in Uzbekistan. 2022. <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/download/1367/1337/2672>
6. State Museum of History of Uzbekistan – Official site. Tashkent, 2024. <https://www.history-museum.uz/site/about>
7. Rajabov, T. X. I., & Ibodov, O. R. (2021). O'zbek Xalq Musiqa Merosda O'quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi. Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali, 1(6), 139-145.
8. Ражабов, Т. И. (2021). Ўқувчи-ёшларга ўзбек миллий музыка фольклори намуналари воситасида эстетик тарбия бериш. Science and Education, 2(11), 1094-1103.
9. Ражабов, Т. И. (2023). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Узбекские Народные Песни. Miasto Przyszłości, 33, 167-176.
10. Раджабов, Т. И. (2019). Описание вековых ценностей в песне "тутовое дерево-балх" и его место в воспитании учащейся молодежи. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp. 70-71).

Abulov To'liq Mo'minovich,
Qahqadsaryo viloyati Qarishi shahar
1-son Bolalar musiqa va san'at maktabi musiqa nazariyasi o'qituvchisi

AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA ILMIY-MUSIQIY ME'ROSINI O'RGANISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. O'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs qilib voyaga yetqazish, Farobiyning hayoti va ijodi, Farobiyga qadar musiqa nazariyasini o'rganish bilan Al Kindiy shug'ullanganligi haqida, Xalqaro hamkorlik Forobiy g'oyalarini kengroq miqyosida ommalashtirish, Forobiy yaratgan tizim mazmunan universal xususiyatga ega bo'lib, o'z davri fanlarining barcha muhim masalalari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Musiqa, ijro, tarbiya, Abu Nasr Farobiy, maqomlar, bastakor, psixologiya, uslublar, Sharq musiqiy madaniyati tarixi, madaniy me'ros.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы всестороннего формирования гармоничной личности у подрастающего поколения, жизнь и творчество Фароби, сведения о том, что до Фароби изучением музыкальной теории занимался Аль-Кинди. Освещается международное сотрудничество, направленное на более широкое распространение идей Фароби, а также подчёркивается, что созданная им система носит универсальный характер и охватывает основные научные проблемы своего времени.

Ключевые слова: музыка, исполнение, воспитание, Абу Наср Фароби, макам, композитор, психология, методы, история музыкальной культуры Востока, культурное наследие

Annotation. The article discusses the comprehensive upbringing of the younger generation as well-rounded individuals, the life and work of Farobi, and information that before Farobi, Al-Kindi was engaged in the study of music theory. It also highlights international cooperation aimed at promoting Farobi's ideas on a broader scale, and emphasizes that the system created by Farobi has a universal character and addresses all the major scientific issues of his time.

Keywords: Music, performance, upbringing, Abu Nasr Farobi, maqams, composer, psychology, methods, history of Eastern musical culture, cultural heritage.

Kirish. O'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs qilib voyaga yetqazish uchun davlatimiz tomonidan qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Bu vazifani amalga oshirishda musiqa san'atining alohida o'rni mavjud. Shuni nazarda tutib amalga oshirayotgan chora-tadbirlar o'zinig ijobiy natijalarini bermoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari"nomli PQ 112-sonli qarorini misol qilib olish mumkin. Unda 2022/2023 o'quv yilidan xabardor qilishga jazm qildik. Qomusiy olim falsafa, matematika, geometriya, handasa, musiqa va boshqa bir qator fanlarda tadqiqotlar olib borib, o'zidan ulkan ilmiy me'ros qoldirgan. U musiqani turli fanlar bilan bog'liqligini turli manbalarda ta'kidlab o'tgan. O'tgan asrda yashab o'tgan olim Mitxad Sagadatinevich Bulatovning rus tilida 1980 - yil chop qilgan "Geometricheskaya garmonizatsiya v arxitekture Srednoy Azii IX-XV " nomli asarida qator qomusiy olimlar qatorida Farobiy hayoti va ijodiga ham to'xtalib o'tadi. Farobiy bir qo'lyozma musiqani geometriya bilan bog'liqligi to'g'risida quyidagilarni yozadi. Musiqa uch ildizga ega, hajm, ohang va his-tuyg'u. Bu musiqiy voqelikni inson ongi va tasavvurida aks etishni, tovushning yuqori va quyi ohanglarda o'zaro mutanosibliqi haqida yozadi. His tuyg'u-musiqiy tasavvur bilan ohangning o'zoro bog'liqligini aks ettiradi. Forobiy "I'xso al ulum" (Ilmlarning kelib chiqishi) nomli asarida substansiyaning kelib chiquvchi belgilari

asosida ilmlar vujudga kelishi tartibini tekshirar ekan, musiqani sonlar to'g'risidagi ilm, o'lchovlar haqidagi ilm va yulduzlar haqidagi ilmdan so'ng to'rtinchi o'ringa qo'yadi.

Abu Nasr Farobiy nafaqat buyuk musiqashunos va nazariyotchi, balki mahobatli bastakor ham bo'lgan. Uning bastakorlik ijodi haqida tarixiy manbalarda qayd etilishicha, uning yaratgan musiqiy asarlari o'z davrida keng tarqalgan va mashhur bo'lgan. Ayniqsa, uning "Iroq maqomi" va "Isfaxon maqomi" kabi asarlari Eronda, Iroqda, Suriyada va boshqa Sharq mamlakatlarida asrlar davomida ijro etilib kelinadi.

Maqsad: Farobiyning musiqiy merosi nafaqat bastakorlik, balki musiqashunoslik sohasidagi ishlari bilan ham boyligi bilan ajralib turadi. Uning "Musika haqida katta kitob" asari nafaqat o'z davri, balki keyingi bir necha asrlar davomida Sharq musiqashunosligining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan fundamental asar hisoblanadi.

Bu asarning mazmuni juda keng qamrovli bo'lib, unda quyidagi mavzular yoritilgan:

Musiqiy tovushlarning fizik va matematik asoslari

Tovushqatorlar va ularning tuzilishi

Maqom tizimlari va ularning tasnifi

Musika asboblari va ularning texnik xususiyatlari

Musiqiy asarning kompozitsion tuzilishi

Musiqiy badiiy obrazlarning yaratilishi

Musiqaning inson va jamiyatga ta'siri

Farobiyning bu asari nafaqat o'z davrida, balki keyingi asrlarda ham Sharq musiqashunosligining asosiy qo'llanmasi bo'lib xizmat qilgan. Xususan, Ibn Sino, Qutbiddin Shiroziy, Abdulgadir Marogiy kabi keyingi davr musiqashunoslari o'z asarlarida Farobiy nazariyalariga murojaat qilishgan.

Materiallar va metodlar. Farobiy musiqiy merosining yana bir muhim jihati shundaki, u musiqani tushunish va o'rganishning butun bir kompleks metodologiyasini ishlab chiqqan. Uning yondashuvida musiqani faqatgina san'at sifatida emas, balki quyidagi jihatlardan kompleks tarzda o'rganish muhim:

Falsafiy jihat - musiqa va uning inson tafakkuridagi o'rni

Matematik jihat - tovushlarning soniy nisbatlari

Psixologik jihat - musiqa va inson ruhiyati munosabatlari

Ijtimoiy jihat - musiqa va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlik

Pedagogik jihat - musiqa ta'limi metodlari

Farobiyning bu holistik yondashuvi uning merosini zamonaviy davr uchun ham dolzarb qilib qo'yadi. Bugungi kunda ham uning g'oyalari musiqiy ta'lim, musiqa terapiyasi, musiqa nazariyasi va boshqa sohalarida qo'llanilishi mumkin.

Farobiyning bastakorlik va nazariy merosining ahamiyati shundaki, u Sharq musiqasi an'analarini ilmiy asoslagan va tizimlashtirgan. Uning ishlari Sharq musiqiy madaniyatini tushunish va uni keyingi avlodlarga yetkazish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Xususan, uning maqomlar haqidagi nazariyalari hozirgi kungacha saqlanib qolgan an'anaviy Sharq musiqasini tushunishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

Farobiy merosining yana bir muhim jihati - u Sharq va G'arb musiqiy an'analari o'rtasida bog'lovchi halqa bo'lganligidadir. U qadimgi yunon musiqiy nazariyasini o'rgangan va uni Sharq musiqiy amaliyoti bilan uyg'unlashtirishga harakat qilgan. Bu jihatdan uning ishlari madaniyatlararo muloqotning noyob namunalaridan hisoblanadi.

Abu Nasr Farobiyning bastakorlik faoliyati va musiqiy nazariyotchi sifatidagi merosi nafaqat o'z davri, balki butun Sharq musiqiy madaniyati tarixi uchun ahamiyatli bo'lib qolmoqda. Uning asarlari va musiqiy qarashlari bugungi kunda ham musiqashunoslik fanining rivojlanishiga hissa qo'shishda davom etmoqda.

Farobiy bu kitobida musiqaning keng ta'rifini beradi, uning asosiy tushunchalarini hamda musiqa asarlari tarkib topadigan elementlarini ochib beradi. «Musika haqida katta kitob»ning

mazmuniga to'xtashdan oldin ayrim mutaxassislarining jahon musiqa san'ati taraqqiyotida Farobiy musiqa merosining roli haqida aytgan ba'zi fikrlarini keltirib o'tamiz. Farobiy yashagan davrda qadimgi yunon mualliflarining musiqa haqidagi ba'zi g'oyalari ma'lum edi. Farobiyga qadar musiqa nazariyasini o'rganish bilan Al Kindiy shug'ullangan. Fan tarixchisi K.Sarton «Al Kindiy ilk musulmon musiqashunosi bo'lgan», - deb ko'rsatadi. Farobiyning asari unga qadar yaratilgan asarlardan ustun bo'libgina qolmay, balki Sharq va G'arbda musiqa nazariyasi taraqqiyotini bir necha asrga belgilab berdi.

G'arb olimlari Abu Nasr Farobiyning musiqashunoslik sohasidagi merosini yuqori baholab, uning Yevropa musiqa ilmining rivojlanishiga qo'shgan hissasini alohida ta'kidlaydilar. Taniqli fan tarixchisi Jorj Sarton "Fan tarixi" asarida Farobiy haqida: "U musiqashunoslik sohasida ham o'z davrining Yevropa nazariyalaridan ancha oldinda edi" deb yozgan. Bu fikr G'arb olimlarining Farobiy merosiga nisbatan munosabatini aniq ifodalaydi.

Taklif. UNESCOning Farobiy tavalludining 1150 yilligini nishonlashi uning merosining global ahamiyatini ko'rsatadi. Xalqaro ta'lim tizimlariga Farobiy metodikasini joriy etish uchun xorijiy tillarda qo'llanmalar tayyorlash, xalqaro konferensiyalar tashkil etish kerak. Uning merosi Sharq va G'arb madaniyatlari o'rtasida dialog vositasi bo'lishi mumkin. Xalqaro hamkorlik Farobiy g'oyalarini kengroq miqyosida ommalashtirishga yordam beradi.

Farobiy merosini maktab va oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlariga kiritish orqali milliy ta'lim tizimimizni boyitish mumkin. Buning uchun maxsus metodik qo'llanmalar ishlab chiqish, o'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari tashkil etish zarur. Uning g'oyalari asosida ishlab chiqilgan o'quv dasturlari milliy ta'limimizning sifatini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Farobiy merosini o'rganish bo'yicha fundamental tadqiqotlar olib borish, dissertatsiyalar yozish, ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish - bu boradagi muhim vazifalardandir. Ilmiy tadqiqotlar Farobiy g'oyalarining zamonaviyligini va amaliy ahamiyatini aniqlashga yordam beradi. Har yili Farobiy merosiga bag'ishlangan ilmiy-amaliy konferensiyalar o'tkazish foydali bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, dunyo fani va madaniyati, uyg'onish davrining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri bo'lgan Farobiy qadimgi yunon fani va madaniyatining insoniyat sivilizatsiyasida tutgan o'rnini yuksak baholab, butun ilmiy faoliyati davomida nafaqat unga suvandi, cheksiz hayratlandi va ilhomlandi, balki kishilik tarixida o'chmas iz qoldirgan yunon olimlarining, ko'proq Arastuning asarlarini targ'ib qildi, ularning ko'plarini arab tiliga tarjima qildi. Antik dunyo olimlarining qoldirgan meroslarini to'la o'rganmasdan turib, fan va madaniyatni rivojlantirish mumkin emasligini yaxshi tushungan Abu Nasr Farobiy yunon mutafakkirlarining "qul"iga aylanib qolmadi, balki ko'p qirrali olim va ijodkorlarning davomchisi, o'z davri sharoitida mustaqil fikr yurituvchi alloma sifatida o'zini namoyon qildi.

Farobiy yaratgan tizim mazmunan universal xususiyatga ega bo'lib, o'z davri fanlarining barcha muhim masalalari:

- Falsafaning umumiy muammolari
- tabiatshunoslikning asosiy falsafiy masalalari
- borliqni bilish mantiqning bahsli muammolari
- inson va tabiat o'rtasidagi chambarchas bog'liqlik
- ekologik muammolarni ham o'z ichiga oladi. Farobiyning ijtimoiy-falsafiy fikrlari o'zining keng qamrovli, teran va mazmundorligi bilan gumanistik xususiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-5040-sonli qarori, 2021.26.03
2. Abu Nasr Farobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida:/– Toshkent: Yozuvchi nashriyoti, 2001.- 64b.

3. Rajabov, T. I., & qizi Safoeva, S. S. (2022). Musiqa madaniyati ta'limida musiqiy savodxonlik faoliyatining tutgan o'rni. ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 2(10), 423-431.
4. Zunnunov A., Tolipov O'. Milliy qadriyatlar asosida o'quvchi shaxsini shakllantirish. – T.: Sharq, 2006. – 94 b.
5. Раджабов, Т. И. (2019). Описание вековых ценностей в песне” тутовое дерево-балх” и его место в воспитании учащейся молодежи. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp. 70-71).
6. Ражабов, Т. И. (2020). Педагогические возможности использования детских фольклорных песен в духовно-нравственном воспитании младших школьников. Вестник науки и образования, (5-2 (83)), 34-37.
7. Rajabov, T. X. I., & Ibodov, O. R. (2021). O'zbek Xalq Musiqa Merosda O'quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi. Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali, 1(6), 139-145.
8. Ражабов, Т. И. (2021). Ўқувчи-ёшларга ўзбек миллий мусиқа фольклори намуналари воситасида эстетик тарбия бериш. Science and Education, 2(11), 1094-1103.
9. Ражабов, Т. И. (2023). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Узбекские Народные Песни. Miasto Przyszłości, 33, 167-176.
10. Quronov M. Maktab ma'naviyati va milliy tarbiya. – T.: Fan, 1995. – 118 b
11. Akramova Sh., Salomov N. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish omillari – Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2015. – 30 b.
12. Ал-Фараби. Математические о приосаждении наук.. С. Н. Григорьну. Из истории философии Сренной Азии и Ирана VII-XII вв. М.,1960.

*Zikirova Nodira Yo'ldoshevna,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Pedagogika va o'qitish metodikasi kafedrasida katta o'qituvchi*

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KASBIY MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy motivatsiyasini shakllantirish va rivojlantirish omillari, pedagoglarning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish yo'llari tadqiq qilingan. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy motivatsiyaning shakllanishidagi kasbiy kompetensiyalari rivojlanishi va metodik tayyorgarligi nazariy va umumiy jihatlari ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: motivatsiya, pedagog, zamonaviy o'qituvchi, kasbiy kompetensiya kasbiy-metodik, komponent, innovatsion faoliyat.

Annotation. The factors of formation and development of professional motivation of future elementary school teachers, ways of effective implementation of professional activities of pedagogues are studied in the article. The theoretical and general aspects of the development of professional competences and methodical training in the formation of professional motivation of future teachers are scientifically based.

Key words: motivation, pedagogue, modern teacher, professional competence, professional-methodical, component, innovative activity.

Аннотация. В статье рассматриваются факторы формирования и развития профессиональной мотивации будущих учителей начальной школы, пути эффективной реализации профессиональной деятельности педагогов. Научно обоснованы теоретические и общие аспекты развития профессиональных компетенций и методической подготовки в формировании профессиональной мотивации у будущих учителей.

Ключевые слова: мотивация, педагог, современный педагог, профессиональная компетентность, профессионально-методический компонент, инновационная деятельность.

Kirish. Hozirgi kunda respublikamizda ro'y berayotgan islohotlar bevosita innovatsion ta'lim tizimi bilan bog'liqdir. Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik kasbiga yo'naltirish, tarbiyalash hamda kasbiy moslashtirish asosiy va ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Shunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda pedagog xodimlar uchun ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish, o'quv mashg'ulotlarini sifatli o'tkazish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanish, ta'lim oluvchilarning psixologik va o'ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olish, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e'tibor qaratish, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borish, ta'lim tashkilotining ustaviga va (yoki) boshqa ta'sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etish, o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borish, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o'tishiga doir majburiyatlarning belgilanishi bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash, ularning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishga doir zamonaviy talablarni keltirib chiqaradi.[1]

Ko'rinadiki, bugungi davr fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi o'qituvchidan yuksak mahoratni, o'tkir irodani, pedagogik-psixologik quvvatni, chuqur puxta bilim va teran mulohazali bo'lishni talab qiladi. Hozirgi

zamon o'qituvchisi o'z mutaxassisligiga oid bilimlar bilan birga, pedagogik va psixologik hamda yoshlar fiziologiyasi va gigiyenasi, shu bilan birga turli fan yo'nalishlari bo'yicha maxsus bilimlarga ega bo'lgan, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarini egallagan, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 34-moddasida ham "Tegishli ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo'lgan va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega"ligi belgilangan [1].

Bugungi kunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy motivatsiyasini shakllantirish fan nuqtai nazaridan dolzarb muammo hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimining yuqori bosqichi hisoblangan oliy ta'lim tizimida bir qator tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Mustaqil fikrga ega va yuksak saviyali kadrlar tayyorlash masalasiga davlat siyosati darajasida ahamiyat qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son qarori aynan shu masalaga qaratilgandir [2]

Shunga ko'ra, respublikamizda ta'lim-tarbiya jarayoni tubdan o'zgardi, ya'ni:

innovatsion mazmun va yondashuvlar, yangicha munosabat, yuqori darajadagi pedagogik jarayon va innovatsiyalar tavsiya etilmoqda;

ta'lim-tarbiya mazmunini yangi takomillashgan bilim, ko'nikma va malakalar bilan boyitish, axborot va yangiliklar ustida amallar bajarish, fan, ta'lim-tarbiyaga doir muammolarni ijodiy hal etish, bilim, qobiliyatni rivojlantirish, ta'lim dasturlari asosida innovatsiyon texnologik jihozlar bilan yangilanmoqda;

ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchi muloqotida og'zaki va yozma an'anaviy metodlar o'rnini o'qitishning kompyuter vositalariga, ulkan internet, tarmog'idan foydalanishga imkon bermoqda;

tajribali o'qituvchining bo'lajak o'qituvchilar bilan aloqasi o'quvchi shaxsini yo'naltirishga qaratilmoqda;

inson shaxsining axloqiy-ma'naviy qiyofasiga, xulq-obobiga alohida e'tibor berilmoqda;

innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarni yaratish va joriy etishda predmetlarning ahamiyati kuchaytirilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Izlanishlarimiz natijasida tadqiqot muammosiga doir ilmiy manbalarni o'rganish, tahlil natijalarini umumlashtirish dissertatsiyamiz zaruriyatini kengroq ifodalashga xizmat qiladi, degan xulosaga kelindi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirishning ilmiy-pedagogik masalalari B.R.Samatova, N.Sh.Mannapova, Z.S.Teshaboyeva, E.T.Tursunnazarovalar, psixologik xususiyatlari esa B.S.Abdullayeva, I.M.Haydarovlar tomonidan o'rganilgan.

B.R.Samatova "Ingliz tilini o'qitishda nofilologik yo'nalish talabalarining motivatsiyasi (yurisprudensiya yo'nalishi talabalarini misolida)"ni shakllantirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlari natijasida talabalar motivatsiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi lingvodidaktik ta'minot, fasilitator va assessment kabi dominant omillari ilk bor aniqlangan, shu bilan birga motivatsiyani rivojlantirishning konsentrik yondashuvga asoslangan metodikasi ierarxik ravishda talabalarning qiziqishlari va ijtimoiy-kommunikativ, o'quv faoliyati hamda o'z-o'zini rivojlantirish motivlarini stimullash asosida takomillashtirilgan. Muallifning nuqtai nazariga ko'ra, motivatsiyaning psixologik mohiyatidan kelib chiqib, talaba faoliyati va o'qituvchi boshqaruvi algoritmlari bilan integratsiyalashgan holda rivojlantirish imkoniyati mavjud: [3]

N.Sh.Mannapova pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarida sog'lom turmush tarzini shakllantirish motivatsiyasini takomillashtirishga bag'ishlangan izlanishlari orqali oliy ta'lim muassasalarida talabalarida sog'lom turmush tarzi motivatsiyasi bo'lajak o'qituvchilarning valeologik kompetentligini, pedagogik, jismoniy va gigienik tarbiyalashga (pedagoglar, tibbiy

xodimlar, oila va axborot informatsion vositalarni) homohangligini ta'minlashning samaradorligi aniqlashtirilgan. Natijada, talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish samaradorligi, motivatsiyasi hamda bilim darajalari ortishi dalillangan. [4]

Z.S.Teshaboyeva "Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglar kasbiy motivatsiyasini shakllantirish texnologiyalari"ni tadqiq qilib, bo'lajak tarbiyachi-pedagoglar kasbiy motivatsiyasini shakllantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlarini talabalarda yuzaga keluvchi metodik bo'shliqlarni prognostik tahlil qilishga mo'ljallangan individual kasbiy rivojlanish dasturini "talaba-talabaga ustoz" yondashuvi orqali maqbullashtirish asosida aniqlashtirilgan. Muallifning ta'kidlashicha, malakaviy va pedagogik amaliyot jarayoniga talabalarning ijodiy metodik ishlanmalarini tayyorlashga mo'ljallangan musiqa terapiya, ertak terapiya kabi art pedagogika elementlarini integrativ tarzda kiritish orqali takomillashtirilgan kasbiy motivatsiyani shakllantirish texnologiyalaridan foydalanish samarali hisoblanadi. [5]

E.T.Tursunnazarova ingliz tilini o'rganish jarayonida nomutaxassis o'qituvchilarning motivatsiyasini shakllantirish yuzasidan olib borgan tadqiqotlarida ta'lim subyektlarida "motivatsiya", "qadriyatli-motivatsiya", "pragmatik motivatsiya" kategoriyalari assotsiativ (mantiqiy bog'liqlik) tushunchalari orqali mualliflik nuqtai nazaridan til o'rganishga bo'lgan qiziqishini yanada orttirishga qaratilgan didaktik, imitatsion, syujetli, muloqotga asoslangan texnologiyalar integratsiyasi asosida takomillashtirishga erishgan. [6]

B.S.Abdullayeva "Bo'lajak o'qituvchilar o'quv-ilmiy faoliyati motivatsiyasining psixofiziologik determinantlari"ga bag'ishlangan psixologiya sohasidagi tadqiqotlarida bo'lajak o'qituvchilardagi funksional holatning lateral profilini faoliyatga ta'sipi natijasida "muvaffaqiyatga intilish", "kasbni egallashga intilish", "ijtimoiy" motivlar va "progressivstenik" hissiy sifatlar orasidagi integrativ xususiyatlarni ijodiy innovatsion faollikda namoyon bo'lishi tufayli, o'quv-ilmiy faollikning "yangilikka ta'sirchanlik" sifati bilan bog'liq motivatsion jihatining rivojlanishi dalillangan, bo'lajak o'qituvchilarda temperamental xususiyatlarni namoyon bo'lishiga ko'ra, ijtimoiy faollik motivlarini sotsial tafakkur egiluvchanligi bilan uyg'un holda shaxslararo munosabatlarda ifodalanishi tufayli muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasining differensial xarakterga ega ekanligi asoslangan. [7]

I.M.Haydarov psixologiya bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida ichki ishlar organlari xodimlari kasbiy motivatsiyasining psixologik xususiyatlarini aniqlashga erishgan. [8]

A.D.Stupnikovaning nuqtai nazariga ko'ra, kasbiy motivatsiyaning asosiy tarkibiy qismlari va uning integral xususiyatlari bir butun sifatida hal qilinadi. Talabaniq – bo'lajak o'qituvchining universitetda o'qishning dastlabki bosqichida kasbiy motivatsiyasining boshlang'ich darajasini aniqlash uchun o'tkazilgan diagnostik tadqiqot shuni ko'rsatdiki, an'anaviy universitet ta'limi talabalarga katta hajmdagi nazariy ma'lumotlarni maxsus bilimlarsiz o'zlashtirishga qaratilgan, kasbiy yo'naltirilganlik, bo'lajak o'qituvchining yuqori darajadagi kasbiy motivatsiyasini shakllantirish uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratmaydi, uning subyektiv faoliyatining o'sishini ta'minlamaydi.[9]:

Bo'lajak o'qituvchilar kasbiy faoliyatining umumiy tarkibiy elementlarini aks ettirishga harakat qilgan, uning talqiniga ko'ra mazkur komponentlar quyidagilardan iborat: kasbiy faoliyatning motivlari va maqsadlari; kasbiy faoliyat N.N.Novikova bosqichlari va asosiy kasbiy harakatlar; kasbiy faoliyatning shartlari, vositalari va natijalari. U o'z tadqiqot ishlarida kasbiy motivatsiyani shakllantirishning zaruriyatini quyidagi ta'lim va kasbiy davrning yetakchi yangi ishlanmalari bilan izohlaydi: . [10].

- kasbiy motivatsiyani yangilash;
- kasbiy-pedagogik faoliyat tizimining elementlarini shakllantirish;
- o'quv va o'quv faoliyatini kasbiy hamda pedagogik faoliyatni shakllantirishga yo'naltirish;
- kasbiy o'ziga xoslik elementlarini egallash.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, pedagoglarning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishi ularning mazkur faoliyatga nisbatan intilish, xohish yoki istaklariga bog'liq bo'ladi. Bu o'rinda motivatsiya masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Motivatsiya keng ma'noda inson hayotining (uning xulq-atvori, faoliyatining) murakkab ko'p qirrali boshqaruvchisi sifatida qaraladi. Demak, motivatsiya – insonni faoliyatga undashning murakkab, ko'p darajali tizimi bo'lib, u o'zida ehtiyojlarni, motivlarni, qiziqishlarni, ideallarni, intilishlarni, ustanovkalarni, emotsiyalarni, normalarni, qadriyatlarni mujassamlashtiradi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini samarali tashkil qilish, o'qitish qobiliyati va mahorati, kasbiy va metodik kompetentligini kasbiy motivatsiya bilan uyg'unlikda shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilaringizni rag'batlantirish va ilhomlantirishning eng samarali usullaridan biri ularni maqtash va hurmat qilishdir. Maktab ma'muriyatining e'tirofini olish o'qituvchilarni o'z ishida malakali ekanliklariga ishonтиради va rahbariyat ularning hissalarini tan oladi. Ko'pchilik o'z-o'ziga qanchalik ishonchli bo'lishidan qat'i nazar, vaqti-vaqti bilan maqtov va tasdiqlashga muhtoj. Bu, ayniqsa, o'qituvchilar uchun juda muhim, chunki ular ko'pincha yakka holda ishlaydi, qiyin o'quvchilar va ota-onalar bilan muloqot qiladi va ba'zida o'z mahoratiga ishonmaydi. Garchi ba'zi odamlar yolg'izlikda maqtovni afzal ko'rishsa-da, boshqalar uchun jamoatchilik e'tirof etishi yanada chuqurroq ta'sir qiladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi shaxsining motivatsion sohasini shakllantirish muammosi pedagogika sohasida ayniqsa dolzarb bo'lib qolmoqda. Motivatsiya muvaffaqiyatli o'rganishning asosiy omillaridan biridir. Ammo bu omilning xususiyatlari va uning samaradorligi oliy ta'limning turli bosqichlarida farqlanadi, xususan, birinchi kursdan oxirgi kursgacha o'quv va kasbiy faoliyatning o'zi ham, motivatsiya ham o'zgarib boradi. Bunda ba'zi talabalarning o'quv faoliyati motivlarining yetarli emasligi ularning yaxshi rivojlanmasligiga sabab bo'lishi mumkin, mos ravishda universitetda ta'lim jarayonini takomillashtirish talabalarning o'quv faoliyatidagi motivatsiyaga yo'naltirilgan aloqaga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Bu butun o'quv jarayonini va uning har bir jihatini, ayniqsa motivatsion jarayonni qayta qurishni oldindan belgilab beradi. Ma'lumki, har qanday talabaning muvaffaqiyatli o'quv faoliyatining asosi – faoliyat turi bo'yicha yuqori darajadagi motivatsiyadir. Bu talabalarni mutaxassislik fanlarini o'zlashtirish yuzasidan o'quv jarayoniga jalb qilishga yordam beradi. Shunga ko'ra, talabalarning kasbiy kompetentligini ta'limning paradigmal transformatsiyasi kontekstida rivojlantirish jarayonini motivatsiya bilan bog'liq mazmuni o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- talabalarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalar va ularni kelgusida kasbiy-pedagogik faoliyatda qo'llash imkoniyatlari bilan tanishtirishga qaratilgan kirish mashg'ulotlari mazmuni;

- taqdimotlar, konstruksiyalarni modellashtirish, loyihalash texnikasi va texnologiyasi;

- kasbiy motivatsiyani rivojlantirishga qaratilgan master-klasslar hamda treninglarni tashkil qilish, ularni muhokama qilish. [11].

Mazkur faoliyat natijasida talabalarda nafaqat kasbiy faoliyatga bo'lgan qiziqishlari oshadi, balki o'zini o'zi baholash va nazorat qilish ko'nikmalari ham shakllanadi, bu esa kasbiy motivatsiyani yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Bundan ko'rinadiki, ta'lim olishda motivatsiyaning mavjudligi bilish faoliyatini faollashtirishga yordam beradi. Demak, motivatsiya inson xulq-atvori, uning kelib chiqishi, yo'nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik xususiyatga ega bo'lgan sabablar yig'indisi sifatida belgilash mumkin.

Bizningcha, motivatsiya – ehtiyoj yoki istak, stimullashtirilgan va yo'naltirilgan xulq-atvordir. Har qanday kasbni egallash, nafaqat egallash, balki uni mahorat bilan amalga oshirishda faoliyatning barcha qonuniyatlari va mexanizmlari amal qiladi. Muayyan kasb malakasini egallash uchun ham unga aloqador bo'lgan ma'lumotlarni eslab qolish va kerak bo'lganda yana esga tushirish orqali uni bajarish, shuningdek, ham ichki (psixik), ham tashqi

(predmetga yo'naltirilgan) harakatlarni ongli tarzda bajarish bilan bog'liq murakkab jarayonlar yotishini unutmashlik kerak.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirish o'qitish jarayonini samarali tashkil etish va ko'zlangan natijaga erishish uchun bilishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan tushunchalar, egallashi zarur bo'lgan kompetensiyalar va ularda shakllanishi zarur bo'lgan kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy sifatlar orqali ifodalanadi. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy motivatsiyaning shakllanishidagi asosiy omillardan biri – bu ularning kasbiy kompetensiyalari rivojlanishi va metodik tayyorgarligi takomillashishining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishdan iborat. O'qitish jarayonining rivojlangan darajasi “kasbiy faoliyat”, “kasbiy sifatlar”, “kasbiy kompetentlik”, “metodik tayyorgarlik”, “shaxsiy rivojlanish”, “kasbiy rivojlanish”, “uzluksiz kasbiy rivojlanish” tushunchalari orqali ifodalanadi. Mazkur tushunchalar kasbiy faoliyatni amalga oshirishga doir bilimlarning pedagogik amaliyotda foydalanish tamoyillariga asoslanganligi, umumiyliigi, ijtimoiy rivojlanish talablariga muvofiqligi bilan belgilanadi. Ko'plab tadqiqotlar natijalariga ko'ra, o'quvchilarning ta'lim natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan ta'lim muhitidagi muhim omillardan biri bu o'qituvchining kasbiy kompetentligi va mahorat darajasi hisoblanadi. [12].

Shunga muvofiq bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini ularning kompetentligi bilan bog'liq holda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga muvofiq, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirish va rivojlantirish uning dastlabki kasbiy tayyorgarligi jarayonida ham, oliy ta'lim muassasasida tahsil olish jarayonida ham, auditoriyada va mustaqil ta'lim jarayonida ham amalga oshiriladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirish unda nafaqat kasbiy bilimlarning kerakli darajasini, balki, psixologik tayyorgarlikni, o'zini o'zi va o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish, o'zini kerakli faoliyatga yo'naltirish, kasbiy, ma'naviy, jismoniy va shaxsiy imkoniyatlarini kerakli sharoitda qo'yilgan masalani hal etishga to'g'ri yo'naltira olish kabi kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Chunki, aynan shu jarayon kasbiy motivatsiyaning shakllanishidagi zaruriy fenomenlar sifatida baholanadi. Bu esa, nafaqat kasbiy motivatsiyaning kerakli darajasini, balki, psixologik tayyorgarlikni, o'zini o'zi va o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish, o'zini kasbiy faoliyatga yo'naltirish, kasbiy, ma'naviy, jismoniy va shaxsiy imkoniyatlarini kerakli sharoitda qo'yilgan masalani hal etishga yo'naltira olish qobiliyatini shakllantirishni ham nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan pedagogika yo'nalishidagi universitetda o'quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirish jarayonining mazmuniga zaruriy o'zgartirishlarni kiritishni talab etadi va bizningcha bu o'zgarishlar quyidagi aspektlar bo'yicha amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

nazariy – ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadi, tamoyillari, qonuniyatlari, ta'limotlari, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning shakl, metod va vositalari xususidagi bilimlar;

metodik – o'quv-tarbiya jarayonini loyihalashtirish, rejalashtirish va o'qitishning shakl, metod va didaktik vositalarini to'g'ri tanlash, o'quvchilarning bilish motivatsiyasini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan bilimlar;

texnologik – aniq ta'lim sharoitida pedagogik vazifalarni, vaziyatlarni yecha olish, rejalashtirilgan o'quv-tarbiya jarayonini samarali amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan bilimlar;

prognostik – ta'lim oluvchi shaxsi rivojlanishini oldindan loyihalashtira olish, yuksak ma'naviyatli, intellektual salohiyatli, mustaqil fikrli va ijodkor shaxsni tarbiyalashning ta'sir vositalarini oldindan bashoratlash bilan bog'liq bilimlar;

ijodiy-innovatsion – pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish, o'qitish va tarbiyalashning yangicha shakl, metod va vositalarini yaratish bilan bog'liq amaliy bilimlar.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirish jarayoni o'zaro bog'liq funksional elementlarni amaliyotda tatbiq etish, samaradorlikni ta'minlash, natijaga erishish bilan belgilanadi.

Xulosa va takliflar

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirish alohida yondashuvni talab qiladi. O'qitish jarayonining ishtirokchisi, ta'lim muhitining tashkil etuvchisi sifatida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirishda ijtimoiy talab va ehtiyojlar, shuningdek, pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olishni taqozo qiladi.

Ta'lim, kasbiy bilim va ko'nikmalar, umumiy va maxsus qobiliyatlar, ijtimoiy ahamiyatga ega muhim fazilatlar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirishning asosiy negizini tashkil etadi. Shaxsiy xususiyatlar insonning rivojlanish sur'ati va darajasiga ham inson sifatida, ham mutaxassis sifatida ta'sir qiladi. Bo'lajak o'qituvchining yetakchi shaxsiy xususiyatlariga uning munosabatlari, motivlari, aql-zakovati, hissiy-irodaviy doirasi kiradi. Ular bilvosita shaxsning rivojlanishiga ta'sir qiladi va asosan kasbiy rivojlanishni belgilaydi. Shaxsning kasbiy yutuqlari darajasi ham individual xususiyatlar, ham shaxsiy xususiyatlar bilan belgilanadi. Ilmiy manbalarning empirik tahlili bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy xususiyatlari quyidagilardan iborat ekanligini ko'rsatdi: akmeologik mavqe, yutuqlar uchun barqaror motivatsiya, moslashuvchan va moslashtirilmagan faoliyat, muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat tajribasi, yuqori ish qobiliyati, mas'uliyat, o'z yutuqlarini boshqa xodimlar uchun odatiy holga aylantirish istagi, iroda va dam olish qobiliyati, kasbiy maqsadga erishish uchun barqaror istak va o'zini o'zi takomillashtirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun 2020-yil 23.09
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son qarori
3. Samatova B.R. Ingliz tilini o'qitishda nofilologik yo'nalish talabalarining motivatsiyasi (yurisprudensiya yo'nalishi misolida). P.f.f.d.dis. – Toshkent, 2020. – B. 15. – 172 b
4. Mannapova N.Sh. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida sog'lom turmush tarzini shakllantirish motivatsiyasini takomillashtirish: diss– Toshkent, 2019.
5. Teshaboyeva Z.S. Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirish texnologiyalari: diss– Toshkent, 2020.
6. Tursunnazarova E.T. Ingliz tilini o'rganish jarayonida nomutaxassis o'qituvchilarning motivatsiyasini shakllantirish: diss– Toshkent, 2018.
7. Abdullayeva B.S. Bo'lajak o'qituvchilar o'quv-ilmiy faoliyati motivatsiyasining psixofiziologik determinantlari: diss– Toshkent, 2020.
8. Haydarov M. Ichki ishlar organlari xodimlari kasbiy motivatsiyasining psixologik xususiyatlari: diss
9. Stupnikova A.D. Talabaning – bo'lajak o'qituvchining universitetda o'qishning dastlabki bosqichida kasbiy motivatsiyasining boshlang'ich darajasini aniqlash: diss– Toshkent, 2002.
10. Novikova N.N. Texnologik ta'limning axborot muhitida texnologiya o'qituvchisining kasbiy faoliyatga tayyorgarligining motivatsion, kognitiv, faollik va kommunikativ komponentlari darajalarini aniqlash tizimi: diss

11. Urazbayeva Y.A. Ta'lim jarayonida o'quv motivatsiyasi shakllanishining o'ziga xosligi // O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. 2023, 15-son., 132-134-b.
12. Yo'ldoshevna, Z. N. The Role of Innovative Technologies in the Development of Methodical Training of Teachers in General Secondary Educational Institutions. European journal of innovation in nonformal education, . 2023. 3(4), 95–98. Retrieved from
13. Nasiba, Q., & Berdiyeva, S. (2023). SIGNIFICANCE AND CONTENT OF PEDAGOGICAL DIAGNOSTIC METHODS. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND COMPUTER SCIENCES (CAJECS), 2(2), 51-53.

Samadova Sarvinoz Samad qizi,
*Buxoro Davlat Universiteti "Ijtimoiy-siyosiy fanlar" kafedrasida dotsenti, pedagogika
fanlari falsafa doktori (PhD)*
e-mail: sarvinoz56646@gmail.com

TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATINING MAORIF VA MATBUOT SOHALARIDA AMALGA OSHIRGAN ISLOHOTLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Turkiston jadidchilik harakatining maorif va matbuot sohalarida olib borgan chuqur islohotlari va ular orqali xalqning ijtimoiy-ma'rifiy ongini yuksaltirishdagi o'rni haqida ma'lumot berilgan. Maqolada jadidchilik harakatining Turkiston mintaqasidagi ta'lim va matbuot orqali amalga oshirgan islohotlari keng tahlil qilingan va ularning xalq ongiga, ijtimoiy taraqqiyotga qanchalik ta'sir ko'rsatgani yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, maorif, matbuot, islohot, diniy va dunyoviy ta'lim, "usuli jadid", gazeta, jurnal.

Аннотация. В данной статье представлена информация о глубоких реформах джадидского движения в сферах просвещения и прессы в Туркестане, а также о его роли в повышении социально-просветительского сознания народа. Всесторонне проанализированы реформы, проведенные джадидским движением в области образования и печати в регионе Туркестана, и раскрыто их влияние на общественное сознание и социальное развитие.

Ключевые слова: джадидизм, просвещение, пресса, реформа, религиозное и светское образование, «усул-и жадид», газета, журнал.

Abstract. This article presents information on the profound reforms of the Jadid movement in the spheres of education and the press in Turkestan, as well as its role in raising the socio-enlightenment consciousness of the people. The reforms carried out by the Jadid movement in the fields of education and publishing in the Turkestan region are comprehensively analyzed, and their influence on public consciousness and social development is revealed.

Key words: Jadidism, education, press, reform, religious and secular education, "usul-i jadid," newspaper, journal.

Kirish. XIX asrning oxiri -XX asr boshlarida Turkistonda xalqimizning ijtimoiy, siyosiy va tarixiy tafakkuri, ilg'or qarashlarining yaqqol ifodasi sifatida jadidchilik harakati yuzaga kelib, faol va murakkab jarayonlarni boshdan kechirdilar. Chunki jadidchilik ma'rifatparvarlik harakatining yuqori bosqichi bo'lib, uning namoyondalari o'lkani qoloqlikdan olib chiqish, milliy mustaqillikka erishish yo'lida fidoyiliklarini namoyon etdilar [5.221].

Taraqqiyparvar jadidlar Turkiston o'lkasini tanazzuldan, mustamlakachilik sharoitidan olib chiqishni hamda taraqqiy toptirishning muvofiq yo'li –xalqqa, yosh avlodga zamonaviy ta'limni yetkazishdir, deb bildilar. Jadidchilik harakati deb nom olgan oqim vakillari mamlakat, xalqning mustaqilligi uchun, birinchi navbatda maorif va talim-tarbiyani tubdan o'zgartirish, yangi maktablar tuzish, ularni boshqarish masalalarini asosiy o'ringa ko'tardilar [2.105].

Tadqiqot obyekti va qo'llaniladigan metodlar. Tadqiqotning obyekti sifatida Turkiston jadidlarining maorif va matbuot sohalarida amalga oshirilgan islohotlari jarayoni olingan. Maqolada analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Turkiston jadidlarining matbuot va maorif sohasidagi islohotlari chet el olimlari tomonidan keng o'rganilgan. Edward Allworth jadidlarning ijtimoiy-siyosiy roli, ta'lim va madaniyatdagi o'rni haqida, Adeeb Khalid jadidlarning matbuotdagi faoliyati va yangi usul

maktablari ochish harakatlarini haqida, Deniz Kandiyoti jadidlarning ta'limdagi islohotlarining jamiyatdagi o'zgarishlarga ta'sirini, Stéphane A. Dudoignon jadidchilikning diniy va siyosiy jihatlari bilan birga, ta'lim va matbuotdagi islohotlari haqida, Timur Kocaoglu jadidlarning adabiy faoliyati, matbuotdagi islohotlari va yangi usul maktablarini va Yuri Bregel jadidchilikning tarixiy ildizlari va jadidchilik harakatining ijtimoiy oqibatlarini o'rganib tahlil qilganlar.

Muhokama va natijalar. Jadidchilik harakati o'z mohiyatiga ko'ra, xalqni yangi davrga olib kirish, uni ilm- fan, texnika va madaniyat asosida rivojlantirishga yo'naltirilgan edi. Bu harakat vakillari yosh avlodni tarbiyalash masalasini jamiyatning kelajagi bilan bevosita bog'liq deb bildilar. Ular, avvalo, maktab va madrasalarda mavjud bo'lgan eski, yodlashga asoslangan, hayotdan uzilgan ta'lim tizimini tanqid ostiga olishdi. Bu tizim xalqni ilmiy tafakkurdan uzqolashtirib, unga faqat diniy ta'lim bilan kifoyalanishni o'rgatar edi. Jadidlar esa yangicha yondashuv-“usuli jadid“ deb nomlangan yangi o'qitish usulini ilgari surdi. Bu usul quyidagi jihatlari bilan ajralib turar edi:

Tarbiyaning milliy va zamonaviy uyg'unligi. Jadidlar yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bilan birga, ularni dunyoqarashi keng, zamonaviy fikrlovchi shaxslar etib shakllantirishga intildilar. Jadidlar yoshlar rus tuzumi ta'sirida qolib ketmasliklari uchun qo'llaridan kelgan barcha harakatlarni qilishgan. O'g'il va qiz bolalar alohida- alohida o'qitilgan va qizlarga ayollar, o'g'illarga erkaklar dars bergan. Jadidlar yoshlarni halollik, mehnatsevarlik, odob-axloq va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga katta ahamiyat bergan. Ularning adabiy asarlarida bu g'oyalar keng targ'ib etilgan.

Ilm-fanga asoslangan ta'lim. Ular darsliklarda matematika, tabiatshunoslik, geografiya, tarix, fiziologiya kabi fanlarni kiritdilar. Bu o'zgarish o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirdi.

O'quvchilarning ongli ishtiroki. Eski maktablarda yodlash asosiy tamoyil bo'lsa, yangi usulda o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, savol-javoblar orqali o'z fikrini ifoda eta olishiga urg'u berildi.

Bosma nashrlar orqali targ'ibot. Gazeta va jurnallar, risola va darsliklar orqali xalqni, xususan yoshlarga ta'lim va tarbiya masallaridagi ilg'or g'oyalar tushuntirildi.

Jadid maktabida diniy va dunyoviy ta'lim-tarbiya hamda ilm o'zaro uyg'unlashtirildi. Bolalarqulay partalarda o'tirib, xarita va rasmlar yordamida tez savod chiqardi va diniy – dunyoviy ilmlarni o'rgandi. Jadid maktablarida qur'oni- karim, matematika, geografiya, ona tili, rus, arab tillari, ashula va hatto jismoniy tarbiya o'qitila boshlandi.

Jadid maktablari to'rt (boshlang'ich) va yetti yillik edi. Masalan Munavvarqori Abdurashidxonovning yetti yillik maktabini bitirgan yoshlar dunyoviy ilmlarni, rus tilini yaxshi o'zlashtirgan holda jadid maktabida o'qituvchi, maschitlarda imom bo'lish, madrasa va hatto, xorijdagi dunyoviy oliy o'quv yurtlarida o'qish, savdo va boshqa korxonalarda kotib bo'lib ishlash malakasiga ega bo'lganlar. Bunday yetti yillik maktablar Toshkentdan tashqari, Qo'qon, Samarqand kabi yirik shaharlarda ham ochiladi.

Maktablar asosan 1 – 4 sinfdan iborat boshlang'ich maktablar bo'lgan. 1913/14 o'quv yilidan ayrim joylarda 2 bosqichli tizim joriy qilina boshlandi. Bu tizimdagi maktablar namuna maktablari deb atalib, ularning 1 – bosqichi tahziri (boshlang'ich) sinflar, 2 – bosqichi rushdiy (yuqori) sinflar deyilgan. Xususan, M. Abdurashidxonovning namuna maktabi, A. Shukuriyning Samarqanddagi va A. Ibodievning Qo'qondagi maktabida rushdiy (yuqori) sinflar (5 – 6 sinf) ham ish boshlagan[7.309].

Jadid maktablarining ochilishiga rus amaldorlari, musulmon mutaassiblari qarshilik qiladilar. Jadidlar kalta matonat va fidoyilik bilan eski maktablarga tegmay namuna sifatida jadid maktablarini tashkil etib, omma orasida katta obro' qozondilar. Jadid maktablari qat'iy nizom va dastur va darsliklarga asoslandi. Tarixda birinchibo'lib, jadidlar o'quvchilarga kundalik, chorak va yillik baholar qo'yishni joriy etdilar.

Maktab ochgan jadidlar dastur, qo'llanma va darsliklarni ham o'zlari yaratdilar.

Jadidchilikning asosiy maqsadlaridan biri mamlakatda zamonaviy (evropacha) oliy ta'limni yo'lga qo'yish bo'ldi. Universitet tashkil etish g'oyasi Turkistonda ilk bor 1892 yilda Ismoilbek Gaspirali tomonidan olg'a surildi. I. Gaspirali 1906 yilda, yana "Tarjimon" gazetasida to'g'ridan-to'g'ri Buxoro amiri va Xiva xoniga murojaat qilib shunday deydi:

"Fuqoroyi islom sizlardan mol istamas, osh istamas. Din-"Qur'on"dan, jon- Xudodan. Siz davlatlik xonlardan aholiga ehson etiladigan narsa-nashri maorifga, taraqqiyot va kamolatga omil bo'luvchi oliy darajalik maorif maktablaridir. Ko'hna madrasalari ko'p Buxoroi sharifda va Xivada endi biror dorilfununi islomiya ta'sis etmoq lozim. Bu dorilfununlarga bir daraja ilm olgan talaba qabul qilinib, tarix, jo'g'rofiya, kimyo, handasa, ilmi huquq, usuli idorayi davlat, ilmi iqtisod va boshqa lozim fanlar, turkiy, forsiy, rusiy va fransaviy tillar o'rgatilsa... Ushbu dorilfununlarda muallim va mudarrislik qila oladigan ahli kamol bor [6.289]".

Dunyoviy hozirgi zamon oliy o'quv yurti – universitetga asos solishga jadidlar faqat 1918 yilda Musulmon xalq dorilfununini tashkil etish bilan muvaffaq bo'ldilar.

Umuman, jadidlar juda qisqa vaqt ichida butunlay yangi jadid xalq maorifi tizimi ya'ni, hozirgi zamon xalq maorifi tizimiga asos soldilar.

Jadidchilik harakatining ikkinchi bir muhim faoliyati milliy matbuot va jurnalistikasiga asos solish bo'ldi.

Turkistonda o'zbek tilidagi birinchi mustaqil nashr "Turkiston viloyatining gazetasi" nashr etilgandan taxminan qirq yil o'tib, 1905-1907 yillardagi Birinchi rus inqilobi davom etgan davrda paydo bo'ldi. Avval Toshkentda, so'ngra Samarqand, Qo'qon va Buxoroda ijtimoiy, siyosiy va adabiy mavzularni yorituvchi o'zbek nashrlari birin-ketin nashr etildi. Umuman olganda, ularning asoschilari, muharrirlari, yetakchi yozuvchilari Turkistonda vujudga kelgan va shakllangan jadidchilik harakatining asoschilari edi. Ular Turkistonni taraqqiy etgan, gullab-yashnagan holda ko'rishni istardilar. Ular bosmaxonaga, tabiiyki, kitoblar va davriy nashrlarga ana shu istakni amalga oshirish uchun kuchli vosita sifatida qarashgan. O'zbek matbuotining shakllanishida o'zbek jadidchilarining yetakchi namoyandalari I.Obidiy, M.Behbudiy, Munavvar qori, A.Avloniylarning xizmatlari katta bo'lgan [3.45].

Toshkentda Ismoil Obidiy "Taraqqiy" (1906), Munavvarqori Abdurashidxonov "Xurshid" (1906), Abdulla Avloniy "Shuhrat" (1907), Saidkarim Saidazimboev "Tujjor" (1907), Ahmadjon Bektemirov "Osiyo" (1908), Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev "Sadoi Turkiston" (1914-1915) gazetalari, shuningdek, Abdurahmon Sodiq o'g'li (Sayyox) "Al-Isloh" (1915) jurnalini nashr etishga muvaffaq bo'ldilar. Samarqandda esa Muhmudxo'ja Behbudiy "Samarqand" ruscha (1913) gazetasi va "Oyna" (1913-1915) jurnalini, Qo'qonda Obidjon Mahmudov "Sadoi Farg'ona" (1914) gazetalari chiqardi [1.97].

Juda qisqa vaqt oraliqda fevraldan oktabrgacha Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov "Najot", A.Battol "Sho'ro i islom", Abdulla Avloniy "Turon", Ahmad Zaki Validiy va Munavvarqori Abdurashidxonov "Kengash", "Ulug' Turkiston", Qo'qonda Bo'lat Soliev "El bayrog'i" gazetalari, Hamza Hakimzoda Niyoziy "Kengash", Ashurali Zohiriy "Yurt" jurnallarini, Samarqandda esa Shohmuhammadzoda "Hurriyat" gazetalari chop etdilar.

Buyuk millatparvar jadidlar, jadid matbuoti orqali millatni o'z madaniy- iqtisodiy ahvoli, siyosiy qaram va huquqsizligini anglatishga, unda bosqinchilarga qarshi nafrat, milliy istiqloлга ishonch ruhini tarbiyalashga muvaffaq bo'ldilar. Shuning bilan birga ular milliy muxtoriyat va jumhuriyat g'oyasini, millatlararo tenglik va qon-qarindoshlikni targ'ibot qilishni to'g'ri yo'lga qo'yadilar.

Jadidlar o'zlari tashkil etgan matbuotda o'z g'oya-fikrlarini e'lon qilib, xalq orasida keng ma'rifatchilik ishlarini olib borib xalqni "har vaqt g'aflat uyqusidan o'yg'otuvchi", "millat ongining ochqichi" ekanligini namoyon etib o'lka aholisini hur fikralshga va katta siyosiy kurashga hozirlay oldi. Bu davrda "Erk", "Turon",

“Maorif havaskorlari”, “Taraqqiyparvarlar”, “O‘qituvchilar jamiyati” kabi uyushmalar paydo bo‘ldi. Munavvarqori aytganidek, “Ularning butun umidi Rossiyadagi inqilob jarayonida mahalliy aholini milliy, diniy cheklash va jabrlashdan ozod qilish, ularning haq-huquqlarini yevropaliklar bilan tenglashtirish, xilma-xil maktab va matbuot ishlari hamda turli-tuman jamiyatlar tashkil etishga keng imkoniyat yaratib berishga qaratilgan edi”.

O‘zbek jadidchilik harakatining mazmun-mohiyati milliy ongini shakllantirish, Vatanni anglash, uning manfaati uchun kurashish, jamoatchilik ongini yuksaltirishdan iborat edi. Jadidlar xalq o‘zligini saqlab qolgan holda yashashi va taraqqiyoti uchun erkin va mustaqil bo‘lishi zarurligini tushundi. Shuning uchun ular o‘z xalqining uyg‘onishiga alohida ahamiyat berib, huquq, milliy davlat, suverenitet kabi siyosiy masalalar bilan muntazam shug‘ullanganlar. Ularning o‘z maqsadlariga erishish yo‘lidagi urinishlari ta’lim tizimini, jumladan, maktab va madrasalarni isloh qilishdan boshlandi. Ular milliy matbuotning barpo etilishi, teatrlarning ochilishi bilan davom etib, siyosiy xususiyat kasb etdi. Bu esa xalq hayotida uzoq davom etgan turg‘unlikdan so‘ng yangi davr boshlanganidan dalolat beradi [4.4].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy, madaniy ijtimoiy uyg‘onishda va ravnaqida asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy yo‘l bilan yechish yo‘llarini jadidlar o‘z maqola va asarlarida ko‘rsatganlar. Yoshlarni o‘qishga, bilim olish va ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish, madaniy ma’naviy saviyasini yuksaltirishga chorlaydi. Jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish istagida ulardan Vatan uchun xizmat qiladigan yetuk olimlar, sanoat va qishloq xo‘jaligi sohalarining zamonaviy bilimdon, mutaxassisleri, madaniyat arboblari yetishib chiqib, ular yurtini obod, farovon etishlariga ishonganlar. Yoshlar manfaatini himoya qilish, ularning jamiyat va davlatda munosib o‘rin egallashlari uchun tegishli imkoniyatlarni yaratish borasidagi jadidlarning fikrlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Gülcennet Öztürk. Türkistan`da Ceditçilik ve Basın Faaliyetleri. İletişim Çalışmaları Dergisi 1.İstanbul. 2016.
2. Mustafayeva N. Turkiston jadidlari qarashlarida ta’lim-tarbiya masalalari. O‘zbekiston tarixining dolzarb masalalariga yangi chizgilar. Davriy to‘plam, No2, Toshkent, ”Sharq”, 1999 y.
3. Nishonova G.U. O‘zbek publitsistikasining shakllanishi hamda rivojlanishida “Oyna” jurnalining o‘rni va ahamiyati. T.: Sharq. 2008 y.
4. Qosimov B. “Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik”. T.: “Ma’naviyat”, 2002 y.
5. Xayrullayev M. O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. Toshkent, ”O‘zbekiston”, 1995 y.
6. Vatan tarixi (xvi-xx asr boshlari). ikkinchi kitob. T.: “Sharq”, 2010 y.
7. Shamsiddinov R. Mo‘minov X. O‘zbekiston tarixi. “Andijon”. 2011 y.
8. Samadova S.S. “The significance of the Jadids’ scientific heritage in developing the spirituality of youth in New Uzbekistan” // Intelektualitas: Jurnal Penelitian Lintas Keilmuan. Indonesia. Volum 1. Number 4. 2025.
9. Samadova S.S. “The issue of education and upbringing in the spiritual heritage of the Jadids of Turkestan” // Cognizance Journal of Multidisciplinary Studies. Volume 5. Issue 1. 2025.
10. Samadova. S.S. Jadidlarning ma’rifiy qarashlari va ta’lim tizimiga qo‘shgan hissasi. // Pedagogik mahorat. 2-son. 2025y. fevral.

11. Samadova S.S. The role of Jadid theater in the development of youth spirituality.// Journal of Multidisciplinary Academic Business Studies(JoMABS). Indonesia. Volume 2, Number 3, 2025.

Murodova Maqsuda Maxsudovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim kafedasi o'qituvchisi
murodova maqsuda@buxpi.uz

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA NUTQ KO'NIKMALARINI RIVOJLANTRISH

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik va psixologik jihatlarini tahlil qilinadi. Matnni tushunish, og'zaki ifoda, erkin fikrlash va muloqot madaniyatini shakllantirish jarayonida samarali pedagogik usullar, interfaol metodlar va raqamli ta'lim vositalarining ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda o'quv topshiriqlarining lingvodidaktik xususiyatlari, sun'iy intellekt va elektron resurslardan foydalanishning ta'lim jarayonidagi samaradorligi muhokama qilinadi. Maqola natijalari o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini oshirish, talaffuz, grammatik tuzilma va lug'at boyligini rivojlantirish hamda ularning mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlarning ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, nutq ko'nikmalari, og'zaki ifoda, matnni tushunish, lingvodidaktika, interfaol metodlar, sun'iy intellekt, pedagogik yondashuv, kommunikativ kompetensiya, ijodiy fikrlash

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические и психологические аспекты развития речевых навыков у учеников начальной школы. Освещается значение эффективных педагогических методов, интерактивных подходов и цифровых образовательных инструментов в процессе понимания текста, устной речи, критического мышления и формирования коммуникативной культуры. Также рассматриваются лингводидактические особенности учебных заданий, использование искусственного интеллекта и электронных ресурсов для повышения эффективности развития речевых навыков. Результаты демонстрируют важность педагогических подходов, направленных на улучшение коммуникативной компетенции, произношения, грамматической структуры, словарного запаса, самостоятельного мышления и творческой активности учеников.

Ключевые слова: начальное образование, речевые навыки, устная речь, понимание текста, лингводидактика, интерактивные методы, искусственный интеллект, педагогический подход, коммуникативная компетенция, творческое мышление

Abstract. This article analyzes the pedagogical and psychological aspects of developing speech skills in primary school students. It highlights the importance of effective pedagogical methods, interactive approaches, and digital educational tools in the process of understanding texts, oral expression, critical thinking, and forming communication culture. The article also discusses the linguodidactic features of educational tasks, the use of artificial intelligence, and electronic resources in enhancing the effectiveness of speech skill development. The results demonstrate the significance of pedagogical approaches aimed at improving students' communicative competence, pronunciation, grammatical structure, vocabulary, independent thinking, and creative activity.

Key words: primary education, speech skills, oral expression, text comprehension, linguodidactics, interactive methods, artificial intelligence, pedagogical approach, communicative competence, creative thinking.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli axborot makoni sharoitida ta'lim jarayonining eng muhim yo'nalishlaridan biri - o'quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish va

rivojlantirish masalasidir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning nutqiy, tafakkuriy va kommunikativ faoliyatini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki bu davrda bolaning og'zaki va yozma nutq ko'nikmalari, muloqotga kirishish malakalari hamda mustaqil fikr bildirish qobiliyati shakllanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni nafaqat ona tili ta'limining, balki butun ta'lim tizimining poydevorini tashkil etadi. Chunki nutqi rivojlangan o'quvchi o'z fikrini aniq, mantiqan izchil va grammatik jihatdan to'g'ri ifoda eta oladi, bu esa uning tafakkurini, dunyoqarashini va ijtimoiy faolligini oshiradi. Shu sababli nutq ko'nikmalarini shakllantirish zamonaviy pedagogika fanining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

So'nggi yillarda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, davlat ta'lim standartlari va yangi o'quv dasturlarida o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda o'quvchilar nutqini rivojlantirishda interfaol metodlar, kreativ topshiriqlar, suhbat va hikoya asosida o'qitish, rolli o'yinlar, audiovizual vositalardan foydalanish samarali natijalar bermoqda.

Shuningdek, o'quvchilarning nutqiy rivojlanishini ta'minlash ularning so'z boyligini kengaytirish, grammatik bilimlarini mustahkamlash, talaffuz va intonatsiya ustida ishlash, nutqni mantiqan to'g'ri tashkil etish kabi ko'nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirishni talab etadi. Bu esa o'qituvchidan metodik mahorat, psixologik yondashuv va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishni talab etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq ko'nikmalarini rivojlantirish o'quvchilarning og'zaki va yozma ifoda malakalarini takomillashtirish, ularni mustaqil fikrlash va erkin muloqotga tayyorlash jarayonidir. Mazkur jarayonning ilmiy asoslarini o'rganish, samarali metodlarini aniqlash va ta'lim amaliyotiga tatbiq etish bugungi kunda o'ta dolzarb ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. So'nngi yillarda ona tili o'qitish metodikasiga doir bir qator ilmiy-metodik ishlar, tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, SH.Yusupova[5] va N.Yuldashyeva [7] kabilar o'z tadqiqotlarida ona tilinni yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishni targ'ib qilishdi. A.G'ulomov, M.Saidov, N.Alavuddinovalar esa ona tilini o'qitish orqali mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi ustida izlanishlar olib borishdi. H.Ne'matov, N.Mahmudov, A.Sobirov, I.K.Mirzayev kabi tadqiqotchilar ona tili o'qitish metodikasi darsliklarini yaratishdi. B.Mengliyev ona tili ta'limi maqsadi va mazmunini ishlab chiqqan professor H.Ne'matov g'oyalariga tayanib, ona tili o'qitishda yangi – ortiqcha grammatizmdan vooz keechib, o'quvchilarda nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish, lug'at ma matn asosida milliy tilni, milliy madaniyatni, o'quvchi tafakkuriga singdirish, o'quvchini turli nutq vaziyatlariga tayyorlash, ijodiy tafakkur sohiblarini tarbiyalash yo'nalishida tizimli tadqiqotlar olib borishdi.

Tadqiqotchi A.Bobomurodova ona tilida o'yin topshiriqlardan foydalanish, metodist T. Ziyadov ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning so'z boyligini oshirish imkoniyatlari, M.Saidov o'zbek maktablarining 5-sinflarida tafakkurni rivojlantiruvchi mashqlar va ulardan foydalanish metodikasini tahlil etishgan. Metodist K.Mavlonova[4] "Ona tili fanini adabiyot fani bilan integratsiyalab o'qitish metodikasini takomillashtirish" mavzusida ilmiy izlanishlar olib borishdi. Ustoz A.Hamroyev[3] ona tili ta'limida ta'lim oluvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish muammosini o'rganganlar.

Nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan o'quv topshiriqlarining lingvodidaktik farqi, qo'llanilish o'rinlari, ona tilini o'qitishda nutqiy ko'nikma va malakalarni nega kutilganidek rivojlanmaganligining sabablari aniqlash masalalariga to'xtalgan. Biroq hali ham o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi o'z yechimini topgan emas. Shu nuqtai nazardan maqola ilmiy ahamiyatga ega bo'lib unda nutqit ko'nikmalarni rivojlantirish masalasi keng muhokama qilingan. Ayniqsa, nutq ko'nikmalarini

rivojlantirishda sun'iy intellektdan foydalanish raqamli ta'lim muhitida muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokama. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi zamonaviy til ta'limi metodikasining eng dolzarb yo'nalishlaridan biridir. So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda nutqiy kompetensiyani shakllantirishda o'quv topshiriqlari, ularning lingvodidaktik xususiyatlari hamda qo'llanilish o'rinlariga e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, o'quv topshiriqlarining turlari va ularni tanlash mezonlari o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga moslashtirilganda samaradorlik sezilarli darajada oshishi kuzatilgan. Shu bilan birga, o'quv topshiriqlarining lingvodidaktik farqlari, ya'ni mazmun, shakl va kommunikativ yo'nalish nuqtayi nazaridan turlanishi, ularning nutq ko'nikmalarini shakllantirishdagi rolini chuqur tahlil etish zarur.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ona tili ta'limida o'quvchilarda nutqiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish kutilgan darajada samarali kechmayotganining bir necha sabablari mavjud. Birinchidan, ayrim hollarda ta'lim jarayonida kommunikativ yondashuvning yetarli darajada qo'llanilmasligi o'quvchilarning faol muloqotga kirishish imkoniyatlarini cheklaydi. Ikkinchidan, dars jarayonida o'quvchilarning individual nutqiy faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimi yetarlicha tizimlashtirilmagan. Uchinchidan, o'qituvchilarning lingvodidaktik kompetensiyasi va raqamli vositalardan foydalanish malakalari yetarli darajada shakllanmaganligi ham bu jarayon samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, amaldagi o'quv dasturlari va darsliklarda o'quvchilarning nutqiy ijodkorligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlar kam o'rin olgan. Aksariyat hollarda o'quvchilar tayyor matn asosida ishlashga o'rgatiladi, mustaqil fikrlash, matn yaratish, og'zaki va yozma nutq orqali o'z fikrini erkin bayon etish imkoniyatlari cheklanib qoladi. Shu bois, nutq ko'nikmalarini shakllantirishda zamonaviy interfaol metodlar, kreativ topshiriqlar, muammoli savollar va ijodiy mashqlarni keng qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Bugungi raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, sun'iy intellekt asosidagi interfaol dasturlar, nutqni aniqlovchi ilovalar, ovozli tahlil tizimlari va virtual muloqot platformalari o'quvchilarda talaffuz, grammatik tuzilma, mantiqiy izchillik va lug'at boyligini oshirishda samarali vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Bu esa o'qituvchining ishini yengillashtiradi, o'quvchilar uchun esa o'quv jarayonini qiziqarli, interfaol va shaxsga yo'naltirilgan shaklda tashkil etish imkonini beradi.

Shunday qilib, nutq ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni o'quv topshiriqlarining lingvodidaktik asoslarini to'g'ri tanlash, zamonaviy axborot texnologiyalaridan, xususan, sun'iy intellekt vositalaridan oqilona foydalanish bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar, tajribalar va metodik izlanishlar boshlang'ich ta'limda nutq rivojlantirish samaradorligini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Natija. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida lingvodidaktik yondashuvning to'g'ri tanlanishi, ta'lim mazmunining kommunikatsiyaga yo'naltirilganligi hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, nutqni rivojlantirishda faqat grammatik yoki fonetik mashqlar bilan cheklanish yetarli samara bermaydi, balki o'quvchilarning erkin fikrlashi, ijodiy yondoshishi va muloqotda faol ishtirok etishini ta'minlaydigan o'quv topshiriqlari tizimini yaratish zarur. Shuningdek, sun'iy intellekt vositalari va raqamli ta'lim muhiti nutq ko'nikmalarini individual rivojlantirishda yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Demak, boshlang'ich ta'limda nutq ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar va raqamli vositalarni uyg'un qo'llashga bog'liqdir.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni o'quvchilarning tafakkuri, nutqi va muloqot madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga

ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nutq ko'nikmalarini samarali rivojlantirish uchun lingvodidaktik yondashuvlarni to'g'ri tanlash, interfaol va ijodiy metodlardan foydalanish, shuningdek, raqamli ta'lim vositalarini integratsiyalash zarur. Nutqiy ko'nikmalar nafaqat grammatika va talaffuzni o'rganish bilan chegaralanmaydi, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlash, o'z fikrini aniq ifoda etish va kommunikativ faoliyatga tayyor bo'lishini ta'minlaydi. Shu bois, nutqni rivojlantirish pedagogik jarayonning markaziy yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Matnni o'qish, hikoya tuzish, rolli o'yinlar va ijodiy mashqlar orqali o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rag'batlantirish, nutqni aniqlovchi ilovalar, interfaol dasturlar va virtual platformalar yordamida talaffuz, grammatik tuzilma va lug'at boyligini mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarga o'z fikrlarini mustaqil ifoda etish, matn asosida savol-javoblar va muammoli vazifalar orqali nutq ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini yaratish, dialogik o'qish, suhbat, film va elektron kitoblar orqali matnni chuqur tushunish va ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, har bir o'quvchining nutq rivojlanish darajasini hisobga olib, shaxsga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni tashkil etish nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu tarzda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq ko'nikmalarini rivojlantirish pedagogik va psixologik jihatdan tizimli yondashuvni talab qiladi, bu esa ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. // [www. Ziyonet.uz](http://www.ziynet.uz)
2. Lex.uz "O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi"
3. Hamroyev A.R. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish. Pedagogika fanlari doktori(DSc)ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. -Toshkent, 2020.- 242 bet
4. Mavlonova K. Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o'qitish metodikasini takomillashtirish. P.f.f.d (PhD) ilmiy darajasini uchun yozilgan diss avtorefarati. -T.: 2019. - 22 b.
